

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

AZATGUL TASHMATOVA

IJROCHILIK SAN‘ATI TARIXI

Musiqqa oliy ta‘lim muassasalari uchun

darслиk

«Musiqqa» nashriyoti

Toshkent – 2017

85.3g

T 29

Tashmatova, Azatgul

Ijrochilik san'ati tarixi: Musiqa oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/ A.Tashmatova; O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi – Toshkent: «Musiqa», 2017. 304 b.

KBK 85.3g
UO'K 78(091)

Mazkur darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasi Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 11. 04.07.2017)

Mas'ul muharrir:

A.LUTFULLAYEV – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

Taqrizchilar:

A.MANSUROV – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

O'.TOSHMATOV – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori

Mazkur “Ijrochilik san'ati tarixi” darsligi 5150700 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan va oliy o'quv yurtlarining Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda o'quv fani dasturi asosida yaratilgan. Unda qadim zamonlardan bugungi kungacha bo'lgan ijrochilik san'ati tarixiga oid mavzular yoritilgan.

Ushbu darslik Fan va texnologiyalar agentligi A-I-068 “XX-XXI asr O'zbekiston musiqa madaniyati kontekstida xalq cholg'ulari orkestri” loyihasi doirasida tayyorlangan.

Настоящий учебник «История исполнительского искусства» предназначен для студентов, обучающихся по направлению бакалавриата 5150700 – «Инструментальное исполнительство» (народные инструменты) и разработан в соответствии с Государственными образовательными стандартами для высших учебных заведений, учебным планом и программой курса. В нём рассмотрены темы по истории исполнительского искусства от истоков до настоящего времени.

Данный учебник выполнен в рамках гранта А-І-068 «Оркестры народных инструментов в контексте музыкальной культуры Узбекистана XX-XXI веков» Агентства науки и технологий.

This textbook “History of Performing Art” is intended for bachelor degree students of the direction 5150700 – instrumental performance (folk instruments) and made in accordance with State Education Standard for Higher education, curriculum course and education plan. It consists of topics on history performing art from origin till present time.

This textbook has been prepared in terms of grant A-I-068 “Orchestra of folk instruments in context of musical culture of Uzbekistan of XX-XXI centuries” agency of science and technology.

ISBN 978-9943-5153-2-1

© «Musiqa» nashriyoti, 2017.
© A.Tashmatova, 2017.

MUALLIFDAN

Aziz talabalar! Mutaxassislarga yaxshi ma'lumki, "Ijrochilik san'ati tarixi" bo'yicha shu davrga qadar ustozlarimiz va mutaxassis - kasbdoshlarimiz tomonidan ko'plab o'quv va metodik qo'llanmalar yaratilgan va chop etilgan. Aynan oliy ta'lim muassasalari uchun ijrochilik san'ati tarixini o'rgatadigan darsliklar shu paytgacha umuman yaratilmagan edi. Davr taqozosi va talabiga asosan ijrochilik san'ati tarixi bilan bog'liq, o'quv dasturi mavzulariga binoan tizimga solingan o'quv adabiyotiga ehtiyoj paydo bo'ldi.

5150700 - Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standartida belgilangan talablarga mos ravishda, o'quv rejasiga kiritilgan "Ijrochilik san'ati tarixi" o'quv fani uchun ko'rsatilgan soatlar hajmiga yarasha, o'quv dasturi mavzulari, qolaversa, fanning uslubiyoti va didaktik talablari asosida yaratilgan ilk darslik mazmunida cholg'ularning modernizatsiyalashtirish jarayoni, ularning ijrochilik imkoniyatlari, ushbu cholg'ular asosida tashkil etilgan turli orkestrlarning ijodiy faoliyati, O'zbekiston kompozitorlarining xalq cholg'ulari orkestrlari uchun yaratgan asarlarining tahlili, xalq cholg'ulari hamda orkestrlarning jahon miqyosidagi xalqaro ko'rik-tanlov va festivallardagi ishtiroki jarayonida erishilgan samarali natijalar, turli jamoalar bilan ijodiy hamkorlik rishtalari, shuningdek, yillar mobaynida to'plangan qimmatli tajribalar ushbu darslikda o'z ifodasini topdi. Fan asoslarini mukammal o'zlashtirish bilan birga, unga tegishli bo'lgan bilimlarni sizlar mustaqil o'zlashtirib olishingizga, ko'nikma va malakalaringizni shakllantirishga, kerakli o'quv adabiyotlarini mustaqil izlash va topishingizga hamda amaliy faoliyatingizda qo'llashni o'rgatishga, ijodiy qobiliyatlaringizni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratildi.

“Ijrochilik san’ati tarixi” fanining maqsadi – siz talabalarga o‘quv dasturi asosida tizimlangan bilimlarni berilishidan iborat. O‘quv dasturining mazmuni cholg‘u ijrochiligida shu kungacha vujudga kelgan ijrochilik san’ati tarixi va taraqqiyotidagi asosiy bosqichlarni o‘rganish uchun qaratilgan. Ushbu fan bo‘yicha dars beradigan mutaxassis o‘qituvchining vazifasi sizlarni nafaqat professional-musiqachi, balki jamiyatning badiiy va estetik didini xis qiladigan, cholg‘u ijrochiligi san’atini ommalashtira oladigan keng qamrovli yetuk kadr sifatida tayyorlashdan iborat. Iqtidoringizni rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishingizni, o‘zingizning ijodiy salohiyatingizni to‘la namoyon etishingiz, kelajakda o‘z cholg‘uingizga oid barcha bilimlarni egallagan va ulardan unumli foydalangan holda shogirdlarga saboq berish kabi bilim va ko‘nikmalarni namoyish etishingiz zarur.

Mashg‘ulotlarda siz talabalar o‘zbek xalq cholg‘ularining paydo bo‘lishi va ularni modernizatsiyalashtirishning boy tarixi bilan bog‘liq bilimlarni to‘la namoyon etishingizni, xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati bo‘yicha mashhur ustozlarning pedagogik va ijrochilik prinsiplari bilan birga O‘zbekiston kompozitorlarining o‘zbek xalq cholg‘ulari hamda orkestrlar uchun yaratgan asarlarni bilishingiz, ijrochilik nuqtai nazardan tahlil etishingiz lozim. Qolaversa, musiqa sohasidagi o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, opera teatri va studiyalar, turli xalq cholg‘ulari orkestrlarida, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko‘nikmalarini olishingiz ham zarur.

Mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida 3-kursda tahsil olayotgan davringizda ham sizlar Davlat ta’lim standartida belgilangan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishingiz nazarda tutiladi, xususan:

- zamonaviy musiqada akustika, ritm, kuy-ohang, ladlarning tuzilishi;
- kompozitorlik musiqa ijodiyotining mushtarak va o‘ziga xos jihatlari;
- ijrochilikning tarixiy bosqichlari;

- Markaziy Osiyo xalqlarining modernizatsiyalashtirilgan cholgʻularida ijrochilikning shakllanishi;
- ijro uslubiyoti va hozirgi zamon uslublari haqida tasavvurga ega boʻlishi;
- akademik ijro tushunchasi;
- janr va uslublarning xususiyatlarini;
- ijrochilik sanʼatining turli xil zamon uslublari haqida tinglab tahlil etishni;
- Sharq va Gʻarb cholgʻu ijrochiligi faoliyatini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- kompozitorlik ijodini oʻrganish uslublari;
- akustik, ritmik, lad tuzilishi, bezak va ijroviy tahlil qilish;
- olingan bilimlarni amaliyotda, ijrochilik faoliyatida tadbqiq etish koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.

Mazkur fan boshqa kasbiy fanlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, oʻquv rejada belgilangan ansambl sinfi, orkestr sinfi, xalq cholgʻularida oʻqitish uslubiyoti, turdosh cholgʻularni oʻrganish, pedagogik amaliyot kabi fanlarni oʻzlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-kurs talabasi uchun oʻquv rejasida mustaqil taʼlim uchun ham zaruriy soatlar ajratilgan. Uni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, oʻquv qoʻllanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) boʻyicha fanlar boblari va mavzularini oʻrganish;
- savollar va topshiriqlar boʻyicha mavzularni, adabiyotlarni oʻzlashtirish;
- avtomatlashtirilgan oʻrgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni oʻrganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bogʻliq boʻlgan fanlar boʻlimlari yoki mavzularini chuqur oʻrganish;

- faol o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari (ishbilarmon o‘yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta’lim resurslaridan, ta’lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg‘armasidan, repetitoriylardan, o‘quv laboratoriyalari, ovoz yozish studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tasdiqlangan, ya’ni 3-kurs mobaynida sizga majburiy hisoblangan mavzular bilan cheklanib qolmay, balki dunyoqarashingizni muntazam kengaytirib borishingiz uchun mavzuga taalluqli boshqa adabiyotlarni ham mutolaa qilishingiz lozim. Reyting nazoratlari davrida ma’lum bir mavzu yoki biror-bir cholg‘uning modernizatsiyalashtirish jarayonini o‘rganayotgan paytingizda boshqa cholg‘ularni ham o‘rganishingiz kerak. Bunday mustaqil izlanish cholg‘ularning modernizatsiyalashtirilishi hamda ijrochilik san’ati tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zingizga singdirib olishingizga katta yordam beradi. Misol tariqasida: agar siz damli cholg‘ular yoki dutorlar oilasini o‘rganayotgan bo‘lsangiz shu mavzuga tegishli bo‘lgan ruboblar hamda g‘ijjaklar oilasiga taalluqli ma’lumotlarni ham bilishingiz yaxshi natija beradi.

Mazkur fanni o‘zlashtirishda ta’limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o‘quv jarayonida unumli qo‘llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, “Internet”, “Ziyonet” kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o‘quv adabiyotlari – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.,

Alohida ta’kidlash joizki, mazkur ilk darslik yangi avlod o‘quv adabiyotlari toifasiga kiradi. Ijrochilik san’ati tarixi bilan bog‘liq

bo'lgan noyob cholg'ularga imkon qadar ishlov berilib, manba sifatida darslikka kiritildi. Kitobni chiqarishga mas'ullar, muharrirlar bilan maslahatlashib, ilg'or pedagogik texnologiyalarga tayangan holda, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishni ko'zda tutib, barcha ma'lumotlarni kompakt-disk shaklida ham ilova qildik. Unga darslikning kitob shakliga keltirilgan to'liq matni, orkestrlarning ijro dasturidan namunalar, asarlarning nota ko'rinishlari hamda audio yozuvlari, testlar, musiqiy krossvordlar, yetakchi professor-o'qituvchilarning turli tillarda yozgan kitoblari hamda maqolalar to'plamlaridan namunalar kabilarning elektron versiyalari, shuningdek O'zbekiston sozgarlik san'ati tarixiga va mohir ustalar maktabiga bag'ishlangan musiqiy hujjatli filmlar kiritildi.

Aziz talabalar! Qo'lingizdagi ushbu darslik sizlarning ijrochilik san'ati tarixi haqidagi bilimlaringizni yanada oshirishga hamda ijrochilik mahoratingiz yanada yuksalishiga xizmat qiladi, degan umiddaman.

1 – DARS: QADIMGI DAVR MUSIQA MADANIYATI CHOLG'ULARI

O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.


Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan avvalgi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan.

Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma'lum


bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida yetib kelgan. Zarbli cholg'ular - doyra, debu, daff, daz, dov, sanj, g'olachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan.

Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olimi T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi.

Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan eramizdan besh ming yil avval suyakdan ishlangan va beshta barmoq bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi (29, 30-rasmlar)¹.



29-rasm.




30-rasm.

¹ Грубер Р. История музыкальной культуры. - М., 1941 (том 1, часть первая), 139-бет.

Ushbu rasmlarda tasviri tushirilgan cholgʻular arxeologik ekspeditsiyalar natijasida qazib olingan boʻlib, ular hayvonlar suyagi hamda qamishlardan yasalgan eng oddiy damli cholgʻular-dir. Ular asta-sekin rivojlanib hozirgi nay, goboy va klarnet darajasigacha yetib kelgan.

Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlardan, qarsak chalish, qoʻllari bilan badanini chertishdan paydo boʻluvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar – zarbli cholgʻularning vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Ritm-usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri boʻlib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq-tabiat va koinot bilan uygʻunlashtiruvchi yagona vosita boʻlgan.

Miloddan avvalgi, ikki ming yillikka oid Samayli-tosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doyrasimon cholgʻularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan². Bu esa doyraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud boʻlgan zarbli cholgʻu ekanligini tasdiqlaydi.



Marosimiy raqs. Saymali-tosh. mil.avv. II minginchi y.

² Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.

Oʻrta Osiy hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan maʼlumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doyraga asosan ayollar joʻr boʻlgan. Ularning doyra usullariga mos qoʻshiq aytishi va raqsga tushishi oʻsha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Doyra, qayroq, zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshinlar tomonidan keng qoʻllanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doyra diniy marosim raqslariga joʻr boʻluvchi masʼul cholgʻu sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning oʻzlari, baʼzan esa maxsus doyrachilar tomonidan ijro etilgan.

Keyingi davrlarda, yaʼni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida musiqa cholgʻulari turli bayram va madaniy marosimlarda faol ishtirok etib, musiqa amaliyotini boyitgan holda oʻzining yangi qirralarini ochib boshladi. Shuningdek, cholgʻular musiqiy talaffuz va musiqa tovushqatorlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Butun musiqa tarixi davomida, ayniqsa eng avvalgi rivojlanish bosqichlarida, hali umuman nota yozuvi va boshqa musiqiy-tarixiy manbalar boʻlmagan davrlarda musiqiy cholgʻular bebaho tarixiy manba hisoblangan. Ular musiqa rivojida ashyoviy manba boʻlib hisoblangan, yaʼni cholgʻular musiqa rivojida poydevor vazifasini bajarsa, musiqa esa undan keyingi pogʻonani egallagan. Aniqrogʻi, cholgʻular oʻsha davrdagi musiqa taraqqiyotining nechogʻlik rivojlanganligini tasdiqlovchi vosita hisoblangan va har bir davrdagi taraqqiyot jarayonini namoyon etgan.

Shuni ham taʼkidlash kerakki, inson ovozi va tanasini chertish orqali hosil qilingan tovushlar - tabiiy tovushlar hisoblanadi. Haqiqatdan ham shunday. Ibtidoiy odamlar vaqt oʻtishi bilan “tabiiy damli cholgʻu” hisoblangan inson ovozi va “tabiiy zarbli cholgʻu” hisoblangan oʻz tanasi bilan qanoatlanmay, sunʼiy tovush yaratish vositalarini topishga harakat qilganlar. Lekin shunga qaramay, manbalarda yozilishicha birinchi ish jarayonlarini tashkil etishda ibtidoiy odamlar hech qanday sunʼiy tovush chiqaradigan ashyolarsiz, oʻsha davrlarda yagona material va sanʼat obʼekti hisoblangan - oʻz tanalaridan chiqaradigan sehrli ovozlardan foydalanganlar va shu bilan chegaralanganlar.


Qanday sabablar insonni musiqa cholg'ularini yaratishga jalb etdi?

Birinchiidan, o'zi yaratadigan tabiiy shovqinli tovushlar samardorligini oshirish maqsadida hamda ularni jarangdor va turli-tuman qilish uchun. Shuningdek, yovvoyi odamlar odatga aylangan harakatlarini saqlagan holda zarb kuchini hamda qo'l harakati diapazonlarini kengaytirgan. Shu bilan birga ular daraxt, qovoq va hayvonlar terilaridan foydalanib, tabiiy tovush turlarini saqlagan holda tovushlarni takomillashtirishga harakat qilgan.

Yovvoyi odamlarning sehrlil xayollari ham o'z vazifasini bajardi. Ular atayin sun'iy tovushlar yaratish maqsadida o'z tabiiy tovushlarini o'zgartirib, ba'zi-bir cholg'ular ovozi yaratganlar (mirliton). U va bu hollarda ham musiqa cholg'usi timsolida inson a'zolari bo'lgan.



Tanadan ovoz chiqarish raqsi




Peshona urushtirish raqsi

Inson ovozi damli cholg'ularning yaratilishiga olib kelgan bo'lsa, chapak chalish, raqs paytida yer tepkilash, tanani chertish va boshqalar zarbli cholg'ularni, aniqrog'i shovqinli cholg'ularning ilk ko'rinishlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik esa qarsak chalishdan asta-sekin bronza va mis tarelkalardan foydalanishga o'tildi. Shovqinli shiqildoqlar esa ispan kastan-yetalariga aylandi. Shu oddiy cholg'ular bilan birga ancha vaqtgacha tana ham zarbli cholg'u sifatida qo'llanilgan (yelka, qorin, peshona hamda tananing har xil qismlari orqali ovoz chiqarish).

Tanaga taqiladigan har xil shiqildoq va taqinchoqlar ham tez rivojlangan. Ular inson harakatlanganida, yurganida, ayniqsa

raqs tushganida jaranglagan. Ichi o‘yilgan qovoqlardan ham bolalar o‘yinchog‘i paydo bo‘lgunga qadar foydalanilgan. Ovoz qovoqning ichiga chertish orqali taralgan.



Shiqildoqlar

Cholg‘ularni takomillashtirishda va ularning yangi turlarini yaratishda ikki nuqtai nazar asos bo‘lgan:

- 1 - tovush chiqarish vositasi (rezonans) aks sado bo‘lsa,
- 2- tovush balandligi va tovush xarakteri hamda tovush hosil qiladigan manba va materialining kattaligi (hajmi).

Keyinchalik bular chuqurlik va o‘ralardan hamda ichi chirigan to‘nkalardan foydalanishgan. Bu o‘rinda chuqurlik ustiga qo‘yilgan ovalsimon barabanlardan foydalanib, katta hajmdagi yog‘ochlar ustida raqs tushish orqali tovush hosil qilishgan. Shuningdek, o‘ralardan birinchi baraban va ilk torli cholg‘ularni yaratishda ham foydalanishgan.

Loy tuvaklarning paydo bo‘lishi hamda qovoqlar ichini o‘yib tayyorlash ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Rezonans, ya’ni sado berish masalasini tushunib yetgandan keyin avval yog‘ochli va loy barabanlardan, keyinchalik hayvon terilari tortilgan barabanlardan foydalana boshlashgan. Shu tariqa yangi turdagi hozirgi baraban va litavraga o‘xshash cholg‘ular paydo bo‘la boshlaydi.

Tovush balandligi va tovush hosil qiladigan manbaning o‘zaro munosabatini tushunib yetishgandan so‘ng, hozirgi ksilofonga o‘xshash cholg‘ularni yaratishgan: bular har xil uzunlik va hajmdagi bir-biriga ulangan bir qator yog‘och plas-


tinkalarni qovoqlar ustiga joylashtirilishi (31, 32, 33-rasmlar)³ natijasida hosil bo'lgan marimba cholg'usi bo'lib, uni hozirgi kunda ham Afrika va Janubiy - Sharqiy Osiyoda uchratish mumkin. Vaqt o'tishi bilan bronza va mis davrlariga o'tilganda bu ksilofonlar - metallofonga aylangan.



31-rasm



32-rasm



33-rasm

Tovush balandligi va tovush hosil qiladigan manba hajmining farqiga tushunib yetishgandan so'ng turli hajmdagi naylarni bir-biriga bog'lash natijasida fleyta panaga o'xshash cholg'u hosil bo'ldi, bu cholg'uni hozirgi kunda Braziliya hududlari va Solomon orollari aholisida uchratish mumkin.

Doyrani yaralishiga aloqador rivoyatda shunday hikoya qilinadi: Qadim zamonlarda bir karvon savdo-sotiq qilish maqsadida

³ Грубер Р. История музыкальной культуры, 140-бет.

bir yurtidan oʻzga bir yurtga safarga chiqibdi. Ular choʻlda juda koʻp yurishibdi, lekin hech koʻzlangan marraga yeta olmabdilar. Choʻlning qoq oʻrtasiga yetganda safarga chiqqan yoʻlovchilarning meshdagi suvlari tugab, kunning issigʻiga chiday olmay asta-sekin holdan toyib, oʻzidan keta boshlabdi. Safarga chiqqan bir yosh yigitning meshida ozgina suvi qolgan ekan. U suvi bilan barcha safarga chiqqan yoʻlovchilarning ogʻzini xoʻllay boshlabdi, lekin ular oʻziga kelmabdi. Shunda yigit suvdan boʻshagan meshini yirtib, aravaning yogʻoch gʻildiragiga tashlabdi. Quyoshning issigʻidan bir zumda teri tarang tortilib qurib qolibdi. Qurquvdan nima qilishini bilmagan yigit bor kuchi bilan teriga ura boshlabdi. Choʻlning narigi burchagidan yoʻlga chiqqan boshqa karvon bu gʻalati ovozni eshitib, karvonga biron kor-xol boʻlibdi, ularga yordam berish kerak, deb ovoz taralayotgan tomonga tezda yetib kelib, karvonni qutqarib qolibdi.

Yana bir rivoyatda shunday deyiladi: Meshkobchilarni suv tashiydigan meshlarini tubiga suv solganda tekis turishi uchun gardish oʻrnatilar ekan, suvdan boʻshagan mesh yoz kuni quyoshda terining qattiq qizishi natijasida tarang tortilib qolibdi va uni barmoq bilan chalgan paytda doyrasimon tovush chiqqan ekan. Shu-shu doyra biron-bir hodisadan xabar beruvchi, jarchi cholgʻuga aylanib qolgan ekan. Shuning uchun ham doyra ruhiy kasalliklarni davolashda, folbinlarning ruhlar bilan bogʻlanishida yordam beradi. Ayniqsa doyraning karnay, surnay va nogʻoralar bilan birgalikdagi ovoz tarovati toʻy, bayram hamda tantanalardan xabar beradi. Hozirgi kunga qadar doyra gardishining yogʻochdan yasalishiga ushbu rivoyatlar sabab boʻlgandir.

Keyingi qadam - bu damli (aerofon) cholgʻularda teshiklar oʻyib, ovoz balandligini nazorat qilish boʻlgan. Qadimgi odam inson ovozidan kuchliroq tovush beradigan, ochiq havoda ijro etiladigan cholgʻularni ixtiro qilgan va uni ovda, harbiy yurishlarda, toʻy, sayil, bayram va boshqa turli yigʻinlarda qoʻllash odat tusiga kirgan. Shovqinli cholgʻulardek juda qadimiy boʻlmasa-da,

chigʻanoqdan yasalgan har xil hushtakchalar hamda naysimon cholgʻular eng oddiy cholgʻulardan hisoblangan⁴.



28-rasm

Damli cholgʻular miloddan avvalgi III-I asrlarda ham naysimon, tilli va karnaysimonlarga tasniflangan. Qadimgi Misr, Bobil va boshqa Sharq mamlakatlarida damli cholgʻular haqida maʼlumot beruvchi tasviriy sanʼat asarlari mavjud boʻlib, ular haykalchalar va arxeologik topilmalarda oʻz aksini topgan. Qadimgi Misr tarixiy yodgorliklaridan maʼlumki, yuksak qadrlangan harbiy sozandalarga kohinlar qatoridan oʻrin koʻrsatilgan, hatto jang maydonida sozandalar oʻldirilmas balki, asir olinib, oʻz kasbi doirasida xizmat qilishga buyurilgan.


Qadimgi Xorazm hududidagi “Qoʻy qirilgan qalʼa” (miloddan avvalgi IV-III asr), “Tuproq qalʼa” (I-III asr), “Qirq qiz qalʼa” (V-VI asr) istehkomlaridan topilgan nay, mizmar, surnay, daf va nogʻoraga oʻxshash asl nomlari saqlanmagan cholgʻu sozlari ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch haykalchalar hamda Ayritomdan topilgan haykalchalardagi cholgʻular tasviridan biz ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin. Ammo ularning oʻsha paytda qanday atalgani maʼlum emas, yaʼni nomlari hozirgacha saqlanib qolmagan.

Keyinchalik esa torli (xordofonlar) cholgʻular paydo boʻla boshladi. Bu cholgʻular ham shovqinli va damli cholgʻular singari bir qator bosqichlarni bosib oʻtdi. Birinchi boʻlib qadimiy kamonga oʻxshash yoysimon shakldagi yogʻochga ot qili tortilgan

⁴ Грубер Р. История музыкальной культуры, 138-бет.

cholgʻu paydo boʻldi. Bunda rezonator vazifasini inson ogʻzi, qovoq hamda toshbaqa kosasi bajargan⁵.


Torli-kamonli cholgʻular eramiz birinchi ming yilligining uchinchi qismida paydo boʻlgan degan taxminlar bor. Old Indiya gʻoridagi tasvirda noksimon lyutnya yonida kamoni bilan tasvirlangan. Bu toʻgʻrida X asrda Al-Forobiy toʻlaroq sharhlagan va uning toʻrtinchi torini oʻzlari taqib, ushbu cholgʻuda ijod etganlar. Bu cholgʻuning ilk nusxasi toshbaqa kosasidan yasalgan boʻlib, dastasi yogʻochdan, tori esa ot qilidan taqilgan ekan.



34-rasm



35-rasm




36-rasm

Xorazmning oʻng va chap qirgʻoqlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida qadimgi Xorazm xalqlarining musiqa cholgʻulari tarixiga oid juda qiziqarli tasviriy materiallar topilgan. Bu yerda musiqa cholgʻularining tasvirini qoyatoshlardagi naqshlar, terrakota (sopol) haykalchalar va metal idishlarda koʻrishimiz

⁵ Грубер Р. История музыкальной культуры, 141-бет.

mumkin. 1945-1950-yillarda Tuproq-qal'ada olib borilgan qazilmalar (eramizning III-IV asrlari Xorazmning o'ng qirg'og'i) natijasida juda ko'p naqsh bezaklari ichida 3 ta musiqa cholg'ularining obrazi tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Bular 6 torli kichik burchakli arfa, ikki torli lyutnyasimon cholg'u (1-rasm) va qumsoat shaklidagi ikki tomonlama barabandir⁶.




1-rasm



2-rasm

Suyuqlik tashiladigan keramik idish (flyaga) devorida 8 ta sozanda cholg'usi bilan bo'rttirib ko'rsatilgan. Barcha haykalchalar turli vaqtda ishlangan bo'lib, miloddan avvalgi IV-III asrlardan eramizning I asrigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Har bir haykalchada bittadan musiqa cholg'usi tasvirlangan. Bunday haykalchalar 9 ta bo'lib, ularning hammasi torli cholg'ular guruhiga kiradi. Torli cholg'ulardan: 9 torli katta burchakli arfa, 5 torli kifara, 4 torli lyutnyasimon cholg'u (2-rasm) va 6 ta 2 torli dutor-simon cholg'ular, ular ham shakliga ko'ra ikki turga bo'linadi.




3-rasm

1909-yilda Xorazmdan tashqarida 7 ta sozanda burg'u (hayvon shohidan yasalgan cholg'u) chalayotgani tasvirlangan Annikovning kumush lagani topilgan. Sozandalardan 3 kishi chap, 4 kishi o'ng tomonga qarab, burg'ularini yuqoriga qa-

⁶ Садоков Р. Музыкальные инструменты древнего Хорезма в памятниках изобразительного искусства//Музыка народов Азии и Африки. - М., 1969, 21-бет.

ratib chalishmoqda. Signal beradigan damli cholgʻular turiga kiruvchi 7 ta burgʻuning uzunligi, tuzilishi va ijro uslubi bir xildir (3-rasm)⁷.

Shunday qilib, qadimiy Xorazm musiqa cholgʻulari tasvirlarining soni 19 ta teng. Cholgʻularning barcha asosiy turlari namoyon etilgan boʻlib, ulardan: torlilar 11 tani, damlilar 7 tani va zarbli cholgʻu bittani tashkil etadi (4-rasm)⁸. Birinchi, torli guruh keng va rang-barang tarzda namoyish etilgan.



4-rasm

Ushbu guruhga kiruvchi musiqa cholgʻulari tarixiy jihatdan aniq 2 toifaga boʻlinadi. 4-rasm-dagi 1-5 cholgʻular kelib chiqishiga qarab janubiy, yaʼni dehqonchilik bilan shugʻullanadigan tumanlarga, 6-11 tasvirlardagi cholgʻular esa koʻchmanchi qabilalar turmush tarziga mos musiqa cholgʻulardir. 1-toifaga kiruvchi cholgʻular orasida eng qiziqarlisi katta va kichik burchakli arfalar boʻlib, ular qadimda Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan, hozirgi kunda musiqa amaliyotidan izsiz gʻoyib boʻlgan.

Antik davrdagi Xorazm burchakli arfalari 2 turga, yaʼni katta burchakli va kichik burchakli arfalarga boʻlinadi. Oʻrta Osiyoda mashhur boʻlgan barcha burchakli arfalar, yaʼni Ayritom (mil. avv. II asr – milodiy I asr) frizidagi (bino peshtoqidagi) va Tuproq-qalʼa (III asr) arfalari kichik burchakli arfalar turiga kiradi. Qoʻy qirilgan qalʼada tasvirlangan (mil. avv. IV-III asr) katta burchakli arfa Oʻrta Osiyoda qoʻllanil-

⁷ Садоков Р. Музыкальные инструменты древнего Хорезма в памятниках образительного искусства// Музыка народов Азии и Африки, 22-бет.

⁸ Shu manba, 23-bet.

gan birinchi va yagona arfadan dalolat beradi. Shuningdek, bu Oʻrta Osiyo arfasining ilk tasviri hisoblanadi.

Xorazmning katta va kichik burchakli arfalari 2 qismdan – rezonator va tor ushlagichdan iborat boʻlib, bir-biri bilan tekis burchak ostida birlashtirilgan. Cholgʻular faqatgina yogʻoch xom-ashyosidan tayyorlangan. Torlarning bir uchi rezonatorga ilingan, ikkinchi uchi esa tor ushlagichga bogʻlangan. Torlar soni 9 ta va 6 tani tashkil etgan. Katta Qoʻy qirilgan arfasida 9 ta, Tuproq-qalʼa arfasida 6 ta, Ayritom arfasida esa 9 ta tori boʻlgan. Torlar ichakdan ishlangan.

Arfalarning kattalari baland va past, kichiklari jarangdor va yuqori tovushlarda yangragan. Arfalarda turib, yurib va oʻtirgan holda ijro etishgan. Uchchala holatda ham cholgʻu bir xil ushlangan, yaʼni rezonator qismi yuqoriga qaratilgan, tor ushlagich esa pastda boʻlgan. Katta burchakli arfalarni turib yoki yurib chalganda sozanda uni oldida tutib, burchagini beliga taqab, chap (oʻng) tomonida siqib chap (oʻng) tirsagini boʻkib ushlagan.

Shunday qilib, yurtimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qoyatoshlardagi naqshlar (rasmlar), terrakota (sopol) haykalchalari, mis va kumush idishlarda tasviri tushirilgan cholgʻu ushlagan sozandalar, qadimgi davr musiqa madaniyati cholgʻularining rang-barangligidan dalolat beradi. Natijada zarbli, shovqinli va qisman damli cholgʻular ibtidoiy jamoa davrida maʼlum miqdorda takomillashgan. Avval zarbli, keyin shovqinli, damli va nihoyat torli cholgʻular paydo boʻla boshlagan.

Savollar:

1. Cholgʻularning evolyutsion jarayoni haqida nima bilasiz?
2. Qanday omillar musiqa cholgʻularining yaratilishiga sabab boʻldi?
3. Eng avval qaysi cholgʻular paydo boʻldi?
4. Cholgʻularning qanday turlarini bilasiz?
5. Cholgʻularning paydo boʻlish tartibini ayting?
6. Damli cholgʻularning dunyo miqyosidagi atamasi?

7. Zarbli cholg'ular dunyo miqyosida qanday nomlanadi?
8. Xordofonlar guruhiga kiradigan cholg'ularni sanab bering?
9. Qanday cholg'ular gemiidifonlar deb ataladi?
10. Shovqinli cholg'ular guruhiga taalluqli cholg'ular nomini ayting?

Topshiriqlar:

1. Mavzu bo'yicha berilgan adabiyotlarni o'rganib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 1, 3 kitoblardan konspekt yozing.

Tayanch iboralar:

Taniqli olim T.Vizgo, Mo'minobod qishlog'i, Saymali-tosh, "tabiiy damli cholg'u", "tabiiy zarbli cholg'u", membranofon, ideofon, aerofon, gemiidifon, xordofon.

Adabiyotlar:

1. Грубер Р. История музыкальной культуры. - М., 1941 (134-142 betlar).
2. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М.,1980 (14-16-б).
3. Музыка Азии и Африки. - М., 1969, (20-26 betlar).
4. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. - М., 2002 (14-25 бетлар).

2 - DARS: ILK O'RTA ASRLARDAN TO XIX ASR O'RTALARIGA QADAR MUSIQA AMALIYOTIDA QO'LLANGAN CHOLGULAR TASNIFI

Musiqiy cholg'ular juda qadimiy rivojlanish tarixiga ega. Arxeologik qazilmalar, qoyatoshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy hujjatlar, adabiy manbalar, miniatyura asarlaridan musiqiy cholg'ular uzoq o'tmishda mavjud bo'lgani va turli xalqlar o'rtasida muloqot vositasi bo'lganligini isbotlaydi. O'zbek

xalq cholgʻulari haqidagi bebaho maʼlumotlar A.Eyxgorn, V.Bertels, A.Boldirev, B.Riftin, A.Semyonov, R.Sadokov, T.Vizgo, O.Malkeyevalarning tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

Soʻnggi yillarda musiqiy cholgʻularni oʻrganishga boʻlgan qiziqish nafaqat bizning respublikamiz, balki chet davlatlarda ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu yoʻnalish bugungi kunda zamonaviy sanʼatshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqiy cholgʻular maʼnaviy madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlib, jamiyat rivojining maʼlum bosqichida shakllangan estetik didni ham aniqlaydi. Shuningdek, musiqiy cholgʻular va ularning madaniy yodgorliklardagi tasvirlari oʻtmish davr hayotidan dalolat beruvchi haqiqiy va yagona maʼlumot manbai hisoblanadi.

Musiqiy merosning qaysi-ki turida ish olib borilishidan qatʼiy nazar, tadqiqotchi uchun hududiy chegaralarni aniqlash biroz qiyinchilik tugʻdiradi, chunki davlatlarning zamonaviy chegaralanishi unchalik uzoq boʻlmagan davrda vujudga kelgan. Oʻrta Osiyo hududida Parfiya, Soʻgʻdiyona, Baqtriya, Xorazm kabi turli davlatlarning vujudga kelganligi bizga tarixdan maʼlum. IX-X asrlarda Eron va Afgʻoniston davlatlari hududi Buxoro xonligining yerlari boʻlgan. XII asrda Xorazm hukumronligi shimoliy Hindistongacha boʻlgan juda katta hududni egallagan edi. XIV asrda moʻgʻul imperiyasi vayronalarida Temurning buyuk saltanati yuzaga keladi va Samarqand uning markazi boʻlgan. Shuning uchun musiqiy cholgʻularning yaratilishi va rivojlanishini faqatgina bir xalqning mahsuli deb hisoblash notoʻgʻri. Ular koʻp asrlik rivojlanish natijasida, oʻzaro taʼsir va oʻzaro aloqalar orqali vujudga kelgan.

Musiqiy cholgʻularning eramizgacha mavjud boʻlganligini tasdiqlovchi zamonaviy arxeologik topilmalar katta qiziqish uygʻotadi. Jumladan, yaqinda Samarqand viloyatining qishloqlaridan birida, ayol qabridan oltin va bronza taqinchoqlar orasida suyakdan ishlangan nay topilgan hamda uning bronza davriga mansubligi aniqlangan. Shuni ham aytish kerakki, oʻzgacha koʻrinishga ega boʻlgan buben cholgʻusi ham Oʻrta Osiyoda qa-

dimda istiqomat qilgan aholiga ma'lum bo'lgan. Afrosiyobning terrakota haykalchalariga qarab, lyutnya (ud) so'g'diylarning sevimli cholg'usi bo'lganligini aniqlash mumkin.

Cholg'uning katta va kichik hajmdagi, yumaloq va uzunchoq shakldagi, ammo asosiy jihatlari o'xshash bo'lgan turlarini uchratamiz (2-3 rasmlar)⁹. Ushbu tasvirlarda biz lyutnyaning torlirnama, kosaxonasi katta va dastasi kalta, bosh qismi orqaga qayrilgan turlarini ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'u "kalta lyutnya" yoki ud nomi bilan mashhurdir.



2-rasm



3-rasm

So'g'd musiqachilari udni tik turgan holda, o'ng qo'lini torlarga (ba'zan mizrobni ushlab), chap qo'lini esa cholg'uning dastasiga qo'ygan holda ijro etganlar. Ko'proq cholg'ularda to'rtadan ba'zilarida esa uchtadan torlari mavjud. Torlar dekaga joylashtirilgan tor ushlagichga mahkamlangan. Daraxt tanasidan butunligicha o'yib olingan terrakota lyutnyasi ham katta qiziqish uyg'otadi. So'g'diylar bu cholg'uni qanday nomlaganliklari noma'lum bo'lganligi sababli, unga ovro'pacha "lyutnya" atamasi qo'llanilgan.

Afrosiyob terrakota haykalchalarida lyutnyaning ko'p tasvirlanganligi So'g'diylarda bu cholg'u keng qo'llanilganligidan dalolat beradi. Kalta lyutnya tasviri qadimgi Xorazm, Marv va

⁹ Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, 19-бет.

sharqiy Turkistonning terrakotalarida ham uchraydi. Ma'lumotlarga qaraganda, lyutnya Gretsiyada mashhur cholg'u bo'lmagan. Qadimgi Misrda esa ko'pgina madaniy yodgorliklarning tasdiqlashicha "uzun lyutnya" nomli cholg'uning boshqa turi mavjud bo'lgan, u ham bo'lsa qadimgi Misr musiqa tadqiqotchilarining taxminiga ko'ra Misrga Osiyodan keltirilgan ekan.



Ud



Xitoy pipasi



Italiya mandolinasi

Pipa atamasini L.Pikken quyidagicha "pi" qo'lning oldinga, "pa" esa orqaga harakati deb izohlaydi. L.Pikken: - kalta lyutnya (oval shakldagi korpusli) Xitoyda V asrning boshlarida paydo bo'lganligini va uning kelib chiqish tarixini esa Markaziy Osiyo, balkim Parfiya davlatlari bilan bog'lash lozimligini ta'kidlaydi. L.Pikkenning fikri alohida e'tiborga loyiqdir. Tarixdan barchamizga ma'lumki, eramizning birinchi asrlarida Sharqiy Turkistonda so'g'diylar davlati yuzaga keladi. Shubhasiz so'g'd ko'chmanchilari o'zlari bilan musiqa cholg'ularini, jumladan lyutnyani olib kelgan bo'lishlari mumkin. Shu tariqa lyutnya osongina Sharqiy Turkistondan Xitoyga kirib kelgan. Har xil turdagi lyutnyaning tasvirini Shimoliy Hindistonda ham ko'rishimiz mumkin. Ularning biri afrosiyob terrakota lyutnyalarini eslatadi.

V.Baxmanning fikricha, kamon yordamida ijro etiladigan cholg'ular dastavval O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Shuningdek u Ayritom frizidagi gitarasimon cholg'u X-XI asrlarda Vizantiyada mavjud bo'lgan qadimgi kamonli cholg'uga aynan o'xshashligini aytadi. Cholg'ularning ikkalasida ham to'rttadan torlari bo'lib, qopqog'i (dekasi)da 8 shaklidagi rezonator, ya'ni aks-sado beruvchi o'yiqlari va eng asosiysi - kosaxona o'rta qismining yon tomonlari toraygan shaklda bo'lgan. Biroq, Ayritom frizida lyutnya ijrochisi mizrob yordamida ijro etiladigan tirnama cholg'uni ushlab turibdi. Balkim bu ham tirnama, ham kamonli cholg'udir. Hozirgi kunda ham ijrochilik amaliyotida bir cholg'uning o'zida ikki xil ijro san'atini uchratishimiz mumkin. Xususan, tanbur cholg'usini ham noxun (plektor) ham kamon yordamida ijro etish mumkin.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Sharqqa sayohat qilgan holda, so'g'd lyutnyasidan Xitoy pipasi va Yapon bivasi shakllangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, qadimda lyutnya ijrochiligining asosiy markazi O'rta Osiyoning janubiy hududlari - So'g'diyona, Marg'iyona va Shimoliy Baqtriyalar bo'lgan. "Bizda kalta lyutnyaning qachon va qayerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot yo'q, - deb yozadi T.Vizgo, lekin u Arab istilosi davrigacha So'g'd va Eron xalqlari jamiyati hayotidagi eng ommabop cholg'u hisoblanganligini bilamiz. VII-VIII asrlarda butun islom dunyosi so'g'd-eron lyutnyasini o'zlariga moslashtirib, arabcha "al-ud" nomini berishadi. Arablar orqali Ispaniyaga yetib kelgan lyutnya keyingi asrlarda butun Yevropani hayratga soladi"¹⁰. Hech qanday o'zgarishlarsiz, so'g'd-eron lyutnyasi yevropa musiqa amaliyotiga osongina kirib keladi.

So'g'dlarning eng ommalashgan yana bir cholg'usi arfa bo'lgan. Afrosiyob terrakotalari orasida arfa ijrochilari tez-tez uchrab turadi. V.Meshkeris ularni eramizgacha bo'lgan II asr va eramizning I asriga bog'laydi. Haykalchaga qarab cholg'uning turini

¹⁰ Вызго Т. Миграция музыкальных инструментов Средневосточного региона на Запад в эпоху раннего средневековья // Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. - М., 1987, 62-63 бет.

aniqlash mushkul, ammo diqqat bilan nazar solinsa cholg‘u rezonatori oldinga egilgan, o‘rta qismi va torlar mustahkamlangan pastki gorizonta qismi keng bo‘lgan burchakli arfa ushlab turgan cholg‘uchini aniqlash mumkin. Afrosiyob arfachilari qadimgi (antik) davrlarga xos ravishda cholg‘uni tik turgan holda ijro etishgan.

Ko‘p vaqtlar arfaning vatani Misr hisoblangan. Eramizdan avvalgi 3000-2250-yillardagi qadimgi podshoxlik davridagi yodgorliklarda yoysimon arfalarni uchratish mumkin. Ular bir necha asrlar davomida o‘z shaklini yo‘qotmagan holda qo‘llanilgan. (Shuning uchun ham u yoysimon arfa nomini olgan). Oldosiyo arxeologik qazilmalari natijasida Ur sulolasiga mansub qirolicha Shumer maqbarasida (eramizgacha bo‘lgan taxminan 3000-yil) juda ham bezaklarga boy bo‘lgan arfa topilgan. U noan‘anaviy tuzilishga va o‘n bitta torga ega. Cholg‘uning rezonator qismi yashik sifatida ishlangan bo‘lib, uzun silindr shaklidagi torlar taqiladigan grif bilan yakunlangan. Rezonatorda joylashtirilgan buzoqning oltin boshi va ko‘z o‘rnidagi qimmatbaho toshlar cholg‘uning old qismini bezab turibdi. Bu cholg‘uning paydo bo‘lishi yoysimon arfaning ko‘p asrlik evolyutsiyasi natijasidir.


Tarixiy ma’lumotlardan ma’lumki, Osiyo xududida eramizning yoysimon arfasining markazi Hindiston bo‘lgan. Eramizning birinchi asrlarida Osiyoning boshqa davlatlariga ham kirib borgan. Arfa eng avvalo Xitoyda va Sharqiy Turkistonda tan olinib, keyinchalik Afg‘onistonda ham tarqaladi. Parfiya, Eron, So‘g‘d, Xorazm va Baqtriya madaniy yodgorliklarida biz arfaning yoysimon shaklini emas, balki ijro uchun qulay bo‘lgan, ancha vaqt ijro amaliyotida qo‘llanilib, keyinchalik mukammallashtirilgan burchakli arfani uchratishimiz mumkin.

Burchakli arfa yoysimon arfaga nisbatan kechroq paydo bo‘lgan, ammo bu ular bir-birining o‘rnini bosgan degan gap emas. Cholg‘ularning ikkisi ham ijrochilik amaliyotida ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lgan. Burchakli arfa Misrga Osiyodan keltirilganligi sababli uni “Osiyo” arfasi deb nomlashgan. Mesopatamiya

madaniy yodgorliklarida arfaning bu turi saroy marosimlarida boshqa cholgʻular bilan birgalikda ansambl tarkibida qoʻllanilgan. Bu cholgʻu toʻgʻri rezonator va unga perpendikulyar joylashgan burchak hosil qiluvchi tor ushlagichdan iborat (6, 7, 8-rasmlar)¹¹.



6-rasm



7-rasm



8-rasm

Arfada yigirmaga (20) yaqin juftlangan holda joylashtirilgan torlar boʻlgan. Torlar maxsus moslamalar, yaʼni iplar (shnuroklar) yordamida sozlangan. Oʻrta Osiyoning qadimgi arfasi cholgʻuning burchakli turiga mansub boʻlib, boshqalardan keng va yengil egiluvchan rezonatori bilan farqlanadi.

Aynan shu kabi rezonatorga ega boʻlgan arfa eramizgacha boʻlgan V asr grek vazasida tasvirlangan, vaholang-ki, kelib chiqishi Osiyoga tegishli boʻlgan arfa Gretsiyaga bundan ancha ilgari kirib kelgan. Qizigʻi shundaki, bunday tuzilishga ega boʻlgan arfa Oʻrta Sharq tasviriy sanʼatida, Eron va Oʻrta Osiyo miniatyura tasvirlarida oʻz holicha saqlanib qolgan. Cholgʻuni greklar olib mukammallashtirganlar, uning keyingi rivoji esa Oʻrta Sharq mamlakatlariga tegishlidir. Afrosiyobdan topilgan musiqachilar tasvirlangan terrakota shaklchalari Soʻgʻdda yoysimon shakldagi arfa mavjud boʻlganligini tasdiqlaydi.

¹¹ Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, 21-бет.

Afrosiyob terrakota haykalchalarida fleyta cholgʻusining ham har xil turlari tasvirlangan. Loydan ishlangan miniatyuralar barcha detallarni toʻliq koʻrib chiqish imkonini bermaydi. Shu sababli soʻgʻd fleytasining tuzilishi va tovushqatorini aniqlashda muammolar keltirib chiqaradi. Cholgʻuning tuzilishi, uning qanday xomashyodan tayyorlanishi va nechta ijro teshikchalari mavjudligini aniqlash ham mushkuldir.

Fleyta cholgʻusida ijro etayotgan soʻgʻd ayolining shakl tasviriga eʼtibor qaratamiz. Cholgʻuning uzunligi taxminan 700 mm.ni tashkil etadi. Ijrochining labiga tegib turgan chetidagi teshigi, pastki qismga qoʻllar joylashtirilganligidan cholgʻudagi teshiklar miqdorini taxmin qilish mumkin. Nazarimizda fleyta bambuk yoki qamishdan tayyorlangan.

Koʻp xalqlarda boʻylama fleyta choʻponlar cholgʻusi sifatida ommalashgan, qozoqlarda-sibizgʻi, boshqirdlarda-kuray yoki chibizgʻi, turkmanlarda-kargi-tuydyuk, kavkaz xalqlarida (cherkes sibizgʻisi, abxaz acharpishi). Bu cholgʻular bir-biridan teshiklar miqdori bilan farqlanadi, ular uchtdan oltitagacha va uzunligi 450 mm.dan 1000 mm.gacha boʻlishi mumkin. Sugʻd fleytasining qanday ovoz tarovatiga ega boʻlganligini taxmin qilish qiyin, ammo u faqatgina choʻponlarning cholgʻusi boʻlgan deyish notoʻgʻri. Koʻpgina manbalarda keltirilgan maʼlumotlarga asoslanib, yorqin ifodalangan plastik uslub, diniy kanonga qatʼiy boʻysungan Afrosiyob terrakotalaridan, fleyta va lyutnya ijrochilari ham madaniy marosimlarga jalb etilganligining guvohi boʻlamiz.

Afrosiyob terrakotalarida yonlama fleytali musiqachilar tasviri uchraydi. Tasvirda musiqachining ijro vaqtidagi holati ifoda etilgan. Terrakotadagi tasvirdan tasavvur etish mumkinki, cholgʻu va qoʻllarning holati oʻzbek nayini eslatadi. Cholgʻu uzunligi 450-520 mm.li boʻlib, unda oltita ijro teshikchalari hamda nafas yuboriladigan bitta teshik mavjud. T.Vizgoning yozishicha: “Hindistonda bu cholgʻu I asrda paydo boʻlgan. Uning ilk koʻrinishilari gandxar tasvirlarida uchraydi. Xitoyda yonlama fleyta - ommabop cholgʻulardan biridir. Shunisi

qiziq-ki, xitoy manbalarida cholgʻuning kelib chiqish tarixi boshqa hududga tegishliligi taʼkidlanadi (uning qadimgi nomi-xenchuy). “Szan tarixi” kitobining musiqa boʻlimida aytilishicha, xenchuy – “xu” (yaʼni, boshqa hudud cholgʻusi) aynan yonlama fleyta cholgʻusidir”¹².

Zamonaviy Xitoy fleytasi ham oʻzbek nayiga juda yaqindir. Bambukdan tayyorlangan cholgʻuning umumiy uzunligi 610-630 mm.ni tashkil etadi, unda oltita ijro teshikchalari mavjud (hozirgi vaqtda cholgʻuning mazkur turi Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi “Davlat noyob ilmiy obʼekti”da eksponat sifatida saqlanmoqda).

Xalq cholgʻularini oʻrganish boʻyicha maʼlumotlar yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida oʻz aksini topgan. Shuningdek, V.Belyayevning “Oʻzbekiston musiqa cholgʻulari” (1933), R.Gruberning “Musiqqa madaniyati tarixi” (1941), I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” (1963), A.Karomatovning “Oʻzbek cholgʻu musiqasi” (1972), T.Vizgoning “Oʻrta Osiyo musiqa cholgʻulari” (1980), A.Petrosyansning “Cholgʻu-shunoslik” (1990), A.Odilovning “Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi” oʻquv qoʻllanmasi (1995), A.Lutfullayev va T.Solomonovanning “Oʻzbek xalq musiqa cholgʻulari” oʻquv-uslubiy qoʻllanmasi (2005), A.Tashmatovanning “Musiqiy cholgʻular muzeyi Katalogi” (2006), A.Lutfullayevning “Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik sanʼati tarixi” oʻquv qoʻllanmasi (2006), S.Saidiyning “Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholgʻular” nomli oʻquv qoʻllanmasi (2008) xalq cholgʻularini oʻrganishga bagʻishlangan.

V.Belyayevning “Oʻzbekiston musiqa cholgʻulari” nomli kitobi 1933-yili Moskvada nashr etilgan boʻlib, u 7 bobdan iborat. I-bob zarbli, shovqinli, tilchali va rezonansli cholgʻularga bagʻishlangan. II-bobda damli cholgʻular, III-bobda torli cholgʻular haqida maʼlumotlar berilgan. IV-bob oʻzbek musiqa cholgʻularining ansambllarda qoʻllanilishi, V-bob oʻzbek musiqa cholgʻularining

¹² Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, 25-бет.

avvalgi (eskicha) vazifalari, VI-bob o‘zbek xalq cholg‘ularning tarixiy ahamiyati, VII-bob o‘zbek musiqa cholg‘ularining O‘zbekiston musiqa madaniyatini qurishda qo‘llanilishi kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu kitobda o‘zbek musiqa cholg‘ulari haqidagi bebaho ma’lumotlar o‘rin olgan.

R.Gruberning “Musiqqa madaniyati tarixi” 1941-yili Moskvada chop etilgan bo‘lib, u III-bobdan iborat. I-bob musiqaning paydo bo‘lish (yaratilishi) masalari va qadimgi (ibtidoiy jamoa tuzumi) davr musiqa madaniyati deb nomlanadi. Ushbu bobning IV-bo‘limi musiqa cholg‘ularining paydo bo‘lishi va ilk rivoji masalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda cholg‘ularning ibtidoiy jamoa davridan boshlab yaratilish va rivojlanish jarayoni misollar yordamida yoritilgan hamda ular haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Cholg‘ularning yaratilishiga sabab bo‘lgan omillar haqida ham fikrlar bildirilgan. Shu bilan birga cholg‘ular guruhlarining ketma-ketligi ham ko‘rsatib o‘tilgan. II-bobda - Qadimgi dunyo musiqa madaniyati, III-bobda esa ilk o‘rta asrlar musiqa madaniyati haqidagi ma’lumotlar jamlangan.

I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” nomli kitob 1963-yili Toshkentda nashr etilgan bo‘lib, u ikki qismdan iborat. I qism O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixidan, Ud sozi haqida, Maqom nima, O‘n ikki maqom sistemasi, Sharq nota yozuvi haqida, Qadimiy kuy va ular shakli, O‘n ikki maqom va Shashmaqom qabi mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan. Ud sozi haqida nomli mavzuda muallif cholg‘uning kelib chiqish tarixi, ud haqida rivoyat, ilk bora yasalgan cholg‘u haqida, udni ixtiro qilgan inson hamda uning ijrochilik amaliyotida qo‘llanilganligi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Ikkinchi qism Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Toshkent, Farg‘onada mashhur bo‘lgan maqom yo‘llariga bag‘ishlangan.

F.Karomatovning “O‘zbek cholg‘u musiqasi” kitobi 1972-yili Toshkentda nashr yuzini ko‘rgan. U III bobdan iborat bo‘lib, I-bob musiqa cholg‘ulari va ular uchun pyesalar deb nomladi va “Zarbli cholg‘ular usuli”, “Damli cholg‘ular uchun pyesalar” va “Torli cholg‘ular uchun pyesalar” deb nomlangan bo‘limlardan

iborat. II-bob cholg‘u musiqasining turlari va janrlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u ma‘lum vaqtda, ma‘lum holatlarda ijro etiladigan pyesalar, xalq tomosha musiqasi, xohlagan paytda va har qanday vaziyatda ijro etiladigan pyesalar nomli qismlarni o‘z ichiga qamrab olgan. III-bob Cholg‘u ansambllari deb nomlanadi va unda cholg‘u pyesalari aks ettirilgan. T.Vizgoning “O‘rta Osiyo musiqasi cholg‘ulari” (tarixiy ocherklar) 1980-yili Moskvada chop etilgan. Ushbu bebaho manbada musiqiy cholg‘ular davrlardan kelib chiqqan holda uch bo‘limda tavsiflangan:

Musiqiy cholg‘ular moddiy madaniyat yodgorliklarida (m.a. III asr-mil.IX asr) deb nomlangan I-bo‘limda O‘rta Osiyo antik davri va ilk o‘rta asrlar musiqasi cholg‘ulari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Feodalizm davri musiqasi cholg‘ulari yozma manbalar va tasviriy san‘at asarlarida (IX-XVII asrlar) nomli II-bo‘lim musiqasi risolalari hamda kitob miniatyuralarini o‘z ichiga qamrab olgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshida O‘rta Osiyo musiqasi cholg‘ulari deb ataluvchi III-bo‘lim musiqasi cholg‘ulari va ularning taomildagi shakllari hamda musiqiy ansambllar, ularning tarkibi va vazifalari haqidagi ma‘lumotlar tavsiflagan.

A.Petrosyansning “Cholg‘ushunoslik” nomli o‘quv qo‘llanmasi 1990-yil Toshkentda (3-marta) nashr yuzini ko‘rdi. Ushbu kitobda muallif haqida, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining rivojlanish tarixi, modernizatsiyalashtirilgan hamda yangitdan yaratilgan cholg‘ular haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Cholg‘ular ovozi tarovatiga ko‘ra klassifikatsiyalashtirilgan va ketma-ketlikda tavsiflangan. Shuningdek, ularning oilalari, har bir cholg‘uning ijro imkoniyati, sozlanishi, tovush ko‘lami hamda ularda ijro etiladigan zarblar haqidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 6 bobdan iborat bo‘lib, I-bob torli-kammonli, II-bob torli-chertma, III-bob torli-urma, IV-damli, V-bob zarbli cholg‘ularga bag‘ishlangan. VI-bobda zamonaviy o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari, turli orkestrlarning tarkiblari bo‘yicha tavsiyalar, orkestr tarkibidagi cholg‘ular diapazoni, partiturada orkestr cholg‘ularining joylashish tartibi, sozandalarni joylashti-

rish sxemalari, orkestr uchun taxminiy dastur hamda ayrim asarlarning partituralari berilgan.

A.Odilovning “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” o‘quv qo‘llanmasi 1995-yilda Toshkentda chop ettirilgan bo‘lib, u IV ta katta boblardan iborat. I-bob - qadim zamonlardan XIX asrgacha bo‘lgan davrda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘ati, II-bob - XX asr boshlaridan 1945-yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘ati, III-bob - 1945-1960-yillarda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik, IV-bob - 1960-1990-yillarda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik deb nomlangan. Bulardan tashqari ushbu qo‘llanmada xalq cholg‘ulari kafedrası, har bir cholg‘u bo‘yicha sinflarning tashkil etilishi, mohir sozandalar va ko‘rik-tanlovlar haqidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

A.Lutfullayev va T.Solomonovanning “O‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma 2005-yilda Toshkentda nashr yuzini ko‘rdi. Qo‘llanma II bobdan iborat bo‘lib, II-bob - “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijro etishni o‘rgatish maktablari” deb nomlanadi va u zarbli cholg‘ular, damli cholg‘ular, torlikamonli cholg‘ular, torlichertma cholg‘ular, torli-urma cholg‘ular nomli qismlardan iborat. Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma barcha turdagi o‘zbek xalq cholg‘ulari va ulardagi ijrochilik maktablari haqida bebaho ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etgan.

A.Tashmatovanning “Musiqiy cholg‘ular muzeyi Katalogi” 2006-yilda Toshkentda uch (o‘zbek, rus, ingliz) tilda nashr etilgan. Ushbu katalog uch bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim - ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda laboratoriya asoschilari va hozirgi kungacha bo‘lgan ijodiy jarayon yoritilgan. Ikkinchi bo‘limda - an‘anaviy hamda hozirgi kunda amaliyotda qo‘llanilayotgan zamonaviy cholg‘ular haqida batafsil ma‘lumot berilgan va ular rangli tasvirda namoyon etilgan. Uchinchi bo‘limda - ilk sozgarlar, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan malakali ustalar va shogirdlarining hayoti va ijodi haqida ma‘lumotlar berilgan.

A.Lutfullayevning “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘ati tarixi” kitobi 2006-yilda Toshkentda nashr ettirilgan bo‘lib,

unda mohir changchi-sozandalar Fahriddin Sodiqov, Ahmad Odilov, Fozil Xarratov, Rustam Ne'matov, Baxtiyor Aliyev, Fazilat Shukurova, Tilash Xo'jamberdiyev va Abdusalom Mutalovlarning hayoti va ijodi hamda ularning ijrochilik maktablari yoritilgan.

S.Saidiyning "Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular" nomli o'quv qo'llanmasi Toshkentda 2008-yilda nashr ettirilgan. Qo'llanma III bobdan iborat bo'lib, I-bob - Urma cholg'ularning Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidagi o'rni, II-bob - Urma cholg'ular ergologiyasi, Urma-zarbli va musiqiy cholg'ularning umumiy ergologik konstruksiyasi, III-bob - Urma cholg'ular ijrochiligida milliy va mahalliy uslublar deb nomlanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada urma cholg'ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari tomonidan hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan 14 turdagi maxsus sinflar, ya'ni cholg'ular bo'yicha yaratilgan va nashr yuzini ko'rayotgan o'quv qo'llanma va darsliklar ma'lum bir cholg'uga bag'ishlangan bo'lib, ular har bir cholg'uni batafsil o'rganishga bag'ishlangan. Nay, qo'shnay, chang, qonun, prima rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas, tanbur, doyra, g'ijjak, g'ijjak alt, qobuz bas cholg'ulari bo'yicha chop etilgan adabiyotlar shular jumlasidandir.

Savollar:

1. Udsimon cholg'u Xitoyda qanday nomlanadi?
2. Yaponiyada-chi?
3. G.Farmer ud cholg'usining Xitoyga kelib qolishini qanday izohlaydi?
4. Udning Xitoyda "Pipa" deb nomlanishi haqida L.Pikkenning fikri?
5. V.Baxman xalq cholg'ulari to'g'risida qanday fikrlar bildiradi?
6. Xalq cholg'ulari haqidagi bebaho ma'lumotlar qaysi olimlarning ilmiy manbalarida o'z aksini topgan?

7. Yoysimon arfaning vatani qayer?
8. Burchakli arfa Misrga qayerdan keltirilgan?
9. Qaysi arfa “Osiyo” arfasi deb nomlangan?

Topshiriqlar:

1. Mavzuga taalluqli adabiyotlarni o‘rganib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1 va 4 kitoblardan konspekt yozing va ulardan biri haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Arxeologik topilmalar, Ayritom frizi, Buyuk ipak yo‘li, “kalta lyutnya”, yoysimon arfa, burchakli arfa, bo‘ylama fleyta, yonlama fleyta, “Musiqqa madaniyati tarixi”, “Maqomlar masalasiga doir”.

Adabiyotlar:

1. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980.
2. Беляев А. Музыкальные инструменты Узбекистана. - М., 1933.
3. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. - Т., 1972.
4. Вызго Т. Миграция музыкальных инструментов Средневосточного региона на Запад в эпоху раннего средневековья // Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. - М., 1987, 62-бет.

3-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT.

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi musiqa cholg‘ulari “Davlat noyob ilmiy ob’ekti”da saqlanayotgan cholg‘ular bilan yaqindan tanishing.



1. Barcha o‘zbek xalq cholg‘ularining evolyutsion jarayonini ko‘rib chiqing.
2. Cholg‘ularning yaratilish jarayoni va turlarini tomosha qiling.
3. Torli-kamonli cholg‘ularning paydo bo‘lishida rezonator vazifasini bajargan xomashyolar bilan tanishing.



Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni o‘rganib chiqing.

1. Ud cholg‘usi buyuk ipak yo‘li davrida.
2. Xalq cholg‘ularini o‘rganish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar.
3. O‘zbek xalq cholg‘ularining ovoz tarovati bo‘yicha klassifikatsiyaga bo‘linishi va ularining dunyo miqyosidagi atamasi.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan **cholg‘ularni** o‘rganish uchun to‘g‘ri keladigan ma’lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta’riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

4-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

Mavzuni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun quyidagi adabiyotlarni mutolaa qilib, ushbu vazifalardan birini yozma ravishda bajaring:

Adabiyotlar:

1. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980.
2. Петросянец А. Инструментоведение. - Т., 1990.
3. Грубер Р. История музыкальной культуры. - М., 1941 (1-tom, 1-qism)

I-variant:

1. Udning buyuk ipak yo‘li davridagi sayohati.
2. Pipa haqida xorijiy tadqiqotchilarning fikri.
3. Ud va pipa cholg‘ularining shakli, postanovkasi va ijro uslubidagi umumiylik va farqlarini yozma ravishda bayon eting.

II-variant:

1. Xalq cholg'ularini o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy manbalar.
2. Xalq cholg'ulari bo'yicha yaratilgan darsliklar.
3. Zarbli cholg'ularning evolyutsion jarayoni haqida yozib bering.

III-variant:

1. Cholg'ularning yaratilish jarayoni va turlari.
2. O'zbek xalq cholg'ularining dunyo miqyosidagi atamasi.
3. Torli cholg'ularning paydo bo'lishida rezonator vazifasini bajargan xomashyolar haqida yozma bayon eting.

5 – DARS: SHARQ OLIMLARINING RISOLALARIDA MUSIQANI JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, sozandalar nafaqat bir necha turdagi musiqa cholg'ularini chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Sozandalar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoir-lari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib, cholg'ularining yangi namun-lari kashf etilishi ham o'sha uzoq davrlarga borib taqaladi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musi-qaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kito-bi", Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" qomusidagi "Mu-siqa haqida risola", Al-Xorazmiyning (X) asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida

kitob” yoki “Sharafiya” kitobi, A.Jomiyning (1414-1492) “Musiqqa haqida risola” kitoblarida musiqqa ijrochiligi va xalq cholgʻulari haqida muhim maʼlumotlar bayon etilgan.

Safiuddin Urmaviy isteʼdodli ud cholgʻuchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmiya shahrida tugʻilgan. Urmaviyning eng katta yutugʻi ladlarning mukammal tizimini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylaning (1044 yilda vafot etgan) “Musiqqa haqida toʻliq kitob”i uning musiqqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni - musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marogʻiy (XV asr) Abduqodir ibn-Gʻoyibiy (Marogʻiy) Ozarbayjonning Marogʻ shahrida tugʻilgan boʻlsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda oʻtgan va Hirotda vafot etgan. “Musiqqa ilmida ohanglar toʻplami” risolasida musiqqa haqidagi taʼlimotni - kamoncha, yetti torli gʻijjak kabi bir turdagi musiqqa cholgʻulari borligi haqidagi maʼlumotlar bilan boyitadi.

Al-Husayniyning XV asr Musiqiy kanonlarida asosan Oʻrta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholgʻusi - dutor haqida maʼlumot berilgan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqqa nazariyotchisi sifatida tanilgan boʻlib, oʻz risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqqa cholgʻulari ichida eng yoqimlisi deb hisoblangan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqqa-shunos Darvish Ali¹³ oʻz risolasidagi tanbur, chang, qonun, borbat, chagʻo-na, ud, rud, rubob, qobuz, gʻijjak, she-man, ruxavza, kungura kabi musiqqa cholgʻulari haqida batafsil maʼlumot bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholgʻularini oʻrganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. **Abu Nasr Muhammad Forobiy**ning mashhur asari “Katta musiqqa kitobi” (“kitob al-musiqqa al-kabir”) ulkan ahamiyatga ega. Oʻrta asr

¹³ Darvish Ali - XVII asr musiqasi haqida Buxorada yaratilgan risola muallifi. Ushbu risolada u musiqqa cholgʻulari, sanʼat kishilari va sozandalar haqida boy va qimmatli maʼlumotlarni bayon qilgan. Darvish Ali Movaraunnahr xukmdori Imom Qulixon (1611-1642) saroyida cholgʻuchi boʻlgan.



Abu Nasr Forobiy

olimi bu kitobda ikki xalq musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi qo‘shiq san‘ati va cholg‘ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ularining jamiyat hayotidagi rolini o‘rganishga ahamiyat beradi va u “...Jangu-jadallarda, raqslarda, to‘y-tomoshalarda, ko‘ngil ochar bazmlarda hamda ishq muhabbat qo‘shiqlarini kuylashda chalindigan o‘ziga xos cholg‘ular bor,” deb yozgan edi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan oxir o‘sha davr musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shohrud, qonun va boshqa musiqa cholg‘ulari izchil va batafsil ta‘riflanadi. Forobiy torli-mizrobli lyutnyani o‘sha davrda eng keng tarqalgan cholg‘u hisoblagan. Lyutnya o‘ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha “ud” nomini oladi. Bu cholg‘u ko‘pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda (zamonaviy ud namunalari O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Davlat noyob ilmiy ob‘ekti”da saqlanmoqda). “Musiqa haqida katta kitob”da Forobiy yana bir cholg‘u, ya‘ni tanburni ham ta‘riflaydi.

Olimning fikricha tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turadigan cholg‘ulardan biridir. Tanburda torlar noxun yordamida chertiladi. Tanbur huddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg‘udir. Tanburning ikki yoki uch jez tori bo‘lgan. Uning ikki turi ma‘lum: Xuroson va Bog‘dod tanburlari. Bog‘dod tanburining maqomlari (parda-ladlari) ko‘p bo‘lgan, dastasida cholg‘u bo‘g‘zidan to dastasining yarmigacha oralig‘ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o‘z shaklini yo‘qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg‘usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinmoqda.

Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli hil damli cholg'ularni ovoz hosil qilish tamoyiliga ko'ra naysimonlar guruhiga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylama naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni Vetnamliklar-sao, tojiklar-tutek, tatarlar-kaval, qozoqlar-sibizg'a, ozarbayjonlar-ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar-uoo, choor (cho'ponlar cholg'usi), o'zbeklar-nay deb atashadi. Olim ko'pincha o'rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi. Shuningdek, Forobiy dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuydukga (qo'sh qamish naychadan tuzilgan cholg'u) o'xshaydi.

Risolada Forobiy o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab rezonator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan: birinchisi yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, ikkinchisining pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy ta'rif berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning o'n besh (15)ta torlari bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan. "Cholg'u asboblari haqida kitob"da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularni udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Yashagan davriga ko'ra buyuk olim **Abu Ali Ibn Sino** Forobiyga juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolada



Abu Ali Ibn Sino

cholgʻular taʼrifiga anchagina oʻrin ajratilgan. Ibn Sino oʻz davri musiqalarini ikki guruhga boʻladi: mizrobli, noxunli (borbat, tanbur, rubob) va butun rezonator qopqogʻi boʻylab tortilgan ochiq torli cholgʻular (shohrud, chiltor, lira), chang (arfa).

Oʻsha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Safiuddin Urmaviy musiqqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U usta

ud cholgʻuchisi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib olim oʻz nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning “Taqvodorlik kitobi”da ud taʼrifi quyidagi soʻzlar bilan boshlanadi: “Bilingki, cholgʻu asboblari ichida ud deb ataluvchisi eng mashhur va eng zamonaviydir”.

Udning besh juft tori kvarta tartibidagi yetti (7) ta maqomi (pardasi) boʻlgan. Torlari, bam, masna, maslas, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qoʻsh torli, takomillashgan ud keyingi paytlarda ham oʻz tuzilishini saqlab qolgan (shu kunlarga cha Armaniston, Ozarbayjon va Oʻzbekistonda saqlanib qolgan ud ham besh qoʻsh torli, lekin maqom (parda-lad)siz. Udning kvartaga mos sozlangan besh qoʻsh tori va yetti maqomi (pardaladi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), Al-Husayniy, Marogʻiy, Ibn Sinolar yozishgan. Jomiyning “Musiqqa haqida risola”sida keltirilgan ud dastasining toʻla chizmasi uni sozlash haqida toʻliq tasavvur beradi. Uning tasdiqlashicha mavjud oʻn ikki (12) maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilarga taʼsiri haqida toʻxtalib, uning chuqur ruhiy va maʼnaviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

Marogʻiyning XIV asrda yaratilgan “Kanz al Tuhaf” risolasida gʻijjak va rubob haqida qiziqarli maʼlumotlar mavjud. Masalan, Marogʻiy oʻzining risolasida gʻijjak yasash usuli (texnologiyasi) haqida maʼlumot beradi. Olimning tasdiqlashicha ipak yoki pay

torlar jez torlarga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang chiqarishi mumkin ekan.

Qo'sh torli cholg'u dutor haqidagi ilk ma'lumotlar Al-Husayniyning XV asrda yaratilgan musiqa kanonlarida uchraydi. "Dutor" atamasining paydo bo'lishiga uni shaklan o'xshash, ko'p torli boshqa cholg'ulardan (ozarbayjoncha soz, tanbur, ud kabi) farqlash asosiy sabab bo'lgan.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'unayning ta'riflari berilgan. Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy xalq cholg'ulari haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa madaniyati, chunonchi O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XI-XII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganishda qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hol-lari bayon etilgan. Risolaning V- va VI-boblari o'sha davrda ko'pgina Sharq mamlakatalarida qo'llanilgan halq cholg'ulari haqidagi ma'lumot batafsil bayon qilinadi. Darvish Ali o'tmishdoshlari singari torli, mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "sul-toni" deb atadi. Udning juft sozlangan o'n ikki tori bo'lgan. U Forobiy davridagi dastlabki uddan birmuncha farq qilgan. Darvish Alining ma'lumotlariga qaraganda, oltinchi quyi tor (muxtalif) cholg'uning pastki diapazonini (bas registrini) kengaytirgan. Ud cholg'uchisi Sulton-Muhammad-Udiy-samarqandiyni muallif noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan.

Naychi Sulton Ahmadni Darvish Ali mashhur cholg'uchi sifatida tilga oladi. Risolada muallifining yozishicha, u chalgan nayning sehrli ohanglari musiqa san'ati ixlosmandlarida chuqur taasurot qoldirgan.

Buxorolik Shayx Shamsiy-Rabboniy mohir rubob cholg'uchisi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tinglov-

chilarga shu qadar kuchli ta'sir qilganki, hech bir kishini befarq qoldirmagan. Rubobning ohangini eshitib, betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan.

Risolada yozilishicha chang cholg'ular homiysi - Zuhraga bag'ishlangan. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Nay qadimiy cholg'ularning biri sifatida tilga olinadi. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qobiz, g'ijjak, musiqor, ebon-nay (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza kabi (olti tordan iborat noxunli) cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali o'sha davrda mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari haqida hamda ularning Sulton Muhammad saroyida turli xil tantanalarda, qabullarda, dam olish kechalari va yaqin kishilar davralarida doimo ishtirok etganlari haqida xabar beradi. Saroyda "nog'oraxona"¹⁴, deb atalgan 60 ijrochidan tashkil topgan cholg'uchilar ansambli bo'lgan. Ularni nog'orachi (maestro) boshqargan. U misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: "Sulton Husayn saroyida ansambl rahbari - mehtar vazifasini yetuk nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy-Miroqiy bajargan. Darvish Ali bu sozandaning mahoratini yuksak baholab, uni "tengsiz cholg'uchi, bu dunyoning katta-yu kichik mo'jizalari ko'rki"¹⁵, deb ta'riflagandi. Saroyda ko'p sonli sozandalarning saqlanishi, ularning hordiq chiqarish, tantana va bayramlarni tashkil etishdagi ahamiyati, xalq cholg'ularida ijrochilik aholining turli tabaqalari orasida keng tarqalganligi haqida taxminni to'liq asoslaydi.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatli-ki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qobiz, doyra, nog'ora, ud). O'rta Osiyoning O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobay-

¹⁴ Nog'oraxona – nog'ora va damli cholg'ularda kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona.

¹⁵ Семенов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али. - Т., 1946.

nida o‘zbek xalqining kundalik turmush tarzidan mustahkam o‘rin olib, uning madaniy hayotida keng qo‘llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg‘ularni o‘zbek xalq cholg‘ulari, deb atash o‘rinlidir.

Darvish Ali o‘sha zamonning buyuk xalq cholg‘uchilari ijro etgan ko‘p qismli, turkum musiqiy asarlar - maqomlarning katta ahamiyati haqida so‘z yuritgan. O‘rta asr Sharq olimlarining asarlarida musiqiy cholg‘ular, ular yaratgan ma’naviy va madaniy muhit haqida tarixiy ma’lumotlar yetarli darajada bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu xalq cholg‘ularining texnik va badiiy imkoniyatlari haqida ma’lumotlar juda oz. Risolada ta’kidlanishicha, ijrochilar aynan o‘ziga xos ijrochilik amaliyoti asosida musiqa nazariyasini ishlab chiqishgan va xalq cholg‘ularining mavjud shakllarini ta’riflashgan.

Mo‘g‘illar istilosi davrida (XIII) O‘rta Osiyoning madaniy hayotida biroz orqaga ketish bo‘ldi va faqat sohibqiron Temur O‘rta Osiyoni birlashtirgach, san’atning turli sohalari yana ravnag topa boshladi. Temur o‘z poytaxti Samarqandda me’morchilik ishlariga katta e’tibor berdi. Samarqanddan tashqarida ham bir qancha me’morchilik obidalari qad ko‘tardi (Shahrisabz, Yassa). Egallab olingan madaniy markazlardan turli kasb ustalarini, shu jumladan, xalq cholg‘ulari, xalq og‘zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlandi. Firdavsiy, Sa’diy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy, Behbudiy, Dehlaviylarning asarlarida

60 dan ziyod xalq cholg‘ularining nomi zikr etilgan.

Firdavsiyning “Shohnoma” asari (XIV asr)da musavvir Muhammad Muqum Xusrav oldida ud chalayotgan VI asr cholg‘uchisi Borbadni tasvirlagan. Asardan cholg‘ularning ikki guruhga - xonaki cholg‘ular (chang, rud, lyutnya, fleyta, nay) va shovqinli damli cholg‘ular karnay, litavralar, buben



Borbad Xusrav huzurida kuy ijro etmoqda

baraban, gong)ga bo‘linganligi ma’lum bo‘ladi.



XIV asr oxiri XV asr boshlarida O‘rta Osiyoda adabiyot va san’at, jumladan, musiqa temuriylar ijtimoiy hayotida (ayniqsa Samarqandda) muhim o‘rin tutgan. “Zafarnoma”ning bir miniatyurasida Temurning safarga chiqishi aks ettirilgan bo‘lib, unda dutor cholg‘usi tasvirlangan. Boshqa bir suratda esa karnaychilar qal’a devori ustida turib Temur qo‘shinlari g‘alabasi

haqida jar solayotganligi aks ettirilgan.

XV-XVII asr miniatyuralarida chang (arfa), doyra, lyutnya, borbat, ud, qonun, g‘ijjak, soz, nay, rubob, tanbur kabi cholg‘ular tasvirlangan. “Shohnoma”ning XV asr o‘rtalarida ko‘chirilgan nusxasidagi miniatyura parchasida chang, ud, tanbur va rubob cholg‘ulari aks ettirilgan. O‘rta asr miniatyuralarida nay xalq cholg‘ulari xonaki ansambli tarkibida tasvirlangan. Bu cholg‘uning jozibali ohangidan ilhomlangan Jaloliddin Rumiyy (XIII asr) unga bag‘ishlab “Nay qo‘shig‘i” she’rini bitadi:

Nayning ovozigaga quloq tut, u ne
haqda g‘am chekar, yig‘lar,
Mangu hijron, o‘tmish alamin
unutolmay dillarni tirnar.

Qamishzorda beshafqat ho‘pon
Kelganida meni beomon
Oshiqlarning ohi-yoshlari
Singib ketdi tanimga tamom.

Azob ichra qolgan bo‘tamga
Umr bo‘yi qaytmoq istayman


Mangu visol armon azobin
Ko'ngillarga aytmoq istayman"¹⁶



Zahiriddin Muhammad Bobur

Zahiriddin Muhammad Bobur-ning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilari, naychilar, g'ijjakchilar, changchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishga ko'maklashgan. "Boburnoma"da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Boburning ta'kidlashicha, "Ustod-qul Muhammad Shayboniy va Husayn udiy kabi mohir cholg'uchilar Bek (Navoiy)ning bevosita yordami

va homiyligida katta shuhrat qozondilar, ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar"¹⁷. Bobur shuningdek, Shoh Qulliy-G'ijjakiy, Husayn Uddiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni



Alisher Navoiy

ham tilga oladi. Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, no-g'ora, doyra, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'uchilarini o'z asarlarida Firdavsiy-Ozoda, Navoiy-Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb atashgan. XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni bu davrga kelib O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyati o'z kamolotiga yetdi.

¹⁶ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik tarixi. - T., 1995, 16-bet.

¹⁷ Sharq miniatyuralari. - T., 1980, 99-bet.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochilari ayni chog‘da o‘zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O‘sha paytdayoq mohir chang, ud, g‘ijjak, qonun, nay, tanbur, bo‘lamon ijrochilari va yetuk xonandalar bo‘lgan, ular o‘ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Shahar hunarmandlarining musiqiy faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Ko‘pchilik ijrochilar hunarmandlar orasidan chiqqan bo‘lib, cholg‘uchilik kasbi ular uchun yuqori tabaqa jamiyatiga yo‘l ochgan. Ularni tez-tez saroy tantana va marosimlariga jalb etishgan. Ular nazm va musiqa majlislarining ko‘rki bo‘lgan. Bu yerda hozirjavoblik, qo‘shiq, aytish, biror-bir cholg‘uda chalish layoqati yuqori baholangan. Yosh ijrochilar uchun bu o‘ziga xos ko‘rik-musobaqa bo‘lgan. Shuning uchun ular bir yoki bir necha musiqa cholg‘ularini chalishda bir-biridan o‘zishga intilishgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san’atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg‘ulari asosiy turlarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material berilgan. Va nihoyat, Temuriylar davri va keyingi ikki yuz yillik davr kitob miniatyurasi xalq cholg‘ulari ansamblining quyidagi ikki turi bo‘lganligi haqida shahodat beradi:

1) doyra va nay jo‘rligida chertma torli ansambl (xonaki turdagi);

2) Damli va urma zarbli cholg‘ular (karnay, surnay, bulamon, doyra, nog‘ora) ansambli.

Ansamblning ikkinchi turi ko‘p hollarda harbiy orkestr sifatida foydalanilgan.

O‘rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o‘zbek xalq cholg‘ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjiridagi ayrim uzilgan xalqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Musiqa cholg‘ulari yasovchi xalq ustalari bir parcha yog‘ochga, qamishga, suyakka “jon” ato etishgan, bu ularga abadiylik bag‘ishlagan. Necha yuz yillar o‘tdi, musiqa cholg‘ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o‘z o‘rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida o‘zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san’atining quyidagi ko‘plab yangi turlari takomillasha boshlaydi: katta ashula, katta o‘yin, Shodiyona, Navro‘z, Mavrigiy, Shashmakom, Chormaqom (unga Dugoh Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg‘ulari va ijrochilarga bog‘liq holda turlicha cholg‘u ansambllari tuzilgan. Ko‘p hollarda xalq cholg‘ulari ansambli tarkibiga g‘ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo‘shnay, doyra kabi musiqa cholg‘ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo‘lgan. Maqomlar asosan saroy a‘yonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitda ijro etilgan. Hatto Mohir qo‘shiqchilarning o‘ziga xos musobaqasi (ayniqsa avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi qismlarni to‘qishda) tashkil etilgani ma‘lum. XIX asrda ijrochilik amaliyotida nay, qo‘shnay, surnay, karnay, bo‘lamon, chang, qashqar rubobi, buxoro (afg‘on) rubobi, tanbur, dutor, do‘mbra, g‘ijjak, sato, doyra, qayroq, safoil kabi cholg‘ular mustahkam o‘rin oldi.

Cholg‘u ijrochiligi san’ati tarixida ham XIX asr bir qator musiqa ustalarini yetishtirib chiqargan davr bo‘ldi. Bular: To‘ychi Xofiz, Shorahim Shoumarov, Shobarot tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent), Rustambek (Andijon), Ashurali Mahram, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo‘shnaychi (Qo‘qon), Abdulla Tarak, Ro‘zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doyrachi va changchi Usta Olim Komilov, Yusufjon qizik (Marg‘ilon) va boshqalardir. Bu san’atkorlar o‘zbek xalq musiqasi xazinasini boyliklarini saqlab qolishda, yosh iste’dodlarni tarbiyalashda, qadimiy cholg‘ularning tuzilishini takomillashtirish va yangiliklarni yaratishda katta rol o‘ynashdi. Yangi musiqa cholg‘ulari asta-sekin turmushga kirib kelib, o‘tgan yuz yillik oxirida ansambllardan mustahkam o‘rin oldi. Musiqa cholg‘ularidan qo‘shiq va raqslarga jo‘r bo‘lishda ham keng foydalanildi, ohanglarning ta’sirchanligi metroritmik bezak va qochirimlar bilan to‘ldirildi.

Savollar:

1. Forobiyning musiqa haqidagi qanday risolasini bilasiz?
2. “Davolash kitobi” qomusidagi “Musiqa haqida risola” qaysi Sharq olimiga tegishli?
3. Al-Xorazmiyning risolasi qanday nomlanadi?
4. Safiuddin Urmaviyning qanday risolasini bilasiz?
5. A.Jomiyning “Musiqa haqida risola”sida qanday ma’lumotlar bayon etilgan?
6. Darvish Ali o‘z risolasida ud cholg‘usini qanday ataydi?
7. Darvish Ali Changiy risolasida bayon etilgan changning necha tori va nechta pardasi bo‘lgan?
8. Jaloliddin Rumi nayga bag‘ishlab qanday she’r yozadi?
9. Nay qo‘shig‘i she’ridan parcha aytib bering?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlarni o‘rganib shiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 3 kitoblardan konspekt yozing.

Tayanch iboralar:

Iste’dodli ud cholg‘uchisi, yetti torli g‘ijjak, kamonchali tanbur, “Katta musiqa kitobi”, bog‘dod tanburi, bo‘ylama naylar, “Davolash kitobi”, ochiq torli cholg‘ular, “Kanz al Tuhaf”, qo‘sh torli cholg‘u, cholg‘ular “sultoni”, “nog‘oraxona”.

Adabiyotlar:

1. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). - T., 2008
2. Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али. - Т.,1946.
3. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995.

6-DARS: XIX ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA CHOLG‘U MUSIQASINING TUTGAN O‘RNI


XIX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi sohasidajiddiy o‘zgarishlar yuz berdi: yangidan-yangi shakllar paydo bo‘ldi. Xalq ijrochiligi an‘analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini yorituvchi kuy va qo‘shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doyrachi, naychi, surnaychi, bulamonchi, g‘ijjakchi, qashqar va afg‘on rubobchilari paydo bo‘ldi. Xalq cholg‘ulari musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyildi. Ular “Navro‘z” bayramlarida va shu singari xalq sayllari va tomoshalarida, hosil bayramlarida faol ishtirok etdilar.



Komil Xorazmiy

Cholg‘ular orasida musiqa tovushlarini yozib ko‘rsatadigan maxsus belgilar tizimini (notatsiya) yaratishga intilish paydo bo‘ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi **Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879)**ga nasib etadi. Iste‘dodli musiqa ijrochisi, mohir tanburchi va g‘ijjakchi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog‘ida nota bo‘yicha kuy chalayotgan cholg‘ularni ko‘rib hayratga tushdi.

Mirzaboshi-Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati – maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi. Cholg‘uchi tanbur chizig‘ida joylashgan ladlar miqdoriga muvofiq ravishda o‘zida 18 bo‘ylama chiziqni mujassam etgan tabulatura yozig‘i – “Xorazmcha tanbur notatsiyasi”ni kashf etdi. Ladni bosish joyi nuqtalar bilan belgilandi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur yozuvi o‘ngdan chapga o‘qilgan. Muallif



Tanbur notatsiyasi "Rost" maqomi

xorazm olti yarim maqomining birinchi maqomi "Rost"ni cholg'u va aytim yo'llarini yozib oladi. Bu ishlarda o'g'li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi.

Muhammad Rahimxon (Feruz)ning yordamida mashhur xattotlar tomonidan nusxalar ko'paytiriladi. Nusxalardan bittasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, 1 nusxasi O'zbekiston davlat konservatoriyasida saqlanib kelinmoqda. Mukammal bo'lmasada, bu yanga nota yozuv uslubi ijrochilik tarixiga musiqa merosini yozib olish va

saqlab qolish yo'lidagi ilk urinish sifatida kirdi. Notatsiya muallifi katta musiqa arbobi va o'qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsum, Bobojon bo'lamonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz Yusupov va ko'pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tanbur, g'ijjak, bo'lamon, surnay, doyra va boshqa cholg'ular chalishni o'rganishgan.

O'zbek xalq cholg'u ijrochiligi taraqqiyotiga xorazmlik sozandalardan - dutorchi Qambar bobo, bo'lmonchilar Abdurahmonbek, Abdulla bo'loman, Yoqub bo'lamon, surnaychi Sharif Mehtar, tanburchi Muhammad Yoqub Xarratov, Usta Xudoyberdi, Niyozxo'jalar katta hissa qo'shishgan. Xorazmda garmonchilardan Safo Mug'anniy, Xo'ja Otajonov, Jumaniyoz Xayitboyev va boshqalar xalq orasida juda mashhur edilar.

Ta'kidlash kerakki, notatsiya kashf qilinganligiga qaramay o'zbek xalq musiqa cholg'uchiligi asosan ko'p sonli ijrochilik san'ati ustalari tomonidan yaratilgan an'anviy og'zaki usulda rivojlandi. Musiqa asarlariga jiddiy yondashuv esa har bir ijroning takrorlanmas o'ziga xos bo'lishini ta'minladi.



Muhammad Yoqub Xarratov

Pahlavon Mirzaboshi Komilning shogirdi **Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939)** mashhur tanburchi edi. U nafaqat cholg'uchilik san'atini, balki xattotlik san'atini ham mukammal egallagan. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansamblining sozandasi bo'lgan. Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur notatsiyasini tyzishda xorazmcha maqomlarni yozib olishda

qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularni saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan. M.Xarratov Rossiyada mavjud bo'lgan nota ilmini egallashni orzu qilgan. U qator iste'dodli ijrochilarni tayyorlagan, usta tanburchi sifatida ijrochilik mahorati sirlarini Mustafu, Yunus, Asqar, Matyusuf Xarratov, Matpano Ota Xudoyberganov va boshqalarga o'rgatgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Xojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U Xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi. Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga "Shashmaqomni" o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocho maqomlar Xiva cholg'ulari tomonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muhammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muhammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylandi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratiladi. Farg'ona cholg'uchilari Buxorocho Shashmaqomni faol o'zlashtira boshlashdi.

Maqomlar ijrosida xonandalar bilan bir qatorda tarkibi turlicha bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari ham ishtirok etdi. Cholg‘ular ansambliga Buxoroda tanbur va doyra, Xorazmda esa dutor, g‘ijjak, bo‘lamon, doyra yoki tanbur, garmon, rubob, doyra (uning o‘zi qo‘shiqchi ham) kirgan.

O‘z ichiga surnay, karnay, doyra va nog‘oralarni olgan damli va urma cholg‘ular ansambllari xon saroylarida, beklar huzurida xizmat qilishgan. Bunday ansambllarga surnaychi (Mextar) rahbarlik qilgan. Bu kasbning daromadi yaxshi bo‘lgan. Ammo ansamblning faoliyati mavsumiy bo‘lib, cholg‘uchilar turli tantalar kam bo‘ladigan qish mavsumida tirikchilik o‘tkazish uchun temirchilik, quruvchilik, duradgorlik va shunga o‘xshash ikkinchi kasbni egallashga majbur bo‘lishgan.

Ota Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o‘qituvchi, cholg‘uchi, usta tanburchi edi. U dastlabki musiqa ilmini onasidan o‘rgandi, so‘ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo‘lgan otasidan ta‘lim oldi. Ota Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shaxrisabz), Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy) saroyida o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo‘lgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) - o‘zbek va tojik musiqa-sining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Xoji Rahimqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga boradi. U yerda Ota Jaloliddin Nazirov rahbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o‘rganadi. A.Rasulov Farg‘ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o‘zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ‘ib qiladi. U o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salomoqli hissa qo‘shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo‘ldi.

XX asrning I-yarmida o‘zbek doyra ijrochiligi san‘atining rivojlanishi, yangi “zarbli” asarlarning yaratilishi mashhur sozanda **Usta Olim Komilov** nomi bilan bog‘liqdir. U o‘zining yarim asrlik umrini xalq san‘atini o‘rganish va rivojlantirishga bag‘ishlagan. Xalq cholg‘ularidan chang va doyrada birdek o‘z



Usta Olim Komilov

ijro mahoratini namoyon eta oldi. Doyrada ijro mahoratini mukammal darajada egallagan ustoz-san'atkor, keyinchalik o'zbek xalqining boy va rang-barang qo'shiq va raqslarining betakror usullarini to'plashga katta hissa qo'shgan.

Usta Olim Komilov 1875-yil Marg'ilon shahrida to'quvchi-hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasidan erta ayrilib qolgan Olimjon 10 yoshidan arava tayyorlaydigan usta-

xonaga kirib ishlashga majbur bo'ladi. Shu tarzda bir necha yil yashashga to'g'ri keladi. Faqatgina kechqurunlari hech kimga bildirmay to'ylarga borib u yerda tinglagan musiqa unga xursandchilik baxsh etardi. O'sha paytlarda doyra ijrochiligi san'ati keng quloq yoygan edi. Olimjonda doyraning sehrli zarblari yoshligidanoq zavq uyg'otardi. Ishdan bo'sh paytlari darhol qo'lga doyrasini olib, xotirasida saqlanib qolgan usullarini qaytara boshlaydi.

Tez orada u yallachi (qo'shiqchi) ayol Salom xolaning e'tiborini o'ziga jalb etadi. U boladagi musiqaga bo'lgan qiziqishini ko'rib o'zi bilan to'ylarga olib boradi. Shu tariqa u asta-sekin turli tadbirlarda musiqa va raqslarga jo'rnavozlik qila boshlaydi. Olimjonning mahoratli sozanda bo'lib yetishishida taniqli doyrachi Masaid otaning xizmatlari beqiyosdir. U yosh iqtidor egasiga doyra chalishning o'ziga xos nozik yo'llari va sirlarini o'rgatadi. Olimjon doyradan tashqari chang, nog'ora va dutor chalishni ham mukammal o'rgandi. Doyra ijrochiligida uning iste'dodi yorqinroq namoyon bo'ldi. U chalayotgan doyra alohida ta'sirchanlik kasb etardi. Uning sadolari o'ziga xos va ta'sirli bo'lardi. Cholg'uchining ijrosi o'zining ritmik aniqligi, dinamik va tembr bo'yoqlarining rang-barangligi hamda jilvador va betakror ovoz tarovati bilan boshqalardan ajralib turardi.

1918-yili u Marg‘ilondagi turli tashkilotlarda musiqiy havaskorlik badiiy jamoalarini tuzib, ular bilan choyxonalarda va qishloqlarda konsertlar bera boshlaydi va iqtidorli yoshlarni ushbu ansamblga kelib qo‘shilishga jalb etadi. O‘sha davrda u 20 dan ortiq yoshlarni jalb eta olgan. Ular esa kelgusida professional sozandalar darajasiga erishdilar.

1926-yili Olim Komilov taniqli komik-raqqos Yusupjon qiziq bilan birgalikda Muhiddinqori Yoqubov tomonidan tashkil etilgan konsert-etnografik ansambliga ishga kiradi. Keyinchalik ushbu ansamblga Tamaraxonim ham kelib qo‘shiladi va bir necha yillar davomida Usta Olim Komilov bilan birgalikda ijodiy faoliyat olib boradi. Bir yildan so‘ng ular Moskva, Leningrad va Boku shaharlarida gastrol safarlariga boradilar va ko‘p sonli tinglovchilarni o‘zbek halq ijodiyotining boy namunalaridan bahramand etadilar.

1930-yili ansambl qayta tashkil etilib o‘zbek davlat musiqa teatriga aylantiriladi. O.Komilov ham ushbu teatr artistlari bilan Moskvada bo‘lib o‘tadigan xalq ijodiyoti olimpiadasiga boradi. Tamara Xonim va Mukarram Turg‘unboyeva ijro etadigan “Daramadi gul o‘yin”, “Katta o‘yin”, “Ufori sabo” raqslariga jo‘rnavozlik qiladi va tinglovchilarning olqishiga sazovor bo‘ladi. 1931-1934-yillar davomida O.Komilov unutilib borayotgan xalq tomonidan yaratilgan usullarni yig‘a boshlaydi. Ushbu ishni amalga oshirish uchun ustozlari Masaid ota va Yusup Qiziqning yordamiga tayanadi va natijada bir necha o‘nlab rang-barang usullarni yig‘ishga ulgiradi.

Usta O.Komilov o‘zbek raqs san’atining rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Tamara Xonim bilan birgalikda yangi o‘zbek raqslari “Zang”, “Gul o‘yin”, “Sadr”larni yaratishga muyassar bo‘ldi. O‘zbek musiqali spektakllarda raqslarni sahnalashtirishda ham O.Komilovning hissallari beqiyosdir. 1930-yillarning eng yirik postanovkalari bo‘lmish - V.Uspenskiy va G.Mushelning “Farxod va Shirin”, R.Glierning “Gulsara” musiqali dramalaridagi raqslar aynan Usta O.Komilov tomonidan yaratilgan va sahnalashtirilgan. Samarali mehnatlari evaziga 1932-yili “Mehnat qahramoni” unvoniga sazovor bo‘ldi.

1935-yili O.Komilov Londonda bo‘lib o‘tgan Xalqaro raqs festivalida Tamara Xonim, A.Ismoilov va T.Jalilovlar bilan birgalikda ishtirok etib “Oltin medal”ni qo‘lga kiritgan. Ustaning shogirdi Odil Kamolxo‘jaev ustozini eslab, - “1935-yili Angliya qrolichasi Yelizaveta Usta Olim Komilovning doyra ijrosiga mahliyo bo‘lib qolgan ekan. O‘shanda mohir sozandaning panja izi ganchga ko‘chirilib, Buyuk Britaniya san‘at muzeyiga qo‘yilgan va u hozirgacha o‘sha yerda saqlanarkan”, - dedi.

1937-yili Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek san‘ati dekadasida “Sayil va kolxoz to‘yi” inssenirovkasini sahnalashtiradi va “Nog‘ora”, “Zang”, “Pilla” raqslariga jo‘rnavoqlik qiladi. Dekadan qatgach yana xalq raqslarini sahnalashtiradi va “Tantana” nomli yangi ommaviy raqsni yaratadi. Usta O.Komilov raqslarga jo‘r bo‘lish bilan chegaralanmay, balki yangi usullarni kashf etadi. Tamara Xonim va M.Turg‘unboyeva bilan birgalikda “Paxta” va “Pilla” xoreografik kompozitsiyasini yaratadi.

Usta Olim Komilov ko‘p usullarni xotirasida saqlagan. Ularning ko‘pgina qismlari I.Akbarov, V.Uspenskiy, E.Romanovskayalar tomonidan yozib olingan. I.Akbarov tomonidan yozilganlari “Doyra usullari” nomli to‘plamda nashr etilgan. Ushbu to‘plamda 47 ta xalq usullari va bir necha ritmik kompozitsiyalar joy olgan.

Dunyo tan olgan doyrachi, o‘zbek raqs san‘atining bilimdoni hamisha shogirdlar qurshovida bo‘lgan edi. Ko‘p yillik pedagogik faoliyati davomida u ko‘pdan-ko‘p mahoratli sozandalarni, O‘zbekistonda doyra ijrochiligi san‘atining ravnaqi uchun hamda o‘z ishining davomchilari sifatida tayyorladi. To‘ychi Inag‘omov, G‘ofir Azimov, Abulqosim To‘ychiyev, G‘ofir Solixovlar shular jumlasidandir. Ko‘p yillik ijodiy va pedagogik faoliyatini nazarda tutib unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni berildi.

Abdusoat Vahobov (1875-1934) mashhur usta dutorchi, musiqa bilan yoshligidan mustaqil ravishda, keyinroq toshkentlik mashhur dutorchi Ilhomjon bilan shug‘ullangan. Abdusoat ijrochilik faoliyatini Ilhomjon dutorchi, Karimbek Xo‘ja g‘ijjakchi, Shobarot tanburchi, Karimbekxon tanburchi, Ilyos-

xoji changchilar bilan hamkorlikdagi havaskorlik xalq cholgʻulari ansamblida boshladi. Shu ansamblning aʼzosi sifatida, u 15 yil davomida jamoa sayillarida, ishchi klublaridagi, choyxonalaridagi konsert chiqishlarida faol ishtirok etdi. Ansambl repertuarini, asosan raqs kuylari “Dugoh Husayniy”, “Chorgoh”, “Nasrullo”, “Navo”, “Ajam”, “Sarbozcha”, “Eshvoy”, Kurt va Fargʻona-Toshkent maqomlaridan parchalar tashkil etgan.

Qoʻzixon Madrahimov (1888-1952) mohir dutorchi. Sozandaning repertuariga uning ijrosida takrorlanmas jilolar kasb etgan rang-barang xususiyatli “Gulyor”, “Shaxnoz”, “Chapandoz”, “Qorazang”, “Munojot”, “Safti Munojot”, “Ufori Munojot”, “Taronai Ufor”, “Tanovar”, “Sayqal”, “Dilxiroj”, “Yalang Davron”, “Kurt” kabi raqs kuylari va turkum asarlar kirgan. Uning chiqishlari (ijrosi) oʻzining meyoriga yetganligi va oʻta musiqiylik bilan ajralib turar edi. U grammofon plastinkasiga “Qoʻsh tor”, “Ajab yorlarim”, “Mayda tor” kabi cholgʻu asarlarini yozdirgan. Qoʻzixon Madrahimovning “Qoʻshtor” asarini ijrosi ayniqsa eʼtiborga loyiq. Taniqli Oʻzbekiston bastakori A.Kozlovskiy oʻzbek cholgʻuchisining ijrochilik mahoratiga yuqori baho bergan edi: “Taʼkidlash kerakki, margʻilonlik dutorchi oʻzining zoʻr mahorati, iqtidorining jilosi va sanʼatkorlarga xos oʻzini tuta bilishi bilan oʻzi ijro etayotgan xalq musiqiy asarlari mazmunining chuqurligini tinglovchiga yetkaza oldi. Ijrochi tomonidan ifodalangan bu musiqa mohiyatining chuqurligi, haqiqiy mahorat jilvasi bizdan Q.Madrahimov siymosida oʻzbek xalq musiqachiligida nodir voqelikni va uning sanʼatini keng ommalashtirishni taqozo etadi”¹⁸.

XIX asrning 70-80-yillaridagi Oʻrta Osiyo tub joy aholisining hayoti (turmush tarzi, urf-odatlar, musiqiy madaniyati, marosimlari) rus va xorijiy etnograf-folklorshunoslarining diqqatini oʻziga jalb etgan. Xalq madaniyatining tarkibiy qismiga kirgan xalq cholgʻulariga boʻlgan qiziqishning boisi ham shunda. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Oʻrta Osiyoga kelgan

¹⁸ Alimbayeva K, Ahmedov M. Oʻzbekiston sozandalari va xonandalari. - T., 1974, 102-bet.

etnograf va sayyohlar Turkiston o'lkasining xalq musiqasini yozib olishda (notalashtirishda) muayyan ishlar qilishdi, bunda ular xalq cholg'ularini o'rganishga alohida e'tibor berishdi. Ular o'z ijodiy ishlarida musiqaning o'ta ommaviyligiga, uning xalq hayotida muhim rol o'ynashiga ahamiyat berishdi. Mazkur manbalar tufayli biz musiqa san'ati mundariyasi, ijrochilik turlari, musiqa an'analari, cholg'ularining ta'riflari, o'zbek xalq kuylarining nota yozuvlari haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

N.Likoshinning "Yarim umr Turkistonda" (SPB, 1917) kitobida va boshqa asarlarda xalqning boy badiiy merosi, an'analari va o'zbek xalq cholg'ularining ahamiyatiga muayyan o'rin ajratilgan.

Turkiston o'lkasining taniqli tadqiqotchisi V.Massalskiy yozadi: "Musiqa cholg'ulari (dutor va qobiz)ni deyarli barcha xonadonda uchratish mumkin edi..."¹⁹. Bu shundan dalolat beradiki, xalq turmushida oilaviy musiqachilik keng tarqalgan bo'lib, chalishga esa eshitish qobiliyatiga asoslanib o'rgatilgan.

N.Likoshinning guvohlik berishicha: "Toshkentda yangi, notanish gusli, simbalga o'xshash ko'p torli musiqa asbobida ikki xivchin yordamida sodda kuylar chaluvchi tunganlik kishi paydo bo'ldi: Uni g'aroyib yangilik sifatida to'xtovsiz yig'inlarga taklif eta boshlashdi. Keyin mahalliy cholg'uchilardan biri tungandan changni sotib olib, nafaqat uning kuylarini, balki boshqa ko'pgina, sof milliy kuylarni ham chala boshladi. Bu tinglovchilarda o'ta yoqimli taasurot qoldirdi. Shundan buyon simbalchi torli orkestr tarkibida barcha yig'inlarga taklif etila boshlandi"²⁰.

O'zbekistonda ilk musiqiy cholg'ular tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati harbiy kapelmeysteri Avgust Eyxgorn²¹ edi. U nemis millatiga mansub bo'lib, Toshkentga 1870-yillarning boshlarida kelgan. A.Eyxgorn O'rta Osiyo xalqlari musiqa cholg'ularining 2

¹⁹ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995, 20-bet.

²⁰ Shu manba, 21-bet.

²¹ Avgust Eyxgorn 1844 yilda Avstriyaning Lasnits shahrida tug'ilgan, skripkachi, bastakor. U 1870-1883 yillarda Toshkentda yashab ishlagan.

ta kolleksiyasini yig'adi. Ulardan biri 1872-yilda Moskvaga Politehnika ko'rgazmasiga, bir yildan keyin Butunittifoq ko'rgazmasiga Venaga jo'natiladi. 2-kolleksiya Peterburgga yuboriladi va uni keyin Moskva konservatoriyasi o'ziga oladi. Hozirgi kunda ushbu kolleksiya M.Glinka nomidagi musiqa madaniyati Davlat Markaziy muzeyida saqlanmoqda. A.Eyxgorn tomonidan tuzilgan Katalogda 37 ta musiqa cholg'ularining tavsifi yozilgan.

1896-yilda o'zbek musiqa cholg'ulari (dutor, g'ijjak, surnay, qo'shnay, nog'ora, doyra) butun Rossiya miqyosida Nijniy Novgorod shahrida o'tkazilgan ko'rgazmada namoyish etildi. Taniqli musiqa arbobi N.Findeyzen ko'rgazmada namoyish etilgan cholg'ularni maxsus maqolasida ta'riflaydi. O'zbek xalq cholg'ulari ko'rgazmada 4 kishidan tarkib topgan 2 ta ansambl yordamida milliy asarlarning jonli ijrosi orqali namoyish etilgan²².

U qariyb barcha o'zbek xalq cholg'ularini to'plagan, Eyxgorn ularni quyidagicha ta'riflaydi: Ikki buralma torli yarim nok shaklidagi dutorni u lyutnyalar guruhiga, g'ijjakni uch torli (fors kamonchasiga o'xshash) kamonchali cholg'ular guruhiga, rubobni esa (buxoro yoki afg'on ruboblari nazarda tutilgan) mandolinalar guruhiga kiritgan. Muallif surnayni qamish puflagichli qadimiy damli cholg'u, qo'shnayni qo'sh qamishli fleyta (Eyxgornning ta'kidlashicha, bunday fleyta (qo'shnay)larda o'zbeklar qo'shiqqa mohirona jo'r bo'lishgan), karnayni esa tantanali marosimlarda, harbiy yurishlardan xabar beruvchi vositachi, ya'ni to'g'ri shaklga ega bo'lgan O'rta Osiyo aholisining harbiy burg'usi deb ta'riflaydi. Chirmanda (doyra)ni musiqashunos qadimiy Misrliklarning qo'l litavralarini eslatuvchi chetlarida halqalari bo'lgan nog'oracha (tanburin) kabi qo'shiq va raqs ohanglariga jo'rlikda qo'llaniluvchi musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Nog'orani Eyxgorn ikki kichik sopol hurmacha va ikki urma tayyoqchadan iborat, deb ta'riflaydi. Safoilni u Qashqardan keltirilgan halqalari ko'rinadigan shiqildoqlar guruhiga kiritadi.

²² Вызго Т, Петросянец А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 1962, 8-бет.

Musiqashunos - etnograf changni qizlarning sevimli cholgʻusi deb ataydi²³.

A.Eyxgorn har bir musiqa cholgʻusiga batafsil taʼrif bergan XIX asrning ikkinchi yarmidagi ilk folklorshunoslaridan biridir. U musiqaning nazariy ilmi va folklorga katta hissa qoʻshgan.

Oʻzbek kuylarini mashhur harbiy kapelmeyster V.Leysek ham notaga yozib olib, ular asosida damli cholgʻular orkestri uchun “Osiyo popurrisi” asarini yozadi²⁴. Harbiy kapelmeysterlarning maʼrifatchilik faoliyati mahalliy ziyolilarga rus va jahon musiqasi namunalari bilan tanishish imkonini yaratdi. Shu bilan bir vaqtda teatr va musiqa sanʼati boʻyicha havaskor toʻgaraklar vujudga keldi. Bu kishilarning koʻpchiligi, ommada estetik didni tarbiyalash uchun zarur boʻlgan kasbiy musiqiy bilimga ega edilar. V.Leysek ham jamiyat ishlarida juda faol qatnashdi. Harbiy kapelmeysterlar nafaqat xalq kuylarini yozib olish, musiqa cholgʻularini toʻplashga va ayni paytda xalq cholgʻularida ijro etish mahoratiga ham shubhasiz hissa qoʻshdilar.

Koʻrgazmada XIX asr oxirida xalq orasida mavjud boʻlgan cholgʻularning barcha turlari bir necha zallarda namoyish etilgan. Oʻsha davrning mashhur musiqa tarixchisi N.Findeyzen: “Oʻrta Osiyo boʻlimi cholgʻularga eng boy boʻlim edi. Bu yerda torli va urma zarbli cholgʻularning yaxshi nusxalarini uchratish mumkin”²⁵, - deb yozgan edi. Taniqli musiqashunos T.Vizgo “Nijegorod koʻrgazmasi Markaziy Rossiya aholisining turli tabaqalarini Oʻrta Osiyo hududi cholgʻulari bilan tanishtirishni boshlab berdi”²⁶, deb taʼkidlagan edi.

²³ Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi, 21-bet.

²⁴ Leysek V. Turkistonga 1878 yil kelgan. Chex bastakori va dirijyori. Rus va Evropa kuylarining faol targʻibotchisi. Toshkentdagi “Lira” xor jamiyatining asoschisi va bevosita rahbari. Rustam Hofiz, Hamroqul Qori, Qurbonboy Xoji, Xotan Qori, Erka Qori va boshqa cholgʻuchilar, xonandalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlikda boʻlib, 400 ga yaqin oʻzbek xalq kuylari va qoʻshiqlarini yozib olgan. Ular orasida “Karimqulbegi”, “Istambul marshi”, “Mustahzod”, “Ufori”, “Qashqarcha” kabi asarlar bor.

²⁵ Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi, 22-bet.

²⁶ Визго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, 168-бет.

Bu davrda Turkiston o'lkasi musiqiy hayotida boshqa ijobiy voqealar ham yuz berdi. O'rta Osiyoga Ovropa cholg'ulari kirib kela boshladi (simfonik orkestr, damli va urma zarbli cholg'ulari orkestrining musiqa cholg'ulari, fortepiano, do'mbira nazarda tutilgan). Xorazmda Rossiyadan keltirilgan garmonika paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda cholg'ular g'ijjakni skripka bilan almashtira boshladilar. O'zbek cholg'ulari ijrochiligi boshqa xalqlar musiqa madaniyati yutuqlari bilan ham boyidi.

XIX asrning 80-90-yillarida barcha harbiy qismlarda damli cholg'ular orkestrlari mavjud bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ko'rgazmalar, yarmarkalar, tantanalar kabi turli xil jamoat tadbirlarida xizmat qilishgan.



1-rasm

XX asrning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.Tolstov, V.Vyatkin, M.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyati, shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg'u, hozirgi doyraga o'xshash do'mbra va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal'a, Ayritom (Ayritom frizi deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli hil musiqa as-

boblari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg‘u, qonun, ud, rud, shemane (musiqor), chag‘ona, chiltor, nay, burg‘u, surnay, karnay, doyrasimon cholg‘ularida mashq qilishlari tasvirlangan (1 rasm).

Xalq cholg‘ulari O‘rta Osiyo aholisining turmush tarzi va mehnat faoliyatiga singib, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq, o‘yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma‘lum. Bayramlar ko‘proq yil fasllari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyoda “Navro‘z”, “Lola sayli”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansambllari, xonanda, sozanda hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, doyra, nog‘ora va chindoul kabi urma-zarbli cholg‘ular keng qo‘llanilgan. Xalq raqslari aslida qosh o‘yini, yelka o‘yini, bosh o‘yini kabilarni o‘z ichiga olgan. Ular qarsak jo‘rligida ham ijro etilgan.

Savollar:

1. Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyati nimadan iborat?
2. Usta Olim Komilov haqida nima bilasiz?
3. Muhammad Yoqub Xarratov qanday san‘at turlarini mukammal egallagan?
4. Ota Jaloliddin Nosirov kimlarning saroylarida xalq cholg‘ulari ansamblining doimiy rahbari bo‘lgan?
5. Qo‘zixon Madraximovning (dutor) mohirona ijrosi haqida A.Kozlovskiy qanday fikr bildirgan?
6. Rus va xorijiy etnograf-folklorshunoslarning ilmiy izlanishlari nimalardan iborat?
7. A.Eyxgorn faoliyati nimadan iborat?
8. N.Likoshin chang haqida qanday guvoxlik beradi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlarni o‘rganib shiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 4, 5 kitoblardan konspekt yozing.

Tayanch iboralar:

Tanbur notatsiyasi, cholg‘u ijrochiligi, xattotlik san’ati, mohir tanburchi, mashhur sozanda, konsert-etnografik ansambli, Xalqaro raqs festivali, usta dutorchi, mohir dutorchi, etnografik-folklorshunoslar, notanish gusli, harbiy kapelmeyster, lyutnyalar guruhi, “Osiyo popurrisi”, xalq cholg‘ulari.

Adabiyotlar:

1. Xorazm musiqa tarixchasi. - T., 2014.
2. Alimbayeva K, Ahmedov M. O‘zbekiston sozandalari va xonandalari. - T., 1974.
3. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995.
4. Shukurova F. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. - T., 2005.
5. Музыкальная фольклористика в Узбекистане. – Т., 1963.

7 – DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT.

Mavzuni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun quyidagi adabiyotlarni mutolaa qilib, musiqaning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida o‘z fikringizni bildiring.

1. Forobiyning hayoti va ijodi.
2. Darvesh Ali Changiyning o‘z risolasida ta’riflagan cholg‘ular haqida.
3. A.Jomiyning “Musiqa haqida risola”sidagi ma’lumotlar.
4. Urmaviyning “Taqvodorlik kitobi”da udga nisbatan berilgan ta’rifni o‘rganib chiqing.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo'lgan topshiriqlar uchun berilgan adabiyotlardan kerakli mavzularni qaytarib keling.

1. Oripov Z. Snarq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). - T., 2008.
2. Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али. - T.,1946.
3. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995.
4. Shukurova F. Cholg'u ijrochiligi tarixidan. - T., 2005.
5. Музыкальная фольклористика в Узбекистане. – T., 1963.
6. Abidov T. Usta Olim Kamilov. – T., 1958

Aziz talabalar, qo'lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni saralang, xorijiy va o'zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta'riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

8-DARS: O'TILGAN MAVZULAR MODULI BO'YICHA SEMINAR

1-joriy nazorat uchun yozma ishni tayyorlash va topshirish. O'quv yili 2-semestrining 3 haftasi mobaynida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalaringizga tayanib 1-joriy nazorat (1-JN) haftaligi talabiga ko'ra ijodiy ish sifatida tavsiya etilgan yozma ishni belgilangan muddatda sinov komissiyasiga **taqdim etishingiz lozim.** Yozma ishning sifati beriladigan bahoga katta ta'sir ko'rsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Ko'rsatilgan kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring va yozma ishingizga zarur tuzatishlar kiriting.

Savollar:

1. Forobiyning musiqa haqidagi qanday risolasini bilasiz?
2. “Davolash kitobi” qomusidagi “Musiqa haqida risola” qaysi Sharq olimiga tegishli?
3. Al-Xorazmiyning risolasi qanday nomlanadi?
4. Safiuddin Urmaviyning qanday risolasini bilasiz?
5. A.Jomiyning “Musiqa haqida risola”sida qanday ma’lumotlar bayon etilgan?
6. Darvish Ali o‘z risolasida ud cholg‘usini qanday ataydi?
7. Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyati nimadan iborat?
8. Usta Olim Komilov haqida nima bilasiz?
9. A.Eyxgorn faoliyati nimadan iborat?

Quyidagi mavzulardan birini yozma ravishda topshiring:

1. Komil Xorazmiyning hayoti va ijodi.
2. A.Eyxgorn va uning kolleksiyasi.
3. Usta Olim Komilovning hayoti va ijodi.

9-DARS: XX ASRNING 20-30-YILLARIDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

20 asarning 20-yillarida o‘zbek musiqa san’ati jadal ravishda taraqqiy eta boshladi. Musiqa o‘quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqand, Farg‘ona (1919) va Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o‘zbek xalq cholg‘ulari hamda ba’zi yevropa musiqa cholg‘ulari (fortepiano, skripka va damli cholg‘ular)ni chalish o‘rgatilar edi. Shu tufayli respublikaning ko‘pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloq yoydi.

O‘zbekistonda 1920-yillardan boshlab an’anaviy ijrochilik ansambllari asosida turli tarkibdagi o‘zbek xalq cholg‘u ansambllari tashkil etila boshladi. Viloyat markazlari: Marg‘ilon, Andijon,

Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va Qo‘qonda milliy cholg‘ular ansambli tuzildi va ular tarkibida xalq musiqa san‘atining yirik namoyandalari - Mulla Tuychi Toshmammedov, To‘xtasin Jalilov, Berkinboy Fayziyev, Abduqodir Ismoilov, Hayit Oxun, Davlat Oxun, Zokir Eshon, Ahmadjon Umrzoqov, Rustam, Ashurali Yusupov va boshqalar birgalikda ijodiy faoliyatlarini boshlaganlar.

Jumladan, Usta Olim Komilov - Marg‘ilon milliy ansamblida, T.Jalilov - Andijon milliy ansamblida ishtirok etishgan. Ansambllar dasturi xalq kuylaridan tashqari Hamzaning “Yasha sho‘ro”, “Xoy-xoy otamiz”, “Xoy, ishchilar” kabi o‘sha davr ijtimoiy qo‘shiqlaridan ham tarkib topgan edi. Taniqli hofiz Shorahim Shoumarov 1918-yili “Namuna” maktabi qoshida musiqiy to‘garak tashkil etadi. Yillar o‘tib ushbu to‘garak zaminida Toshkent musiqa texnikumining bitta bo‘limi ochildi. Boshqa taniqli xalq sozandasi, mashhur doyrachi Usta Olim Komilov XX asr 20-yillarining boshlarida Marg‘ilon o‘quv yurtlari va tashkilotlarda musiqiy to‘garaklar tashkil etdi. Bundan tashqari u milliy ansambl tarkibida bir necha bor chekka qishloqlarda konsert dasturini namoyish etgan.

Samarqandda xorazmlik musiqachi Matyusuf Xarratov bir necha to‘garaklarga rahbarlik qilgan. O‘sha davrda Respublikamizning barcha viloyatlarida badiiy havaskorlik to‘garaklari paydo bo‘la boshlaydi. Ularning musiqiy dasturi asosan o‘zbek musiqa san‘atining mashhur xalq ustalari tomonidan kuylanadigan qadimiy - “Bir keling”, “Bog‘ aro” kabi lirik mazmundagi sevgi qo‘shiqlaridan iborat edi. Shu bilan birga to‘garak dasturi yangi hayotni madh etuvchi qo‘shiqlar bilan to‘lib bordi.

Shunday qo‘shiqlardan biri noma‘lum muallif tomonidan yaratilgan “Fabrika” qo‘shig‘i edi. U bir necha variantda mavjud bo‘lib, katta mashhurlikka ega bo‘lgan. O‘zbek musiqa to‘garaklarining faoliyati o‘sha davrda yakkaxonlarga jo‘r bo‘luvchi an‘anaviy milliy cholg‘u ansambllariga yaqinlashtirilgan. Shuningdek alohida an‘anaviy milliy cholg‘u ansambllari ham faoliyat ko‘rsatgan.

O‘zbek badiiy havaskorlik to‘garaklarining dasturi ham qo‘shiq va cholg‘u kuylaridan iborat edi, “Qari Navo”, “Ilg‘or”, “Do‘st yalli-yalli”, “Mirza davlat”, “Usmoniya”, “Rohat” kabi xushchaqchaq, quvnoq kuylar tomoshabinlar tomonidan sevib tinglanardi. Ayniqsa, T.Jalilovning “Signal” kuyi badiiy havaskorlik to‘garaklarida juda mashhur bo‘lgan.

Asta-sekin o‘zbek badiiy havaskorlik to‘garaklari dasturidan qardosh respublika kompozitorlarining qo‘shiqlari joy egallay boshladi. 30-yillarning o‘rtasida milliy cholg‘u ansambllari dasturida tez-tez uchraydigan I.Dunayevskiyning “Hushchaqchaq bolalar” filmidan “Marsh”i katta muvaffaqiyatga ega bo‘ladi.

1923-yili T.Jalilov tashabbusi bilan xalq cholg‘u kuylarini ijro etadigan 24 kishidan iborat “Milliy musiqa to‘garagi” tashkil etiladi. 1925-1927-yillari dasturining asosini xalq musiqasi tashkil etuvchi konsert-etnografik ansamblining ijrochilik amaliyotini faol olib borgan. Tarkibi o‘zbek xalq cholg‘ularidan tashqari - fleyta, goboy va boshqa simfonik orkestr cholg‘ularidan tuzilgan aralash ansambllar ham faoliyat yuritgan.

O‘zbek teatr san’atining asoschisi, dramaturg, bastakor H.H.Niyoziy (1889-1929) musiqa san’ati rivojiga katta hissa qo‘shdi. “Yasha Sho‘ro”, “Xoy ishchilar”, “Ishchilar uyg‘on”, “Biz ishchimiz”, “Ishchi bobo” kabi o‘sha davrning ijtimoiy yo‘nalishdagi ilk qo‘shiqlarini yaratib e‘tiborga tushgan. Hamzaning ko‘p qirrali ijodiy va pedagogik faoliyati o‘zbek cholg‘ulari ijrochilik maktabining shakllanish va rivojlanish jarayonida muhim o‘rin tutganligini tasdiqlaydi. U Farg‘onada birinchi bo‘lib damli cholg‘ular orkestrining tashkilotchisidir (1916). 1918 yilda Hamza Farg‘onada solistlar, xor va damli cholg‘ular orkestridan iborat, sayyor musiqiy dramatik truppani tuzadi. Uning repertuari Hamza qo‘shiqlari va kuylaridan iborat edi (ularni kapelmeyster I.Grigoryev orkestr uchun moslashtiradi). Hamza O‘zbekistondagi musiqachilar orasida birinchilardan bo‘lib, ko‘p ovozli xalq orkestrini tuzish uchun o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish va xromatizatsiyalashtirish lozimligini ta’kidlaydi (u chalgan tanbur hozirgi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

“Milliy cholg‘u” IChEL musiqa cholg‘ulari muzeyida saqlanmoqda).

Hamza ijodi o‘zining baynalminalligi bilan o‘zbek xalqining madaniyat xazinasini boyitdi. Hamzaning faoliyati taniqli qo‘shiqchi, aktyor, yetuk musiqiy teatr arbobi Muhiddin Qori-Yoqubov (1896-1957), ajoyib raqqosa - xonanda, baletmester, muallim, ko‘zga ko‘ringan musiqa arbobi Tamaraxonim (1906-1991), mohir doyrachi va nog‘orachi, o‘zbek xalq musiqasi va cholg‘ularining bilimdoni Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-1939) kabi ko‘zga ko‘ringan ijrochi va cholg‘uchilar bilan bog‘langan edi.

O‘zbek xalqining asrlar davomida an‘ana bo‘lib kelgan milliy musiqiy san‘atining jozibali, kishini maftun etadigan, olam-olam zavq-shavq bag‘ishlaydigan, estetik ruhni boyitadigan xalq hofizlarining xizmatlari beqiyosdir. Masalan, Toshkentda mashhur hofiz Shorahim Shoumarov 1918 yili “**Sanoyi Nafisa**” nomli birinchi kasaba uyushmasini tuzib, shahardagi jamiyki san‘atkorlarni huquqlarini himoya qilish va musiqiy san‘atni xalq orasida targ‘ibot qilishda tashabbuskorlik qildi. Uning rahbarligida tuzilgan ansamblda, ustoz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Ilhomjon dutorchi, Karimbek xo‘ja g‘ijjakchi, Shoborot - tanburchi, Ilyosxo‘ja - changchi va ularning shogirdlari: Yunus va Risqi Rajabiylar, g‘ijjakchi bastakor Imomjon Ikromov, kamonchi bastakor Po‘lat Rahimov, dutorchi Abdusoat Vahobov, hofizlar Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar kabi san‘at ustalari xalqqa faol xizmat qildilar.

Ustoz Shorahim Shoumarovning Chorsu bozori yonida “Qizil choyxona”da joylashgan ansambli va Yunus Rajabiyning “Chaqar” mahalla choyxonasida tuzgan ansambli yosh havaskor san‘atkorlar uchun haqiqiy musiqa maktabi bo‘ldi. Bu ikki dargohda Toshkent san‘atkorlaridan tashqari Farg‘ona vodiysidan, Buxoro, Samarqand, Xorazmdan mashhur san‘at ustalari va ularning shogirdlari ham birgalikda xalqqa o‘z san‘atlarini namoyish qilishardi. Ularning konsert dasturlari asosan klassik maqom va mumtoz ashulalardan va o‘zlari bastalagan kuy

va qo‘shiqlardan iborat edi. Bundan tashqari ustoz san‘atkorlar o‘zlari ham turli klub - maktablarda musiqiy havaskorlar to‘garaklarini tuzib yoshlarga saboq berdilar va ko‘p yosh sozanda va xonandalarni tarbiyaladilar.

Xuddi shunday “Sanoyi Nafisa” kasaba uyushmasini 1920-yili Andijon shahrida xalq orasida Orif - garmon tahallusi bilan tanilgan Orif Toshmatov tashkil qildi. O‘zbek san‘atkor va ziyolilaridan tuzilgan jamoada Muhiddin xo‘ja Najmiddinov, Sobirjon Siddiqov, Berkinboy Fayziyev, Dehqonboy hofizlar, Yoqubjon changchi, Ashurali Oxun dutorchi, Nazir Oxun g‘ijjakchi, Zokir Eshon doyrachi, Hayit Oxun tanburchi, Rustam Mehtar surnaychi, Ismat karnaychi, Sayfi qayroqchilar bor edi. Bu ansamblda g‘ijjakchi bastakor To‘xtasin Jalilov, Hayitxon tanburchilarni yonlarida: Komiljon Jabborov, Lutfullaxon Xo‘jayev, Rahmat Otaboyev, G‘anijon Toshmatov, Ishoq Qori, Salohiddin hoji kabi havaskor yoshlarni ham ko‘rish mumkin edi.

Mazkur jamoani keyinchalik mashhur bastakor, O‘zbekiston xalq artisti To‘xtasin Jalilov ham boshqargan. U o‘zining ustози Orif Toshmatovning faoliyatini shunday ta’riflagan edi: “Bizning rahbarimiz Orif aka garmonda o‘zbek xalq kuylaridan “Abdurahmonbegi”, “Nasrulloi”, “Ajam”, “Tanovar”, “Ufor” kabi klassik musiqalardan tashqari, “Dunayskie volni”, “Amurskie volni”, “Krakovyak”, “Polka”, “Varshavyanka”, “Internatsional”, “Smelo mi poydyom” kabi ruscha va Hamzaning kuylarini va o‘zi bastalagan musiqalarni jo‘shqinlik bilan ijro etib, hammani lol qoldirar edi. Shular orasida uning “Andijon polkasi” juda ham mashhur bo‘lib ketdi. “Shunisiga qoyil qolar edimki, ustoz o‘zbek xalqining mumtoz kuylarini dutorda qanday chalsa, garmonda ham shunday nozik mohirlik bilan ijro etar edi”. Bu holat o‘sha davr o‘zbek tomoshabinlari uchun ham qiziqarli, ham yangilik edi.

1920-1930-yillarda yetim qolgan qiz bolalar uchun maxsus internat - maktablar ochiladi. Respublikamizda bunday internat - maktablar har bir viloyat markazlarida tashkil topdi. Bunday maktablarda umumta’lim fanlarini o‘qitishdan tashqari musiqa va badantarbiya darslari ham o‘qish dasturiga kiritilgan edi.

Darslardan bo‘sh vaqtlarda qizlar xor, o‘zbek xalq cholg‘ulari va raqs to‘garaklariga qatnashar edilar. Mazkur internatlarning orasida Toshkentdagi Saodatxonim Enikeyeva rahbarlik qilgan “Zebuniso” nomli qizlar internat - maktabida havaskorlar xori, drama va o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik to‘garaklari tashkil qilindi. Xor jamoasiga xormeyster V.Sakovich, unga Ali Ardobus yordam berdi. Drama - raqs to‘garaklariga Ali Ardobus rahbarlik qildi, Musiqiy cholg‘ularni qizlarga Shorahim Shoumarov va Abdusoat Vahobovlar o‘rgatishardi. Internatni mazkur jamoalari tez orada “San’atchi qizlar” nomi bilan Toshkent maktablarida, klublarida o‘z san’atlarini 1923-1924-yillardan boshlab namoyish qildilar, olqishlarga sazovor bo‘lib, barchaga o‘rnak bo‘ldilar. Huddi shunday havaskorlar jamoasi, 1919-yilda “Namuna” nomli qizlar internat - maktabida Shorahim Shoumarov va I.Lutfullayevlar rahbarligidagi tashkil etilgan o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli ham mashhur bo‘lib ketgan edi. Mazkur jamoa 1923-yili Ozarbayjonga safarga borib, Baku shahrida Ozarbayjon maktab havaskorlari bilan birlikda konsertlarda faol qatnashib, hurmat-ehtiroimga sazovor bo‘lib qaytganlar.

1920-yillarda o‘quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda, “Ko‘k ko‘ylak”, “San’atchi qizlar”, “Sanoyi nafisa” kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil etilgan ijodiy jamoalar tarkibida: nay, chang, dutor, tanbur, g‘ijjak, doyra, nog‘ora va qashqar rubobi sozandalaridan tarkib topgan xalq cholg‘ulari ansambllari ham bor edi.

1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yoshlar tashabbusi bilan “**Ko‘k ko‘ylak**” umumiy nomi bilan ataluvchi, sahna-da hamma ishtirokchilar bir xil rasmiy ko‘k ko‘ylak, qora shim, qizlar yubka (yozda oq shim va yubka) kiyib o‘z san’at dasturlarini namoyish qiluvchi jamoalar paydo bo‘ldi. Mazkur jamoa asosan sozanda, xonanda, raqqosa, badiiy so‘z ustalari, akrobat yoki sirk artistlari, nayrangboz, masxarabozlar, shoir – yozuvchilar, konferans’e kabi san’atkorlardan tuzilar edi. Ularning asosiy maqsadi - zamonaviy mavzular bilan sug‘orilgan, yangicha xalq san’atini joriy etish, yoshlarni san’atga bo‘lgan his-tuyg‘u-

larini rivojlantirishga qaratilgan edi. Omma orasida konsert dasturlarini ijro etganlaridan soʻng, hamma tomoshabinlar ular bilan, musiqalar sadosida umumlashib raqs tushar edilar. Bunday kechalar bir necha soatlar davom etardi.

Mazkur uslubdagi “Koʻk koʻylak”li havaskorlar jamoalari Oʻzbekistonda XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab bunyod etila boshladi. Respublikamizning hamma yirik shaharlarida bunday jamoalar koʻp edi, ayniqsa rusiy zabon yoshlar orasida. Ushbu jamoalar orasida respublika va butunitifoq miqyosidagi koʻrik-tanlovlar ham oʻtkazilib turilar edi. Oʻlkamizda bunday jamoalar orasida 1927-yili Samarqandda mashhur sanʼatkor Ali Ardobus (Ibragimov, Qoʻldoshboyev) rahbarligida tuzilgan “Koʻk kuylak” ansambli juda ham mashhur boʻlib ketdi. Bu jamoaning musiqa rahbari, Oʻzbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor Tolibjon Sodiqov edi. Bu jamoa 98 ishtirokchilardan iborat boʻlgan va unda, kelgusida dongʻi chiqqan quyidagi kompozitor, bastakor, sozanda, xonanda, dirijyorlar va raqs ustalarini koʻrish mumkin edi: Doni Zokirov, Manas Leviyev, Mardon Nasimov, Nasim Xoshimov, Nabi Hasanov, Fazliddin Shamsiddinov, Bahrom Inoyatov, Olim Halilov, Ahmad Toʻxtamatov, Jalol Obidov, Mirbobo Ziyoyev, Mixoel Kalontarov, yozuvchi – adabiyotshunos olim Vohid Abdullo va boshqalar. Mazkur toʻgarak qatnashchilari “Sharq” tomosha zali binosida haftasiga ikki marta, turli korxonada va oʻquv yurtlarida konsert berishardi. Konsert dasturini koferransʼe Xoji Siddiq olib borar edi.

Oʻzbekistonda musiqiy va teatr havaskorlik jamoalarini va isteʼdodli shaxslarni sanʼatga boʻlgan qiziqishlarini ragʻbatlantirish uchun 1925, 1930, 1932, 1935, 1938-yillarda viloyatlarda va respublikada koʻrik-tanlovlar (oʻsha davrda olimpiada deyilardi) oʻtkazilardi. Bu tanlovlarda juda koʻp turli yoʻnalishdagi havaskorlar jamoalari, baynalminallik dasturlari bilan, faol qatnashadilar. Masalan, 1925-yilda respublika koʻrik-tanlovida 50 turli yoʻnalishdagi oʻzbek, rus, yahudiy, arman, tatar havaskorlar jamoalari qatnashgan, gʻoliblar munosib mukofotlangan-

lar. Ular orasida mashhur hofiz M.Qori-Yoqubov rahbarligida “Etnografik ansambl” V.Leysek rahbarligidagi damli va simfonik orkestr, Samarqand shahrining “Sharq” mahallasida aka-uka Isroel, Mikoel va Gabriel Tolmasovlar rahbarligidagi ashula va raqs ansambli jamoalari g‘olib deb topilganlar. 1930-yilda “ko‘k ko‘ylak”lilar jamoalarini o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda 1927-yilda Samarqandda Ali Ardobus tashkil etgan “Ko‘k ko‘ylak” havaskorlik jamoasi 1-o‘ringa sazovor bo‘lgan. Naychilar ansambllari orasida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda 1928-yilda kompozitor M.Leviyev Samarqand “Ofitserlar uyi”-da tashkil qilgan changchilar ansambli g‘olib deb topilgan. Ayniqsa, 1938-yilda Toshkentda o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda respublikaning hamma viloyatlaridan 700 ga yaqin, shulardan 250 tasi Toshkent viloyati va shahridan qatnashgan. Turli yo‘nalishdagi havaskorlar jamoalari va yakka sozanda, xonanda raqqosalar o‘z san’atlarini yorqin namoyish qilishdi. Qatnashganlardan 100 kishi musiqa o‘quv yurtlariga tavsiya qilindi.

XX asr boshlarida O‘zbekistonda ommaviy musiqali harakat avj oldi. Keng xalq ommasini xor to‘garaklari, xalq orkestri va damli cholg‘ular orkestrlari, vokal-cholg‘u ansambllariga jalb etish boshlandi. 1920-yillarning boshlarida Toshkent zavod va fabrikalarining ishchi klublari qoshida ochilgan “Maorif institutlari” havaskorlik to‘garaklari tuzila boshladi. Ularning negizida konsert faoliyatini jadal rivojlantira boshlagan havaskorlik jamoalari vujudga keldi.

Musiqaning xalq hayotidan kengroq joy olishi, ajoyib qo‘shiqchilar va sozandalar hamda ansambl ijrochiligining qadimdan mavjudligi – bularning hammasi ijrochilik san’atini ijtimoiy hayotning keng doirasiga olib chiqish uchun qulay omillar yaratdi.

Dastlibki o‘zbek konsert jamoalari, san’at xodimlari 1918-1919-yillarda “San’atkorlar ittifoqi mahalliy bo‘limi” konsert tashkilotchiligi vazifasini o‘z zimmasiga olganida ilk konsert jamoalari vujudga keldi. Ko‘plab xalq musiqachilari bu Ittifoqning a‘zosi bo‘lib, uncha katta bo‘lmagan konsert jamoalari tarkibida ishchi klublari va korxonalarida konsertlar berdilar. Xalq an-

sambllari konsertlarda, bayram namoyishlarida ishtirok etib, faol madaniy xizmat ko'rsatdilar. Ushbu ansambllarning repertuari asosan o'zbek xalq musiqa namunalaridan iborat edi. Asta-sekin unda ijtimoiy qo'shiqlar, rus marsh hamda vals kuylari, arman va ozarbayjon qo'shiq va kuylari kiritila boshladi.

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida havaskorlik to'garaklarining tashkil etilishi muhim tashabbus bo'ldi. 1919-yilda A.Makarenko tashkil qilgan Toshkent erkaklar "Namuna" maktabi o'zbek musiqa havaskorligining o'choqlaridan biri bo'lib qoldi. Bu yerda mashhur xalq musiqachilari Sh.Shoumarov va L.Lutfullayevlar rahbarligida tarkibi kuchli bo'lgan musiqa to'garagi vujudga keldi.

1927-yili Toshkent radioeshittirish qo'mitasi huzurida Yunus Rajabiy rahbarligida o'zbek xalq cholg'ulari ansambli o'z faoliyatini boshlaydi. O'n ikki kishidan iborat ushbu ansamblga Yu.Rajabiy (nay), Sh.Shoumarov (dutor), I.Ikromov (g'ijjak), X.Ubaydulloyev (qo'shnay), R.Rajabiy (tanbur), N.G'oziyev (dutor), D.Qodirov(dutor), N.Do'stxo'jayev(chang), Z.Sodiqov(g'ijjak), A.Haydarov (dutor va hofiz), M.Toshmuhamedov, K.Zokirov, G'.G'aniyev (hofiz) kabi yetuk sozanda va xonandalar jalb etilgan bo'lib, ular dastlabki (1927-1930) yillari asosan radio orqali beriladigan eshittirishlarni musiqiy "bezash"da faoliyat olib borganlar.



Toshkent radioeshittirish qo'mitasi huzurida tashkil etilgan o'zbek xalq cholg'ulari ansambli. 1927y.

1930-yillardan boshlab esa ansamblning faoliyat doirasi Madaniyat saroylari, turli kolxoz klublari va viloyatlardagi alohida konsert chiqishlari hisobiga yanada kengayadi. Ayni paytda ansambl safiga bir qator mashhur san'atkorlar - Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarratov, Nazira Ahmedova va boshqalar kelib qo'shiladilar. Ansamblning shu davrdagi konsert dasturi xususida musiqashunos olimi Karima Olimboyeva quyidagilarni ma'lum qiladi: "Ansambl repertuari o'zbek xalq musiqasi va maqomlarning ayrim vokal-cholg'u qismlaridan iborat edi"²⁷.

Asta-sekin ansambl ishtirokchilarining safi oshib qirq kishiga yetadi. Shunga mos tarzda ansambl dasturi rang-barang tus olishi barobarida muayyan ijrochilik muammolari ham yuzaga kela boshlaydi. Chunki mavjud cholg'ularning ijrochilik imkoniyatlari keskin rivojlanib borayotgan taraqqiyot mezoniga dosh bera olmayotgani bois turfa tovushli yangi sozlarga, ayniqsa turli balandlikdagi tovushlarga ega bo'lgan cholg'ularga ehtiyoj sezila boshlaydi. Natijada ansamblning ovoz imkoniyatlarini boyitish maqsadida turli tembrga ega bo'lgan cholg'ularni yaratish fikri tug'iladi. Shu masalani amaliy hal etish niyatida ansambl rahbari Yunus Rajabiy taniqli sozgarlardan biri - Usta Usmon Zufarovga murojaat etib, yo'g'on (bas) ovoz tarannumiga ega bo'lgan "katta dutor", "katta tanbur", "katta g'ijjak", cholg'ularini yasash taklifini o'rta tashlaydi. Tez orada Usta Usmon Zufarov bu ishni amalga oshiradi. Yunus Rajabiy bu cholg'ularning o'ziga xos tembrlariga muvofiq holda ansambl tarkibida qo'llay boshlaydi.

Shu tariqa 1934-yilga kelib son tarkibi yanada ko'paygan ansamblning ijro imkoniyatlari ham tobora ortib boradi. Bu esa uning ijodiy faoliyatini ancha faollashishiga imkon yaratadi. Ansambl tarkibiga yangi qo'shilgan cholg'ular uning (ansambl) ovoz ko'lamini kengaytirishi barobarida jozibali tarannumini ham ta'minlaydi. Natijada yangi ko'rinishdagi ansambl xalq orasida tez tanilib, ommalashib boradi. Ammo shuni ham e'tiborga olish ke-

²⁷ Ahmedov M. Doni Zokirov. - T., 1995, 125-bet.

rakki, har xil ovoz balandligiga ega boʻlgan cholgʻular, odatda, ijroda ham oʻziga xos garmonik rivojda talqin etilishi lozim. Lekin ansambl tarkibiga kiritilgan cholgʻular asosan kuy chizigʻidagi (melodik) uslubga tayanganligi pirovardida doim ham natija kutilgandek boʻlmadi.

Shu bois 1936-yili bas tembrli cholgʻular ansambl tarkibidan chiqarib tashlandi. Aslida, Yu.Rajabiy ansamblni har tomonlama boyitish maqsadida uning tarkibiga bas tembrli cholgʻularni kiritgan. Chunki mavjud cholgʻular xonaki sharoitda chalishga moʻljallangan boʻlib, ular katta konsert va “ochiq” sahnalarda chalish imkoniyatigi ega emas edi. Shu sababli cholgʻular ovozinu kuchaytirish va ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bas cholgʻulari ansambl tarkibiga kiritilgan boʻlishi mumkin. Qolaversa, bu masalalar oʻsha davrda oʻz yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biriga aylangan edi.

Usmon Zufarov cholgʻularning ovozinu kuchaytirish maqsadida dutor va tanbur qopqogʻining tagiga qoʻshimcha uch qatordan sado berib turuvchi simlar tortgan, tanbur dastasi va gʻijjak kosasining tagiga yogʻoch karnaylar oʻrnatgan edi. Bu karnaylar ovozinu kuchaytirish uchun qoʻllanilgan. Cholgʻular ham oʻz shakliga nisbatan ancha kattalashtirilgan boʻlishiga qaramay ijrochilik amaliyotida koʻzlangan natijani bermagan edi. Usta Usmon Zufarov cholgʻularning hajmi, xususan, kosaxonalarni kattalashtirish yoʻli bilan ularning ovozlari oʻzgarmasligi haqida muhim xulosaga keladi²⁸.

1936-yili ansambl Butunittifoq festivalida qatnashib, birinchi oʻrinni egallaydi va shu bois 1937-yili Moskvada boʻlib oʻtadigan - Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati dekadasida ishtirok etish sharafiga muyassar boʻladi. Ushbu dekada doirasida jamoa oʻz ijrosi orqali keng xalq ommasiga oʻzbek milliy musiqasining yorqin namunalarini namoyish etishga erishadi. Shundan keyingina koʻp

²⁸ Hozirgi kunda usta U.Zufarov yasagan kosasi 2-3 qavatli dutorlar, tanburlar va turli hajmdagi gʻijjaklar Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi “Milliy cholgʻu” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasida saqlanmoqda, ammo karnay oʻrnatilgan gʻijjak va tanbur cholgʻulari ayrim sabablarga koʻra hozirgi kungacha yetib kelmagan, lekin rasmlarda bu cholgʻular tasviri saqlanib qolgan.

ovozli o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tuzish fikri paydo bo‘ladi va shu yili bir ovozlilik (unison)dan ko‘p ovozlilikka o‘tish harakati boshlanadi. Buning uchun orkestr jamoasi tarkibiga mos cholg‘ular yaratilishi talab etiladi. Shu bois turli balandlikka ega bo‘lgan torli-mizrobli, torli-chertma va torli-kamonli cholg‘ular oilasini yaratish vazifasi yuzaga chiqadi. Ana shu davrdan boshlab o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish, ya’ni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish ustida ishlar boshlanadi va bu ishga mutaxassislar jamoasi jalb etiladi.

1941-yilning boshida ansambl safiga simfonik orkestr tarkibidan violonchel, kontrabas, truba, valtorna, klarnet, goboy, litavra kabi cholg‘ular kiritiladi. Ijro repertuari masalasida ham ancha ishlar amalga oshiriladi. Xususan, jamoaga O‘zbekiston kompozitorlari bir qator xalq kuylarini qayta ishlab, ularning ijrolari uchun moslashtirib beradilar. Jamoaning ushbu tarkibdagi ish faoliyati sezilarli darajada rivojlangan saviyasini ko‘rsatadi. Shundan so‘ng olib borilgan ishlarni kengaytirish ishtiyoqi yanada oshadi. Biroq, milliy cholg‘ulardan tashkil topgan ansambl tarkibiga simfonik orkestrdan qo‘shilgan cholg‘ular sadosi pirovardida kutilgan natijani bermadi. Shu sababli ham simfonik orkestr cholg‘ularidan voz kechishga to‘g‘ri keldi.

1945-yilga kelib ansambl yana Yunus Rajabiy rahbarligida ijodiy faoliyatini davom ettira boshlaydi. Jamoaga o‘z davrining taniqli xonandalari – Berta Davidova, Barno Is’hoqova, Qobulqori Siddiqov, Karim Mo‘minov, sozandalar – Shoqosim (tanbur) va Shoolim (dutor) Shojalilovlar, Abdumutal Abdullayev (tanbur), Karim Aliyev (g‘ijjak), Mahmud Yunusov (dutor), Fahriddin Sodiqov (chang), Karim Tursunov (dutor) taklif qilinadi. Ansambl repertuari milliy kuy va qo‘shiqlar bilan birga zamonaviy bastakorlarning davr talabiga mos kuy va qo‘shiqlari hisobiga boyib boradi.

1948-yili o‘zbek xalq cholg‘u ansambli mashaqqatli va murakkab jarayonlarni boshidan kechirdi. Shu yili ansamblga D.Zokirov, G‘.Toshmatov, N.Xasanov, K.Jabborov, S.Kalonov va F.Sodiqovlar taklif qilingan hamda ansambl jamoasi orkestrga aylan-

tirilgan edi. Orkestrga takomillashtirilgan cholgʻularning kiritilishi jamoaning unison, yaʼni bir ovozlilikdan koʻp ovozlilikka oʻtishdagi birinchi qadamlari edi.

Jamoaning cholgʻular tarkibi 1952-yili orkestrlarda mavjud boʻlgan damli, torli-urma, torli-cherta, zarbli va torli-kamonli cholgʻular oilasidan iborat edi. Orkestrning asosiy qismini kamonli cholgʻu (gʻijjak) lar oilasi (beshlik) tashkil etardi. Shu bilan birga chang I, II va torli-chertma cholgʻulardan - tanbur (tanbur anʼanaviy, prima) va dutorlar (dutor anʼanaviy, bas, kontrabas) ham kiritilgan edi. Shu tariqa ushbu ansambl Oʻzbekiston telera-diokompaniyasi qoshidagi xalq cholgʻulari orkestrining shakllanishiga zamin yaratdi.

Savollar:

1. Turkiston xalq konservatoriyasining vazifasi nimadan iborat edi?
2. Koʻp ovozli orkestr tuzish uchun oʻzbek xalq cholgʻularini takomillashtirish va xromatizatsiyalashtirish lozimligini kim taʼkidlagan?
3. “Sanʼatchi qizlar” toʻgaragiga kim rahbarlik qilgan?
4. 1919-yilda “Namuna” nomli qizlar internat-maktabida tashkil etilgan oʻzbek xalq cholgʻulari ansambliga kimlar rahbarlik qilgan?
5. Samarqandda “Koʻk koʻylak” jamoasi nechanchi yilda va kimning rahbarligida tashkil etildi?
6. “Koʻk koʻylak” jamoasi necha kishidan iborat edi va unda qaysi dongʻi chiqqan kompozitor va sozandalar ishtirok etgan ?
7. Qaysi kompozitor “Koʻk koʻylak” jamoasining musiqa rahbari edi ?
8. Toshkentda “Sanoyi nafisa” ansambli qachon va kim tomonidan tuzilgan?
9. Andijonda “Sanoyi Nafisa” kasaba uyushmasini 1920-yili kim tomonidan tashkil etilgan?
10. Oʻzbekiston xalq artisti Toʻxtasin Jalilov oʻzining ustozlari Orif Toshmatov faoliyatini qanday taʼriflaydi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 2 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma'lumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan jamoangiz haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

An'anaviy ijrochilik ansambllari, badiiy havaskorlik to'garaklari, "milliy musiqa to'garagi", "Sanoyi Nafisa", Orif-garmon, mashhur bastakor, maxsus internat -maktablar, "Ko'k ko'ylak", ommaviy musiqali harakat, "Namuna".


Adabiyotlar:

1. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995.
2. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri. - T., 2015.
3. Xorazm musiqa tarixchasi. - T., 2014.
4. Ahmedov M. Doni Zokirov. - T., 1995.

10-DARS: O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARINI MODERNIZATSIYALASHTIRISHNING G'OYAVIY ASOSLARI

O'zbek xalq cholg'ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishning ilk qadamlari (tajribalari) o'tgan asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu g'oya birinchi bo'lib toshkentlik mashhur hofiz Shorahim Shoumarov, xorazmlik ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirildi. Ularning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari - musiqiy cholg'ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholg'u diapozonini (eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan oraliq) kengaytirishdan iborat edi.

Hamмамizga ma'lumki, milliy musiqiy cholg'ularimiz azaldan faqatgina xona sharoitida ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, ularning tembr xususiyati ham aynan shunga mos edi. Asta-sekin cholg'ularda keng davralar va katta sahnalarda ijro etishga to'g'ri keladi. Mavjud cholg'ular esa davr talabiga javob bermay qoladi. Shunda sozanda, hofiz va sozgar ustalar cholg'ular tovushini kuchaytirish kerakligini tushunib yetadilar va o'zlarining ilk g'oyalarini amalga oshira boshlaydilar. Natijada dutor, tanbur va g'ijjaklarning bir necha tajribaviy turlari yaratildi.



Shorahim Shoumarov

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, taniqli hofiz va ustoz san'atkor **Shorahim Shoumarov** (1876-1958) o'zbek xalq cholg'ularini ijrochilik talab darajasiga moslashtirish tashabbusi bilan chiqqan ilk sozandadir. O'sha paytda u Turkiston xalq konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari bo'yicha murabbiylik qilardi (1919-1920). Sozanda konservatoriyada nihoyatda iste'dodli san'atkor ekanligini namoyish qildi. U murabbiy sifatida shogirdlaridagi mustaqil ijobiy yo'lga intilishni qadrladi va har tomonlama rag'batlantirdi. Uning shogirdlari orasida Yu.Rajabiy (nay), I.Ikromov (g'ijjak), P.Rahimov, F.Sodiqov (chang), M.Abdullayev (tanbur), Z.Sodiqov (dutor), A.Maqsudov (nay)lar bor edi.

Sh.Shoumarov uzoq vaqt mobaynida mashhur xalq sozandalari - R.Rajabiy, I.Ikromov bilan O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari ansamblida ishladi. Ansamblda ishlagan davrda u g'ijjak, dutor, tanbur kabi cholg'ularning tovush va tebranish sifatlarini yaxshilashga doir qizg'in izlanishlarni boshlab yubordi. Cholg'ularni davr talabiga moslashtirishda ko'pgina ijodiy taklif va tashabbuslar ko'rsatdi.

Laboratoriyada o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalash-tirish jarayonida u aynan g'ijjaklarning kosasini har xil xomash-yodan, ya'ni kokos yong'og'i, qovoq, mis va yog'ochdan turli

shakllarda yasadi. Jonli ijro orqali ularning ovoz tarovatlari tinglab koʻrildi hamda bir-biriga qiyoslanishi natijasida kosasi yogʻochdan yasalgan cholgʻu maqsadga muvofiq, deb topildi.



Kosasi kokos yongʻogʻidan



qovoqdan



metaldan yasalgan gʻijjaklar

Soʻngra yogʻochdan yasalgan gʻijjak kosasining shakli boʻyicha izlanishlar olib borildi. Natijada Sh.Shoumarov tomonidan bir qator kosasi choʻzinchoq va orqa qismida quyosh tasviri tushirilgan, 8 qirrali hamda dumaloq shakldagi gʻijjaklar yasaldi, ularning ovoz tarovati va tembr xususiyatlari tekshirildi. Soʻngra barcha tajribaviy cholgʻular orasidan kosasi tut daraxtidan yarim shar shaklida oʻyma ravishda yasalgan gʻijjak tanlab olindi, chunki undan taralayotgan ohang eng yoqimlisi boʻlib, gʻijjak tembriga mos edi.



Sh.Shorahimov tomonidan yasalgan, turli shakldagi yogʻoch kosali gʻijjaklar



Matyusuf Xarratov

Matyusuf Xarratov (1889-1953) changni takomillashtirish ustida ishladi. O'sha paytda mavjud chang kichik diapazon va diatonik tovushqatorga ega bo'lib, unda professional kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoni ancha mushkul edi. U changni takomillashtirish, ya'ni davr talabiga moslashtirish ustida o'ylay boshlaydi. Izlanishlar natijasida changning yuqori registrini qo'shimcha torlar bilan boyitish hisobiga kengaytiradi. Cholg'udagi bunday o'zgarishlar musiqa jamoatchiligi tomonidan maqullanadi.


1935-yili Matyusuf Xarratov O'zbekiston radiokomiteti qoshidagi ansamblga ishga kiradi. Chang sozi uning eng sevimli musiqa cholg'ularidan biri edi. Lekin, bu cholg'u diapazonining kichikligi va diatonik tuzilishi unda turli xalqlarning asarlarini ijro etishga imkon bermas edi. Aytib o'tish joizki, oldingi changlar diatonik tovushqatorida va ixcham shaklda ishlangan edi. Cholg'uning noqulaylik tomonlaridan yana biri – har bir yangi asarni ijro etishdan oldin uni qaytadan (nayga qarab) sozlash kerak edi.

M.Xarratovning yaxshi xislatlaridan biri shu ediki, u doim yangi narsalarni o'rganish, malakasini oshirish ustida ishlardi. Mashhur sozanda bo'lishiga qaramay, u 1936-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga kompozitsiya sinfi bo'yicha tayyorlov bo'limiga o'qishga kiradi. Natijada serqirra ijodkor nafaqat mohir sozanda va sozgar usta, balki chiroyli kuylarni bastalash mahoratiga ham ega bo'ladi. 1982-yili O'zbekiston radiosi orqali mahoratli changchilar Rustam Ne'matov va Fazilat Shukurova ijrosida yangragan "Yoshlik vals" shular jumlasidandir.

Matyusuf Xarratov 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati kunlari munosabati bilan N.Mironov rahbarligida xalq cholg'ulari orkestri tarkibida changchi sozanda sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, Belorussiya respublikasida

bo‘lib o‘tgan konsertlarda ham qatnashadi. “Sayil va kolxoz to‘yi” insseniroykasidagi “Mustahzod ufori” raqsi uning musiqasi asosida sahnalashtirilgan. M.Xarratov o‘z ijodini keyingi yillarda O‘zbek davlat opera va balet teatri qoshidagi sozandalar ansamblida sozanda sifatida davom ettiradi.

Benazir ustoz, serqirra ijodkor M.Xarratov 1944-yilda o‘zbek madaniyatining taraqqiyotidagi barakali xizmatlari va yosh sozandalarni tarbiyalashdek mashaqqatli va shu bilan birga sharafli mehnatlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi.



A.Petrosyans, R.Isaboyev va N.Ryuxin ish ustida

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, mohir sozanda va sozgar, jonkuyar ustoz **Usta Ro‘zimatxon Isaboyev** (1885-1964) Namangan shahrida dunyoga keladi. U yoshligidanoq musiqaga mehr qo‘yib, dutor chalishni juda erta o‘rganadi. Tog‘asi uni shogirdlikka va o‘z tarbiyasiga oladi. Bir kuni tog‘asi yosh

Ro‘zimatni dutor chalayotganini ko‘rib, qizib turgan otashkurakni yelkasiga bosib, “Kimsan falon kishini jiyani mashshoq bo‘libdi desa, qanday bosh ko‘tarib yuraman”, deya koyib beradi. Tog‘asining qarshiligi R.Isaboyevni san’atni tashlashga emas, balki mohir sozanda bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Boshqa sozandalar kabi u ham dutor, tanbur, chang cholg‘ularni chalishni o‘rganadi.

Ro‘zimat aka nafaqat soz chalishni, balki barcha milliy cholg‘ularni maromiga yetkazib yasashga erishadi. 1902-yillarda Qashqardan kelgan sozanda Ramazonoxunning choyxonalarda chang chalishidan ilhomlanib, uning bu cholg‘uga qiziqishi o‘ygonadi. O‘sha paytda bu cholg‘uning hajmi ham, shakli ham boshqacharoq bo‘lgan. Qashqarlik sozanda o‘z cholg‘usining tuzilishini sir ushlashiga qaramay, uddaburon Usta Ro‘zimat aka bu cholg‘uni yaqindan ko‘rishga muyassar bo‘ladi va o‘ziga

chang yasab oladi. Usta yasagan changning hajmi kattaroq bo‘lib, u har bir tovush balandroq eshivilishi uchun to‘rtadan tor taqadi - bu urinish aynan cholg‘uning ovoz jarangdorligini oshirish maqsadida qilingan bo‘lishi mumkin.

Ustozi Jalolxon Mirzarahimovning: “Soz yasashni bilmagan sozanda, sozanda emas” - degan gaplariga amal qilib, o‘zbek musiqa cholg‘ularini barchasini bejirim yasashga erishadi. R.Isaboyev bir necha yarim xromatik changlar yasab, birinchi bo‘lib Namanganda bu cholg‘uni ansambl jamoasiga qo‘shgan inson edi²⁹. Usta Ro‘zimat shogirdlar qalbiga ham yo‘l topa olgan ustozdir. Uning shogirdlari ustozlari haqida shunday deyishadi: “Usta Ro‘zimat aka shogirdlariga juda mehribon edilar, ularning nihoyatda quvvai hofizasi kuchli edi, yangi kuyni bir marta eshitdilar, eslaridan chiqarmasdi. Shashmaqomni qayeridan so‘rasangiz o‘sha joydan darrov xirgoyi qilib berardilar. U kishi jonli nota edi”³⁰. Usta Ro‘zimat Isaboyev butun umri davomida o‘zbek musiqa madaniyatining taraqqiyotiga, qolaversa sozgarlik san’atining ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan betakror insondir.



Usta Usmon Zufarov

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, mohir sozgar **Usta Usmon Zufarov** (1894-1981) 1943-yildan 1949-yilga qadar sohaviy ilmiy - tadqiqot eksperimental laboratoriyasida faoliyat olib borgan. Ushbu davr mobaynida bir qator o‘zbek xalq cholg‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Asosiy maqsad – cholg‘ularning ovoz tarovatini kuchaytirish va xas pardalar yordamida diapazonini kengaytirishdan iborat edi. Natijada turli shakldagi ruboblar, kosasi ikki va uch qavatdan iborat bo‘lgan dutorlar yaratildi. Shuningdek, g‘ijjak va chang cholg‘ulari ustida ham izlanishlar olib borildi.

²⁹ Abduvaliyev A. Ohanglarda yaralgan olam. O‘zbekistn san’ati. № 10, 1978,13-bet.

³⁰ O‘sha manba, 14-bet.




Tajribaviy ruboblar



Tajribaviy dutorlar

U.Zufarov cholgʻularning ovozini kuchaytirish maqsadida dutor va tanbur qopqogʻining tagiga ikki tomonidan uch qatordan qoʻshimcha sado berib turuvchi simlar tortgan. Bu tajriba ijro paytida qopqoq tagidagi torlar aks-sado berishi natijasida tovush tembri yanada kuchayadi degan maqsadda amalga oshirilgan edi.



Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan “Milliy cholgʻu” IChEL “Davlat noyob ilmiy ob’ekti”da saqlanayotgan 21-sonli an’anaviy dutor va 54-sonli tanbur.

Shuningdek tanbur dastasi va gʻijjak kosasining tagiga yogʻoch karnaylar oʻrnatgan. Bu ham boʻlsa ovoz tarovatini kuchaytirish maqsadida qilingan izlanishlardan biri edi. Bu cholgʻular

ham o‘sha paytda ansambl tarkibida qo‘llanilgan, lekin bizgacha yetib kelmagan. Cholg‘ular o‘z shakliga nisbatan ancha kattalashtirilgan va ansambl ovoz tarovatini boyitishga xizmat qilgan.

U.Zufarov birinchilardan bo‘lib, Yu.Rajabiy buyurtmasiga asosan ansambl jamoasi uchun past registrli cholg‘ular, ya‘ni “katta dutor”, “katta tanbur” va “katta g‘ijjak”larning bir necha turlarini yasaydi. Ular 1934-1936 yillar davomida Yu.Rajabiy rahbarligidagi ansambl tarkibida qo‘llaniladi.

Usta butun umri davomida cholg‘ularning yangi turlarini o‘ziga xos betakror bezak va nafis yog‘och o‘ymakorligi san‘ati bilan hamohang ravishda yasash bilan shug‘ullangan. Bu cholg‘ular bugungi kunda U.Zufarov ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining “Davlat noyob ilmiy ob‘ekti”da nodir eksponat sifatida saqlanmoqda.



Usta Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan katta dutorlar va katta g‘ijjaklar.

Usta Usmon Zufarovning ishlari milliy musiqiy sozlarimizning sifat darajasini oshirishga katta yordam berdi va hozirgi kunga qadar bu cholg‘ular barcha sozgar ustalarga namuna (etalon) sifatida xizmat qilmoqda. Usmon Zufarovning noyob va



Usta U.Zufarov shogirdi X.Muhitdinov bilan

betakror cholgʻularida nafaqat Oʻzbekistonning, balki xorijiy mamlakatlarning ham mutaxassisleri va musiqa ixlosmandlari sevib ijro etmoqdalar. Ularning dutorlari (hamda tanburlari) boshqa ustalarning ishlaridan ajralib turishi uchun boʻgʻzida (dasta va kosani birlashtiruvchi qismida) gul va bulbul siymosi yogʻoch oʻymakorlik sanʼati

orqali aks ettirilgan. Bu esa faqatgina ustaning oʻziga xos boʻlgan ramziy belgi hisoblanadi. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi Usta Usmon Zufarov taniqli xalq ustalari qatoridan joy olgan. Ustaning nomini nafaqat Oʻzbekiston sozandalari-yu, xonandalari balki xorijiy hamkasblarimiz ham faxr bilan tilga oldilar. Qoʻqonda usta Moʻminbek va usta Haydarning nomlari magʻrurlik bilan tilga olinadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan ustalar-usta Umarali va uning shogirdi usta Toshboy Sultonovning nomlari toshkentlik musiqa shaydolarining dilida abadiy barhayotdir. Ularning yasagan cholgʻulari muzeylarda va sozandalarning uylarida ardoqlanib saqlanmoqda. Bu ustalar cholgʻularning badiiy bezagiga alohida eʼtibor berishgan, yasagan dutor va tanburlari oʻzining goʻzalligi bilan ajralib turadi. Usta Usmon Zufarovning ustozlari - usta Toshboy Sultonov elga tanilgan zamonaviy ustalarining biri edi. Uning mohir qoʻllari bilan yuzlab dutor, tanbur va boshqa musiqa cholgʻulari yasalgan.

Sozgar usta U.Zufarov 1894-yili Toshkentning Koʻkcha mahallasidagi Tor koʻchada dunyoga kelgan. U 6 yoshida otasidan yetim qoladi. Uni va toʻrt nafar ukasini onasi tarbiyalaydi. Onalarining aytishlariga qaraganda: “Usmon bolalik paytida koʻchada bir toʻda bolalarning dutor chalayotganini koʻrib qoladi. U katta qiziqish bilan musiqani tinglab, koʻzini dutordan uzmas edi.

Shundan keyin Usmon kichkina yog‘ochni olib undan kichkina o‘yinchoq dutor yasabdi va torining o‘rniga otning yolini taqibdi. O‘yinchoq cholg‘u zo‘rg‘a eshitiladigan darajada tovush chiqarib, kichkina musiqachini quvontiribdi. Yillar o‘tishi bilan uning musiqaga bo‘lgan qiziqishi ortib boribdi. Bir kuni Usmon Qashqar mahallada usta Tosh yashashligidan xabar topib, uning yoniga boradi va uni shogirdlikka olishini so‘raydi. Shunday qilib, u 12 yoshidan boshlab toshkentlik usta Toshboy Sultonovdan cholg‘u yasashni o‘rgana boshlaydi.

“8 yillik mehnatimdan so‘ng, mening ustozim mahorat sirlarini o‘rgata boshladi, keyin ko‘p vaqt temirchilik qildim va faqatgina 15 yildan keyin dutor va boshqa musiqa cholg‘ularini yasay boshladim”³¹, deb eslaydi usta Usmon Zufarov. Boshqa ustalarning ham tarjimai holi shundaydir. Chunki azal-azaldan ustozlar o‘z shogirdlariga sozgarlik sirlarini darhol o‘rgatmay, balki ularni izlanishga o‘rgatar edi. Faqatgina sabr-toqatli shogirdlargina cholg‘u yasash sirlarini egallay olishi mumkin. Zero, sozgarlik san‘ati eng sharafligi, shu bilan birga o‘ta mashaqqatli kasbdir.

Cholg‘u yasash uchun xomashyoni ajrata bilish va qayta ishlash qanday muhim ahamiyatga ega ekanligini bilgan yosh usta, o‘tkir zehnlilik bilan yog‘ochni qayta ishlashni o‘rganadi va naqsh bezagi sirlarini egallaydi. 1920-yili Usmon Zufarov o‘ziga kerakli bo‘lgan barcha asbob-uskunalarni yig‘ib, kichkina uy ustaxonasini tashkil etadi va katta bo‘lmagan duradgorlik dastgohi olib, mustaqil ravishda ishlay boshlaydi.

Tez orada Usmon Zufarov cholg‘ulari nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa Respublikalarda ham dong taratadi. Musiqa ihlosmandi, betakror sozanda – Usta Usmon bu hurmatga sazovar bo‘lishi uchun tinimsiz va ishtiyoq bilan ishladi. Doimo cholg‘u ovozi jarangdorligi ustida ish olib borgan usta 1922-yili taniqli Toshkentlik yog‘och kesuvchilar – Abdumutal Tursunboyev va uning o‘g‘li Nabijon bilan tanishadi, ulardan yog‘och kesish

³¹ Muallifning Usta Usmonning o‘g‘li To‘xtamurod Zufarov bilan 2000 yil 15 sentabrda bo‘lgan suhbatidan yozib olingan.

sirlarini o‘rganadi. U birinchi bo‘lib, dutor va tanburlar bo‘g‘zida nozik naqshlar ishlatishni boshlaydi.

1920-yillarning oxirida Gorpromsoyuz tomonidan musiqa cholg‘ulari yasaydigan artel ochiladi. Bu yerga barcha malakali va tajribali ustalar yig‘ilgan edi. Ulardan birinchi bo‘lib Usta Usmon Zufarov ham ishga kiradi, o‘zining bor mahoratini yosh shogirdlarga o‘rgatadi. Usta Usmon aytishiga qaraganda o‘sha davrda artelda yasalgan cholg‘ular barchaga ma‘qul edi. Bu davrda boshqa Respublikalar qatori O‘zbekistonda ham yangi tuzumli davr boshlangan edi. Ustalar ham an‘anaviy cholg‘ularni takomillashtirish kerakligini tushunishadi. Bu ish bilan Usta Usmon taniqli xorazmlik musiqachi Matyusuf Xarratov, toshkentlik hofiz Shorahim Shoumarovlar ham astoydil shug‘ullana boshlaydilar. Ular o‘z tajribalariga tayanib cholg‘ularning ovozini kuchaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Cholg‘ularning ovoz tarovati va tembr xususiyatlarini kuchaytirish yo‘lida Usta Usmon Zufarov katta korpusda bir qancha g‘ijjak, dutor va tanburlarning majmuasini yasaydi. Bu uning cholg‘ularni takomillashtirish yo‘lida qilgan birinchi ishi edi. Usta Usmon yasagan yo‘g‘on tembrga ega bo‘lgan bas cholg‘ular avval 1927-yilda radio qoshida tashkil etilgan xalq cholg‘ulari ansambli tarkibiga o‘zbek musiqa madaniyatining arbobi, taniqli xalq sozandasi, akademik Yunus Rajabiy tomonidan kiritiladi.

1934-yili san‘atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qoshida maxsus cholg‘ularni takomillashtiradigan tajriba laboratoriyasi ochilgandi, u yerga usta Usmon va uning bir qancha shogirdlari, toshkentlik Usta Hoji Oxun, Buxorodan Usta Toir Mahmudov va boshqalar taklif etiladi. Bu laboratoriya O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining yirik tadqiqotchisi V.Uspenskiy taklifi bilan ochiladi.

So‘ngra, 1936-yilda To‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil etilgan 98 nafar sozandadan iborat “etnografik” ansambl, ya’ni unison orkestr tarkibida Usta Usmon yasagan katta g‘ijjak, katta tanbur va katta dutorlar ham amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. 1937-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek san‘atining birinchi de-

kadasida Usta Usmon Zufarov yasagan dutor, tanbur, doyra va boshqa cholg'ular poytaxt teatri sahnasida yangraydi. Shuningdek, ular dekada ko'rgazmasida ham namoyish etiladi.

Ko'p tajribalar shuni ko'rsatadiki, - deydi Usta Usmon – cholg'uning ovozigina faqatgina korpus emas, balki uning kosasi va qopqog'ining qalinligi ham katta rol o'ynaydi, korpus qanchalik ingichka bo'lsa, tovush shunchalik baland bo'ladi. Dutorning tem-bri va tovushini yaxshilash uchun, deydi Usta Usmon, avvalambor yaxshi xomashyo topish kerak, qopqoqni yaxshilab kuydirib quritish va kosa devorlarini nihoyatda ingichka qilib yasash va uni ichkari tomonidan kuydirish kerak. Shuningdek, usta dutor torlari toza shoyi ipdan bo'lishi kerakligini va u chiroyli, kuchli sado berishini ta'kidlaydi.

Usta Usmon aytadiki, musiqa cholg'usini yasaydigan ustaning o'zi ham cholg'uchi bo'lishi kerak, shundagina u cholg'uda chiroyli tovushni topa oladi. Bundan tashqari, chiroyli bezak va tembrga ega bo'lgan cholg'u sozandani ilhomlantiradi, deydi. Usta Usmon cholg'ular yasashda katta tajribaga ega bo'ldi. Chunki u barcha cholg'ularni yasay oladigan sozgar usta edi va shu bilan birga zarbli, damli va barcha turdagi torli cholg'ularni o'zi chalishni bilardi. Uning sozgarlik san'atidagi siri ham balkim shundadir. U xalq cholg'ulari to'g'risida ko'p narsalarni bilardi. Ulardan biri-dutor cholg'usiga taalluqlidir. Bu shunday boshlanadi. Qadimda buyuk donishmand Aflotunga birinchi yasalgan dutorni berishadi. Dutor xunuk va og'ir edi. Chunki bu dutor yaxlit yog'ochdan o'yib olingan ovozi ham past, ham kuchsiz edi. Aflotun dutorning ovozi ham chiroyli, ham jarangdor bo'lishini xohlardi, lekin nima qilish kerakligini bilmasdi. Donishmand har kuni cho'ponlarni kuzatar ekan, ertalabki kuchli nonushtadan so'ng cho'ponlar mollarni yig'ish uchun u eshikdan bu eshikka o'z qo'shiqlarini aytib kelar ekan. Lekin ularning ovozlari kuchsiz va past tovushda yangrarkan. Kechqurun cho'ponlar qorinlari ochqab qaytganda esa ularning ovozlari jarangdor va baland chiqarkan. Nihoyat Aflotun dutorning ham ichi bo'sh bo'lsa ovozi

baland va jarangdor bo‘lishini aytadi. Shundan boshlab, dutorlar yengil, chiroyli va ingichka o‘yilgan korpusga ega bo‘ldi.

Usta Usmon yog‘ochlarni ajratishga katta ahamiyat berardi. U dutor qopqog‘ini tut daraxtidan yasardi. Tut yog‘ochini quruq joyda 2-3 yil ba’zida esa 5 yilgacha qurutar edi. Duxovkada ko‘p vaqt quritilgandan keyin va olovda kuydirilgandagina qopqoq jigarrang tusga kiradi. Qopqoqni yasagan vaqtda usta qonun-qoidalarga asoslanardi: ya’ni qopqoqning o‘rtasi qalinroq va chekkalari ingichkaroq bo‘lishi kerak. Oldingi ustalar tovush chiqaradigan teshiklar, ya’ni rezanatorni kuydirish yo‘li bilan yasashgan, Usta Usmon esa buni astalik bilan kesish orqali va har xil ko‘rinishdagi o‘ymakorlik san’ati orqali yasagan. Dutor korpusi va dastasi oldindan tayyorlanib qo‘yilardi. Birinchi o‘rik daraxtidan bo‘g‘iz tayyorlanadi, so‘ngra bo‘g‘izga 10-12 ta qovurg‘a yopishtiriladi. Shuning o‘zi chuqur rezanatorni hosil qilardi. Tanbur, g‘ijjak, qashqar rubobining kosa qismini esa usta o‘yma qilib yasardi.

Usta Usmon Zufarov tomonidan yasalgan 30 dan ortiq musiqa cholg‘ulari hozirgi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi “Davlat noyob ilmiy ob’ekti” muzeyida eksponat sifatida saqlanmoqda. Shuningdek, U.Zufarov tomonidan 1948-yili yasalgan 21-sonli cholg‘u an’anaviy dutorlarni yasashda hozirgi kunga qadar etalon-namuna sifatida xizmat qilmoqda. Shogirdlari shu kunga qadar konservatoriya ustaxonasida boshlangan ishni davom ettirib, sulolasi bilan birgalikda sozgarlik san’atini nafaqat davom ettirishmoqda, balki uni yuqori cho‘qqilarga ko‘tarish bilan birga mahoratli sozandalarni yetishtirib chiqarishda o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Sifatli va yoqimli tembrga ega bo‘lgan cholg‘ulari orqali professional sozandalar va musiqa ixlosmandlarini ilhomlantirib kelmoqdalar.

“Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasida tajribaviy dutor, g‘ijjak, rubob va changlarning 60dan ortiq turlari mavjud. Ulardan usta Usmon Zufarov tomonidan yasalganlari e’tiborga loyiqdir. Bular: g‘ijjak, katta g‘ijjak, sato,

ud, dutor (bolalar, ayollar va erkaklar uchun), katta dutor, chang, rubob (“Tamaraxonim”), tanbur va boshqalardir. Ular hozirgi kunda muzeyning noyob eksponatlari qatoridan joy olgan.

Savollar:

1. Musiqiy cholgʻularni takomillashtirish gʻoyasi ilk bor kimlar tomonidan oʻrtaga tashlangan?
2. Musiqiy cholgʻularni takomillashtirish maqsadi nimadan iborat (xalq hofizi, sozanda va xalq ustalari fikri boʻyicha)?
3. U.Zufarov qanday cholgʻularni yaratdi?
4. U.Zufarovning ustoz kim boʻlgan?
5. Sh.Shoumarov qaysi cholgʻularning tovush va tebranish sifatlarini yaxshilashga doir qizgʻin izlanishlarni boshlab berdi?
6. Sh.Shoumarov gʻijjak kosalarini qaysi xomashyolardan tayyorladi?
7. Qanday shakldagi va qaysi xomashyodan yasalgan gʻijjak maqsadga muvofiq deb topildi?
8. “Katta dutor”, “katta tanbur” va “katta gʻijjak” cholgʻulari qaysi usta tomonidan yaratildi?
9. Matyusuf Xarratov qaysi cholgʻuni takomillashtirdi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar roʻyxatidagi 1, 3 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli maʼlumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan sozgar ustaning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Taniqli xofiz, kichik diapazon, mohir sozanda, mohir sozgar, “katta dutor”, sozgar usta, “etnografik” ansambl, musiqa cholgʻularini yasaydigan usta, oʻymakorlik sanʼati.

Adabiyotlar:

1. Shukurova F. Cholgʻu ijrochiligi tarixidan. - T., 2005.
2. Liviye A. Oʻzbek milliy cholgʻusozlik tarixi. - T., 2005.
3. Tashmatova A. Musiqiy cholgʻular muzeyi katalogi. - T., 2006.
4. Abduvaliyev A. Ohanglarda yaralgan olam // Oʻzbekiston sanʼati. 1978, № 10, 13-bet.

11-DARS: OʻTILGAN MAVZULAR BOʻYICHA AMALIY MASHGʻULOT

Mavzularni yanada mustahkam oʻzlashtirish uchun yuqorida koʻrsatilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, quyidagi vazifalarni bajaring.

1. Xalq bayramlari, sayillar, mavsumiy yoki oilaviy marosimlarda cholgʻu musiqasining oʻrni.
2. 1860-1917 yillarda xalq cholgʻularida ijrochilik sanʼati.
3. Rus va xorijiy etnograf-folklorshunoslarning Turkiston oʻlkasida olib borgan ilmiy izlanishlari bilan tanishib chiqing.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim boʻlgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni oʻrganib chiqing.



O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi “Davlat noyob ilmiy ob’ekti”da eksponat sifatida saqlanayotgan, mashhur sozgar ustalar: U.Zufarov, Sh.Shoumarov, R.Isaboyev, M.Xarratovlar tomonidan yaratilgan nodir sozlar bilan yaqindan tanishing, ularning hayoti va ijodiy faoliyati bilan yuqorida keltirilgan adabiyotlar orqali tanishib chiqing.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan **cholg‘ularni** o‘rganish uchun to‘g‘ri keladigan ma’lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta’riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

12- DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

O‘tilgan mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun quyidagi adabiyotlarni ko‘zdan kechirib, quyidagi vazifalarni bajaring:

Adabiyotlar:

1. Shukurova F. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. - T., 2005.
2. Abduvaliyev A. Ohanglarda yaralgan olam // O‘zbekiston san’ati. 1978, № 10, 13-bet.

Quyidagi topshiriqlarni yozma ravishda topshiring:

I-variant:

1. U.Zufarovning hayoti va muzeydan eksponat sifatida joy olgan cholg‘ulari haqidagi ma’lumotni yozma ravishda topshiring.

II-variant:

1. Sh.Shoumarovning hayoti va muzeydan eksponat sifatida joy olgan tajribaviy cholg‘ularini yozma ravishda bayon eting.

III-variant:

1. R.Isaboyevning hayoti va ijodi.
2. M.Xarratovlarning ijodiy faoliyati haqida yozma bayon eting.

13-DARS: PETROSYANS RAHBARLIGIDA XALQ CHOLG‘ULARINI TIZIMLI RAVISHDA MODERNIZATSIYALASHTIRISH

1930-yillarning o‘rtalarida A.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh musiqa ustalari (V.Romanchenko, A.Kevxoyans, S.Didenko) V.Andreyev ish tajribasiga tayangan holda (torli-chertma) cholg‘ularni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida ijrochilikning zamonaviy talab darajasiga moslashtirishga, ya’ni modernizatsiyalashtirishga kirishdilar. Modernizatsiyalashtirishdan asosiy maqsad: ko‘p ovozli ansambl va orkestr jamoalarini tuzishdan iborat edi. Shu paytning o‘zida A.Petrosyansda cholg‘ularning oilasini yaratish fikri paydo bo‘ldi. Natijada nota orqali ijro etadigan orkestrning shakllanishiga asos solindi.



A.Petrosyans S.Didenko bilan dutor cholg‘usini muhokama qilmoqda



Usta-konstruktor S.Didenko musiqa cholg‘ulari ustaxonasida qashqar rubobini muhokama qilmoqda

1940-yillarning boshlarida laboratoriyaning musiqiy ustaxona-sida usta-konstruktorlar A.Petrosyans va S.Didenko, soz ustalari V.Romanchenko va A.Kevxoyanslar ishlar edilar. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida ularning tarkibiga X.Muxitdinov, A.Abdugʻofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev va F.Bortniklar kelib qoʻshildilar.

Ular torli-chertma cholgʻularning tovushqatorlariga 12 bosqichli teng temperatsiyalashgan xromatik tovushqatorlarni joriy etish, cholgʻularning oilalarini yaratish, torli kvintet, yaʼni torlikamonli cholgʻular, xromatik chang ustida ilk tajribalar oʻtkazadilar. Bularning hammasini A.Petrosyans bir guruh milliy ustalarimiz bilan birgalikda oʻzbek xalq musiqa cholgʻularida ijrochilik taʼlimini umummaqbul nota sistemasiga muvofiq tarzda yoʻlga qoʻyish maqsadida amalga oshiradi.



Anʼanaviy gʻijak



Modernizatsiyalashtirilgan gʻijak

Gʻijaklarni takomillashtirishda asosan ularning dastalariga eʼtibor qaratilgan. Anʼanaviy gʻijaklarda dasta yumaloq shaklda boʻlib, yuqori qismi qalin, pastki qismi ingichka qilib ishlangan. Chunki ularda asosan oʻzbek xalq kuylari va maqomlardan parchalar ijro etilgan. Tez surʼatdagi asarlar ijro etilmagan. Modernizatsiyalashtirilgan gʻijaklarda esa oʻzbek xalq kuylari bilan bir qatorda Oʻzbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari va jahon

klassik durdonalari ham ijro etilgan. Shuning uchun ham dastaning yuqori qismi ingichka pastki qismi qalin hamda dastasining barmoq bosib ijro etiladigan qismi yassi qilib ishlangan. Zero, bunday holat texnik asarlarni ijro etishga qo‘l keladi. Boshqacha qilib aytganda g‘ijjaklar modernizatsiyalashtirilgandan so‘ng ularning ijrochilik imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, g‘ijjak kamoni skripka kamoni bilan almashtirildi hamda uning ushlash holati g‘ijjak ijrochiligi amaliyotga keng joriy etildi.

So‘ngra g‘ijjak asosida - g‘ijjak alt, g‘ijjak bas va g‘ijjak kontrabaslar, ya‘ni g‘ijjaklar oilasi yaratildi. Ushbu oila asosida g‘ijjakchilar orkestri tashkil etildi. Bunga O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi professori Murod Toshmuhamedov tomonidan tuzilgan “Sayqal” g‘ijjakchilar orkestri yaqqol misol bo‘la oladi. Bu turdagi orkestr O‘zbekiston musiqa madaniyatida o‘ziga xos o‘ringa ega va hozirgi kunga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Turli festival va ko‘rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, orkestr ijrochiligi san‘atining rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.



G‘ijjak bas



G‘ijjaklar oilasi: g‘ijjak, g‘ijjak alt, qobuz bas va kontrabas

A.Petrosyans dastali cholgʻularni modernizatsiyalashtirishda 5 ta asosiy masalani kun tartibiga qoʻyadi:

1 - dastada joylashgan boylanma diatonik tovushqatorni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va dastaga oʻrnatilgan xromatik tovushqator bilan almashtirish;

2 - cholgʻular oilasini yaratish;

3 - tovush sifatini yaxshilash, kuchini oshirish va cholgʻular diapazonini kengaytirish;

4 - tovush chiqarish, yaʼni ijrochilik imkoniyatlarini qulaylashtirish;

5 - cholgʻularni yangi texnologiya asosida yaratish.



An'naviy dutor



Modernizatsiyalashtirilgan dutor

Shu tariqa an'naviy dutor asosida dutor tenor (900mm.li) cholgʻusi yaratildi. Bunda birinchi boʻlib dastada joylashgan boylanma diatonik tovushqator 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va dastaga oʻrnatilgan xromatik tovushqator bilan almashtirildi. Shuningdek dutor tenor asosida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabasdan tashkil topgan dutorlar oilasi yaratildi. Gʻijjaklar singari dutorlar oilasidan ham orkestrlar tashkil etildi. Bunday jamoalar oʻquv jarayonida koʻp qoʻllanilgan, hozirgi kunga qadar bolalar musiqa va sanʼat maktablarida, shu bilan birga akademik litsey, musiqa kollejlari hamda oliy oʻquv yurtlarida orkestr ijrochiligi amaliyotida qoʻllanilmoqda.



Dutorlar oilasi

Qashqar ruboblari ham xuddi shu tarzda modernizatsiyalashtirilgan. Qashqar rubobi dastasidagi boylanma pardalar, dastaga oʻrnatilgan mustahkam pardalar bilan, diatonik tovushqator 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqator bilan almashtirilgan. Shuningdek qashqar rubobi asosida prima rubobi, metsosoprano rubabi, kichik rubob hamda alt rubobi yaratildi. Ushbu cholgʻular

hozirgi kunda yakkanavoz va joʻnavoz sifatida ansambl va orkestrlar tarkibida keng qoʻllanilmoqda. Shuningdek, Respublikamizning barcha boʻgʻin oʻquv yurtlarida prima rubobi va qashqar rubob sinflari boʻyicha saboq berilmoqda.



Anʻanaviy rubob



zamonaviy rubob



Ruboblar oilasi

Afgʻon rubobi ham shu tarzda modernizatsiyalashtirildi. Kosa-ning yogʻoch dekali qismi ijroga qulay boʻlishi uchun ancha ixchamlashtirildi. Dasta qismi uzaytirilda hamda dastaga 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqatorlar oʻrnatildi. Natijada afgʻon rubobida nafaqat oʻzbek va qardosh xalqlar kuy-qoʻshiqlari, balki Oʻzbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari hamda jahon klassik musiqasini ijro etish imkoniyati paydo boʻldi. Shuningdek afgʻon rubobi ham ruboblar oilasi bilan birga ansambl va orkestrlar tarkibida yakkanavoz va joʻrnavoz sifatida qoʻllanilmoqda.



Anʼanaviy afgʻon rubob



Modernizatsiyalashtirilgan afgʻon rubobi



Anʼanaviy chang

An'anaviy chang diatonik tovushqatorga ega bo'lib, uning o'ttiz yettita metal torlari mavjud. Ulardan birinchi-uchinchi va beshinchi torlari toq, ya'ni bir donadan taqilgan, qolgan o'n bittasi uchlangan torlardan iborat. Cholg'uda chordona qurib o'tirgan holatda ijro etilardi. Modernizatsiyalashtirish natijasida changning diatonik tovushqatori o'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan xromatik tovushqator bilan almashtirildi. Torlarning soni 72-75 taga yetdi. Natijada cholg'uning diapazoni kengaytirildi, sozandalar uchun qulaylik hamda keng ijrochilik imkoniyatlari yaratildi. Ushbu changlarda nafaqat o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari va maqomlardan parchalarni, balki O'zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlarini ham ijro etish mumkin.



modernizatsiyalashtirilgan chang

So'ngra changga uchta kichik oyoqchalar o'rnatildi. Sozanda esa tizza bo'kib o'tirgan holda ijro eta boshladi, keyinchalik zamonaviy changlarga uchta uzun oyoqlar va pedal mexanizmi o'rnatildi. Modernizatsiyalashtirilgan changda nafaqat milliy kuy-qo'shiqlar, balki jahon durdona asarlarini ijro etish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Shuningdek, sozandalarga ham stulda o'tirib ijro etishlari uchun qulaylik yaratildi. Keraksiz tovushlarni o'z vaqtida so'ndirish uchun ijrochilar pedal mexanizmidan ham unumli foydalanishmoqda.



Modernizatsiyalashtirilgan changlar

Barcha boshqa cholg'ular qatori changning ham chang pikolo, chang prima, chang tenor, chang alt, chang basdan tarkib topgan oilasi yaratildi. Natijada ko'p ovozli changchilar ansambli va orkestrini tuzish uchun zamin yaratildi.



Changlar oilasi

Changlar oilasidan orkestr tashkil etishga O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida dotsenti Fazilat Shukurova muvassir bo'ldi. Ayrim sabablarga ko'ra ushbu jamoa o'z ijodiy faoliyatini qisqa vaqt ichida to'xtatib qo'ydi. Hozirgi kunda changlar oilasi ustida ilmiy izlanishlar olib

borilmoqda, jamoa ijrochiligi yangi ko‘rinishda yana amaliyotga kirib keladi, degan umiddamiz.

1996-yili cholg‘ushunos olim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor Anvar Liviyev g‘oyasi asosida “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi ustalari tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalari uchun maxsus milliy musiqiy cholg‘ular majmuasi yaratildi.



Majmuaning 1-namunasi (1996 y.)



Majmuaning 2-namunasi (2000 y.)

Ushbu cholg‘ular majmuasini ilk bor Toshkent shahridagi Uch tepa tuman 217-sonli bolalar bog‘chasi musiqa rahbari Venera Ro‘zimetova amaliyotga joriy etdi. Bolajonlar 3-5 yoshidan boshlab nota orqali ijro etish ko‘nikmasini egallashdi. Ular hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 1996-yildan beri har yili Respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Navro‘z sadolari” nomli festivalni o‘z ijrolari bilan ochib bermoqdalar. 2015-yildan e’tiboran ushbu festival Xalqaro miqyosga aylandi va 2 yilda bir marotaba o‘tkazilmoqda. Ushbu majmuaning 2- va 3-namunalari ham yaratilgan. Ular hozirgi kunda barcha maktabgacha ta’lim muassasalariga joriy etilgan.

Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun yasalgan cholg'ular

Bolajonlarimizning nafaqat ma'naviy rivojlanishlari, balki jismonan sog'lom bo'lishlari uchun bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilariga mo'ljallab maxsus milliy cholg'ular yaratildi. Qashqar ruboblari, dutor bas, an'anaviy dutor va qonun shular jumlasidandir. Ushbu cholg'ular orqali ular o'z ijro mahoratlarini bemalol namoyon eta oladilar.



BMSM uchun yasalgan qashqar ruboblar
(usta B.Inoyatov)



Dutor bas
(usta A.Islomov)



An'anaviy dutor
(usta T.Mirzayev)



BMSM uchun yasalgan qonun (usta O.Melixo'jayev)

Shuningdek, O‘zbekistonda cholg‘u ijrochiligi san’atining yanada rivojlanishi, milliy sozlarimizning dunyoga targ‘ib etish hamda yoshlarimizning Xalqaro ko‘rik-tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritishlari uchun Oliy toifali ustalar: B.Inoyatov, T.Mirzayev, A.Islomovlar oliy o‘quv yurti talabalari va professional sozandalar uchun bir qator cholg‘ularni yaratdilar. Ushbu cholg‘ular mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, amaliyotga joriy etilgan.

Talabalar va professional sozandalar uchun yaratilgan cholg‘ular



Prima ruboblari (usta B.Inoyatov)



Afg'on ruboblar (usta T.Mirzayev)

Prima ruboblarining menzurasi kengaytirildi va bu sozandalarning ijro mahoratini namoyon etishlari uchun qulaylik yaratdi, shuningdek chiroyli va yoqimli tembr tarovatiga ega bo‘ldi. Natijada ushbu cholg‘ular ansambl va orkestrlar tarkibidagi boshqa cholg‘ulardan keskin farq qilmay, balki ular bilan uyg‘unlashib ketdi. Afg‘on rubobining esa yangi, ya’ni 4 torli turi yaratildi va u hozirgi kunda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.



Dutor bas (usta A.Islomov)



Qashqar rubobi plastik terili (usta A.Kovirnov)



Qonun (usta T.Mirzayev)

Yuqorida qayd etilgan cholgʻularni yasashda hamda ularni modernizatsiyalashtirishda Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimlari, oʻzbek milliy musiqa cholgʻularining betakror ustalari Xirojiddin Muhitdinov, Abdunabi Abdugʻofurov, Faxriddin Muhitdinov, Xasan Muhitdinov, Olimxoʻja Melixojayev, Bahtiyor Inoyatov, Tohir Mirzayev, Azamat Islomov va boshqalar jonbozlik koʻrsatdilar.



Xrojiddin Muhitdinov



Abdunabi Abdug'ofurov



Faxriddin Muhitdinov



Xasan Muhitdinov



Olimxo'ja Melixo'jayev



Baxtiyor Inoyatov



Tohir Mirzayev



Saydamin Isaxonov

Hozirgi kunda laboratoriyada Baxtiyor Inoyatov, Tohir Mirzaev, Saydamin Isaxonov, Azamat Islomov kabi malakali ustalar bilan bir qatorda - Shokir Yunusov, Rustam Xojiyev, Akbarxo‘ja Melixo‘jayev, Nurmuhammad Muhitdinov, O‘ral Safarov va Mahmud Inoyatov kabi iqtidorli yangi avlod vakillari ham ishlab kelmoqdalar. Yoshlarning ushbu ishga jalb etilishi sozgarlik san‘atining davomiyligini saqlab qolish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Yirik cholg‘ushunos olim, xalq cholg‘ulari orkestri asoschisi, ko‘zga ko‘ringan dirijyor, ajoyib murabbiy **Ashot Ivanovich Petrosyans**ning (1910-1978) nomini nafaqat respublikamizda, balki undan tashqarida ham juda yaxshi bilishadi. U 1910-yil 10-mayda Turkmanistonning Mari shahrida tug‘ilgan. Uning musiqiy qobiliyati juda yoshligida, umumta’lim maktabida to‘garaklarga qatnashib yurganida namoyon bo‘lgan ekan. Ota-onasi bilan Toshkentga ko‘chib kelgan (1928) yosh sozanda musiqa texnikumiga skripka ixtisosligi bo‘yicha D.Pikarskiyning sinfiga o‘qishga kiradi. O‘qish davrida u “Ishchi yoshlar teatri”da musiqiy bo‘lim mudiri va dirijyori vazifalarini ham bajaradi.

Musiqa texnikumini tugatgach, A.Petrosyans armiya safida xizmat qiladi (1932-34). Harbiy xizmatdan qaytgach, uni bolalarni badiiy tarbiyalash uyiga ishga taklif qilishadi. Bu yerda Ashot Ivanovich iste’dodli bolalardan rus xalq cholg‘ulari orkestrini tuzadi. Bolalar bilan bir yil davomida o‘zbek, rus va qardosh xalqlar kuylarini (“Qashqarcha”, “Do‘lancha”, “Chamanda gul”, “Vo sadu li v ogorode”, “Oy divchina, divchina”, “Oy shula sochganda” va boshqalar) o‘z ichiga olgan butun boshli konsert dasturini zo‘r qiziqish bilan tayyorlaydi.

1936-yilda A.Petrosyans Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida dars beradi. U yerda ham, boshqa joylarda bo‘lgani kabi, o‘zini iste’dodli, ijodkor, tashabbuskor, serg‘ayrat, tashkilotchi shaxs sifatida yorqin namoyon etadi. S.Didenko, A.Kevxoyans, V.Romanchenko, U.Zufarov singari bir guruh ustalar o‘zbek xalq cholg‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish, ya’ni modernizatsiyalashtirishdek murakkab vazifani hal etishga



A.Petrosyans va S.Didenko ish ustida

kirishadilar.

Musiqa bilim yurtida ijrochilarni tayyorlashga doir faol ish boshlanadi. O'qituvchilik faoliyati ham A.Petrosyans uchun ijodiy jarayon bo'lib, u bu ishga butun muhabbati va ishtiyoqini bag'ishlaydi.

Uning sinfida hamisha ko'tarinki ijodiy muhit hukm

surar edi. Musiqa bilim yurti o'quvchilari musiqashunos I.Xamzin rahbarligida nota sabog'ini va musiqa nazariyasini o'rganishar edi. Mahoratli ijrochilarning kamol topishi - yangi turdagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini tuzishga ko'maklashdi. 1940-yilda xalq cholg'ulari orkestrining O'zbekiston bo'ylab ilk bor katta konsert gastrol safari bo'lib o'tadi. Orkestr Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Namangan shaharlarida konsertlar o'tkazadi.

1948-yilda A.Petrosyans Toshkent davlat konservatoriyasida yangi tashkil qilingan o'zbek xalq cholg'ulari kafedrasining mudiri etib tayinlanadi. Shu vaqtdan boshlab mashhur musiqachining ijodiy, ilmiy-metodik faoliyati konservatoriya bilan chambarchas bog'lanadi. Konservatoriyada, o'zbek davlat filarmoniyasida ishlagan yillarida A.Petrosyans o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mahoratli sozandalarni tayyorlash, ilmiy ishlar va ilmiy-metodik qo'llanmalarni yaratish, kafedraning professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, maxsus sinflar ochish va eng asosiysi kompozitorlar tomonidan o'zbek xalq cholg'ulari va orkestrlar uchun maxsus asarlarning yaratilishi professor, Davlat mukofoti sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Ashot Ivanovich Petrosyans nomi bilan uzviy bog'liqdir.

Savollar:

1. Qanday sabablarga ko'ra xalq cholg'ulari modernizatsiyalashtirildi?
2. Cholg'ular oilasini yaratish fikri kim tomonidan o'rta tashlandi?
3. Eng avval qaysi cholg'ular oilasi yaratilgan?
4. Cholg'ularni modernizatsiyalashtirishda nechta asosiy masala kun tartibiga qo'yildi?
5. Ushbu masalalar nimalardan iborat edi?
6. Modernizatsiyalashtirish natijasida qaysi cholg'ular oilasi yaratildi?
7. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yaratilgan cholg'ular majmuasining g'oyaviy asoschisi kim?
8. BMSM uchun yaratilgan cholg'ularni sanab o'ting?
9. Talabalar va professional ijrochilar uchun yaratilgan cholg'ularni bilasizmi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 1 va 5 kitoblardan mavzuga tegishli ma'lumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan cholg'ular oilasi haqida gapirib bering.
4. Ustalardan birining hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

12 bosqichli teng temperatsiya, an'anaviy g'ijjaklar, 5ta asosiy masala, an'anaviy chang, musiqiy cholg'ular majmuasi, yirik musiqashunos olim.

Adabiyotlar:

1. Petrosyans A. Cholg'ushunoslik. - T., 1990.
2. Liviyev A. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. - T., 2005.

- 3.Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. - М., 2002, (118-126).
4. Tashmatova A. Musiqiy cholg'ular muzeyi katalogi. - T., 2006.

14-DARS: O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA PROFESSIONAL TA'LIMNING YUZAGA KELISHI

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon klassik kompozitorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston kompozitorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishi o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy-pedagogik va ijrochi kadrlarni tayyorlash masalasi ham kun tartibiga qo'yildi. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent (hozirda O'zbekiston) davlat konservatoriyasi faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

1948-yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan M.Ashrafiy nomidagi Toshkent (hozirda – O'zbekiston) Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi. O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga rahbarlik qilish, o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A.Petrosyans tomonidan amalga oshirilgan. Bilim yurtida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V.Uspenskiy, M.Ashrafiy, A.Petrosyans, I.Blagoveshenskiy, B.Gienko, G.Sabitovlarning xizmatlari beqiyosdir.

1948-1949-o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston davlat filarmonmiyasi Xalq cholg'ulari orkestrining 13 nafar sozandasi o'qishga qabul qilindi. Shulardan 10 kishi: N.Nig'matov (qo'shnay), A.Bahromov, A.Evdokimova (prima rubobi), M.Mirzayev, B.Mirzaahmedov (qashqar rubobi), L.Sultonova (dutor), N.Savinov (afg'on rubobi), M.Asilov,

O.Holmuhamedov (g'ijjak), A.Liviyev (doyra) lar 1-kursga qabul qilindilar. Hamza (hozirda-V.Uspenskiy) nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtining bitiruvchilari A.Odilov (chang), V.Borisenko (prima rubobi), F.Vasilyevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilingan³².

Kafedra faoliyatining ilk davrida mutaxassislar yetishmaganligi sababli ular torli cholg'ular, kompozitsiya, opera-simfonik dirijyorligi kafedralaridan, shuningdek badiiy jamoalardan taklif etilgan. Jumladan, taniqli bastakor, folklorshunos V.Uspenskiy o'zbek xalq musiqasi asoslaridan saboq bergan. A.Petrosyans chang, dutor, prima rubobi, qashqar rubobi, doyra, qo'shnay ixtisosliklari bo'yicha mashg'ulotlar olib borgan va o'zbek xalq cholg'ularidan tashkil topgan talabalar orkestriga bevosita rahbarlik qilgan edi.

Ixtisoslashtirilgan kafedraning tashkil etilishi xalq cholg'ulari bo'yicha berilayotgan ta'limni tubdan o'zgartirib, bir qator vazifalarni bajarishga undadi:

- professional ijrochilar, orkestr dirijyorlari, yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash hamda ular bilan madaniyat va san'at muassasalarini, musiqa o'quv yurtlarini ta'minlash;

- darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, maxsus sinflar uchun dasturlar ishlab chiqish, musiqa o'quv yurtlari uchun badiiy repertuarlar yaratish;

- musiqa bilim yurtlarida o'qitilishi lozim bo'lgan o'zbek xalq cholg'ularining asosiy turlarini aniqlash;

- modernizatsiyalashtirilgan o'zbek xalq cholg'ulari bilan o'quv yurtlarini ta'minlash va turli tarkibdagi orkestrlar tuzishni yo'lga qo'yish.

1952-yilda fakultetni ilk bor A.Odilov (chang), V.Borisenko (prima rubobi), F.Vasilyev (qashqar rubobi)lar tamomlashdi. Ilk bitiruvchilarning Davlat imtihoni uch qism: yakka dastur ijrosi, orkestrga dirijyorlik qilish va ijodiy ishni ko'rsatishdan (bitiruvchilarni o'qituvchi rahbarligida musiqa asarini orkestr ijrosiga cholg'ulashtirish) iborat edi. 1953-yili fakultetni yana 10 kishi

³² Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi, 52-bet.

bitiradi. Shu tariqa bitiruvchilar soni yil sayin ortib boradi.

1950-yillardan boshlab Respublikamizning barcha musiqa bilim yurtlarida damli cholg'ulardan - nay, nay pikkolo, qo'shnay-, surnay, bo'lamon, torli-urma cholg'ulardan - chang, torli-mizroblilardan - prima rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi, ud, dutor, dutor bas, torli-noxunli cholg'ulardan - tanbur, zarbli cholg'ulardan - doyra, nog'ora va simfonik orkestrda qo'llaniladigan zarbli cholg'ular, torli-kamonlilardan g'ijjak, g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas va bayanlarda ijro etish o'rgatila boshlandi.

O'zbek xalq cholg'ularida professional ta'limning yuzaga kelishi uchun maxsus sinflar tashkil etish va malakali pedagog kadrlar tayyorlash masalasi yuzaga keldi. Shu tariqa 1948-yilda qo'shnay, chang, prima rubobi, qashqar rubobi, dutor, dutor bas, doyra, g'ijjak, 1949-yilda nay, g'ijjak alt, qobuz bas, qobuz kontrabas, 1950-yilda bayan, 1951-yilda surnay, 1963-yilda afg'on rubobi hamda tanbur sinflari ochilgan³³.

1955-yilda o'quv jarayonini malakali boshqarish maqsadida maxsus cholg'ular, dirijyorlik, orkestrga cholg'ulashtirish va partitura o'qish bo'limlari vujudga keldi. A.Odilov - chang, bayan, damli va urma-zarbli cholg'ularga, F.Vasilyev - torli-mizrobli va noxunli cholg'ularga, O.Holmuxamedov - torli-kamonli cholg'ularga, I.Tretyakova - xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligiga, B.Gienko - orkestr uchun cholg'ulashtirish va partitura o'qish sinflariga rahbarlik qilganlar.

Fakultetni tugatgan talabalar hozirda respublikamizning ijo--diy jamoalari, akademik litsey, musiqa kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ijrochilik hamda pedagoglik faoliyatini olib bormoqdalar. 1960-yillar oxiriga kelib, o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik tarixida konservatoriya bitiruvchilari alohida ahamiyat kasb etgan. Ulardan eng mashhurlarini quyida ta'riflab o'tamiz.

O'zbek musiqa madaniyatining atoqli namoyondalaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, mohir sozanda **Ahmad Odilovich Odilov** O'zbekiston kompo-

³³ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi, 64-66 betlar.

zitorlarining turli janr va shakldagi asarlarining ilk ijrochisidir. Shuningdek, u konservatoriya changchilar ansamblining tashkilotchisi hisoblanadi.



Ahmad Odilov

A.Odilov 1928-yil 21-iyulda Toshkentning Sirli masjid mahallasida, ishchi Odil Bobomammedov oilasida dunyoga keldi. U o‘zining intiluvchangligi, ziyrakligi va tirishqoqligi bilan boshqa bolalardan ajralib turar edi. Mohir sozanda Nuriddin aka Halilov Ahmad akani Muqimiy nomidagi teatrga o‘zlari bilan tez-tez olib borardilar. U yerda yosh musiqa ixlosmandi “Tohir va Zuhra”, “Nurxon”, “Oftobxon” kabi spektakllarni zavq bilan tomosha qiladi. Orkestr sozandalari joylashgan maxsus o‘radan taralayotgan yoqimli

navolarga mahliyo bo‘lib, sirli ohanglar og‘ushida o‘z kelajagini musiqa san’ati bilan bog‘lashga ahd qiladi”³⁴.

Changchi Rahim Nurmuhamedovning juda ustalik bilan kuy-larni yoqimli va ravon ijro etishi, chang cho‘plarini aniq mo‘ljal bilan cholg‘uning torlariga urushi Ahmadning nazarida juda sehrlil edi. Ahmad changdan ko‘zini uzmas undan taralayotgan ohanglarga mahliyo bo‘libgina qolmay, uning pardalarini, torlarining nomini eslab qolishga harakat qilardi. Rahim akadan ruxsat so‘rab changda cho‘p tashlashni ham mashq qila boshlaydi.

1943-yilning boshlarida Ahmadni Hamza nomli musiqa bilim yurtiga akasi Komil o‘zi bilan birga olib boradi. U yerda Ahmadni shu bilim yurti o‘qituvchisi Abdusamad Ilyosov: “Qani mana bu chang oldiga yaqinroq kel. Bu cho‘plar mohir qo‘l va qaynoq qalb egasida sehrlil sadolar taratishi mumkin. Endi changda o‘zing cholib ko‘rginchi senda qanday taasurot qoldirar ekan? ”, - dedi. Oz muddat o‘tmay yosh Ahmad bilim yurtiga o‘qishga kiradi.

³⁴ Lutfullayev A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi, 2006, 15-6et.

U o‘zbek kuylari bilan bir qatorda, boshqa xalqlar musiqasini hamda rus va Yevropa mumtoz kompozitorlari asarlarini o‘rgandi. Jumladan, milliy kuylarimizdan “Tanovar”, “Jonon”, “Farg‘onacha”, S.Boboyevning ijodidan chang va orkestr uchun “Konsertino”, I.Admonining chang va fortepiano uchun “Kuy”, A.Spendiyarovning “Haytarma”, I.S.Bax ijodidan skripka va orkestr ijrosi uchun yozilgan “Konsert”, F.Shopenning “Vals” kabi asarlarini mahorat bilan ijro etganida ko‘plab tomoshabinlar lol qolganlar.

Ahmad Odilovning oliy maqsadi - konservatoriyada o‘qish va malakali ustozlar bilimidan bahramand bo‘lish edi. Taqdir taqozosi bilan u 1948-yilda konservatoriyaning ikkinchi kursiga qabul qilindi. Ixtisoslik bo‘yicha A.Petrosyans, N.Goldman, Sh.Shpitalniy, A.Davidovlardan ta‘lim oldi, musiqa nazariyasini N.Koral-skiy, musiqa adabiyoti tarixini S.Veksler, F.Karomatov, V.Uspenskiy, I.Blagoveshenskiy kabi ustozlardan o‘rgandi. O‘zbekiston kompozitorlari asarlaridan S.Boboyevning Chang va xalq cholg‘ulari orkestri uchun “Konsertino”, Fattoh Nazarovning “Qo‘shiq va raqs”, G‘.Qodirovning “Syuita”si, M.Ashrafiyning “Farg‘onacha yalla”, “So‘zsiz qo‘shiq”lar A.Odilov konsert repertuaridan mustahkam o‘rin egallagan.

Uning ijrosidagi chang taronalari O‘zbekiston radiosi “Oltin fondi”da alohida o‘rin tutadi. U chang cholg‘usi ijrochilik imkoniyatlarini nafaqat O‘zbekistonda balki, barcha xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Suriya, Livan (1971), Birma, Laos, Vetnam (1974, 1986), Vengriya (1978), Polsha (1980), Bolgariya (1983)-da targ‘ib etgan. Ahmad Odilov o‘qituvchilik faoliyatini 1944-yili Hamza nomidagi bilim yurtida boshlaydi. Keyinchalik 1957-1960-yillarda mazkur bilim yurtining direktori bo‘lib ishlaydi.

Ahmad Odilov konservatoriyada o‘qib yurgan kezaridayoq birinchi kurs talabalariga chang sinfidan dars bera boshlaydi. Uning shogirdlari 100dan ortiq bo‘lib, birinchisi Farruh Mirusmonovdir. Ular Respublikamizning barcha viloyatlarida, shuningdek Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalarida ustozdan olgan saboqlarini yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitgan holda hayotga tadbiq etdilar.

Kamtarin inson, ajoyib sozanda, mohir murabbiy hamda jamoat arbobi Ahmad Odilov tomonidan chop ettirilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar Respublikamizda yosh iste'dod sohiblarini tarbiyalashda, musiqa ta'limining barcha sohalarida muhim omilga aylangan. Ular O'zbekistonda cholg'u ijrochiligi san'atining rivojlanishiga va uning ommalashuviga hamda kompozitorlik ijodiyotini targ'ib qilishga xizmat qilmoqdalar.



Feoktist Vasilyev

Feoktist Nikiforovich Vasilyev (1919-1987) ilk professional darajadagi qashqar rubobi ijrochilaridan biri bo'lgan. U 1937-yili Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. O'qishni amaliyot bilan bog'lagan xolda 1938-yildan boshlab O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestrida sozanda sifatida ishlaydi. 2-jahon urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida faoliyat olib borgan. Konservatoriyaning qashqar rubobi bo'yicha A.Petrosyans sinfidan bitirgan (1952) birinchi talabalardan biridir.

O'quv jarayonini pedagoglik faoliyati bilan chambarchas bog'lagan holda u 1949-yildan Toshkent davlat konservatoriya-sida qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor va tanbur ixtisosliklari bo'yicha dars bera boshlaydi. Uning ilk shogirdlari - Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, G'ulomqodir Ergashev, Tohir Rajabov, Qobul Usmonovlar nafaqat respublikamizda, balki xorijda ham dong taratgan mashhur sozandalardir. Shuningdek, u ko'p yillik pedagogik amaliyoti davomida yuzlab respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlar g'oliblarini tarbiyaladi.



F.Vasilyev o'z shogirdlari bilan

Feoktist Nikiforovich nafaqat o‘qituvchilik amaliyotida, balki ilmiy-uslubiy ishlarni yozishda ham faol ishtirok etgan. F.Vasilyev tomonidan yaratilgan “Rubob maktabi” darsligi, “Qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar” o‘quv qo‘llanmalari hozirgi kunga qadar o‘z qiymatini yo‘qotmagan va mutaxassislik darslarida keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek ushbu qo‘llanmadan andaza olgan holda yosh o‘qituvchilar o‘zlarining kitoblarini nashr etmoqdalar. 1983-yildan F.Vasilyev professor vazifasini bajaruvchi, 1986-yildan professor lavozimida ishlagan. O‘zbek xalq cholg‘ularida professional ta’limning yuzaga kelishida Feoktist Vasilyevning xizmatlari cheksizdir. Uning nomi o‘zbek musiqa madaniyati hamda respublikamizda ijrochilik san’atining shakllanish va rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. U o‘zining qirq yilga yaqin murabbiylik faoliyati davomida O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan Madaniyat hamda Xalq ta’limi vazirliklari tasarrufidagi barcha bo‘g‘in o‘quv yurtlarini malakali va professional kadrlar bilan ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shgan. Hozirgi kunda uning shogirdlari ustozlari boshlagan ishni davom ettirmoqdalar.

Valentina Yakovlevna Borisenko (1919-1990) o‘zining ijodiy yo‘lini 1939-yili O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi Xalq cholg‘ulari orkestrida sozanda bo‘lib ishlashdan boshlaydi. Prima rubobi ixtisosligi bo‘yicha professional ijrochi bo‘-



Valentina Borisenko

lish niyatida u 1944-yili Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirib, chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, uni muvaffaqiyat bilan bitiradi. 1948-yildan boshlab V.Borisenko orkestrning torlimizrobli cholg‘ular guruhida konsertmeyster bo‘lib ishlaydi. Shu yili Toshkent davlat konservatoriyasining “O‘zbek xalq cholg‘ulari” bo‘limiga prima rubobi ixtisosligi bo‘yicha 2-kursga I.Blagoveshenskiy sinfiga qabul qilina-

di, orkestrda ham ishlashni davom ettiradi. Ustozidan ijrochilik sirlarini mukammal darajada o‘rganishga harakat qiladi. O‘z ustida tinimsiz izlanadi, ijro texnikasi va mahoratini oshiradi. 1952-yili konservatoriyaning prima rubobi va xalq cholg‘ulari orkestri dirijyori mutaxassisliklari bo‘yicha bitiradi.

Kafedra yangitdan ochilganligi hamda malakali kadrlar tanqisligi tufayli Valentina Yakovlevna 1950-yildan boshlab Toshkent davlat konservatoriyasida o‘qituvchi, 1962-yildan esa “xalq cholg‘ulari” kafedrasida dotsenti bo‘lib ishlaydi. O‘qituvchilik jaryonida Valentina Borisenko ustozlaridan olgan saboqlari va bilimiga tayangan holda yosh iqtidorli sozandalarni tayyorlashga kirishadi. Ularni ijro ko‘nikmalari va mahoratini egallashga va o‘z ustida mustaqil ravishda ishlashga o‘rgatadi. Natijada bir qator respublika va xalqaro ko‘rik-tanlov g‘oliblari yetishib chiqadi. A.Malikov, G.Salayeva (Obidova), B.Yo‘ldoshev, M.Raximov, B.Azimov, Sh.Janaydarov, F.Abdurahimova, Sh.Ziyayev, A.Dadamuhamedovlar shular jumlasidandir. Uning shogirdlari hozirgi kunga qadar ustozining ishini davom ettirib, respublikamiz o‘quv yurtlarini iqtidorli kadrlar bilan ta‘minlamoqdalar. Shuningdek, ustozlari yaratgan maktabni kelgusi avlodga yetkazishda jonbozlik ko‘rsatishmoqdalar.

Cholg‘u ijrochiligi san’atining yirik namoyandalaridan biri -



G‘ulomqodir Ergashev

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori **G‘ulomqodir Ergashev** serqirra ijodkor, mahoratli yakkanavoz va ansambl sozandasi sifatida yodimizda saqlanib qoladi. G‘.Ergashev repertuari rang-barang bo‘lib, u maqom, sharq xalqlari musiqasi, kompozitorlik ijodiyoti, shuningdek shaxsiy asarlari - afg‘on rubobi va ansambl uchun qayta ishlangan va moslashtirilgan xilma-xil asarlardan iborat bo‘lgan.

G‘.Ergashev nafaqat respublikamizda,

balki xorijiy mamlakatlarda ham (24 ta davlatda) yakkanavoz sifatida afgʻon rubobi uchun yozilgan murakkab asarlarning mohirona ijrosi bilan konsertlarda ishtirok etgan. Gʻ.Ergashev Oʻzbekiston xalq xofizi M.Tojiboyev, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist M.Ermatovlar bilan hamkorlikda konsertlarda qatnashgan. Shuningdek, chet ellik artistlar, jumladan Shveysariyalik Kati Datje, Hindistonlik Ilmas Xusayn Xan, Afgʻonistonlik Nosir Ahmad Said Hamid va AQShlik Pol Liklar bilan ham konsertlarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan.

Gʻ.Ergashev ijro etgan asarlar Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi “Oltin fondi”da saqlanmoqda. Uning konsertlari asosida uchta telefilm suratga olingan. Uning ijro uslubi chiroyli tembrlarining taralishi, dinamik belgilardan oʻrinli foydalana olishi, nozik va mayin nolalar va chuqur maʼnoga ega boʻlgan ovoz tarovati bilan ajralib turardi. Afgʻon rubobi uning qoʻlida tinglovchilar qalbiga yetib boradigan darajada oʻzgacha ohang va joʻshqinlik bilan sadolanardi.



Gʻ.Ergashev shogirdlari bilan

Oʻzbekistonda zamonaviy afgʻon rubobi ijrochilik sanʼatining asoschisi sifatida Gʻ.Ergashev oʻz maktabini ham yaratdi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasidagi koʻp yillik va samarali faoliyati davomida u 100 dan ortiq shogird-

lar yetishtirdi va oʻzining boy tajribasini ularga hadya etdi. Bir qator oʻquv dasturlari, oʻquv qoʻllanmalar va afgʻon rubobi uchun toʻplamlar hamda “Afgʻon rubobi darsligi” yaratdi. Uning 1983-yilda nashr etilgan afgʻon rubobi uchun qayta ishlangan va moslashtirilgan “Gullar raqsi” nomli toʻplami katta amaliy ahamiyatga egadir. Unda ijro bilan bogʻliq uslubiyot qismi bilan birga nota matnlari ham berilgan.

2004-yili G'.Ergashev tomonidan O'zbekistonda ilk bor "Afg'on rubobi darsligi" nashr etilishi musiqa pedagogikasida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu darslikdan tarixiy va nazariy ma'lumotlar, uslubiy tavsiyalar hamda nota misollari joy olgan.

Darslik G'.Ergashevning tadqiqotchi-olim, sozanda, pedagog, amaliyotchi, uslubiyotchi, bastakorlik kabi qirralarini namoyon etdi. G'.Ergashev shuningdek afg'on rubobi konstruksiyasiga ham o'zgarishlar kiritdi. Dastasini qisman o'zgartirib oltinchi sadolanuvchi torini qo'shdi. Natijada cholg'uning tovush ko'lami ozgina kengaydi, sadolanishi boy tembrga ega bo'ldi.

Sozanda-targ'ibotchi G'.Ergashev qadimiy sharq musiqa cholg'ularidan biri bo'lgan - afg'on rubobida ijrochilik san'atining rivojlanishiga o'zining bebaho hissasini qo'shdi. Ushbu cholg'u hozirgi kunda ham insonlarning ma'naviy dunyosini boyitishda badiiy-estetik vosita sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Ijodining gullagan pallasida bevaqt o'lim uni bu dunyoni tark etishiga sabab bo'ldi. Lekin shunga qaramay u bizning qalbimizda barhayotdir. Uning boshlagan ishlarini shogirdlari davom ettirmoqda. G'.Ergashevning sevimli cholg'usi - afg'on rubobi u orzu qilganidek rivojlanmoqda va taraqqiy etmoqda.



Boqijon Rahimjonov

Taniqli sozanda, serqirra ijodkor, musiqiy targ'ibotchi, cholg'u-shunos **Boqijon Xoshimjonovich Rahimjonov** 1945-yili ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Oilaviy muhit orqali unda musiqaga bo'lgan qiziqish paydo bo'ladi. Boqijon aka bolaligidan amakivachchasi Xirojiddin Muhitdinov ish jarayonini qunt bilan kuzatib, yog'ochga jon ato etib, bejirim cholg'ularni yaratayotganining guvohi bo'ladi. Natijada unda sozgarlik san'atiga mehr uyg'onadi. Shu tariqa u ushbu sohani batafsil o'rganishga kirishadi.

1963-yili Boqijon Rahimjonov Toshkent (hozirda O'zbekiston) davlat konservatoriyasi xalq cholg'ularida ijrochilik kafed-

rasiga o'qishga kiradi. Dutor sinfi bo'yicha F.Vasilyev sinfida tahsil oladi va undan ijro mahorati sirlarini o'rganadi. Shuningdek, ushbu cholg'u bo'yicha dars berish sir-asrorlarini o'zida kashf etadi. Badiiy jamoalar tuzish va dirijyorlik ko'nikmalarini egallashda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A.Liviyevning xizmatlari cheksizdir.

Boqijon Rahimjonov 1968-yili Toshkent davlat konservatoriyasini tugatib, shu yildan e'tiboran dator ixtisosligi bo'yicha dars bera boshlaydi. O'z ijro mahoratini mukammal darajaga yetkazish ustida tinimsiz mashq qiladi. Natijada o'zbek xalq cholg'ulari va bayan bo'yicha o'tkazilgan I va II Respublika sozanda ijrochilar ko'rik-tanlovlarining (1971, 1974 yy.) sohibiga aylanadi.

Tinib-tinchimas sozanda Boqijon Rahimjonov ustoz - san'atkor O'zbekiston xalq artisti Orif Qosimov ijrosini soatlab maroq bilan tinglardi va qiziqarli savollar bilan murojaat etardi. Ajoyib suhbatlar natijasida Boqijon akada ustozining ijro etgan kuylarini notaga tushirish g'oyasi paydo bo'ladi va u buni amalga oshiradi. Boqijon Rahimjonovning metodik qo'llanmalari ichida taniqli dutorchi Orif Qosimov repertuaridan yozib olingan to'plam alohida diqqatga sazovordir. Ushbu dator taronalari ikkita kitob shaklida nashr ettirildi va bugungi kunga qadar talabalar tomonidan zavq bilan ijro etiladigan kuylar qatoridan joy olgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi X.Muhitdinovdan sozgarlik sirlarini o'rganib, o'zi mustaqil ravishda soz cholg'usining yangi konstruksiyasini (1978 y.) yaratdi. Ushbu cholg'u hozirgi kunda sozandalar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Kelgusida ushbu cholg'u bo'yicha maxsus sinf ochish maqsadida 2005-yili Bahodir Mirfayozov tomonidan "Soz darsligi" yozildi. Shuningdek, 1994-yili barcha millat vakillari ijro eta oladigan "Diaxordino" cholg'usini kashf etdi va uni amaliyotga joriy etish maqsadida hozirgi kunga qadar izlanmoqdalar.

Boqijon Rahimjonov ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasiga rahbarlik qilgan davrda bir qator cholg'ushunoslikka oid ilmiy maqola va uslubiy qo'llanmalar yaratishga muyassar bo'ldi. "Traditsionniy dutar i ego rekonstruksiya" nomli maqola

(T.,1985), “Metodika izucheniya, sbora i sovershenstvovaniya narodnix muzikalnix instrumentov” (M., 1987), “Tablitsa A.Petro-syansa po instrumentovedeniyu v praktike muzikalnogo obuche-niya” (T., 2005) o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, talabalar, sozandalar, musiqiy-targ‘ibotchilar va keng qamrovli o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish maq-sadida Boqijon Rahimjonov tomonidan “Musiqqa haqida aforizm va hikmatli so‘zlar” nomli uchta (2008, 2009, 2010) kitobcha nashr etildi. Uning shogirdlari ham O‘zbekiston va Qozog‘iston-da dutor ijrochiligi san’atining rivojlanishiga o‘z xissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

G‘ijjak ijrochiligi san’atiga hamda bu sohadagi professional ta’limning yuzaga kelishiga katta hissa qo‘shgan inson – **Obid Muhamedovich Holmuhamedovdir** (1928-1990). U Toshkent davlat konservatoriyasini g‘ijjak sinfi bo‘yicha tamomlagan



O.Holmuhamedov shogirdlari bilan dars o‘tmoqda

dastlabki bitiruvchilardan hisoblanadi.

I.Blagoveshenskiyning sevimli shogirdlaridan biri bo‘lgan. U g‘ijjakda ilk bor murakkab skripka asarlarini ijro etgan sozandadir. O.Holmu-hamedov 20 yil-

dan ortiq vaqt davomida O‘zbekiston davlat filarmoniyasi xalq cholg‘ulari orkestrida konsertmeyster va yakkanavoz sozanda bo‘lib xizmat qilgan (1946-1967).

U o‘zining pedagoglik faoliyatini 1951-yilda konservatoriya-da “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida boshlagan. G‘ijjak va g‘ijjak alt sinfi bo‘yicha avval o‘qituvchi, so‘ngra

dotsent sifatida faoliyat olib borgan. Bir qator mahoratli sozandalarni yetkazib berishga o'z hissasini qo'shgan. Ular ustozlari boshlagan ishni davom ettirib, hozirgi kunda madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida, akademik litsey, kollejlarda va bolalar musiqa va san'at maktablarida yosh iqtidor egalarini tarbiyalab voyaga yetkazmoqdalar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mahoratli sozanda, o'zbek "Pagani-ni"si taxallusini olgan Shuhrat Yo'ldoshev hamda Botir Rasu-lov kabi taniqli g'ijjakchilar ham aynan Obid Xolmuhammedovning shogirdlari hisoblanadilar.

O'zbek xalq cholg'u orkestrlari uchun professional kadr-larni tayyorlash maqsadida barcha talabalar mutaxassislik sinfi bilan bir qatorda "Dirijyorlik" fani bo'yicha ham saboq oli-shardi. Dastlab dirijyorlik sinfi bo'yicha ishga V.Ashkinazi, N.Goldman, A.Dolgushin, Ya.Elyashkeyevich, P.Shpitalniy kabi taniqli mutaxassislar taklif etildi. Keyinchalik ushbu sinfni A.Petrosyans, R.Felitsiant, A.Davidov, M.Nasimov F.Nazarov, S.Aliyev, A.Liviyev, R.Ibragimov, F.Sodiqov, A.Yurgayev, F.Abdurahimova, R.Xo'jayev va boshka o'qituv-chilar davom ettirishdi.

Hozirgi kunda esa malakali professor-o'qituvchilar K.Azi-mov, F.Abdurahimova, F.Shukurova, M.Akmaljonova, D.Mu-talov, Sh.Umarov, G'.Abrorov, I.Quvvatov va boshqalar dirij-yorlik sinfi bo'yicha talabalarga saboq bermoqdalar.

Savollar:

1. O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga kim rahbarlik qilgan?
2. 1948-1949 o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestridan necha kishi o'qishga qabul qilindi?
3. Kafedraning vazifalari nimalardan iborat edi?
4. 1952-yilda fakultetni ilk bor bitirgan changchi kim?
5. Konservatoriyani bitirgan birinchi rubob-primachi?

6. Qashqar rubobchilardan kim birinchi bo‘lib konservatoriyanı bitirgan?
7. “Afg‘on rubobi darsligi” kim tomonidan nashr etilgan?
8. Konservatoriyada qanday maxsus sinflar faoliyat ko‘rsatmoqda?
9. Hozirgi kunda dirijyorlik sinfi bo‘yicha kimlar dars bermoqda?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 2, 3 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma‘lumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan ustozingiz haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Oliy o‘quv yurtlari, professional ta‘lim, A.Odilov, F.Vasilev, V.Borisenko, G‘.Ergashev, B.Rahimjonov, O.Holmuhamedov.

Adabiyotlar:

1. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘ati tarixi. - T., 1995.
2. Sobirova S, Abdurahimova F. Ashot Petrosyans. - Urganch., 1994.
3. Lutfullayev A. Xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘ati tarixi. - T., 2006.
4. Orziboyev R. Murod Toshmuhamedov. - T., 2014.
5. Имханицкий М. Зарождение профессионального образования на народных инструментах // История исполнительства на русских народных инструментах. – М., 2002 (182-191).

15-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun o‘zbek xalq cholg‘ularida professional ta’limning yuzaga kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan zabardast san’atkorlar, mohir sozanda va ustoz-murabbiylarning hayoti va ijodiy faoliyatini yuqorida keltirilgan adabiyotlar orqali o‘rganing va ular ijro etgan kuylarni tinglang.

“Davlat noyob ilmiy ob’ekti” eksponatlarini tomosha qiling va modernizatsiyalashtirilgan cholg‘ularga qanday o‘zgarishlar kiritilganligini aniqlang.



Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni o‘rganib chiqing.

Mohir sozanda va ustoz-murabbiylar hamda “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasida faoliyat olib borgan mohir sozgar ustalarning hayoti va ijodini o‘rganing.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma’lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta’riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

16-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

1-oraliq nazorat uchun yozma ishni tayyorlash va topshirish. O‘quv yili 2-semestrining 7 haftasi mobaynida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalaringizga tayanib 1-oraliq nazorat (1-ON) haftaligi talabiga ko‘ra ijodiy ish sifatida tavsiya etilgan yozma ishni belgilangan muddatda sinov komissiyasiga **taqdim etishingiz lozim.** Yozma ishning sifati beriladigan bahoga katta ta’sir ko‘rsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Ko‘rsatilgan kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring va yozma ishingizga zarur tuzatishlar kiriting.

Savollar:

1. Qanday sabablarga ko‘ra xalq cholg‘ulari modernizatsiyalashtirildi?
2. Eng avval qaysi cholg‘ular oilasi yaratilgan?
3. Cholg‘ularni modernizatsiyalashtirishda nechta asosiy masala kun tartibiga qo‘yildi?
4. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun yaratilgan cholg‘ular majmuasining g‘oyaviy asoschisi kim?
5. BMSM uchun yaratilgan cholg‘ularni sanab o‘ting?
6. Talabalar va professional ijrochilar uchun yaratilgan cholg‘ularni bilasizmi?
7. O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limiga kim rahbarlik qilgan?
8. 1952-yilda fakultetni ilk bor bitirgan changchi kim?
9. Konservatoriyani bitirgan birinchi rubob-primachi kim?
10. Qashqar rubobchilardan kim birinchi bo‘lib konservatoriyani bitirgan?
11. “Afg‘on rubobi darsligi” kim tomonidan nashr etilgan?
12. Konservatoriyada qanday maxsus sinflar faoliyat ko‘rsatmoqda?

Quyidagi variantlardan birini yozma ravishda topshiring:

I-variant:

1. Ahmad Odilovning hayoti va ijodi.
2. Ashot Petrosyansning hayoti va ijodiy faoliyati.

II-variant:

1. Valentina Borisenkoning hayoti va ijodi.
2. Usta Usmon Zufarovning hayoti va ijodiy faoliyati.

III-variant:

1. Feoktist Vasilyevning hayoti va ijodi
2. Shorahim Shoumarovning hayoti va ijodiy faoliyati.

IV-variant:

1. A.Petrosyansning hayoti va ijodi.
2. Abdunabi Abdugofurovning hayoti va ijodiy faoliyati.

V-variant:

1. O.Holmuhamedov va uning shogirdlari.
2. Hirojiddin Muhitdinovning hayoti va ijodiy faoliyati.

VI-variant:

1. M.Toshmuhamedovning pedagoglik faoliyati.
2. Bahtiyor Inoyatovning hayoti va ijodiy faoliyati.

VII-variant:

1. A.Lutfullayevning hayoti va ijodii.
2. Tohir Mirzayevning hayoti va ijodiy faoliyati.

17-DARS: XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK SAN’ATINING IKKI ASOSIY YO‘NALISHDA RIVOJLANISHI.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yakka va jamoaviy ijrochilik san’atida ijrochilikning ikki yo‘nalish ma’lumdir. Bulardan biri – asrlar davomida rivojlanib bizgacha ustoz-shogird an’anasi orqali og‘zaki tarzda yetib kelgan - an’anaviy ijrochilik bo‘lsa, ikkinchisi XX asrning 30-yillarida paydo bo‘lgan yozma an’anadagi akademik ijrochilikdir. Bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Sharq musiqasi” fakultetida ham “An’anaviy ijrochilik” va “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedralari mavjud bo‘lib, o‘quv jarayoni ham ushbu kafedralarda mustaqil ravishda olib borilmoqda.

Ma’lumki, Sharq musiqasi azaldan, asrlar davomida ustozdan-shogirdga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan, ya’ni ustoz biror bir kuyni ijro etadi, shogird esa uni yaxshilab tinglab, ustozidan so‘ng xuddi ustoz chalgandek qaytarishga harakat qiladi, toki kuyni ustozidek chala olgunga qadar. Buning uchun bir necha yillar talab etiladi. Undan keyingina u ustoz hisoblanib, o‘ziga shogird olib, o‘zidagi ijro san’atini shogirdlar keyingi avlodga o‘rgata boshlaydi. Shu tariqa xalq kuy-qo‘shiqlari va maqomlar ustozdan-shogirdga o‘tib, hozirgi kunga qadar yetib keldi.

O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligi amaliyotida ansambllarning tarkibi va ijro repertuarlari turlicha bo‘lib, ulardan biri 1936 yili O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida To‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil etilgan 98 kishidan iborat o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli edi. Ansambl shakl jihatdan orkestrga o‘xshasa-da, sifat jihatdan, ya’ni ijro yo‘nalishi bo‘yicha an’anaviy bir ovozli musiqani ijro etardi. Shu sababli, ushbu jamoa haqidagi ma’lumotlar ba’zi bir manbalarda ansambl, ba’zilarida esa “unison orkestr” deb berilgan. Qizig‘i shundaki, o‘sha paytdayoq T.Jalilovda bas ovoz tarannumiga ega bo‘lgan cholg‘ularni unison ansambl tarkibiga kiritish fikri paydo bo‘ladi va shu maqsadda Usta Usmon Zufarov

tomonidan yasalgan “katta g‘ijjak”, “katta tanbur” va “katta dutor”lar qo‘llaniladi³⁵.

Ansambl T.Jalilov rahbarligida konsert faoliyatini qizg‘in tarzda olib boradi. Ular o‘zbek xalq musiqasini katta muvaffaqiyat bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki undan tashqarida ham keng targ‘ib etadi. Ansambl tarkibida Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Ashurali Yusupov kabi mashhur xalq sozandalari bilan bir qatorda respublikada faoliyat olib borayotgan badiiy havaskorlik to‘garaklaridan kelgan iqtidorli yoshlar ham bor edi.



To‘xtasin Jalilov rahbarligidagi 98 kishilik an’anaviy ansambl. 1936 y.

Jamoa o‘z konsert ijrochiligini nafaqat O‘zbekistonda, balki undan tashqarida ham keng targ‘ib etadi. 1936 yili unison orkestr Xalgaro festivalda qatnashib, birinchi o‘rinni egallaydi va shu bois 1937 yilda ilk bor respublikamizdan tashqarida, ya’ni Moskvada o‘zbek san’ati dekadasida ishtirok etadi. Keng qamrovli tinglovchilar ularning chiqishlarini qo‘llab-quvvatlaydilar. Xalq sozandalarining o‘ziga xos yorqin ijrolari Moskvalik tinglovchilarning olqishlariga sazovor bo‘ladi.

³⁵ Ташматова А. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных /реконструированных/ инструментах в Узбекистане. (nomzodlik dissertatsiyasi) - Т., 1998, с.34.

O'sha davrdagi asosiy masalalardan biri sozandalarning nota savodini o'stirish hamda ularning ongiga ko'p ovozli ijrochilikni singdirishdan iborat edi. Filarmoniya o'z faoliyatining boshlang'ich davridanoq o'quv ishlariga katta urg'u beradi. Taniqli musiqqa arbobi N.Mironov, pianinochi A.I.Podgorniy va yosh kompozitor Mutal Burxonovlar filarmoniya badiiy jamoalari artistlariga muntazam ravishda musiqqa nazariyasidan dars bera boshlaydi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri oldida turgan dolzarb vazifalardan biri xalq sozandalarini ijrochilikning yangi turi bo'lmish ko'p ovozli jamoaviy ijroga jalb etishdan iborat edi. Ushbu jarayonda o'zbek xalq kuy va qo'shiqlari, qardosh xalqlar musiqasining qayta ishlashlangan namunalari, O'zbekiston kompozitorlarining kichik shakldagi marsh va raqs kabi maxsus asarlari as qotadi.

1937-yilning oxirida N.Mironov T.Jalilov rahbarligidagi unison ansambl ishtirokchilaridan 24 nafar yosh iqtidorli sozandalarni tanlab olib, ularni nota orqali ijro etadigan orkestr deb nomlaydi va ular bilan aynan shu tarkib uchun yozilgan murakkab bo'lmagan, orkestr uchun moslashtirilgan va qayta ishlangan xalq kuylarini nota orqali ijro eta boshlaydi. Jamoa tarkibi an'anaviy o'zbek xalq cholg'ulari hamda fortepiano, truba, trombondan iborat edi. Bunday orkestrlarda bas cholg'ulari yo'qligi tufayli, jamoa rahbarlari simfonik orkestr cholg'ularidan: fortepiano, fagot va trombonlarni qo'shishga majbur bo'lishardi. N.Mironov rahbarligidagi "notali" orkestr alohida bir konsert jamoasi bo'lmay, balki T.Jalilov ansambli tarkibida bo'lib, konsertlarda faqatgina bir necha asarlarni alohida ijro etardi xolos.

1939-yilda O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida Yunus Rajabiy va Lutfixonim Sarimsoqovalar tashabbusi bilan ilk bor dutorchi qiz-juvonlar ansambli tashkil etiladi. Dutor chalib qo'shiq kuylovchi 30 ijrochidan iborat havaskor ayollar ansambliga badiiy rahbar etib L.Sarimsoqova, musiqiy rahbarlik lavozimiga esa F.Sodiqov tayinlanadi va u bastakorlik faoliyatini ham jamoa ijrochiligi bilan uzviy bog'lagan holda olib boradi.

Jamoaning musiqa rahbari F.Sodiqov ansambl ishtirokchilariga dutor chalishni o‘rgatish bilan birga xalq termalari, qo‘shiq va yalla, lapar va ashulalardan saralab olib, ularni ayollar jo‘rovozligi va jo‘rnavoqligiga moslashtirish kabi ijodiy harakatlarni boshlab yuboradi. Shuningdek ularga xos va mos keladigan zamonaviy kuy-qo‘shiqlar bilan yangi badiiy jamoa ijro dasturini boyitishga harakat qiladi. Ansambl bilan yangi asarlar ustida ishlab, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda jonbozlik qiladi.³⁶

1959-yili O‘zbekiston radiosi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambli tashkil etiladi. Ushbu ansamblga xalq orasidan yetishib chiqqan yetuk sozanda va xonandalar jalb qilinadi. Akademik Yunus Rajabiy badiiy rahbarligidagi maqom ansamblida jonkuyar, zahmatkash musiqa rahbari bo‘lib umrining oxirigacha xizmat qilgan Fahriddin Sodiqovning ish faoliyatini 1980-yillardan boshlab Abduxoshim Ismoilov namunali davom ettirib kelmoqda. Shashmaqomning ashula va cholg‘u bo‘limini zamonaviy yangi talqinda ijro etishga katta ahamiyat berilmoqda. Sozandalar ansambli tarkibiga ud, qonun, nog‘ora, afg‘on rubobi kabi cholg‘ular qo‘shildi. Natijada ansamblning sadolanishi yanada boyidi. Ayniqsa, yakka cholg‘ularda sozandalar ansambli jo‘rligida mumtoz musiqa merosining yirik namunalari, maqom ashulalarining turli cholg‘ulardagi ijrosi keng targ‘ib etildi.



O‘zbekiston radiosi qoshidagi maqomchilar ansambli. 1959y.

³⁶ Yunusov R. Fahriddin Sodiqov. - T., 2005, 34-bet.

“Maqomlarni magnit tasmalariga, gramplastinkalarga yozishda ansambl faoliyatida maqom ijrochilik an’analari va mashhur ustozlar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Levi Boboxonov, Mixail Tolmasov, Ibrohim Shoumarov, Gabriel Mullaqandov ijrochilik uslublaridan unumli foydalanildi. Ayniqsa, Shashmaqomning badiiy qiymatini ochib berish va uning yo‘llarini o‘zlashtirish borasida katta izlanishlar olib borildi”³⁷, deb yozadi professor R.Qosimov.

1972-yili konservatoriyada tashkil etilgan “Sharq musiqasi” kafedrası (1992-yildan ushbu kafedra ikkiga bo‘linib, “An’anaviy ijrochilik” va “Musiqiy sharqshunoslik” kafedralari deb nomlandi, 2016-yildan “An’anaviy xonandalik” 3-yo‘nalish bo‘lib ajralib chiqdi) har tomonlama savodxon sozanda va xonandalarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Ushbu dargohda ilk bor ansambl ijrochiligi mashg‘ulotlarini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Faxridsin Sodiqov boshlagan. Dastlabki davrning o‘zidayoq ustoz ansambl o‘quv dasturidan joy olgan - Shashmaqom cholg‘u yo‘llarini Farg‘ona-Toshkent ijro uslublariga amal qilgan holda yosh sozandalarga o‘rgatgan. Ustozning ansambl ijrochiligida tahsinga sazovor bo‘lgan uslublari hozirgi kunda shogirdlarining ish faoliyatlarida yaqqol sezilib turadi.



Fahriddin Sodiqov nomidagi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy ijrochilik” kafedrası maqomchilar ansambli

³⁷ Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. - T., 2007, 1-bet.

1980-yildan boshlab o‘zbek milliy cholg‘u ansambllariga qadimiy cholg‘ularimizdan bo‘lmish - ud va qonunlarning kiritilishi nafaqat jamoa tarkibini, balki ovoz tarovatini ham betakror tembrlar hisobiga boyitdi. Mazkur cholg‘ularni o‘rgatish va targ‘ib qilish konservatoriyaning “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida keng yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda ushbu kafedralar o‘z ijodiy faoliyatlarini yuqori malakali maqom san’ati bilimdonlari, xalq hofizlari va xalq sozandolari bilimlariga tayanib davom ettirmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida davr talabiga mos keladigan professional mutaxassislarni tayyorlashga qo‘l keladi. Kafedra professor-o‘qituvchilari respublika oliy o‘quv yurtlari akademik litsey va musiqa kollejlari malakali kadrlar bilan ta‘minlab, milliy mumtoz musiqamizning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Shuningdek, 1978-yilda dutorchi qizlar ansambli qaytadan tashkil etildi. Ushbu jamoaga qator yillar davomida mohir sozanda, bastakor, O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatov rahbarlik qildi. Ansambl dasturi o‘zbek xalq qo‘shiqlari, yallalar va laparlardan iborat edi. Jamoa o‘zining betakror konsert dasturlari bilan xalqning dilidan joy oldi. Shuningdek, davlat miqyosida o‘tkaziladigan turli tadbir va bayramlarda faol ishtirok etdi. Hozirgi kunda dutorchi qizlar ansambli yangi tarkibda o‘z faoliyatini davom ettirib, musiqa ixlosmandlarini xushnud etib kelmoqda.



G‘anijon Toshmatov nomidagi dutorchi qizlar ansambli. 1978y.

Ayni paytda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, akademik litsey va musiqa kollejlari, xattoki bolalar musiqa va san’at maktab-

larida ham an'anaviy ijrochilik bo'limlari va sinflari mavjud. Ushbu yo'nalish bo'yicha faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar buyuk bobokalonlarimizdan bizgacha yetib kelgan bebaho milliy merosimizni yanada boyitib, uni yosh avlodga targ'ib etib, milliy kuy va qo'shiqlarimizni professional xalq musiqasidagi ijrochilik an'analariga amal qilgan holda o'rgatib kelmoqdalar. Ushbu yo'nalish bo'yicha Respublika miqyosida bir qator ko'rik-tanlovlar olib borilmoqda. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi o'quvchi va talabalarda o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik amaliyotining ikkinchi yo'nalishi bu - yozma an'anadagi akademik ijrochilikdir. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston musiqa madaniyati tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan hamda 80 yildan buyon samarali faoliyat olib borayotgan bir qator turli tarkiblardan tashkil topgan o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari mavjud. Ularning asosiy vazifasi O'zbekiston kompozitorlarining turli janr va shakldagi asarlarini, kompozitorlar tomonidan qayta ishlangan o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari hamda jahon durdona asarlarini ijro etishdan iboratdir.



O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri.
Dirijyor A.Petrotyans. 1938y.

Ana shunday jamoalardan biri, 1938-yili O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida A.Petrotyans rahbarligida tashkil etilgan To'xtasin Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri-

dir³⁸. Ushbu orkestr nufuzli xalqaro musiqa festivallarida qatnashib o‘zbek musiqa san’atini munosib namoyish etdi. “Kiev bahori”, “Sochi oqshomi”, “Belorussiya kuzi”, “Musiqali Sari-Arka”, “Sharq taronalari”, “Ostona Serper-2006” va boshqalar shular jumlasidandir.

Orkestr konsertlarida yakkaxonlardan: O‘zbekiston xalq artistlari: Saodat Qobulova, Vyacheslav Grinchenko, Farrux Zokirov, Muyassar Razzoqova, Nasiba Abdullayeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Avaz Rajabov, Nasiba Sattorova, Normumin Sul-tonov, Yunus Turayev, Bahrom Mavlonov, Dilorom Rahmatulla-yeva, Xalqaro ko‘rik-tanlov g‘olibi Ne‘matilla Sinxabibi, shu-ningdek yakkanavozlardan: O‘zbekiston san’at arbobi Ofeliya Yunusova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Mirza Toi-rov, Shukirilla Ahmadjonovlar ishtirok etishgan.

Shuningdek, Toshkent radioeshittirish qo‘mitasi huzurida 1957 yilda Doni Zokirov (bosh dirijyor, Yunus Rajabiy badiiy rahbar) rahbarligida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri³⁹ tashkil etildi.



Toshkent radioeshittirish qo‘mitasi huzuridagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri.
Dirijyor Doni Zokirov. 1960y.

³⁸ T.Jalilov orkestri haqida ushbu darslikning 21-22-darslarida batafsil ma’lumot berilgan.

³⁹ D.Zokirov orkestri haqida ushbu darslikning 25-26-darslarida hamda Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri monografiyasida batafsil ma’lumot berilgan.

Ushbu jamoa kompozitorlardan: Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Sobir Boboyev, Mutal Burxonov, Sayfi Jalil, Fattox Nazarov, Boris Gienko, Sergey Varelas, Boris Zeydman, Hayri Izomov, Mardon Nasimov, Telman Hasanov, To‘lqin Toshmatov, Mustafu Bafoyev, Farhod Alimov, Habibulla Rahimovlarning asarlarini radio magnit tasma-siga yozishga mu-yassar bo‘ldi.

Orkestr konsertlarida yakkaxonlar: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Malohat Dadaboyeva, Hadya Yusupova, Xurriyat Itronlova, Tursunboy Xusanov, Respublikada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Dehqonboy Xusanov, Valijon Abdullayev, Mahammadjon Qozoqboyevlar, yakkanavozlardan: Respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar: Tohir Rajabov, Qobiljon Usmonov, A.Xudoyqulov (qashqar rubobi), Halimjon Jo‘rayev (nay) Qahramon Komilov, Shuhrat Yo‘ldoshev (g‘ijjak), Respublikada xizmat ko‘rsatgan artist Abdusalom Mutalov, Respublikada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Fazilat Shukurova (chang) va M.Yunusov (dutor) ijrochilik mahoratlarini namoyish etib, san‘at ixlosmandlari e’tiborini qozonganlar.

Shuningdek 1948 yilda Toshkent (hozirda O‘zbekiston) davlat konservatoriyasi hamda Respublikamizdagi barcha musiqa va san‘at kollejlari (hozirda musiqa kolleji va akademik litsey)da ham turli tarkibdagi ko‘p ovozli ansambl va orkestrlar tashkil etila boshladi hamda o‘quv jarayoniga keng joriy etildi.



O‘zDK talabalar katta orkestri. Dirijyor F.Abdurahimova.

Hozirgi kunga qadar konservatoriyada “Xalq cholgʻularida ijrochilik” kafedrasida katta, kichik va kamer tarkibidagi turli oʻquv orkestrlari faoliyat olib bormoqda. Talabalar dars jarayonida koʻp ovozli ijrochilik koʻnikmalarini egallash bilan birga yakkanavoz, joʻrovoz va joʻrnavoz sifatida ham oʻz malakalarini oshirmoqdalar.

Shuningdek ushbu oʻquv dargohida talabalar kichik orkestri ham oʻz faoliyatini olib bormoqda. Orkestr sozandalari katta tarkibdagi jamoa singari barcha vazifalarni sidqidildan ado etib kelmoqdalar. Ular faqatgina oʻquv jarayoni bilan chegaralanib qolmay, balki orkestr sinfida olgan bilimlarini oʻz konsert dasturlari bilan chiqishlari hamda turli tadbirlardagi ishtiroki orqali namoyon etishmoqda.



OʻzDK talabalar kichik orkestri. Dirijyor Sh.Umarov.

Shuningdek, 1956-yilda A.Petrosyans rahbarligida, tajriba sifatida Toshkent (hozirda Oʻzbekiston) davlat konservatoriyasi xalq cholgʻulari kafedrasining yosh oʻqituvchilaridan dutor orkestri tuzildi. Orkestr tarkibi: dutor prima - 2 ta, dutor sekunda - 2 ta, dutor alt - 3 ta, dutor bas - 2 ta va dutor kontrabasdan iborat edi⁴⁰. Ushbu tarkibdan andaza olgan holda 1960-yilda Hamza (hozirda

⁴⁰ Akmaljonova M. Dutor orkestri. - T., 2004, 8-bet.

Uspenskiy nomidagi RIMAL) nomidagi musiqa bilim yurti xalq cholgʻulari boʻlimida ham dutor orkestri tashkil etildi. Ushbu orkestrga Anvar Liviyev rahbarlik qilgan.

Dutor orkestri faqatgina oʻquv jarayoni bilan chegaralanib qolmay, balki respublika miqyosida oʻtkaziladigan tadbirlar hamda turli tashkilotlarda konsert berib, oʻz ijro mahorati bilan tinglovchilar qalbini rom etmoqda. Bunday jamoalar hozirgi kunga qadar bolalar musiqa va sanʼat maktabi, akademik litsey va musiqa kollejlari oʻquv amaliyotida qoʻllanilmoqda.

Oʻsha davrda dutor orkestri bilan bir qatorda, prima rubobi, qashqar rubobi, afgʻon rubobi, dutor bas va dutor kontrabasdan iborat rubobchilar orkestri hamda dutorlar va ruboblar oilasidan tarkib topgan dutor-rubob orkestri ham tashkil etilgan. Bunday jamoalar hozirgi kunda ham bolalar musiqa va sanʼat maktablari, akademik litsey va musiqa kollejlari oʻquv jarayonida keng qoʻllanilmoqda. Chunki katta orkestrga nisbatan dutor va rubob orkestrlarini tuzish hamda ularni ijrochilik amaliyotiga jalb etish bir muncha qulaydir.

XX asarning 60-70-yillarida oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik keng quloq yoydi. Orkestrlar nafaqat oʻquv dargohlarida, balki zavod, fabrika, kolxoz klublari va madaniyat saroylarida ham badiiy havaskorlik orkestrlari tashkil etildi. Jumladan, 1959-yilda “Krasnaya zarya” tikuv fabrikasi qoshida rubob orkestri, 1968-yilda Toshkent shahridagi 162-sonli umumtaʼlim maktabida R.Xoʻjayev tomonidan koʻp ovozli xalq cholgʻulari ansambli, xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida 1965-yili konservatoriyaning V kurs talabasi Kimsanxon Rahmonova, 169-sonli umumtaʼlim maktabida B.Rahimjonov, 73-sonli oʻrta maktabda Arkadiy Yurgayev va Foruq Sodiqovlar havaskorlik dutor orkestrlarini tuzib, qizgʻin faoliyat olib bordilar. 1973-yilda Samarqand madaniyat saroyida F.Abdurahimova tomonidan xalq cholgʻulari orkestri tashkil etildi.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, 1966-yili Oʻzbekiston xukumati tomonidan Respublikaning 20 ta oʻrta umumtaʼlim maktablariga xalq cholgʻulari orkestri komplekti tarqatildi. Bu komplektlar 56

cholgʻudan iborat boʻlib, dutor orkestri cholgʻulari bu komplektning asosini tashkil etgan⁴¹. Zero, cholgʻu tuzilish jihatdan oddiy-
ligi, unda ijro etishga oʻrgatish osonligi, zarblarning rang-barang-
ligi va chiroyli tembr boʻyoqlari oʻquvchi va talabalarni boshqa
cholgʻularga nisbatan oʻziga koʻproq jalb etgan. Shu sababli ham
dutor orkestri boshqa orkestrlarga nisbatan koʻproq tashkil etilgan.
Yuqorida qayd etilgan jamoalar ham aynan shuning natijasida vu-
judga kelgan.



Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi “Sayqal” gʻijakchilar orkestri.
Dirijyor M.Toshmuhamedov.

1984-yilda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida “Xalq cholgʻularida ijrochilik” kafedrasida professori Murod Toshmuhamedov tashabbusi bilan gʻijaklar oilasi asosida “Sayqal” nomli gʻijakchilar orkestri tashkil etildi. Bu turdagi orkestr Oʻzbekiston musiqa madaniyatida oʻz oʻrni va mavqeiga ega boʻlib, hozirgi kunga qadar oʻz faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ushbu jamoa respublika miqyosida oʻtkaziladigan turli tadbirlarda, Xalqaro va respublika koʻrik-tanlovlari hamda festivallarda faol ishtirok etib, orkestr ijrochiligi sanʼatining rivojiga oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda.

⁴¹ Akmaljonova M. Dutor orkestri. - T., 2004, 8-bet.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘ ilmiy- ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi ustalari tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalari uchun maxsus yaratilgan o‘zbek xalq cholg‘ulari majmuasida bolajonlar 3-5 yoshidan boshlab nota orqali ijro etish ko‘nikmasini egallashmoqda. Ular hozirgi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida har yili Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan “Navro‘z sadolari” nomli festivalni o‘z ijro dasturlari bilan ochib bermoqdalar. Ushbu tadbirda Toshkent shahri hamda Andijon viloyati maktabgacha ta’lim muassasalarining jamoalari faol ishtirok etishmoqda.



Toshkent shahar, Uchtepa tuman № 217-sonli maktabgacha ta’lim muassasi xalq cholg‘ulari ansambli. Rahbar V.Ro‘zmetova.

Shuningdek sozgarlik san’atida ham cholg‘ularni yasash bo‘yicha ikki yo‘nalish mavjud. Lekin hozirgi kunda o‘zbek xalq cholg‘ularining modernizatsiyalashtirilgan turi ikkala yo‘nalishda ham birdek qo‘llanilmoqda. Lekin, an’anaviy ijrochilikda cholg‘ular oilasidan foydalanilmaydi. Changning tepkisiz turi qo‘llaniladi, qashqar rubobi va g‘ijjakning zamonaviy turi ishlatiladi, ijro paytida kamon tepadan emas pastdan ushlanadi. Faqatgina dutor va tanburlarning an’anaviy turlaridan foydalaniladi. An’anaviy ansambl tarkibiga afg‘on rubobi va dutor basning o‘rniga ud cholg‘usi kiritilgan.

Savollar:

1. Xalq cholg'ularida ijrochilikning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
2. Og'zaki va yozma an'anadagi ijrochiliklarning farqi nimada?
3. An'anaviy jamoalarni aytib bering?
4. Toshkent davlat konservatoriyasida an'anaviy ijrochilik kafed-rasi qachon tashkil etilgan?
5. Xalq cholg'ulari orkestrlarini sanab chiqing?
6. Xalq cholg'ulari orkestrining qanday turlarini bilasiz?
7. O'zbekiston davlat konservatoriyasida dutor orkestri qachon tashkil etilgan?
8. Xamza nomidagi musiqa bilim yurtida dutor orkestri qachon o'z faoliyatini boshlagan?
9. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun cholg'ular majmuasi laboratoriya ustalari tomonidan qachon yasalgan?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 2, 3 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma'lumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan jamoangiz haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Ikki yo'nalish, maqomchilar ansambli, an'anaviy ijrochilik, akademik ijrochilik, davlat filarmoniyasi, radioeshittirish qo'mitasi, dutor orkestri, ansambl va orkestrlar, havaskorlik orkestrlari.

Adabiyotlar:

1. Вызго Т., Петросянец А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 1962.

2. Liviyeв A. O‘zbekistonda xalq cholg‘ularida ijrochilik madaniyati. - T., 2010.
3. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. - T., 2007.
4. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. – М., 2002 (214-218).

18-DARS: O‘ZBEKISTONDA XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI – IJROCHILIKNING YANGI SHAKLI

O‘zbekistonda professional kompozitorlik ijodiyotining paydo bo‘lishi o‘zbek xalq cholg‘ularida avval mavjud bo‘lmagan yangi, ya’ni an’anaviy ijrochilikdan farqli o‘laroq, nota yozuvi orqali ijro etish yo‘nalishining paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Bu o‘z navbatida Respublikamizda musiqa amaliyotida qo‘llanilayotgan cholg‘ularni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish, ya’ni modernizatsiyalashtirish va ularning asosida orkestr tarkibini tashkil etuvchi cholg‘ular oilalarining yaratilish jarayoni natijasida vujudga keldi.

1943-yili ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasining tashkil etilishi o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish borasida asosiy vazifalardan biri bo‘lmish – butun dunyoda qabul qilingan umummaqbul nota tizimi orqali kompozitorlik ijodiyotini ijro etish uchun – o‘zbek xalq cholg‘ulari amaliyotiga 12 bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan tovushqatorni joriy etdi. Bu ushbu yo‘nalishdagi eng asosiy imkoniyatlardan biri bo‘ldi⁴². O‘zbekistonda xalq cholg‘ulari orkestri taniqli musiqa targ‘ibotchisi, rus xalq cholg‘ulari orkestrining tashkilotchisi Vasiliiy Andreyev ish tajribasiga tayangan holda tashkil etildi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining paydo bo‘lish manbai turli-tuman bo‘lib, ulardan asosiysi “unison orkestr” deb nomla-

⁴² Ливиев А. Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан. - Т., 2010, 13-бет.

nuvchi katta milliy cholgʻu ansambllari⁴³, va yevropacha turdagi harbiy-damli orkestrlar edi. Xalq cholgʻularining ijrochilik texnikasi va xalq musiqasi faoliyati haqida juda kam tarixiy maʼlumotlar saqlanib qolgan. Afsuski musiqiy arxeologik tarixiy maʼlumotlar oʻtmish ijrochilik sanʼatining ijodiy jarayonini aniq yoritib bera olmaydi.

Jamoa boʻlib ijro etishning yangi shakli boʻlgan - xalq cholgʻulari orkestri, nafaqat Oʻzbekistonda, balki Markaziy Osiyo va Kavkaz orti respublikalari musiqada madaniyati rivojining oʻziga xos chuqur badiiy-tarixiy ildizga ega boʻlgan maʼlum davri boʻldi. Oʻtgan asrning 30-yillarida Qozogʻiston, Tojikiston, Turkmaniston, keyinchalik Qirgʻiziston va Qoraqalpogʻistonda professional xalq cholgʻulari orkestrlari tashkil etildi.

XX asr boshlarida Oʻzbekiston musiqada ijodiyotining koʻp ovozli ijrochilikka faol kirib borishi, yangi shakllarning rivojlanishiga hamda Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi yangi oʻzaro munosabatlarning paydo boʻlishiga turtki boʻldi. Bularning barchasi oʻz navbatida kutilmagan ezgu natijalarning yuzaga kelishiga, shu jumladan oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrlarining shakllanishiga olib keldi. Koʻp sonli orkestrlar, shu jumladan oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrlari ham yangi ommaviy musiqada sanʼati shaklini oʻzida namoyon etdi.

XX asrning 20-yillaridagi oʻzbek musiqada madaniyati misli koʻrilmagan darajada rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonda yangi davr musiqasini toʻxtovsiz targʻib etuvchi fidoiy-larning oʻrni beqiyos edi. Ularning tashabbusi bilan madaniyatning ayrim unsurlarining oʻta harakatchan va oʻzgaruvchanligi namoyon boʻldi. Professionallik jihatdan yetuk boʻlmasada, oʻsha davrdagi orkestrlar ijrosi ommaviy-tashviqotchilikka oid sanʼat sifatida, musiqiy-jamoatchilik va oʻziga nisbatan katta qiziqish uygʻotadigan, yangilikka intiluvchi yoshlarni koʻproq oʻziga jalb etdi. Badiiy jarayonning ajralmas qismi sifatida ular turli madani-

⁴³ Tashmatova A. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных (реконструированных) инструментах в Узбекистане. - Т., 1998, 22-бет.

yatlar o'rtasida tengsiz darajada axborot almashuv ramzi bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda jamoaviy ijrochilikning yangi shakli bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining shakllanishi 30-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda O'zbekiston musiqa madaniyati har tomonlama rivojlanadi. Respublikamiz poytaxti va viloyatlarida musiqali drama teatrlari o'z faoliyatlarini boshlaydi. 1936-yilda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan birinchi musiqa oliy o'quv yurti, ya'ni Toshkent konservatoriyasi ochiladi. Musiqa san'ati yutuqlarini keng targ'ib etish maqsadida, 1936-yilda O'zbek davlat filarmoniyasi tashkil etilib, uning qoshida o'sha paytlarda "sexlar" (orkestr, xor, balet) deb nomlanuvchi turli ijodiy jamoalar tuziladi.

O'zbekistonda 30-yillarning oxirida katta cholg'u jamoalarining ikki yo'nalishi aniqlandi. Birinchisi etnografik orkestr bo'lib unga T.Jalilov rahbar etib tayinlandi. Ikkinchisi "notali", ya'ni nota orqali ijro etadigan xalq cholg'ulari orkestri edi. Ushbu jamoada N.Mironov boshlagan ish A.Petrosyans tomonidan davom ettirildi. Shu tariqa jamoalar o'z ijodiy faoliyatini boshladilar.

Shundan keyingina ko'p ovozli yozma uslubga tayangan o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini tuzish fikri ilgari surilgan edi. Shu tariqa jamoaviy ijrochilikning bir ovozlilik (unison) uslubidan ko'p ovozlilikka o'tish harakatlari boshlab yuboriladi. Bu o'rinda eng avvalo yangi turda shakillantirilayotgan orkestr jamoasi maqsadlariga mos bo'lgan cholg'ularga ehtiyoj sezila boshlaydi. Aniqroq aytganda, turli ovoz balandligiga ega torli-mizrobli, torlichertma va torli-kamonli cholg'ular oilasini yaratish zarurati yuzaga kelgan edi. Xullas, shu paytdan e'tiboran o'zbek xalq cholg'ularini yangi talablar kesimida modernizatsiyalashtirish sa'yi-harakatlari boshlanadi va bu ishga mutaxassislar jamoasi jalb etiladi.

Ansambl jamoasini orkestrga aylantirish uchun eng avvalo soz masalasini hal etish lozim edi. Chunki orkestr tuzish uchun birinchi galda barcha cholg'ularni bir umumiy soz tizimiga bo'y-sindirish zarur edi. Shuningdek, xalq cholg'ularini orkestr xususi-

yati talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy ijrichilik talab darajasiga moslashtirish, ya'ni modernizatsiyalashtirish va ularning oilaviy turlarini yaratish masalasi ko'ndalang turardi. Bularning barchasi esa orkestrda mavjud cholg'u garuhlarining muvozanatini muvofiqlashtirishga qaratilgan edi. An'anaga ko'ra, orkestr tarkibida ikkita teng guruhlar, ya'ni torli-kamonli va torlimizrobli cholg'ular oilasiga mansub guruhlar bo'lishi taqozo etiladi. Ular sozlarning diapazon kengligini va mutanosibligini ta'minlashi lozim. Aks holda ko'p ovozlilik sifatiga erishish mushkuldir. Bu borada eng avvalo cholg'ularni modernizatsiyalashtirish lozim edi. Ushbu muammo nafaqat ustalarni, balki xonanda va sozandalarni ham ijodiy yondashishlariga undadi.

Bunga xalq cholg'ularida yangi an'ana, ya'ni qabul qilingan nota yozuvi asosida ijro etishni o'rgatish tizimining joriy etilishi hamda 30-yillarda shakllangan orkestr ijrochiligi sabab bo'ldi. Shu tufayli davr talabi va hayot taqozosi bilan 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida Sh.Shoumarov, M.Xarratov, R.Isaboyev va U.Zufarovlar cholg'ularni modernizatsiyalashtirish yo'lida ilk tajribalar o'tkazgan edilar. Ular asosan cholg'u diapazonini kengaytirish uchun dutor va tanbur dastalariga qo'shimcha xas-pardalar o'rnatib, ovozni kuchaytirish va yo'g'on ovozga ega bo'lish uchun cholg'ularning kosasi va dastasini kattalashtiradilar. M.Xarratov esa changing nisbatan to'liqroq va kengroq tovushqatorga ega bo'lgan namunasi yasaydi.

1934-yilda Toshkentdagi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida tajriba ustaxonasi ochiladi va qisqa vaqt ichida Sh.Shoumarov va U.Zufarovlar samarali natijalarni qo'lga kiritadilar. Ular g'ijjakning yangi oilaviy guruhini, ya'ni, ikkita kichik, ikkita o'rta va bitta katta turini yaratadilar. Bunda g'ijjakning dastasi skripka dastasiga o'xshash holda yassi qilib ishlanadi. Bu esa uning ovoz tarovati va ijro texnikasiga ma'lum darajada qulaylik yaratadi. Shuningdek, ustalar yaxshi jaranglaydigan ikkita rubob hamda ikkita nog'ora turlarini yaratishda muyassar bo'ladilar.

Avvallari cholgʻular xalq ustalari tomonidan buyurtma bergan sozandaning gavda tuzilishidan kelib chiqqan holda hech qanday chizmasiz yasalardi⁴⁴. Ular faqatgina cholgʻu shakli va unga ishlanadigan bezaklarni qogʻozga tushirishgan xolos⁴⁵. Shunga qaramay Usta Usmon Zufarovning erkaklar uchun moʻljallab yasagan 21-sonli anʻnaviy dutori hozirgi kunda ham zamonaviy ijrochilik amaliyoti talablariga toʻliq javob berib, sozgar ustalar uchun etalon-namuna sifatida xizmat qilmoqda.

Keyinchlik cholgʻularning oʻn ikki bosqichdan iborat xromatik tovushqatorli (teng temperatsiyalashtirilgan) turlarini va ularning oilasini yaratish masalasi tugʻiladi. Chunki oʻzbek xalq kuy va qoʻshiqlarini ijro etish uchun moʻljallangan milliy cholgʻularda professional kompozitorlar yaratgan asarlarni ijro etish imkoni mavjud emas edi. Aniqroq aytganda, oʻzbek xalq cholgʻularidan koʻp ovoqli orkestr tuzish va turli millatga mansub boʻlgan asarlarni ijro etish uchun bu cholgʻularda temperatsiyalashgan jihatlar yetishmas edi. Shu tufayli bir xil oʻlchov va bir xil tovushqatorga ega boʻlgan cholgʻular va ularning oilasini yaratish masalasi davr talabiga aylangan edi.

Bu masalani 1930-yillarning oʻrtalaridan boshlab Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʻat arbobi, professor, cholgʻushunos olim A.Petrosyans rahbarligi ostida usta-konstruktorlar S.Didenko, V.Romanchenko va A.Kevxoyanslar amalga oshira boshlaydilar. Ular har bir cholgʻuning chizmalarini yaratadilar va shu chizmalar asosida cholgʻular yasashni boshlab beradilar.

Natijada 1938 yilning noyabr oyida, yuqorida qayd etilgan orkestr asosida oʻn ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan hamda nota orqali ijro etadigan orkestr tashkil topdi. Orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori etib Oʻzbekiston sanʻat arbobi, Davlat mukofotini sovrindori, Qoraqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, professor Ashot Ivanovich Petrosyans

⁴⁴ Usta Usmon Zufarovning shu tarzda bolalar, ayollar va erkaklar uchun maxsus yasagan uch xil oʻlchovdagi dutorlari laboratoriya qoshidagi “Davlat noyob ilmiy ob’ekti”da saqlanmoqda.

⁴⁵ Usta Usmon Zufarovning han ana shunday chizmalari katta oʻgʻillari Toʻxtamurod Zufarovning shaxsiy uy arxivida saqlanmoqda.

tayinlanadi. Ko‘p vaqt o‘tmay orkestr jamoasi Ikkinchi jahon urushi tufayli o‘z faoliyati vaqtincha to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Qanchadan-qancha qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramay, orkestr 1943-yildayoq yana o‘z faoliyatini tiklaydi.

1943-yili ilmiy-tadqiqot eksperimental (tajriba) laboratoriyasi tashkil etiladi va yuqorida nomlari tilga olingan ustalar bilan bir qatorda usta U.Zufarov, T.Maxmudov va Z.Sodiqovlar ham bu ishga jalb etiladilar. Asta-sekin laboratoriyaga sozgarlik san‘atiga qiziqqan X.Muhiddinov, A.Abdug‘ofurov va M.Turdiyev kabi yoshlar ham shogird bo‘lib ishga kirishadi. Shu tariqa ustalar safi kengayishi munosabati bilan orkestr tuzish uchun zarur bo‘lgan barcha cholg‘ular oilasi yaratiladi.

1965-yili Toshkent shahrida musiqiy sozlarini kop‘lab miqdorda o‘quv jarayoni uchun yetkazib berish maqsadida Milliy musiqiy cholg‘ular tajriba fabrikasi ish boshlaydi. Fabrikaga laboratoriya ustalari tomonidan yasalgan barcha cholg‘ulardan etalon sifatida bir nusxadan (chizmalari bilan birga) namuna olib kelinadi. Fabrika ustalari ham o‘z navbatida har bir cholg‘udan bir donadan yasab, laboratoriyaga sifatini amaliyotda sinab ko‘rish uchun taqdim etadi. Laboratoriya usta-konstruktorlari yasalgan cholg‘ularni chizmalar bilan solishtirib ko‘rib, ularning sifati va ijrochilik imkoniyatlari davr talabiga to‘liq javob bergan holdagina ko‘plab (konveyr usulida) miqdorda ishlab chiqarishga ruxsat berilardi.

Shuning uchun ham laboratoriya nazorati ostida fabrikada ishlab chiqarilgan ilk cholg‘ular estetik jihatdan bezaklarga boy bo‘lmasada, tembri, ovoz tarovati va ijro imkoniyati bo‘yicha buyurtma orqali yasalgan cholg‘ulardan qolishmas edi. Keyinchalik, fabrika laboratoriya bilan o‘z hamkorligini to‘xtatib qo‘yganidan so‘ng, ularning ish sifati pasayib, natijada inqirozga uchraydi.

Orkestrga modernizatsiyalashtirilgan cholg‘ularning kiritilishi jamoaning unison, ya‘ni bir ovozlilikdan ko‘p ovozlilikka o‘tishdagi birinchi qadamlari edi. O‘sha davrda orkestr oldida turgan dolzarb masalalardan biri - bu ijro repertuarini yaratishdan

iborat edi. Kompozitorlar: B.Gienko, X.Izomov, M.Nasimov, S.Jalil, S.Hayitboyev, F.Nazarov, I.Hamroyev va boshqalar o‘zbek xalq kuylarini qayta ishlash, qardosh xalqlar kuy-qo‘shiqlarini orkestrga moslashtirishga hamda kichik shakldagi asarlarni yozishga kirishdilar.

O‘sha davrda orkestrning ijrochilik vazifalari quyidagilardan iborat edi:

- bir ovozli (unison) ijrodan asta-sekin ko‘p ovozli ijroga o‘tish;
- kuy ohangini guruhlar bilan jo‘r bo‘lib chalish orqali murakkab bo‘lmagan va qayta ishlangan, ya’ni orkestr uchun moslashtirilgan asarlarga murojaat qilish;
- kichik hajmdagi asarlarni hamda turli janrdagi syuita, poema, fantaziya va rapsodiyalarni ijro etish;
- ko‘p ovozli asarlarni ijro etish mahoratini egallash, yakka va jo‘rnavoqlikni his etgan holda chalish;
- asarlarni kuy tuzulishiga, jumlasiga, zarblar bir xilligi va rang-barang unsurlariga e’tibor bergan holda ijro etish.

Tabiiyki, orkestr tashkil etilgandan keyin bir qator ijodiy muammolar yuzaga keladi. Bularning ichida eng asosiysi yangi turdagi, ya’ni nota yozuvi orqali ijro etadigan sozandalarni tayyorlashdan iborat edi. Bu jarayonga o‘zbek musiqachilari tezda kirisha olmadilar, chunki ularda musiqa savodi va professional daraja yetishmas edi. Yangi cholg‘u ijrochiligi madaniyatini egalash, ko‘p ovozli ijroni o‘zlashtirish uchun asosan musiqa ma’lumotiga ega bo‘lish lozim edi. Shuning uchun o‘sha davrdagi asosiy muammolardan biri orkestr ijrochilarining musiqiy nazariy va amaliy savodini o‘stirishdan iborat bo‘lgan.

Shu bois, asarlarni nota orqali ijro etish uchun juda katta savodxonlik ishlarini olib borish davr talabiga aylandi. Ushbu ishni amalga oshirish uchun kompozitor G‘.Qodirov (Toshkent radioeshittirish qo‘mitasi huzuridagi xalq cholg‘ulari orkestriga), taniqli musiqa arbobi N.Mironov, pianinochi A.Podgorniy va yosh kompozitor Mutal Burxonovlar (o‘zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestriga) jalb etildi. Ular haftasiga

uch marotaba orkestr ijrochilariga nota savodini va nota orqali ijro etish qoidalarini o'rgatishga kirishdi⁴⁶. Shu tariqa orkestr jamoasi asarlarni nota orqali ijro etish va ularni boshqarib boradigan dirijorning qo'l harakatiga e'tibor berish ko'nikmalarini egallay boshlaydi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining shakllanib borishi bilan birga ijro etiladigan asarlar ham reja asosida tanlana boshlandi. Repertuar tinglovchilarning ehtiyoji va qabul qilish idroki hamda jamoaning ijrochilik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, jamoaga tanish bo'lgan xalq kuylaridan tanlangan. Ammo bu jamoani, ko'rinishi va cholg'ularning xilma-xilligidan qat'iy nazar, rosmana orkestr deb bo'lmasdi, chunki u ko'proq tarkibi kengaytirilgan ansamblga o'xshardi. Uni yagona bir organizmga, ya'ni tarkibidagi cholg'ularning tovushqatorini bir xillashtirish natijasida musiqiy-estetik yo'nalishga ega bo'lgan yangi turdagi professional jamoaga aylantirish zarur edi.

Shu tariqa o'zbek davlat filarmoniyasi hamda Toshkent radioeshittirish qo'mitasi huzurida xalq cholg'ulari orkestrlari tashkil etildi. Ularning rivojlanish tarixida o'zbek xalq cholg'ularida orkestr ijrochiligining shakllanishidagi qiyinchiliklar o'z aksini topgan. 1940-yillarning boshlarida orkestr - ijrochilikning yangi shakli sifatida shakllana boshlaydi va asta-sekin konsert ijrochiligi me'yoriga yaqinlashib boradi.

Aynan shu davrga kelib o'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochiligi to'la shakllangan edi. Amaliyotda musiqa ijrochiligi mezoniga ta'sir eta oladigan professional va o'ziga xos ijro uslublari joriy etila boshlaydi. Butun jamoani mukammal ijroga jalb etish bilan birga o'z maqsadi sari yo'naltira oladigan dirijorning ham vazifasi oydinlashadi. Asosiy muammo - orkestr ijrochilarining badiiy didini o'stirish va ularda ko'p ovozli musiqani tushunib talqin eta olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat edi.

Sozandalarni nota orqali chalishga o'rgatishdek murakkab jaryonga erishish natijasida tinglovchilar muammosi ham yuzaga keladi. Chunki asrlar davomida bir ovozli ijroni tinglab kelgan

⁴⁶ Muallifning kompozitor X.Izomov bilan 1996-yil 25-aprelda bo'lgan suhbatidan.

tinglovchilarni ko‘p ovozli musiqani qabul qilishga jalb etishning o‘zi murakkab masalalardan biri bo‘lgan. Tinglovchilar yangi yo‘nalishdagi ijroni tinglab hamda qabul qilishlari uchun juda ko‘p vaqt talab qilingan. Ko‘p ovozli musiqani tinglash ko‘nikmasini hosil etishda esa o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida o‘zbek xalq kuylarini ijro etish amaliyoti katta ahamiyat kasb etgan. Aynan shu cholg‘ular bir ovozli va ko‘p ovozli musiqa o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan va keng omma tinglovchilarini yangi turdagi ko‘p ovozli musiqani qabul qilishlariga katta yordam bergan.

Ushbu bosqichning ilk jarayonida kompozitorlar D.Zokirov, X.Izomov, B.Gienko, S.Jalil, F.Nazarov, S.Xayitboyev va I.Hamroyevlar o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini qayta ishlaganlar va orkestr uchun moslashtirganlar hamda jamoaning ijrochilik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zlarining maxsus asarlarini yoza boshlaganlar. Kompozitorlar asosiy e‘tiborni vertikal yo‘nalishga emas, balki gorizontol yo‘nalishga qaratganlar.

Chunki bu ijrochilarga bir ovozlilikdan ko‘p ovozlilikka o‘tishida yengillik yaratgan. Ular o‘z partituralarida xalq kuylariga murojaat qilar ekanlar, asarda mavjud bo‘lgan ko‘p ovozlilikka xos unsurlarni qidirib topar, bir cholg‘u guruhining kuy ohangini ijro etishga undasa, ikkinchisiga jo‘rnavor tovushlarni cho‘zib turishni buyurar, qolganlarini esa dutor cholg‘usida ko‘p uchraydigan kvarta-kvinta oralig‘idagi intervallarni garmonik, ya’ni bir paytda ijro etishga jalb etardi.

Aynan bu ko‘rinish o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarida uchraydigan ko‘p ovozlilik unsurlaridan biri bo‘lib, o‘z o‘rnida ijrochilar uchun muayyan qulayliklar yaratgan. Izlanishlar natijasida avvalo o‘zbek xalq kuylarini ko‘p ovozda ohangdosh tovushlar bilan to‘ldirib, musiqiy ifodaliligini boyitsa, ikkinchi tomondan - o‘zbek sozanda va ijrochilarini ko‘p ovozli musiqani ijro etish mahoratini egallash va yangicha fikrlashga chorlaydi.

Savollar:

1. Orkestr tashkil etish uchun qanday muammolar hal etilishi lozim edi?

2. Orkestrning ijrochilik vazifalari nimalardan iborat?
3. Kompozitorlar orkestr uchun ilk ko‘p ovozli asarlarini qanday yaratganlar?
4. Sozandalarni nota orqali chalishga o‘rgatishdek murakkab jarayon qanday hal etilgan?
5. Orkestr ijrosi uchun tinglovchilar qanday tayyorlangan?
6. Orkestr uchun ijro repertuari qanday amalga oshirilgan?
7. Kompozitorlar o‘z asarlarida asosiy e‘tiborni qaysi yo‘nalishga qaratganlar?
8. Bir ovozli va ko‘p ovozli musiqa o‘rtasida ko‘prik vazifasini qaysi cholg‘ular bajargan?
9. Qaysi kompozitorlar ilk bor orkestr uchun o‘zlarining maxsus asarlarini yoza boshlaganlar?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Xoxlagan jamoangiz haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Uumummaqbul nota tizimi, yangi shakl, jamoaviy ijrochilik, soz masalasi, tajriba ustaxonasi, xromatik tovushqator, eksperimental laboratoriya, ijrochilik vazifalari, tinglovchilar muammosi, ijrochilik imkoniyatlari.

Adabiyotlar:

1. Вызго Т., Петросянц А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 1962.
2. Кузнецова Г, Садыков Ф. Государственный оркестр народных инструментов имени Тохтасина Джалилова. - Т., 1990.
3. Ташматова А. Дони Зокиров номидаги давлат халқ чолғулари оркестри. - Т., 2015.

4. Керимов К. Оркестр азербайджанских народных инструментов. - Баку., 1959 (25-30).
5. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. – М., 2002, (142-153).

19-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida berilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, T.Jalilov, D.Zokirov xalq cholg‘ulari orkestri va “So‘g‘diyona” kamer orkestrining ijodiy faoliyatini o‘rganing.

1. H.Rahimovning T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.
2. H.Rahimovning D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.
3. H.Rahimovning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni o‘rganib chiqing.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik amaliyotida mavjud ikki yo‘nalishga taalluqli jamoalarni o‘rganing. Shuningdek xalq cholg‘ularida ijrochilikning yangi shakli bo‘mish – orkestr jamoalarining faliyatini bilan tanishib chiqing.



Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqolalarni ta‘riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

20-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida ko‘rsatilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, quyidagi vazifalarni bajaring.

Savollar:

1. Xalq cholg‘ularida ijrochilik amaliyotida qanday yo‘nalishlar mavjud?
2. An’anaviy yo‘nalishga qavsi jamoalar kiradi?
3. Akademik yo‘nalishga taalluqli jamoalar?
4. Sozgarlik san’ati bo‘yicha qanday yo‘nalishlar mavjud va ularning bir-biridan farqi nimada?
5. Orkestr tashkil etish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar nimalardan iborat?
6. Orkestr tashkil etilgandan keyin qanday muammolar yuzaga kelgan?
7. Orkestrning ilk repertuari qanday yaratilgan?

Quyidagi topshiriqlardan birini yozma ravishda topshiring:

1. M.Bafoyevning D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tahlil qilib yozma ravishda topshiring.
2. H.Rahimovning T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tahlil qilib yozma ravishda topshiring.
3. A.Mansurovning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tahlil qilib yozma ravishda topshiring.

21-DARS: T.JALILOV NOMIDAGI DAVLAT AKADEMIK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI FAOLIYATI

1938-yilda o'zbek davlat filarmoniyasi qoshida nota orqali ijro etadigan o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil etiladi. Ushbu orkestrga taniqli cholg'ushunos va mahoratli dirijyor Ashot Petrosyans rahbar etib tayinlanadi. U Nikolay Mironov g'oyasini ilmiy asoslangon holda davom ettiradi. Faoliyatining birinchi kunidan boshlab A.Petrosyans asosiy e'tiborni soz masalasiga qaratadi, natijada barcha cholg'ular modernizatsiyalashtiriladi. So'ngra orkestr tarkibini shakllantirish hamda ushbu jamoa uchun repertuar yaratish ustida ishlaydi.



O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri. Diridyor A.Petrosyans

30-yillarning oxiri, aniqrog'i 1939-yilda o'sha davr uchun namunali bo'lgan, o'zbek xalq cholg'ulari (modernizatsiyalashtirilgan va yangitdan yaratilgan cholg'ular asosida) orkestrining tarkibi aniqlanadi. Uning asosini g'ijjaklar oilasi (g'ijjak I-II, alt, bas va kontrabaslar) tashkil etgan. Torli-chertma cholg'ular guruhi: prima rubobi, qashqar va afg'on ruboblari hamda torni o'z ichiga qamrab olgan. Damlilar: nay va qo'shnyadan, zarblilar - doyradan

iborat edi. Bulardan tashqari simfonik orkestrning mis damlilaridan - truba, voltorna va trombonlar ba'zi bir partituralarda 50-yilgacha qo'llanilgan. Cholg'ular oilasining yaratilishi ko'p ovoqli ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Orkestrning sayyor konsertlari juda erta boshlandi. U umumta'lim maktablari, zavod va fabrikalarda, kolxoz va sovxozlarda konsert beradi. 1940-yilda orkestrning respublika bo'yab birinchi katta gastrol safari bo'lib o'tadi. Ular Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda chiqishlar qilgan. Ushbu konsertlarning ba'zi birlari haqida tomoshabinlar ko'chalarda yopishtiriladigan afishalar orqali emas, balki eskicha urf-odat bo'yicha karnaychilar orqali ogohlantirilgan⁴⁷.

1941-yilning bahorida orkestr ikki hafta davomida Kattaqo'rg'on suv omborining qurilishida bo'lib, bir necha konsert dasturlarini namoyish etadi. Shu bilan birga kanal ochilishiga bag'ishlangan tadbirda ham ishtirok etadi. O'sha paytdagi qiyinchiliklar – bu orkestrni kadrlar hamda cholg'ular tarkibi bo'yicha shakllantirishdan iborat edi. Dastur ham yo'q edi, u ham orkestr bilan birgalikda yaratilgan.

Faoliyatining birinchi yillarida orkestr repertuari asosan xalq kuylaridan iborat edi. Ayniqsa mashhur o'zbek xalq kuylari "Qashqarcha" va "Usmoniya" tomoshabinlar tomonidan sevib tinglangan. Shuningdek konsertlarda turli xalq kuylari, jumladan, tojikcha "Aspanjoyiman", ukraincha "Reve ta stogne Dnibr shirokiy", gruzincha "Suliko"lar ijro etilardi. Orkestr dasturiga ushbu jamoa uchun 1937-yilda N.Mironov tomonidan yozilgan ayrim partituralar ham kiritilgan. Ular orkestr uchun moslashtirilgan I.Shtrausning "Persidskiy marsh" va qayta ishlangan xalq kuylari "Ulparivash" hamda "Segoh"dan iborat edi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, o'sha davrda jamoada ishlaydigan sozandalar ham orkestr uchun xalq kuy-qo'shiqlarini qayta ishlay boshlaydi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun ana shunday namunali qayta ishlangan asarlardan biri orkestr g'ijjak-

⁴⁷ Вызго Т, Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов. - Т., 1962, с.50

chisi S.Gabrielyan tomonidan amalga oshirilgan “Roq Qashqarcha” va S.Aliyev qayta ishlagan “Gulyor” asarlaridir. Ilk qayta ishlangan asarlarning xarakterli xususiyatlardan biri - bu tovushlarni qaytarish orqali garmoniya hosil qilishdan iborat edi. Kuy o‘zgartirilmagan holda saqlanardi, polifonik usullar mavjud emasdi. Bunday holatda qayta ishlangan asarlar xuddi orkestr uchun cholg‘ulashtirilganga o‘xshardi, ba’zi bir joylarda akkord tovushlari qo‘llanilardi.

“Roq Qashqarcha” sozanda S.Gabrielyan tomonidan o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun jamoa aynan unison ijrodan ko‘p ovoqli ijroga o‘tish davrida qayta ishlangan mashhur asarlardan biridir. Ushbu partiturada orkestr tovushlari cholg‘ular guruhi orqali bir-birini mohirona tarzda takrorlaydi, lekin shunga qaramay takrorlanishda fon va asosiy kuy bo‘rttirib ko‘rsatilgan:

Tempo di Marcia

The image shows a musical score for a piece titled "Tempo di Marcia". The score is written for a string ensemble and includes the following parts: R.prima (Violin I), Q.Rub (Violin II), A.Rub (Viola), D.prim (Violoncello), D.alt (Double Bass), D.Bass (Bassoon), and D.K.B. (Double Bass). The music is in 2/4 time and features a strong rhythmic pattern. The first part of the score is marked with a forte (ff) dynamic, while the second part is marked with a piano (p) dynamic. The score is written in a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C).

Birinchi g‘ijjaklar odatga ko‘ra asosiy kuyni ijro etadi, bas va kontrabaslar esa jo‘navozlik vazifasini bajaradi. Kuyni qayta ishlashdan asosiy maqsad orkestr sozandalarini ansambl bo‘lib, bir vaqtda aniq, tekis va intonatsiya jihatdan toza ijro etishga o‘rgatishdan iborat edi. Bundan tashqari “Roq Qashqarcha” ritmik jihatdan ham boy ijro imkoniyatlariga ega. Shuningdek ushbu asar ritmik tuzilishlarning ko‘pligini hamda jo‘shqin ufor usullarini namoyon etadi:

“Roq Qashqarcha” kuyi dirijyor oldiga orkestr ijrosida bir xil dinamikaga erishish va asar mazmunini yorituvchi raqsona xarakterni ifodalash kabi vazifalarni qo‘yadi. Asar muallifining samarali urinishi - bu bir ovozli milliy musiqani ko‘p ovozli ifoda vositalari bilan umumlashtirishdan iboratdir. Ushbu asar badiiy estetik jihatdan tarixiy ahamiyatga ega. Chunki O‘zbekistonda ko‘p ovozli orkestrlarning shakllanishida u ilk qadam hisoblanadi.

S.Aliyev tomonidan uyg‘ur xalq kuyi “Gulyor” quyidagi tarkib uchun qayta ishlangan: nay pikkolo, nay I-II, surnay I-II, qo‘shnay, chang I-II, prima rubobi, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, dutorlar beshligi (prima, sekunda, alt, bas, kontrabas), nog‘ora, doyra va g‘ijjaklar beshligi (g‘ijjak I-II, alt, bas, kontrabas). Diqqatga sazovor tomoni shundaki, S.Aliyev asar boshida prima, sekunda va alt dutorlarni qo‘llamaydi, asarning o‘rta qismida esa butun orkestr tarkibini jalb etadi. Ehtimol, muallif bunday cholg‘ulashtirish orqali uyg‘ur xalq kuylarining o‘ziga xos xususiyatlarini, ijrochilik an‘anasini bo‘rttirib ko‘rsatmoqchi bo‘lgandir, balki bu uning fakturani rang-barang tarzda namoyish qilish uchun amalga oshirgan fantaziyasidir.

Asar shakl jihatdan keng ko‘lamli bo‘lishiga qaramay, faktura esa yorqin ishlangan. Partiturada unison ijro xususiyatlari original tarzda amalga oshirilgan, kuy rivoji esa gorizontal yo‘nalishga asoslangan. Unda unison ijro orkestr tarkibi orqali talqin etilgan-day tuyuladi. Shu sababdan unison va pedal tizimi solosi, kuchli hissani ta’kidlovchi ayrim tovushlar alohida ko‘rsatilgan. Nafis dinamik bo‘yoqlar va zarblar cholg‘ulashtirishda kuy yo‘nalishi-ning ravonligini ta’kidlaydi:

The image shows a musical score for five instruments: G'ijak 1, G'ijak 2, G'Alt, G'Bass, and G'K.B. The score is in 3/4 time, marked 'Moderato' and 'ff'. It features unison playing for the first four staves, with dynamic markings 'f' and 'pizz.'.

Ayniqsa orkestr uchun asosiy mavzuni uyg‘ur xalq musiqasiga xos bo‘lgan murakkab ritmik shakllarda unison tarzda ijro etish qiyinchilik tug‘dirardi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun har bir cholg‘u guruhi o‘z partiyalarini alohida o‘rganib, so‘ngra birgalikda ijro etishi lozim. Notasiz ijro etgan sozandalar uchun nota orqali ijro etishga o‘tishi nihoyatda murakkab edi. Kuyning mashhurligiga qaramay sozandalar uchun dirijyor izidan borishi juda qiyin edi.

“Gulyor” partiturasida kuy yo‘nalishining turli cholg‘ular guruhi o‘rtasida taqsimlanishi, vaqt-vaqti bilan pauza qilib, asosiy mavzudan chetga chiqib, ikkinchi darajali vazifani bajarishi va yana orkestr ish maromiga kirishi kuzatiladi. Ijro uchun yagona dinamikani talab etuvchi *tutti*, usul sezgisi, sur‘at va zarblarni bir xil xis etish qiyinchilik tug‘dirardi.

Asarning o‘rta qismida har bir cholg‘u guruhining tembrini alohida bo‘rttirib hamda ularning turli birikmalarini aniq ko‘rsatish lozim. “Gulyor” asarining 3-qismi ijrochilik jihatdan eng murakkabi hisoblanadi. Bu yerda torli-chertma cholg‘ular jo‘navozlik vazifasini, torli-kamonli cholg‘ular esa bir cholg‘u guruhidan ikkinchi cholg‘u guruhiga o‘tadigan kuy yo‘nalishini ijro etadi:

Allegro

Musical score for Allegro, featuring three parts: G'ijjak I, G'ijjak II, and G'Alt. The score is in 2/4 time and includes dynamic markings such as *ff*, *f*, *ff*, and *f*.

Unison ijroning xususiyatlari har bir cholg‘u ijrosidagi badihago‘ylik, ya’ni improvizatsiya orqali namoyon bo‘ladi. Orkestr fakturasi murakkablashadi, kuy, jo‘rnavozlik, bas tovushlari va doyra usullaridan tarkib topgan 4 ta yo‘nalish paydo bo‘ladi va bu ijrochilar uchun ma’lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Chunki ularning eshitish qobiliyati birdaniga 4 ta har xil tovush qatlamlarini qabul qilishga o‘rganmagan edi. Asosiy mavzuning takrorlanishi, jo‘r bo‘luvchi ovozlari hamda pedal tovushlari ham ijro uchun qiyin bo‘lib tuyulardi. Shunday qilib, “Gulyor” partiturasida o‘sha davrdagi orkestr ijrochiligi muammolarini o‘zida mujassam etib, ushbu muammolarni hal etishdagi ilk qadam hisoblanadi.

Mutal Burxonov qayta ishlagan buxorcha qo‘shiq “Mavrigi” ijro jihatdan juda qiziqarli tarzda amalga oshirilgan. U quyidagi tarkib uchun mo‘ljallangan: 3 ta nay (nay pikkolo, nay I-II), 2 ta qo‘shnay (I-II), surnay, 2 ta chang (I-II), prima, qashqar va afg‘on ruboblari, dutorlar, dutor baslar, dutor kontrabaslar, zarbli cholg‘ular (katta nog‘ora va doyra), g‘ijjaklar beshligi (g‘ijjak I-II, alt, bas va kontrabaslar). “Mavrigi” asarini qayta ishlashda kompozitor chiroyli ifoda vositalari majmuini yaratish uchun cholg‘ularni birlashtirish va taqqoslash usulini mohirona tarzda namoyon etgan:

Tempo di valse

Musical score for Tempo di valse, featuring five parts: R.prima, Q.Rub, A.Rub, D.alt, and D.Bass. The score is in 3/4 time and includes dynamic markings such as *pp*, *p*, *sf*, and *pp*.

Asar asosini mavzu ohangidan kelib chiqqan holda jo‘r bo‘luvchi ovozlari bilan o‘rab olingan raqs xarakteridagi ohista kuy tashkil etadi. M.Burxonovning asarlarni qayta ishlashdagi xarakterli xususiyati o‘sha davrda qayta ishlangan asarlar uslubiga xos bo‘lgan tovushlar va jo‘r bo‘luvchi ovozlarning takrorlanishidan iborat edi. Kompozitor cholg‘ularning chiroyli ijro imkoniyatlarini orkestr guruhlarini birgalikda va bir-biriga taqqoslash orqali namoyon etadi. Xalq kuyini qayta ishlashda har bir qaytarilishi registr, orkestr tembrlari va dinamik bo‘yoqlar hisobiga o‘zgacha yoritiladi. Fakturada gorizontial yo‘nalish vertikalga nisbatan ustunlik qiladi, garmoniya esa shunchaki kuyni qo‘llab turadi:

“Mavrigi”ning boshqa xarakterli xususiyati kuyni qayta ishlash davomida dinamik belgilarning takma-takt o‘zgarilishidadir. Asarni badiiy jihatdan to‘laqonli ijro etish uchun har bir takt ustida diqqat bilan ishlash hamda tez-tez o‘zgaruvchi zarblarni mashq qilish talab etiladi. Bir vaqtning o‘zida bir cholg‘ular guruhida *staccato*, boshqalarida *legatoning* yangrashi, alohida mashq qilish orqali amalga oshiriladi, so‘ngra ushbu guruhlar birlashtiriladi.

Har bir taktda dinamik belgilar o‘zgargan holatda, bir xil dinamika va zarbda unison ijroni amalga oshirish oson emas. Buning uchun solo chaladigan sozandalar bilan har bir taktda dinamika ustida alohida mashq qilish kerak. Ushbu asar bir qarashda shakl va faktura jihatdan murakkab emas, lekin ijro tomonlama katta e‘tibor talab etiladi.

O‘sha davrdagi dolzarb muammolardan biri - jamoa uchun maxsus asarning yaratilishi edi. Ko‘pincha orkestr sozandalari

xalq kuylarini qayta ishlardi, mashhur asarlarni moslashtirardi, bundan tashqari ular birinchi maxsus asarlarni ham yaratganlar. Orkestr o'zini mustaqil jamoa sifatida ko'rsatgandan keyingina kompozitorlar maxsus asarlar yoza boshladilar.

Orkestr o'z faoliyatining birinchi yillarida yakkaxon va yakkanavozlarga jo'rnavozlik vazifasini bajargan. Uning dasturiga juda ko'p vokal asarlari kiritilgan edi. Orkestr konsert dasturlarida 1939-1940-yillardagi Xamza qo'shiqlari, R.Glier va T.Sodiqovning "Gulsara", V.Uspenskiy va G.Mushelning "Farhod va Shirin" musiqali dramalaridan ariyalar, I.Dunayevskiyning "Vatan haqida qo'shiq"lari uchrab turardi.

Ushbu davrda xalq cholg'ulari orkestri uchun maxsus asarlar yaratishda O'zbekiston kompozitorlarining ijodiy faoliyati sezilib turardi. Asarlar orasida badiiy qiymatga ega bo'lgan M.Burxonovning "So'zsiz qo'shiq", G.Mushelning "Syuita"si, M.Leviyevning "Marsh"ini alohida ta'kidlash lozim.

M.Burxonovning "So'zsiz qo'shiq" (1944) asari 1940-yillardagi eng yaxshi asarlardan biri hisoblanadi. U hozirgi kunda ham konsert dasturidan alohida o'rin egallaydi. Asar quyidagi tarkib uchun yozilgan: nay I-II, qo'shnay I-II, surnay, doyra, nog'ora, katta nog'ora, dutor, tanbur, chang I-II, prima, qashqar, afg'on ruboblari, g'ijjak I-II, alt, bas va kontrabas.

Asar ifodali emotsional musiqiy tili, yorqin, kuychan lirik mavzusi bilan o'ziga jalb etadi. Dirijyordan chang I-II larning yengil usuli va g'ijjak atllarning pedal tovushlari ostida nozik qo'shnay solosining yorqin yangrashi talab etiladi. Asar kompozitorning milliy kuychan qo'shiqlarni yaxshi bilishidan dalolat beradi. M.Burxonovning "So'zsiz qo'shiq" asari o'sha davrdagi asarlardan orkestr partiyalarining mustaqilligi, polifonik faktura va did bilan cholg'ulashtirilganligi, zarblar va dinamikaning rangbarangligi bilan ajralib turadi. Asar o'sha davrda turli-tuman kuy va tembr yo'nalishlarini birga qo'shib olib borish uchun dirijyorga ham ma'lum qiyinchiliklar yaratadi:

The image shows a musical score for a piece titled "QOSH NAY 1,2". The score is written for three instruments: QOSH NAY 1,2, CHANG 1,2, and DUTOT ALT. The tempo is marked "Andante cantabile". The QOSH NAY part begins with a "Solo" section, indicated by a "p dolcs" dynamic marking. The CHANG and DUTOT parts are marked with "pp" (pianissimo). The score is in 9/8 time and features various musical notations such as slurs, accents, and dynamic markings.

1963-yilda A.Liviyev va A.Petrosyans tomonidan “So‘zsiz qo‘shiq”ni partiturasiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritildi. Orkestrning zamonaviy tarkibidan kelib chiqib, tanbur cholg‘usi olib tashlandi va uning o‘rniga nay pikkolo, dutor bas va dutor kontrabaslar qo‘shildi. Mana shunday ko‘rinishdagi ushbu estetik jihatdan bebaho, mazmunan boy va yorqin musiqa tiliga ega bo‘lgan asar hozirgi kunga qadar o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri repertuarida alohida o‘rin egallaydi. Keyinchalik M.Burxonov tomonidan qayta ishlangan “Mirza davlat” va “Qari navo” nomli cholg‘u kuylari paydo bo‘ladi. Ushbu asarlar turli tarkib uchun mo‘ljallangan edi, chunki orkestr tarkibi doimiy tarzda yangi cholg‘ular hisobiga kengayib borardi.

O‘sha davrda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga A.Petrosyans tomonidan cholg‘ulashtirilgan eng qiziqarli asarlardan biri – bu E.Grigning “Per Gyunt” syuitasidan “Anitri raqsi” edi. Bu asar uchun o‘zining boy tembri, ijro imkoniyatlari, turli-tuman zarblari, o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lgan prima rubobi yakkana-vozlilik uchun juda to‘g‘ri tanlangan. Jo‘rnavoqlik akkordlari ham cholg‘ular orasida juda yaxshi taqsimlangan. “Anitri raqsi” asarida har bir cholg‘u bir vaqtning o‘zida ham yakkana-vozlilik ham jo‘rnavoqlik vazifasini bajaradi.

“Anitri raqsi” ijrosidagi qiyinchiliklardan biri ritmik tuzilishlarni aniq ko‘rsatib berishdan iborat edi. Tiniq jo‘rnavoqlik, *staccato* ijrosi, kutilmagan taktning kuchsiz hissasidagi nozik aksentlari, to‘satdan bir nyuansdan ikkinchisiga o‘tishi, bir vaqtning o‘zida turli guruhlarda kreshendo va diminuendoning ijro etilishi, turli zarblar va dinamikalarda cholg‘ularning bir-birini to‘ldirib borishi, mavzuning bir cholg‘udan ikkinchisiga dinamik rivojlanish orqali o‘tishi sozandalardan katta mahorat talab etadi.

A.Petrosyans tomonidan cholg'ulashtirilgan asarning qiymati shundan iboratki, u o'zbek xalq cholg'ulari orkestri sozandalariga yevropa mumtoz musiqasini o'rganish uchun yo'l ochib berdi. Shunday qilib, qayta ishlangan asarlar orkestr ijrochilik imkoniyatlarini rivojlantirishga, o'zbek xalqining boy merosini omma-lashtirish hamda dunyo mumtoz musiqasini ijro etish ko'nikmalarini egallashda katta ahamiyat kasb etdi. Qayta ishlangan asarlar orkestr repertuarini sezilarli darajada boyitibgina qolmay, balki yangi ijro imkoniyatlarini kashf etishga yordam berdi.

1948-yili Toshkent davlat konservatoriyasida xalq cholg'ulari kafedrasining ochilishi jamoaning ijodiy o'sishida muhim ahamiyat kasb etdi, uning eng yaxshi talabalari orkestr sozandalariga aylandi. Orkestr tarkibiga yosh, yaxshi tayyorlangan sozandalar – mahoratli mutaxassis kadrlarning jalb etilishi jamoa professional darajasining oshishiga yordam berib, O'zbekiston san'atini Respublikamizdan tashqarida namoyish etishdek mas'uliyatli konsertlarda ishtirok etishiga yo'l ochdi.

Orkestr 1951-yilning noyabr oyida o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi qatnashchilari tarkibida yana Moskvaga boradi. Moskvalik tinglovchilar orkestr va yakkanavozlar chiqishlarini iliq kutib oladi. Muhokama qatnashchilari o'zbek xalq cholg'ulari orkestri faoliyatiga katta e'tibor berib, ularning ijrochilik imkoniyatlari hali to'laligicha yoritilmaganligini haqqoniy ravishda tasdiqlashadi. Dekada konsertlaridan tashqari jamoa mustaqil tarzda ham konsertlar beradi. Shundan so'ng orkestr Ukraina, Latviya, Litva, Estoniya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruzuya kabi davlatlarda Rossiyaning Sankt-Peterburg, Kaluga, Murmansk, Qozon va boshqa shaharlarida o'zbek milliy musiqa san'atini, kompozitorlar asarlarini tashviqot qiladi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining muvaffaqiyatli konsert faoliyati va dekadada chiqishlari O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotini faollashtirdi. Orkestr dasturi G.Sobitovning "Tatarcha syuita"si (1947), S.Yudakovning "Tantanali uvertyura"si va "Hamza mavzulariga syuita"si (1947), S.Boboyevning "Bayram uvertyurasi" (1950) hamda "Chang va orkestr uchun konsertino"si

(1952), F.Nazarovning “Yoshlar uvertyurasi” (1952) va “Qoraqalpoq mavzulariga rapsodiya”si (1956), Pak En Dinning “Koreyscha syuitasi” (1952), V.Knyazovning “Prima rubobi va orkestr uchun konsert”i (1953), B.Gienkoning “Ukraincha syuita” (1954) va “Pamircha uvertyura”si (1958), G.Zubatovning “Fortepiano va orkestr uchun poema-rapsodiya”si (1956) kabi maxsus asarlar hisobiga boyidi.

S.Boboyevning “Bayram uvertyurasi”, M.Leviyevning “Komsomol syuitasi”, M.Burxonovning “Mavrigi” va A.Petrosyansning “Buxorcha raqs”i orkestrning oltin fondiga kirgan va o‘sha davrda o‘ta mashhur bo‘lgan asarlar hisoblangan. Qayta ishlangan o‘zbek xalq kuylari B.Gienkoning “Gulbahor” va “Tanovar”, S.Aliyevning “Subhidam”, E.Shukrullayev va F.Vasilyevning “Dutor bayoti”, M.Mirzayev va S.Gabrielyanning “Rohat” kuylari tinglovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

1950-yilning noyabr oyida orkestr O‘zbekiston san’at ustalari: Halima Nosirova, Sora Eshonturayeva, Mukarram Turg‘unboeva, Nazira Ahmedova, G‘ulom Abdurahmonov, Komiljon Otaniyozov, Noila Xoshimova, Halima Komilova, Mehri Abdullayeva, Muhammadjon Mirzayevlar bilan birgalikda Xitoy xalq respublikasiga gastrol safariga boradi. Bu jamoaning ilk xorijiy safari edi. Konsert dasturi O‘zbekiston va qardosh respublikalar kompozitorlarining maxsus asarlari, orkestr uchun qayta ishlangan rus, o‘zbek, gruzin, uyg‘ur, turkman qo‘shiq va raqslari hamda M.Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasidan “Chernomor marshi”, P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” operasining yakunlovchi sahnasi, E.Grigning “Anitri raqsi”, J.Bizening “Karmen” operasidan Eskamilo ariyasi, Dj.Rossinining “Seviliya sarta-roshi” operasidan Figaro ariyasidan iborat edi.

Konsert dasturidan joy olgan har bir asar xitoylik tomoshabinlar tomonidan katta olqishlar bilan kutib olindi. Ayniqsa Xitoy xalq san’ati va madaniyati arboblari jamoa chiqishlarini gulduros qarsaklar bilan qarshi oldi. Xattoki o‘zbeklar san’atiga bo‘lgan o‘zlarining tahsinlarini davomiy qarsaklar orqali har bir asarni “bis”ga qayta chaldirish orqali izhor etishdi. Shu bilan birga

orkestr jamoasi va san'at ustalari o'z repertuarlarini xitoylik do'stlaridan o'zlashtirilgan yangi asarlar hisobiga boyitishdi.

1952-yilda o'zbek xalq cholg'ulari orkestri yakkaxonlar: H.Nosirova, K.Ismoilova, A.Azimov, A.Mirzayeva, E.Yuldoshev va V.Sinelnikovlar bilan birgalikda Ukrainaga katta konsert safariga boradi. Orkestr dasturi o'zbek va rus kompozitorlari asarlaridan tuzilgan edi. Orkestr uchun yozilgan asarlardan N.Budashkinning domra uchun "Konserti", S.Boboyevning "Bayram uvertyurasi", G'.Qodirovning "Syuitasi" muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek konsert dasturiga o'zbek, rus, ukrain, arman va tojik xalq qo'shiqlari ham kiritilgan edi.

1953-56-yillarda orkestrning ijodiy faoliyati ancha faollashadi. O'zbekiston va qardosh respublikalar bo'ylab gastrol safarlariga boradi. Ushbu jamoadan nusxa olgan holda o'quv yurtlari va badiiy havaskorlik orkestrlari tashkil etiladi. Shu yillar davomida orkestr gastrol safarlari hamda A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida o'tkazilgan qo'shma konsertlardan tashqari, faqatgina Toshkent va uning atrofida 500ga yaqin konsertlar beradi.

1957-yilda 35 kishidan iborat orkestrning yoshlar tarkibi dirijyor Narimon Alimov rahbarligida yoshlar Butunittifoq festivalida qatnashib, "Dutor bayoti", "Rohat", B.Gienkoning "Qoraqalpoqcha syuitasi", S.Boboyevning "Bayram uvertyurasi", Bize, Grig va boshqa klassik kompozitorlar asarlarini muvaffaqiyat bilan ijro etadi. Natijada festivalning I - darajali laureati va Oltin medal sohibi bo'lishadi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochilik imkoniyatlarining ko'pgina qirralarini o'zida namoyon etuvchi S.Boboyevning "Bayram uvertyurasi" 1950-yillarda eng dasturiy asarlardan hisoblangan. Asosini xalq kuyi tashkil etgan uvertyura sonata shaklida yozilgan. Asarda kuy, ritm, lad tuzilishi, asta-sekin butun orkestr guruhlarini qamrab oluvchi musiqiy mavzuning rivojida yorqin milliy kolorit namoyon bo'ladi. Shuningdek bosh va yordamchi partiyalarda yangraydigan ikki chorakli usul ham milliy o'ziga xoslikni yaratadi:

Allegro

Asar muallifi orkestr guruhlarining alohida va birgalikdagi rang-barang bo‘yoqlarini ko‘rsatish uchun mavzuning bir cholg‘ular guruhidan ikkinchisiga o‘tishini mohirona tarzda qo‘llaydi. Orkestr sadolanishidagi keskin o‘zgarishlar yorqin tovush dinamikasi manzarasini yaratadi. Asar yakunidagi to‘rtta oxirgi takt-dagi akkordlarda *PP* dan *ff* gacha bo‘lgan dinamik kuchayish mavjud. Keyinchalik ushbu usul boshqa kompozitorlar asarlariga andaza bo‘ldi.

Uvertyura dirijyordan taktning turli hissalaridan va turli ritmik tuzilishda boshlanadigan va tez-tez yakkanavozlik va jo‘rnavozlik vazifalarini bajaruvchi orkestr guruhlariga aniq ko‘rsatishni talab etadi. Shuningdek bo‘rttirib ko‘rsatilgan ritmik akkordlarning ifodali ijro etilishiga ahamiyat berish kerak. Doimiy keskin o‘lchov va ritmik ko‘rinishning (25 raqam) o‘zgarishi va turli xarakterdagi ikkita mavzuning birgalikdagi ijrosi katta qiyinchilik tug‘diradi:

O‘sha davrda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozilgan asarlar orasida “Bayram uvertyurasi” ijro imkoniyatlari jihatdan eng muvaffaqiyatlisi hisoblanadi. U mavzu sifatining yaxshiligi, musiqaning bitmas-tuganmas xushchaqchaqligi tufayli tinglovchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan va hozirgi kunga qadar orkestr ijrosida yangrab kelmoqda.

S. Boboyev uvertyurasi bilan bir qatorda F. Nazarovning qoraqalpoq xalq kuylariga “Rapsodiya”si (1956, A. Petrosyans cholgʻulashtirgan) oʻsha davr uchun yangi janr sifatida kirib keldi. Rapsodiya janrining musiqiy tili tushunarli boʻlganligi sababli, jamoa ijrochilari tomonidan uni oʻzlashtirish oson kechdi. Rapsodiyaning birinchi qismi musiqaning milliy xususiyatlarini taʼkidlovchi rang-barang dinamik belgilarni qoʻllagan holda tantanali raqs xarakterida yozilgan. Yakkanavoz va joʻrnavoz cholgʻular muvaffaqiyatli tarzda tanlanganligini qayd etish lozim. Joʻrnavoz tovushlar va doyra usuli qoraqalpoq xalq kuyining quvnoqligini namoyon etadi:

Allegro non troppo

Rapsodiyaning oʻrta qismi kuychan, lirik xarakterga ega. Orkestr fakturasi asosan unison boʻlib, tembr, dinamika, ritm va zarblar bir xilligiga erishish jihatdan murakkab ijrochilik vazifalarini qoʻyadi. Dinamika va shtrix jihatdan boy boʻlgan repriza ijrosi katta emotsional yoʻnalishni talab qiladi. Rapsodiya ijrosidagi asosiy vazifalardan biri – bu orkestr guruhlari orqali musiqiy mavzuni jozibali yoritib berishdan iboratdir. Rapsodiya singari asarlar jamoaning professional jihatdan oʻsishiga hamda yangi asarlarni oʻzlashtirish hisobiga dasturini boyitishga yordam beradi. Rapsodiya ustida ishlash jarayonida orkestr ansambl jihatdan yuqori saviyaga, guruhlarning tembr uygʻunligiga, zarblar umumiylikiga, ijro sofligiga ega boʻldi. Murakkab orkestr shakli rivojini mantiqan tushunish saviyasi oshdi.

A. Petrosyans tomonidan “Buxorcha raqs”ni cholgʻulashtirish juda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Asarda cholgʻular birikmasi tabiiy jihatdan tembr uygʻunligini hosil qiluvchi, yaʼni dutor

alt va dutor bas, g‘ijjak alt va g‘ijjak baslar bilan birga ijro etishi puxta o‘ylangan xolda amalga oshirilgan. Muallif usul va solo ijrosini turli cholg‘ularning o‘ziga xos birikmasi orqali namoyon etadi. Cholg‘ular guruhining o‘zaro musobaqalashayotgandek, birin-ketin ijro etishi, xalq xursandchiligi manzarasini yorqin namoyon etadi:

Moderato risoluto

The image shows a musical score for a piece titled "Moderato risoluto". The score is written for six parts: R. prima (Violin I), Q. Rub (Violin II), A. Rub (Viola), D. alt (Violoncello), D. Bass (Double Bass), and D.K.B. (Double Bass). The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 3/8. The score includes various musical notations such as slurs, accents, and dynamic markings like *mf* and *p*. The R. prima part has a *sul H* marking. The D. Bass part has a *p* marking. The D.K.B. part has a *p* marking. The score is arranged in a system with six staves.

“Buxorcha raqs”da *PP* dan *ff* gacha bo‘lgan dinamik ko‘rsatgich qamrab olingan, turli-tuman zarblar qo‘llanilgan. Asar kichik bo‘lishiga qaramay, ijrochilik nuqtai nazaridan asar xarakterini yoritish uchun dirijyordan katta kuch talab etiladi. Tez-tez uchrab turadigan mavzuning takrorlanishi talaffuz jihatdan murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Orkestr *tuttisida* sur‘at, dinamika va zarb bir xilligiga erishish zarur.

Asar ijrosidagi murakkabliklardan yana biri, aynan usul va soloning aniq va ravshan yangrashidadir. Qashqar va afg‘on ruboblari ijrochilari mizrob bilan faqatgina pastga chalishlari lozim, buni ham yaxshi ijro mahoratisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bir zarbdan ikkinchisiga o‘tish, sur‘atlar va dinamika o‘zgarishi ham o‘ta puxtalikni talab etadi. Orkestr sozandalari asar xarakterini juda yaxshi xis etib, muallif ko‘rsatmalarini aniq bajarishlari lozim.

O‘zbek an’anaviy ijro yo‘nalishiga xos unison ijro yorqin ifodalangan, S.Aliyev qayta ishlagan “Subhidam”(1952) kuyi orkestr oldiga bir qator ijodiy vazifalarni qo‘yadi. Kuyning eng boshida oktava oralig‘idagi qo‘shnay I-II va chang prima tembrlarining unison uyg‘unligi berilgan:

Moderato

Uchinchi taktda g'ijjak I-II va ruboblarda yangraydigan forshlaglar musiqaning milliy xarakterini ta'kidlaydi. Kuyning kelgusi rivoji yuqori tessitura, ya'ni kvarta yuqoriga o'tishi bilan bog'lik bo'lib, ijrochilardan musiqiy fikrni izhor etishda emosional faollikni talab qiladi.

1957-yilda filarmoniya qoshidagi xalq cholg'ulari orkestrining ikkinchi davri boshlandi. O'sha yili jamoaga g'ijjakchi Said Aliyev badiiy rahbar va bosh dirijyor etib tayinlandi. O'zbek xalq cholg'ulari xususiyatini yaxshi bilganligi, ijodiy bilimdonligi va dirijyorlik irodasi S.Aliyevga orkestr ijrochilik imkoniyatlarini yoritishga, dirijyor va orkestr degan ko'p qirrali va shu bilan birga yaxlit uyg'unlikni yaratishga imkon berdi. A.Petrosyans rahbarligida shakllangan orkestr an'analariga amal qilgan holda uni yangi sharoitda rivojlantirib, o'zbek xalq musiqasi va respublika kompozitorlik ijodiyotini ommalashtirishni davom ettirdi. U sozandalarni orkestr musiqachisining vazifalarini tushunib yetishiga, doimiy ravishda professional mahoratini o'stirishga va akademik darajadagi ijroni egallashiga harakat qildi.

Orkestr S.Aliyev rahbarligida o'z faoliyatini ko'p ovozli jamoa sifatida davom ettirdi, shu bilan birga ijrochilik amaliyotida yangi tamoyillar belgilab qo'yildi. Orkestr tarkibiga ham ba'zi-bir o'zgartirishlar kiritildi: yuqori registrga ega bo'lgan prima rubobi, dutor prima va dutor sekunda cholg'ularini qisqartirish hisobiga, tipovoy dutor, tanbur va ruboblar soni ko'paytirildi. Bu o'zgarishlar milliy o'ziga xoslikni kuchaytirish va orkestr ijrosini o'zbek xalq cholg'ulari ansambli ijrosiga yaqinlashtirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Damli cholg'ular guruhiga o'zbek xalq cholg'ulari bilan uzviy ravishda mos keladigan simfonik orkestrning ayrim cholg'ulari: klarnet va goboy kiritilgan edi, ikkin-

chi nay fleyta bilan almashtirilgan. Bu 12 bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan torli hamda temperatsiyalashtirilmagan damli cholgʻularning birgalikdagi ijrosida soz sofligining buzilishi bilan bogʻliq edi.

Orkestr sadosini yaxshilash va milliy koloritni namoyon etish uchun orkestrning turli tarkiblari sinab koʻrildi. Orkestr tarkibiga anʻanaviy dutor va tanburlar kiritilgan edi, lekin bu muammoni hal etmadi, chunki milliy koloritga erishish uchun faqatgina u yoki bu cholgʻuni tanlash bilan kifoyalanib boʻlmaydi, balki kompozitor oʻz asarida turli ifoda vositalari orqali asarning milliy xarakterini namoyon etishi lozim. Bunga misol tariqasida oʻzbek xalq cholgʻularining oʻziga xos tembr xususiyatlarini qiziqarli usullar orqali oʻzida mujassam etgan A.Kozlovskiyning simfonik partituralarini keltirish mumkin.

Oʻsha davrda Oʻzbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi:

- Orkestr dasturini Oʻzbekiston kompozitorlarining asarlari, qayta ishlangan va moslashtirilgan asarlar hisobiga shakllantirish;
- Syuita shakliga oid kompozitsiyalar, uvertyura janrlari, poema, fantaziya, rapsodiya, xalq cholgʻulari va orkestr uchun yozilgan konsertlarni oʻzlashtirish;
- Ijro etilayotgan asarlarning mazmuni va xarakterini toʻlaqonli ifoda etish;
- Tekis sadolanish, ansambl hamohangligi, bir xil dinamika va zarblar texnikasini ishlab chiqarish.

Orkestr 1959-yilning fevralida Moskvada boʻlib oʻtgan oʻzbek adabiyoti va sanʻati dekadasida ishtirok etadi. Jamoa Moskvaga katta konsert dasturi bilan borgan edi. Ular orasida oʻzbek xalq kuyi “Dutor bayoti”, M.Burxonovning “Vatan qoʻshigʻi”, P.Chaykovskiy, N.Budashkin, U.Gadjibekov asarlari ham bor edi. Shu yilning yoz oylarida orkestrning Ukraina, Qrim va Moldaviya boʻylab gastrol safari muvaffaqiyatli oʻtadi. 1960-yilning yoz oylarida orkestr Tojikistonda, 1961-yilda Ivanova, shu yilning yozi-

da Farg‘ona vodiysida, 1963- yili Qozog‘iston, 1966-yili Kavkaz orti shaharlarida gastrol safarida bo‘ladi.

1966-yili orkestrga O‘zbekiston xalq artisti, taniqli ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilov nomi berildi. Orkestr dasturining bo-yishi va ijrochilik mahoratining oshishida unga dirijyorlik qilgan L.Sultonova, X.Izomov, A.Liviyev, N.Alimov, A.Bahromov, S.Karimov, S.Jalil, F.Nazarovlar shuningdek 1957-yildan orkestr jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijyori vazifasini bajargan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Said Aliyev va boshqalar-ning munosib xissalari bor.

1967-yilning avgust oyida Qoraqalpog‘istonda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” xaftaligi o‘tkaziladi. Ushbu tadbirda orkestr ham ishtirok etadi. 1968-yilda orkestr O‘zbekiston, 1970-yilda Rossiya va Tojikiston, 1971-yilda Latviya va Chuvashiyada gas-trol safarida bo‘lib, o‘zbek cholg‘u ijrochiligi san’atini keng xalq ommasiga targ‘ib etadi. 1972-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilgan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” dekadasida ishtirok etadi. 1975 yilda orkestr Davlat attestatsiyasidan o‘tmaydi va natijada yangi rahbar saylanadi.

Savollar:

1. O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri qachon tashkil etilgan?
2. Orkestrning tashkil etilishiga qaysi jamoa asos solgan?
3. Orkestr kim tomonidan tashkil etilgan?
4. Orkestrning ijodiy faoliyati necha davrga bo‘linadi?
5. Orkestrning birinchi davrida qaysi dirijyor faoliyat olib borgan?
6. 1957 yilda orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori kim bo‘lgan?
7. Orkestr ushbu davrda qayerlarda gastrol safarlarida bo‘lgan?
8. Orkestrga nechanchi yil To‘xtasin Jalilov nomi berilgan?
9. Orkestrning ikkinchi davri qachon tugatildi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 1 va 2 kitoblardan mavzuga tegishli ma'lumotni konspekt qiling.

Tayanch iboralar:

Sayyor konsert, "Roq qashqarcha", "Gulyor", "Mavrigi", "So'zsiz qo'shiq", "Anitri raqsi", "Bayram uvertyurasi", "Rapsodiya", "Buxorcha raqs".

Adabiyotlar:

1. Вызго Т., Петросянец А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 962.
2. Кузнецова Г, Садыков Ф. Государственный оркестр народных инструментов имени Тухтасина Джалилова. - Т., 1990.
3. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. T., 2001.
4. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. М., - 2002 (140-147 бетлар).

22-DARS: T.JALILOV NOMIDAGI DAVLAT AKADEMIK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING GASTROL SAFARLARI

1976-yilda T.Jalilov nomidagi orkestrga O'zbekiston xalq artisti, professor Foruq Sodiqov badiiy rahbar va bosh dirijyor etib saylanadi va jamoaning uchinchi davri boshlanadi. O'zbekiston davlat konservatoriyasining xalq cholg'ulari fakulteti va opera-simfonik dirijyorligi bo'limini tugatgan mahoratli dirijyor F.Sodiqov jamoa tarkibini professional sozandalar bilan to'ldirish, ijro yo'nalishini aniqlash va repertuarni o'zgartirishni o'z oldiga maq-

sad qilib qo‘yadi. Bularning barchasi jamoa oldida turgan eng asosiy vazifa, ya’ni orkestrni Davlat attestatsiyasidan o‘tkazish uchun qilingan sa’y-harakatlar edi.



T.Jalilov nomidagi Davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestri.
Dirijyor F.Sodiqov.

Birinchi vazifa bu – orkestr jamoasini professional kadrlar bilan ta’minlash edi. Shu munosabat bilan orkestrga o‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlarning laureatlari va diplomantlari bo‘lmish iqtidorli sozandalar: Tohir Sobirov (chang), Shuhrat Ziyahev va Abduvohid Muborakov (prima-rubobi) hamda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent (hozirda O‘zbekiston) davlat konservatoriyasi xalq cholg‘ulari fakultetining yuqori kurs talabalarini jalb etadi. Shuningdek orkestrning kelgusi istiqboli uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi hamda reper-tuar doirasini kengaytirish va professional darajasini oshirishga yordam beruvchi akademik ijro yo‘nalishi tanlab olindi.

Orkestr tarkibiga ham o‘zgartirishlar kiritildi. Damli cholg‘ular guruhidan klarnet chiqarib tashlandi. Prima rubobi, dutor prima va dutor sekundalar orkestr tarkibiga kiritildi. Zarbli cholg‘ular guruhi kengaytirildi. Litavralar guruhi to‘ldirildi. Doyra, nog‘ora, tarelka, uchburchak, buben, ksilofon, qo‘ng‘iroqchalar, kastaneta va simfonik orkestrining zarbli cholg‘ulari kiritildi.

Torli-kamonli cholgʻular guruhining barcha registrlari, ayniqsa bas cholgʻulari koʻpaytirildi. Bu hol cholgʻular hamda guruhlar oʻrtasida muvozanat saqlanishiga sharoit yaratdi. Umuman olganda orkestr diapazoni kengaytirildi va sadalanishi toʻliq boʻldi.

Yangi tarkib bilan attestatsiyaga tayyorlanish uchun soz, intonatsiya, ansambl hamda yangi repertuar ustida ishlash boshlab yuborildi. Orkestr repertuariga Oʻzbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari hamda rus va xorijiy kompozitorlarning ushbu tarkib uchun moslashtirilgan va cholgʻulashtirilgan asarlari kiritildi. B.Gienkoning “Poema”, A.Liviyev qayta ishlagan oʻzbek xalq kuyi “Oromijon”, U.Xojibekovning “Goʻr oʻgʻli” operasiga uvertyura, A.Otajonovning chang va orkestr uchun konsertining II-III qismlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Orkestr konsertlari oʻquv yurtlarida, madaniyat va istirohat bogʻlarida, sanoat korxonalarida va harbiy qismlarda oʻtkazildi. Jamoa bilan konsertlarga tayyorgarlik koʻrish paytida asosan intonatsiya tozaligi, ansamblni his qilib ijro etish va ritmni mustahkamlash ustida koʻp ishlanardi. Katta eʼtibor orkestr guruhlari bilan alohida ishlashga jalb etilardi. Shu tariqa orkestr 1976-yilda ikkinchi marotaba Davlat attestatsiyasidan oʻtkaziladi va natijada attestatsiyadan muvaffaqiyatli oʻtib, 5 yil davomida konsert berish huquqiga ega boʻladi.

1977-yilda orkestr professional badiiy jamoalarning Butunittifoq koʻrik-tanlovida ishtirok etadi. Jamoaning konsert dasturi: A.Liviyev qayta ishlagan oʻzbek xalq kuyi “Oromijon”, S.Jalil qayta ishlagan aljir xalq qoʻshigʻi “Manti Gaspar”, A.Otajonovning chang va orkestr uchun konserti, N.Budashkinning domra va orkestr uchun konserti, U.Xojibekovning “Goʻr oʻgʻli” operasiga uvertyura, P.Chaykovskiyning “Oqqush koʻli” baletidan Sahna (Ssena), J.Bizening “Karmen” operasidan “Eskamilo kupleti”dan iborat edi. Hayʼat aʼzolari qaroriga koʻra T.Jalilov orkestri Butunittifoq koʻrik-tanlovining diplomanti deb eʼlon qilindi.

Shuningdek, orkestr 1978-yilning oʻrtalaridan boshlab radio konsertlarini muntazam ravishda gramplastinkaga muhrlay boshlaydi. Shu yili orkestr tarixida ilk bor B.Gienko qayta ishlagan

o‘zbek xalq kuylari “Gulbahor” va “Tanovar”, T.Azimovning orkestr uchun “Durдона” nomli asari, M.Maxmudovning konsert uvertyurasi, M.Tojiyevning fortepiano va orkestr uchun konsertinosi, M.Leviyevning “Jonajon diyorimsan” qo‘shig‘i, S.Yudakovning Bayram uvertyurasi gigant-diskka yozildi.

1978-yilning yoz oylarida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri Tojikistonga gastrol safariga boradi va bir qator shaharlarda konsert beradi. Tojikiston xalq cholg‘ulari orkestrining taniqli dirijyori N.Abdullayev “O‘zbek orkestri” nomli maqolasida orkestr yo‘nalishi va konsert dasturi sifatini yuqori baholaydi. Shuningdek maqalo muallifi orkestr dirijyori, dotsent A.Liviyev, yakkanavozlar: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mirza Toirov va Respublika ko‘rik-tanlovlari sovrindori T.Sobirovlar ijrosini alohida ta’kidlaydi.

Shu yili orkestr yangi tarkib bilan ilk bor respublikamizdan tashqariga, ya’ni Qrimga gastrol safariga boradi. Birinchi konsert Qrim filarmoniyasining filiali Yevpatoriyda A.Pushkin teatri zalida o‘tkaziladi. Birinchi asarning 5-6 takti ijro etilishi bilan zalda chiroq o‘chib qoladi, shunda dirijyor engashib Sh.Ahmadjonovga “Cho‘li iroq” kuyini chalishni buyuradi va asta-sekin barcha kuyga jo‘r bo‘ladi. Shu tariqa yakkanavozlar: changchi – T.Sobirov “Rajabiy - II”, A.Dvorjakning “Slavyancha raqs”ini, dutorchi – G‘.Roziqov “Ko‘ngil guldastasi” kuyini, g‘ijjakchi – M.Shoyunusov S.Yudakovning “Poema”sini, doyra va nog‘orada Q.Azimov va A.Yusupovlar o‘zbek usullarini ijro etadilar. Chiroq yonishi bilan zalda o‘tirgan barcha tinglovchilar orkestr mahoratiga qoyil qolib guldiros qarsaklar bilan ularning ijrosini qarshi olgan ekan⁴⁸.

Orkestr 1979-yilda Ya.Sverdlov nomli konsert zalida qozoq xalq cholg‘ulari Davlat Akademik orkestri bilan bo‘lgan ijodiy uchrashuvda rang-barang konsert dasturini havola etdi. Dasturdan: T.Qurbonovning “Poema”, M.Tojiyevning “Yoshlik taronalari” uvertyurasi, P.Sarasatening “Karmen” operasi mavzulariga

⁴⁸ Кузнецова Г, Садыков Ф. Государственный оркестр народных инструментов Узбекистана имени Тухтасина Джалилова. - Т., 1990, с. 56

Konsert fantaziyasi, D.Zokirov qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi “Yovvoyi Ushshoq”, A.Liviyev qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi “Oromijon”, B.Gienkoning “Guldasta” syuitasi, A.Xachaturyaning “Qilichbozlar raqsi” joy olgan edi.

1980-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining katta konsert zalida orkestr tashkilotchisi Ashot Petrosyans tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan konsert bo‘lib o‘tdi. Ushbu kechada T.Qurbonovning A.Petrosyans xotirasiga bag‘ishlangan “Rapsodiya”si, D.Soatqulovning nay va orkestr uchun qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi “Cho‘li iroq”, M.Ashrafiyning “Dilorom” operasidan “Dilorom” ariyasi, D.Zokirovning A.Navoiy so‘ziga yozilgan “Ko‘r madim” romansi, A.Petrosyansning “Buxorcha raqs”i, M.Mirzayev va S.Gabrielyan qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi “Rohat”, A.Petrosyans tomonidan xalq cholg‘ulari orkestri uchun moslashtirilgan E.Grigning “Per-Gyunt” syuitasidan “Anitri raqsi” va U.Xojibekovning “Go‘r o‘g‘li” operasiga uvertyurasi, B.Gienkoning chang va orkestr uchun qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi “Gulbahor” va “Tanovar” asarlari yangradi.

1980-yilda orkestrning Vetnamdan Toshkent davlat konservatoriyasiga malaka oshirgani kelgan sozandalar bilan birgalikda O‘zbekiston televideniyesi orqali konserti o‘tkaziladi. Ushbu konsert dasturi uchun kompozitorlarimizdan B.Zeydman “Tog‘larda sau sadolari” (sauda – Xan-Txay), B.Gienko “Jonajon yurt ohanglari” (dan-bauda – Xo-Xak-Ti) nomli asarlarini vetnam mavzulari asosida yaratadilar. Shuningdek Xan -Txay saud o‘zbek xalq kuyi “Chaman yalla”ni, Vin-Kolg tapluk cholg‘usida “Jonajon o‘lka” nomli vetnam xalq kuyini ijro etadi.

Shuningdek orkestr o‘z ijro mahoratini 1980-yilda Ukraina shaharlari bo‘ylab o‘tkazilgan gastrol safarlarida namoyon etadi. Safardan asosiy maqsad “Kiev bahori – 80” nomli II butunittifoq san’at festivalida ishtirok etish edi. Ushbu festivalga T.Jalilov orkestri taklif etilgan edi. Ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash ishiga qo‘shgan hissasi uchun orkestr fahriy yorlig‘ bilan taqdirlanadi.

Toshkentga qaytgach, 1980-yil 26-iyunda orkestr o‘zining 40 yillik yubileyini “Bahor” konsert zalida o‘tkazadi. Konsert dasturi T.Qurbonovning orkestr 40 yilligiga bag‘ishlab yozgan “Yubiley uvertyurasi” bilan boshlanadi. S.Kalonovning “Tun oqshom” nomli asari ham tinglovchilar tomonidan iliq kutib olinadi. Shuningdek dasturdan T.Sodiqovning “Navbahor”, D.Zokirovning “Ko‘rmadim”, M.Yusupovning “Xorazm”, M.Ashrafiyning “Kashmirida” nomli vokal asarlari hamda F.Amirov va E.Nazirovalarning arab mavzulariga “Konsert”i, P.Sarasatening “Konsert fantaziya”si, A.Xachaturyanning “Qilichbozlar raqsi” ham o‘rin olgan edi.

Qo‘lga kiritgan yutuqlari va o‘zbek musiqasini keng targ‘ib etganligi uchun jamoaga 1980-yilda “Davlat” maqomi beriladi. Orkestr va dirijyorning fidokorana xizmatlari munosib baholanib, 1981-yilda F.Sodiqovga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni beriladi.

1980-yillarning boshlarida orkestr faoliyati yanada faollashadi. O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan xalq cholg‘ulari orkestri hamda yakkanavoz yoki yakkaxonga orkestr jo‘rligida ijro etish uchun maxsus yaratilgan asarlarni tinglash va muhokama qilish jamoaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shuningdek televidenie va radio orqali chiqishlar, tashkilotlarda ijodiy uchrashuvlarning o‘tkazilishi ko‘payadi. Orkestr repertuari maxsus asarlar hisobiga boyib, gastrol safarlarining doirasi kengayadi.

1981-yil T.Jalilov orkestri uchun sermaxsul bo‘ldi. Jamoa G‘arbiy Sibir va Baykal orti bo‘ylab gastrol safariga boradi. Ular ijrosidan Ulan-Ude, Irkutsk viloyati, Krasnogorsk va Oltoy o‘lkalari, Kemerova va Barnaul viloyati, Novosibirsk, Omsk, Tomsk aholisi bahramand bo‘ladi. Jamoa 35 kun davomida 27 ta konsert beradi. Orkestr ijrosidagi F.Alimovning “Shodiyona”, A.Xachaturyanning “Qilichbozlar raqsi”, A.Boboyevning “Konsert rapsodiyasi”, ayniqsa yakkanavozlar T.Sobirov, Sh.Yo‘ldoshev va Q.Nazirovlarning chiqishlari tinglovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Shu yilning sentyabr oyida orkestr Tojikistonda o‘tkazilgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasida ishtirok etadi. Dekada doirasida orkestr jamoasi M.Tursunzoda nomidagi san’at instituti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan ijodiy uchrashuv o‘tkazadi. Konsertda O‘zbekiston va Tojikiston kompozitorlarining asarlari yangraydi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida Tojikiston xalq artisti Sh.Mullajonova o‘z repertuaridan qo‘shiqlar kuylaydi.

1982-yil qish oylarida orkestr Farg‘ona vodiysiga gastrol safariga chiqib, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida konsertlar beradi. Jamoa konsert dasturi bilan birga targ‘ibotchi-lik ishlarini ham olib boradi. Jumladan, Andijonda musiqa bilim yurti o‘quvchilari bilan ijodiy uchrashuv o‘tkazadi. Konsert dasturidan F.Alimovning “Shodiyona”, T.Qurbonovning “Sevinch”, V.Montining “Chardash”, A.Boboyevning “Konsert rapsodiyasi” joy olgan edi.

Shu yilning yoz oylarida orkestr shimoliy Qozog‘iston viloyatlarida o‘z konsert dasturini namoyon etadi. Orkestrda gastrol safariga borgan davlatning kuy-qo‘shiqlarini ijro etish yaxshi an’anaga aylangan edi. Bu gal jamoa qozoq kompozitorlari L.Xamidining “Qozoqcha vals” va “Bulbul”, Jannanovning “Jamila” qo‘shiqlari hamda Qo‘rmong‘ozining “Sari arka” asarini ijro etadi. Mahalliy tinglovchilar ushbu asarlarni katta olqishlar bilan kutib oldilar.

Jamoaning yil sayin gastrol safarlari chegarasi kengayib bordi. Endilikda u yirik badiiy jamoalar bilan be‘malol bellasha oladigan bo‘ldi. 1983-yil orkestr Sibir va uzoq Sharq shaharlari bo‘ylab ijodiy safarga chiqadi. Jamoa bilan o‘zbek davlat filarmoniyasining mashhur yakkaxonlari, respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar B.Mavlonov, V Kryukov hamda yakkaxonlar S.Ten va M.Xudaynazarovlar ishtirok etishadi. Orkestrning konsert dasturi F.Alimovning “Tabriknoma”, G.Sviridovning “Vals”, I.Shtrausning “Polka-pitsikato”, G.Triggsning “Brazilcha raqs”,

A.Babayevning “Konsert rapsodiyasi”, A.Xachaturyanning “Qilichbozlar raqsi”dan iborat edi⁴⁹.

1983-yilda O‘zbekistonning 2000-yilligiga bag‘ishlangan yubiley konsertida T.Jalilov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri ham ishtirok etdi. Ushbu konsertda orkestr T.Qurbonovning “Qo‘shchinor” uvertyurasi, F.Alimovning N.Narzullayev so‘ziga yozgan “Sevgi favvorolari” hamda Hab.Rahimovning I.Rahmonov so‘ziga “Serquyosh Toshkentim” qo‘shiqlari hamda yosh kompozitorlardan K.Xikmatovning ilk bor orkestr uchun yozgan “Lirik poema”si va Q.Komilovning “Poema”sini ijro etadi.

Yubiley doirasida “Toshkentda oltin kuz” nomli II – Butunitifof festivali o‘tkazildi. Ushbu festival doirasida M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining katta zalida T.Jalilov va N.Osipov nomidagi davlat akademik rus xalq cholg‘ulari orkestrining ijodiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv T.Jalilov orkestri konserti bilan yakunlandi. Uning ijrosida o‘zbek va rus kompozitorlarining asarlari yangradi. Ushbu konsertda N.Osipov nomidagi orkestrning yakkanavozi S.Lukin domrada P.Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li” baletidan “Ruscha raqs”ni o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida, rus xalq cholg‘ulari orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijyori, xalq artisti N.Kalininning rahbarligi ostida ijro etdi. Bunday uchrashuvlar orkestr sozandalari xotirasida uzoq vaqtgacha muhrlanib qolib, ularning ijodiga ilhom bag‘ishladi.

1984-yil orkestr uchun ijodiy voqealarga boy yil bo‘ldi. Shu yili o‘zbek xalq cholg‘ulari va bayan bo‘yicha IV Respublika ko‘rik-tanlovi ilk bor uch turda bo‘lib o‘tdi. Uchinchi tur va yakuniy konsert T.Jalilov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida o‘tkazilgan. Qisqa vaqt davomida orkestr 30 ga yaqin yirik shakldagi asarlarni o‘zlashtirishga erishdi. Bu orkestr ijro mahoratining oshishiga turtki bo‘ldi.

⁴⁹ Кузнецова Г, Садыков Ф. Государственный оркестр народных инструментов Узбекистана имени Тухтасина Джалилова. с.67.

1984-yilda 10-18 iyun kunlari orkestr Sochida o‘tkazilgan “Dunyo planetalari” nomli Butunittifoq festivalida taniqli jamolar bilan bir qatorda ishtirok etadi. Festival doirasida o‘tkazilgan konsertlar dasturidan jahon kompozitorlari: T.Xrennikov, A.Xachaturyan, G.Sviridov, D.Shostakovich, I.Dunayevskiy, Ya.Frenkel, D.Tuxmanov, E.Ptichkin, F.Amirov, shuningdek O‘zbekiston kompozitorlari T.Qurbonov, F.Alimov, B.Gienko, H.Rahimov, S.Jalilning yangi asarlari joy olgan edi. Xorijiy va mahalliy tinglovchilar orkestr ijrosida yangragan mashxur klassik asarlarining ijrosini tinglab lol qolishgan va har bir asarni davomiy qarsaklar bilan kutib olishgan.

1984-yil orkestr Ukraina va Rossiya shaharlari bo‘ylab gastrol safariga chiqadi. Tomoshabinlar yakkanavozlar, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist M.Toirov (nay), Xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlarining sovrindorlari Sh.Yo‘ldoshev (g‘ijjak), T.Sobirov (chang), yakkaxonlar S.Ten va O.Kutsenkolarning chiqishlarini guldiros qarsaklar bilan kutib olishgan.

1985-yilda orkestr Qashqadaryo bo‘ylab gastrol safariga chiqadi. 10 kun davomida, jami 17 ta konsert, Qarshi musiqa bilim yurti, tibbiyot texnikumi, ishchi va mehnatkashlar, talaba va pedagoglar davrasida bo‘lib o‘tdi. Konsertda T.Qurbonov qayta ishlagan “Girya”, D.Zokirov qayta ishlagan “Tanovar”, B.Gienko qayta ishlagan “Samoi dugoh” M.Yo‘lchiyeva ijrosida, D.Soatqulov qayta ishlagan “Cho‘li iroq” M.Toirov (nay) ijrosida yangradi. Shuningdek, kompozitorlar F.Alimov, Hab.Rahimov, S.Jalilning maxsus asarlari va jahon mumtoz musiqasi yangradi.

1985-yilning yozida (27 iyul – 3 avgust) orkestr Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan XII-Butunjahon yoshlar va talabalar festivalida ishtirok etadi. Xalqaro forumda ishtirok etish jamoa tarixida ilk bor yuz bergani uchun bu xodisa orkestr sozandalari hayotida o‘chmas iz qoldirdi. Kompozitorlar T.Qurbonov va F.Alimovlar ushbu tadbirga bag‘ishlab, qismlari o‘zbek, qozoq, tojik va turkman musiqiy mavzulariga asoslangan “Festival” syuitasini yozdilar. Konsert “Lujniki” sport saroyida o‘tkazildi. Festival doirasida T.Jalilov orkestri rus xalq cholg‘ulari orkestri, K.Orozov no-

midagi qirg'iz xalq cholg'ulari orkestri, "Otrar sazi" nomli qozoq davlat folklor-etnografik orkestrlari bilan yaqindan tanishib oldi. Shuningdek, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Gruziya, Armaniston va Latviya ijodiy jamoalarining konsert dasturini tinglashga muvaffaq bo'ldi.

1986-yil orkestr ijodiy faoliyatida konsertlarga boy yil bo'ldi. Fevral oyida orkestr Qrimga gastrol safariga boradi. Uning konsertlari Dnepropetrovsk, Zaparoj'e, Donetsk shaharlari televideniyesi orqali namoyish etildi. Konsert dasturlari o'zbek xalq musiqasi, zamonaviy kompozitorlar asarlari, rus va xorij klassik durdonalaridan tarkib topgan edi. Orkestr va dirijorning professional mahorati tinglovchilarni darhol o'ziga jalb etishi bilan ko'zga tashlandi.

Shuningdek, 1986-yilning oxirida orkestr ijodiy hayotida muhim voqea sodir bo'ldi, ya'ni mahoratli kompozitor To'lqin Qurbonovning yubiley konserti bo'lib o'tdi. Yubiley kechasi nafaqat kompozitorning ijodiy yutuqlarini, balki o'z tashabbusi orqali jamoa ijrochilik mahoratini qanchalik o'stirganligini namoyon etdi. T.Qurbonovning yubiley konserti O'zbekiston kompozitorlarining asarlaridan turli janr va shakldagi sermazmun konsert dasturlarini tuzish mumkinligini ta'kidladi.

1988-yil xalq cholg'ulari davlat orkestri uchun muhim sana bo'ldi. Shu yili orkestr Rossiya bo'ylab gastrol safariga chiqdi. Rossiyaning Vladimir shahrida V.Andreyev nomidagi rus xalq cholg'ulari orkestrning tashkil etilganligiga 100 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilayotgan "Xalq musiqasi festivali" konsertida ishtirok etadi. Ushbu festival doirasidagi konsert nafaqat V.Andreyev xurmati uchun, balki T.Jalilov nomidagi orkestrning 50 yillik ijodiy faoliyatining hisobot konserti ham bo'ldi.

Gastrol safaridan qaytgach "Bahor" konsert zalida T.Jalilov nomidagi o'zbek xalq cholg'ulari davlat orkestri hamda N.Osipov nomidagi rus xalq cholg'ulari davlat akademik orkestrining hamkorlikdagi konserti bo'lib o'tdi. Har bir orkestr konsertning bittadan bo'limini o'tkazdi. Konsertning yakuniy qismida orkestrlar birgalikda rus va o'zbek musiqalarini ijro etishdi. Bitta

konsert doirasida ikki xil jamoalarning chiqishlari tinglovchilarda katta qiziqish uygʻotdi.

Orkestr repertuarida oʻzbek xalq kuy va qoʻshiqlari, mumtoz durdonalarimiz, jahon klassik va oʻzbek kompozitorlari asarlari alohida oʻrin tutadi. Yirik musiqa janrlarida yaratilgan ijod maxsullarini talqin etishda, maromiga yetkazilgan texnik mahorat zaminida F.Sodiqovning serqirra tinimsiz mehnati mujassam boʻlib, u orkestrning mavqeini yangi sifat darajasiga koʻtara oldi. Natijada 18 ta gramplastinka yozildi hamda “Musiqali palitra” film-konsertini yaratishga erishildi. Jamoa ijrochilikda erishgan yutuqlari uchun 1991-yilda Respublikada yagona “Akademik orkestr” unvoniga sazovor boʻldi.

Orkestrning ustivor yoʻnalishlaridan biri – bu Bolalar musiqa va sanʼat maktablari hamda umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari uchun maxsus oʻtkaziladigan “Manaviyat buloqlari” nomli abonement maruzali-konsertlardir. Ushbu konsertlar dasturi aynan bolalarga mos boʻlib, “Dunyo xalqlari kuy va qoʻshiqlari”, “Bolalar kompozitorlari bilan uchrashuv”, “Tengdoshlaring kuylaydi” va “Birgalikda kuylaymiz” deb nomlanadi. Bolalar konsertlariga sozandalar ham, dirijyor ham astoydil tayyorgarlik koʻradi. Chunki bolalarni musiqa dunyosiga jalb etish va ularning maʼnaviy va estetik madaniyatini shakllantirish eng muhim va qiziqarli jarayondir. Konsert dasturidagi har bir asar bolalarga tushunarli boʻlishi uchun asar ijro etilishidan avval asar haqida qisqacha maʼlumot beriladi. Bu yosh avlodga asarni tushungan holda tinglashlariga zamin yaratadi.

Orkestrga 1976-yildan 2010-yilga qadar Foruq Sodiqov rahbarlik qilib kelgan. Shu oʻtgan davr mobaynida u bilan birga Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Anvar Liviye (1976-1987), Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Firuza Abdurahimova (asosan abonement konsertlarida) va boshqalar orkestrda dirijyor sifatida faoliyat olib borishgan. Shuningdek F.Sodiqovga dirijyor sifatida uning shogirdi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Abduvohid Muborakov yordam berib kelgan.

2013-yil noyabr oyida T.Jalilov nomidagi Davlat Akademik xalq cholgʻulari orkestri oʻzining 75 yillik yubileyini munosib kutib oldi. Yubiley konserti Oʻzbekiston Davlat konservatoriyasi-ning katta konsert zalida boʻlib oʻtdi. Konsert M.Bafojevning ushbu orkestr uchun maxsus yozilgan “Shodiyona” uvertyurasi bilan boshlandi. Uvertyuraning birinchi taktidanoq orkestr tinglovchilar eʼtiborini oʻziga qaratdi. Uvertyura xaqiqatdan ham tinglovchilarga bayramona kayfiyat baxsh etib, ularni konsert dasturiga jalb etdi. Uvertyura mahoratli musiqachi, ushbu orkestrning bosh dirijyori va badiiy rahbari D.Mutalov tufayli mohirona yangradi.

Respublika koʻrik-tanlovi sovrindori Malohat Nabiyeva ijrosida dutorda Oydin Abdullayevaning “Dutor ifori” fantaziyasi-ning jahon premʼerasi yangradi va u ushbu asarda dutorning zarbga boyligini, chiroyli tembri va ajoyib ijro mahoratini namoyon etdi. Kamil Sen-Sansning “Allegro appassionato”si respublika koʻrik-tanlovi sohibi Anvar Mavlonov ijrosida oʻzga koloritda tarannum etildi. Dutor basning mayin ovoz tarovati va ijro imkoniyatlari namoyish etildi.

“Nagil” nomli hind kinofilmidan “Meradil - mening qalbim” lirik kuyi xalqaro konkurs laureati Botir Doʻsimbetov ijrosida nayda jarangladi. Ushbu musiqa xarakterini batafsil yoritish uchun unga orkestr solisti Jamshid Rixsiyev hind tablasida joʻrnavezlik qildi. Chiroyli va yoqimli kuy tinglovchilarni hayolan ajoyib va chiroyli Hindistonda boʻlishga hamda uning tabiatidan bahra olishga imkon yaratdi. M.Bafojevning “Sevgim samosi” operasidan “Al-fargʻoniy” ariyasi Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Avaz Rajabov ijrosida yangradi. Ushbu asarda taniqli xonanda milliy klassik operasining ijro mahoratini, Jorj Bizening “Karmen” operasidan Toreodor kupletlarida esa xorij klassikasining yorqin ijro mahoratini namoyish etdi.

Davlat “Nixol” mukofoti sovrindori Gulzoda Xudoynazarova A.Ismoilovning A.Navoiy soʻziga (musiqasi F.Alimov tomonidan orkestrga cholgʻulashtirilgan) “Oh kim ishq ayladi” qoʻshigʻini ijro etdi. Ushbu asarda yakkaxon oʻzining betakror va chiroyli

ovoz tembrini orkestr joʻrligida, tasvirlab boʻlmaydigan darajada boy milliy bezaklarni tarannum etdi. Ushbu qoʻshiq ijrosi davomida zalda jim-jitlik xukm surardi. Hamma iqtidorli yosh xonanda xonishidan rohatlanmoqda edi. Pablo Sarasatening “Introduksiya va Tarantella”si respublika koʻrik-tanlovi sovrindori Javlonbek Gʻulombekov ijrosida gʻijjakda ajoyib, betakror tembrda yangradi. Yakkanavozning ijro mahorati barchada yorqin taasurot qoldirdi.

Juzeppe Verdining “Taqdir qudrati” operasiga uvertyura aynan ushbu jamoa uchun yozilganday betakror tembrlarda, ajoyib ohanglarda yangradi. Juzeppe Verdining “Rigoletto” operasidan Jilda ariyasi va Sharl Gunoning “Romeo va Juletto” operasidagi Juletto valse Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq artisti Mu-yassar Razzoqova ijrosida yuqori professional darajada yangradi. Tinglovchilar xonandaning betakror, chiroyli ovoz tarovati (tembri) va artistlik mahoratiga qoyil qolishdi. Zal xonandaning goʻzal ijrosiga taxsinlar aytib, tik turgan xolda davomiy guldiros qarsaklar bilan qarshi oldi. Anatoliy Gurevichning “Qadimgi bandjo” asarining respublika koʻrik-tanlovi sovrindorlari Malohat Nabiyeva (dutor primada) va Oʻktam Jumaniyozov (rubob primada) larning ilk ijrolari xech kimni befarq qoldirmadi.

Bunday duet estradada birinchi marotaba qoʻllanilgan boʻlishiga qaramay, cholgʻular tembr hamda texnik imkoniyati jihatdan bir-biriga juda mos keldi. Ularning ijroviy musobaqasi juda qiziqarli boʻldi. Bu asarning ozginagina teatrlashtirilganligi barcha tinglovchilarga koʻtarinki kayfiyat bagʻishladi. Ijro boshlanishidan avval shlyapa ayol sozandaning boshida kiyilgan edi, asar soʻngida esa u shlyapani oʻz raqibining boshiga kiydirib qoʻydi. Bu ramziy maʼno, sozandalar oʻz vazifasini bajarganliklaridan dalolat beradi. Ijro paytida yakkanavozlar oʻz artistlik maxoratlarini va cholgʻuning ijro imkoniyatlarini namoyish etishdi.

Dastur yakunida orkestr ijrosida Abbas Qosimovning “Navroʻz” asari yangradi. Orkestr tarkibiga ushbu asarda asosiy vazifani bajaruvchi karnay va surnaylar kiritilgan edi. Karnay va surnaylarning shodiyona ohangi, solistlarning mohirona ijrosi

haqiqatdan ham bayramona kayfiyat baxsh etdi. Dirijyorning aniq va tantanavor qo‘l xarakati, yakkanozlarga o‘z vaqtida ko‘rsatishi, ushbu asarni o‘ziga tortadigan asosiy tomonini yoritishga yordam berdi. Tomoshabinlar yuzida ularning ko‘tarinki kayfiyatda ekanligini aks ettiruvchi tabassum paydo bo‘ldi. Ushbu konsert barcha tinglovchilarga rohat baxsh etdi. Konsert tugagach barcha tinglovchilar davomiy guldiros qarsaklar bilan sozandalarini sahnani tark etishiga yo‘l qo‘yishmadi. Jamoa ushbu asarni tinglovchilar talabiga ko‘ra yana qayta ijro etdi.

To‘g‘ri tanlangan repertuar, yosh iqtidorli sozandarlarning chiqishi, xalq va xizmat ko‘rsatgan artistlarning ishtiroki, turli xarakterdagi asarlarning kiritilishi orkestrni professional jihatdan o‘shishiga hamda konsertlarining yuqori professional darajada o‘tishiga yordam beradi. Bunda orkestrning bosh dirijyori va badiiy rahbari D.Mutalovning xizmatlari beqiyosdir.

2010-yildan 2014 yilgacha orkestrga mahoratli yosh dirijyor Dilshod Mutalov rahbarlik qilib keldu. U ham o‘zidan oldingi orkestr tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan dirijyorlarning ijodiy faoliyatini izchillik bilan davom ettirdi. Orkestr repertuarini O‘zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari, jahon mumtoz musiqasi hamda zamonaviy asarlar bilan boyitdi.

2014-yilning oktyabr oyida ikki professional jamoalar negizida yagona o‘zbek xalq cholg‘ulari davlat Akademik orkestri tashkil etildi va bu jamoaga D.Mutalov rahbar etib tayinlandi. Ushbu orkestr hozirgi kunga qadar o‘z ijrochilik faoliyatini qizg‘in tarzda davom ettirib kelmoqda. O‘ylaymizki ushbu jamoa kelgusida o‘z yutuqlari bilan kashf etilmagan cho‘qqilarni zabt etadi.

Savollar:

1. Orkestrning uchinchi davrida qaysi dirijyor faoliyat olib bordi?
2. Orkestr yangi tarkib bilan ilk bor respublikamizdan tashqariga, ya’ni Qrimga nechanchi yil gastrol safariga borgan?
3. Orkestr nechanchi yilda Ukraina shaharlari bo‘ylab gastrol safarlarida bolgan?

4. Orkestr o‘zining 40 yillik yubileyini “Bahor” konsert zalida nechanchi yilda o‘tkazdi?
5. Orkestr qayerlarda gastrol safarlarida bo‘lgan?
6. T.Jalilov orkestri nechanchi yil “Davlat” maqomiga ega bo‘ldi?
7. Orkestr “Dunyo planetalari” nomli Butunittifoq festivalda nechanchi yil ishtirok etgan?
8. Orkestrning 75 yillik yubiley konserti qachon o‘tkazildi?
9. Orkestrga “Akademik” unvoni qachon berilgan?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 3 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrning gastrol safarlari yoki ijro repertuari haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar :

Birinchi vazifa, ijodiy uchrashuv, “Kiev bahori-80”, “Toshkentda oltin kuz”, asosiy yo‘nalish, “Dunyo planetalari”, “Xalq musiqa festivali”, “Manaviyat buloqlari”, 75 yillik yubiley.

Adabiyotlar:

1. Вызго Т., Петросянц А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 1962.
2. Кузнецова Г., Садыков Ф. Государственный оркестр народных инструментов имени Тухтасина Джалилова. - Т., 1990
3. Ташматова А. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных инструментах в Узбекистане. - Т., 1998.
4. Имханицкий М. Формирование оркестрового домброво-балалаечного и гармонико-баянного исполнительства // История исполнительства на русских народных инструментах. М., 2002 (147-158).

23-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida ko‘rsatilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, quyidagi vazifalarni bajaring:

1. T.Jalilov nomidagi orkestrning tashkil etilishi, ijodiy faoliyatidagi uch davri va ijro repertuari o‘rganing.

2. M.Bafoyevning T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.

3. H.Rahimovning T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.

4. A.Mansurovning T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tinglang va tahlil qiling.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun O‘zbekiston kompozitorlarining T.Jalilov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglang, tahlil qiling va o‘rganib chiqing.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta‘riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

24-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR.

2-joriy nazorat uchun yozma ishni tayyorlash va topshirish. O‘quv yili 2-semestrining 11 haftasi mobaynida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalaringizga tayanib 2-joriy nazorat (2-JN) haftaligi talabiga ko‘ra ijodiy ish sifatida tavsiya etilgan yozma ishni belgilangan muddatda sinov komissiyasiga **taqdim etishingiz lozim.** Yozma ishning sifati beriladigan bahoga katta ta‘sir ko‘rsatishini unutmang. Ustozlar mas-

lahatiga quloq tuting. Ko'rsatilgan kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring va yozma ishingizga zarur tuzatishlar kiriting.

Savollar:

1. O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri qachon tashkil etilgan?
2. O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestriga kim asos solgan?
3. Orkestrining ijodiy faoliyati necha davrga bo'linadi?
4. Orkestrning birinchi davrida qaysi dirijyor faoliyat olib borgan?
5. 1957 yilda orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori kim bo'lgan?
6. Orkestrga 1976 yildan – 2010 yilga qadar kim rahbarlik qilgan?
7. Orkestrga nechanchi yil To'xtasin Jalilov nomi berilgan?
8. T.Jalilov orkestri ilk bor Xitoy Respublikasiga nechanchi yili gastrol safariga borgan?
9. T.Jalilov orkestri nechanchi yil "Davlat" maqomiga ega bo'ldi?
10. Orkestrga "Akademik" unvoni qachon berilgan?

Quyidagi asarlardan birini tahlil qilib, yozma ravishda topshiring:

1. T.Qurbonovning "Qo'shchinor" asari.
2. H.Rahimovning "Qo'shtor" asari.
3. A.Mansurovning "Yangra doyra, jarangla!" asari.

25-DARS: DONI ZOKIROV NOMIDAGI DAVLAT XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING SHAKLLANISH SHART-SHAROITLARI

1957-yilning may oyida Toshkent radioeshittirish Bosh boshqarmasi qoshida oz'bek xalq cholg'ulari orkestri tashkil etildi⁵⁰.

⁵⁰ O'z.R.MDA (UFA) xujjatlari. Madaniyat vazirligi buyruqlari. №2487. Opis №1.

Orkestrga Yunus Rajabiy badiiy rahbar, Doni Zokirov bosh dirijyor etib tayinlandi. Orkestrning tarkibi ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib, jahon orkestrlari andozalariga xos boʻlgan cholgʻular hisobiga kengaytirilib borildi. Sekin-asta nay, qoʻshnay, sunray, chang, qashqar va afgʻon ruboblari, tanburlar, dutorlar, sato, doyra va gʻijjaklar oilasi qoʻshildi. Damli cholgʻular oilasini toʻldirish hamda orkestr tembrini boyitish maqsadida simfonik orkestrning kichik fleyta va goboy cholgʻulari jalb etildi.



Toshkent radioeshittirish Bosh boshqarmasi qoshidagi oʻzbek xalq cholgʻ xalq cholgʻulari orkestri. 1960 y.

Jamoaning koʻp ovozli orkestr sifatida shakllanishida D.Zokirovning hissasi katta. Jumladan, u rahbar va dirijyor sifatida tinimsiz mehnat qildi, maqsad sari muttasil intildi va, pirovardida jamoaning ijrochilik darajasini yuksaltirishga erishdi. Shu asnoda jamoa ham oʻziga xos ijrosi bilan koʻpchilikning eʼtiborini qozondi. Doni Zokirov nafaqat mohir sozanda, jonkuyar rahbar va mahoratli dirijyor, balki ijod sirlarini puxta egallagan serqirra kompozitor sifatida ham faoliyat olib bordi, oʻzi rahbarlik qilayotgan orkestr uchun maxsus asarlar yaratdi. Shuningdek, birinchilardan boʻlib turli xalqlarning kuy va qoʻshiqlarini orkestr

uchun qayta ishlab, uning ijro imkoniyatlarini kengroq yoritishga harakat qildi.

D.Zokirov boshqarayotgan orkestrning yutuqlaridan ilhomlangan G'.Qodirov, B.Zeydman, B.Meyen, I.Hamroyev, X.Izomov, B.Gienko, F.Nazarov, S.Hayitboyev, M.Nasimov va boshqa kompozitorlar ham shu jamoaga moslab asarlar yoza boshladilar. O'zbekiston kompozitorlari bilan birga bastakorlar ham jamoa ijrosiga oid bir qator asarlar yaratdilar. Xususan, N.Hasanov va B.Gienkoning "O'zbekiston" fantaziyasi va "Do'stlik" syuitasi, G'.Toshmatov va V.Zudovning xor va orkestr uchun "Yor-yor" qo'shig'i, S.Kalonov va B.Gienkoning "Kulib bergan saloming" romansi shular jumlasidandir.

1959-yili O'zbekiston radiosi qoshida maqomchilar ansambli tuziladi va unga Yu.Rajabiy rahbar etib tayinlanadi. Orkestrni boshqarish esa dirijyor va kompozitor D.Zokirov zimmasiga yuklatiladi. Orkestr bilan taniqli xonandalar – H.Nosirova va S.Yarashavlilar hamkorlik qila boshladilar. Shuningdek, jamoaga yakkaxonlar sifatida K.Ismoilova, M.Dadaboyeva, B.Davidova, X.Yusupova va F.Abdurahmonovlar jalb etildi. Orkestr yakkaxon va yakkanaovzlarga jo'rnavor sifatida ham katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Bastakorlardan G'.Toshmatovning "Mard yigitlar", D.Zokirovning "Ko'rmadim", K.Jabborovning "Diyorimsan", N.Hasanovning "To'ylaringiz muborak", S.Kalonovning "Topmadim" va "Dutorim" kabi ashulalari o'zbek radio eshituvchilari tomonidan qizg'in qabul qilinardi.

Professional mutaxassis sozandalar, jumladan, rubobchilar – Q.Usmonov, I.Mallayev, S.Taxalov, T.Rajabov, A.Boboxonov, shuningdek, naychi H.Jo'rayev, changchi A.Mutalov, g'ijjakchi sozandalar – T.Azimov va Q.Komilovlarning jamoaga kelib qo'shilishi orkestr ijrochilik saviyasini yanada oshirdi. Shu yillari jamoa birinchi marotaba konsert dasturlarini magnet tasmasiga yozishga muvaffaq bo'ladi. Bu jarayon mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgandan so'ng esa asarlar muntazam ravishda radio to'lqinlari orqali eshittirilishi odatiy bo'lib qolgan edi. Keyinchalik

esa televidenie orqali efirga chiqish imkoniyatiga ham ega bo‘lindi⁵¹.

Bu davrga kelib kompozitorlardan A.Kozlovskiy, I.Akbarov, H.Rahimov, A.Muhamedov, Sh.Ramazonov, R.Hamroyev va boshqalar orkestr repertuarini o‘zlarining turli janrlarda yaratgan asarlari bilan yanada boyitdilar. Ularning asarlari esa, asosan an’anaviy yo‘lda ijro etilgan, binobarin partituralar ham shunga moslashtirilgan edi. Partiturada ba’zi-bir belgilar o‘rin olgan bo‘lishiga qaramay, ijrochilar o‘z partiyalarini imkoniyatlari darajasida ijro etishardi. Bundan tashqari orkestr jamoasi tomonidan arab, afg‘on, eron va ozarbayjon xalq kuylari va qo‘shiqlari ham ijro etilgan⁵².

O‘sha davrdagi jamoa asosini an’anaviy ijrochilik maktabining yorqin namoyandalari – T.Alimatov (sato), S.Kalonov (nay), F.Sodiqov (chang), F.Toshmatov (g‘ijjak), H.Ubaydullayev (qo‘shnay), M.Yusupov (dutor) kabi san’at darg‘alari tashkil etgan. Bu sozandalar faqatgina orkestrdagi ijod bilan shug‘ullanmay, balki musiqa bilim yurti va konservatoriyaning iste’dodli talabalarini kasbiy ijrochilik sohasiga ham tayyorlagan edilar.

Shu paytlarda radio orkestrining oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalaridan biri – milliy ijrochilik an’analarini yangi uslubda rivojlantirishdan iborat bo‘lgan. Shu bois konsert dasturining asosiy qismini tashkil etgan o‘zbek xalq kuylari ansambl ijrochiligi uslubida emas, balki orkestr ijrosiga mos shaklda garmoniyalashtirilgan edi. Shu bilan birga orkestrning konsert dasturidan O‘zbekiston kompozitorlarining aynan shu jamoa uchun yozgan asarlari ham keng o‘rin olgan bo‘lsada, ammo talqin masalasida sozandalar orkestr ijrosini an’anaviy ansambl ijrosiga yaqinlashtirishga intilishlari sezilarli edi.

O‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarining katta bilimdoni D.Zokirov qaysi namunani orkestr uchun moslashtirmasin, albatta asosiy kuy va ovoz uyg‘unligiga alohida e’tibor bergan hamda asarning

⁵¹. Muallifning X.Izomov bilan 1990-yil 22-martda bo‘lgan suhbatidan yozib olingan.

⁵² Muallifning orkestr sozandasi R.Ibragimov bilan 1990-yil 25-aprelda bo‘lgan suhbatidan.

sifatini belgilovchi o‘ziga xos bezak va buyoqlarni bo‘rttirib ko‘rsatishga intilar edi. Shu bois ham orkestr ijodiy uslubining ilk shakllanishida D.Zokirovning hissasi cheksizdir. Shubhasiz, u birinchilardan bo‘lib xalq qo‘shiq-kuylari va mumtoz musiqa namunalari orkestrga moslashtirish bilan bir qatorda jamoa uchun maxsus asarlar ham yaratishga astoydil kirishgan edi.

Jumladan, 1962-yili D.Zokirov tomonidan qayta yaratilgan “Yovvoyi Chorgoh” asari orkestr ijrochiligining yangi qirralarini ochib berdi. Bunda, avvalo orkestr tarkibida qo‘llangan quyidagi cholg‘ular nisbati e‘tiborlidir: nay pikkolo, nay-I-II, qo‘shnay-I-II, surnay, chang -I-II, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, dutor bas, dutor kontrabas, doyra, sato, g‘ijjak-I-II, g‘ijjak alt, g‘ijjak bas va g‘ijjak kontrabas. D.Zokirov ushbu partiturani yaratishda har bir cholg‘uning yakka ijrosini alohida ifodalash bilan bir qatorda turli cholg‘ularning uyg‘unlikdagi ijro imkoniyatlarini ko‘rsatishga harakat qilgan. Muhimi, turli xil cholg‘u oilalarining birgalikdagi unison ijrosi o‘laroq, o‘zbek milliy kuylarining an‘anaviy ijrochiligiga xos tamoyil, ya‘ni asarni boshidan oxirigacha kuy ustivorligi o‘z kuchini saqlab qolgan.

Misol sifatida “Yovvoyi Chorgoh”ning asosiy kuy-mavzui bayonini keltiramiz. Bunda dastlab g‘ijjaklar ijrosida boshlangan mavzu (3-8 tt.) o‘ziga xos taqlidiy polifonik ko‘rinishda ilk rivojlanadi (g‘ijjak alt, qashqar va afg‘on ruboblari - 8-9, 11tt., g‘ijjak bas va g‘ijjak kontrabaslar - 9-12 tt.) hamda tayanch “re” pardasiga qaytib nisbiy tugal holga keladi:

Andante

The musical score is for the piece "Yovvoyi Chorgoh" in Andante tempo. It features six staves, each representing a different instrument: Kashkar rubob, Afg'on rubob, G'ijjak I, G'ijjak II, G'ijjak alt, and G'ijjak k. bas. The key signature has one flat (B-flat) and the time signature is 2/4. The score shows a polyphonic texture where the instruments play similar melodic lines in unison. Dynamic markings include *p* (piano) for the rubob parts and *p* for the g'ijjak parts. The score ends with a double bar line and repeat dots.

Darhaqiqat, kompozitor an'anaviy ansambl ijrochiligi uslubini orkestrda o'zgacha qo'llaydi: bir cholg'u o'rnini cholg'ular guruhi, ansambl jo'rnavozligini esa ko'p ovozli orkestr bilan almashtiradi. Bularning barchasi, asarning milliy xususiyatini yo'qotmagan holda, sozandalarni ko'p ovozli musiqani teran idrok ila ijro etishlari uchun amalga oshirilgan.

Partitura oddiy yozilishidan qat'iy nazar, orkestrning ijro talqini bilan bog'liq ba'zi muammolar ham yuzaga kelgan edi. Unison shaklidagi ijro asosida tarbiyalangan sozandalarga turli partiya va ovozlar (yakkanavozlik, jo'rnavozlik, pedal tovushlari va o'lchov o'zgarishlari) ni ijro etish ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirgan. Bu hol ayniqsa sozandalarning ijro paytida bir-birlarini tinglay olishlari yohud asarda muhim o'rin berilgan yakkanavoz partiyalariga alohida e'tibor berishlari talab etilgan paytlarda sezilarli edi.

Shu bois D.Zokirov mashg'ulotlar davomida har bir ijroviy nuqson ustida alohida ishlashga, orkestr guruhlarining ijrodagi muvozanatini muqobillashtirishga ko'proq urg'u berar, pirovardida esa, asarning badiiy mazmunini to'la-to'kis ifodalashga harakat qilardi. Boshqacha aytganda, orkestrning yalpi hamda alohida cholg'u guruhlarining birdek aniq va ifodali yangrashiga erishish maqsad qilingan. Shu talablar o'laroq ijrochilik saviyasi yuksalgan orkestr jamoasi, jumladan, "Yovvoyi Chorgoh" asarini maromiga etkazib ijro etishga muvaffaq bo'lgan edi.

Orkestr uchun qayta ishlangan "Jazoir" kuyida esa D.Zokirov shiddatli tezlik sur'ati orqali orkestr va har bir cholg'u guruhining ijrochilik mahorati va imkoniyatlarini, shuningdek, o'zbek xalq

cholgʻularining turfa va rang-barang tembrlarga benihoya boyli-gini namoyon etadi. Shuning uchun boʻlsa kerak, bu asar hozirgi kunga qadar oʻz qiymatini yoʻqotmay konsert dasturlarida doimiy ravishda ijro etilib kelinmoqda.

Doni Zokirovning orkestr uchun yaratgan har bir asari oʻziga xos tarzda va betakror ohanglarda yangraydi. Kompozitorning oʻsha davrda jamoa uchun maxsus yozgan asarlaridan biri – uygʻur xalq aytimlarining kuylari asosida yaratilgan (1962) “Uygʻur-cha fantaziya”sidir. Nay pikkolo, nay-I-II, goboy, qoʻshnay-I-II, surnay, chang-I-II, qashqar va afgʻon ruboblari, tanbur, dutor, dutor bas, dutor kontrabas, doyra, safoil, sato va gʻijjaklar oilasi uchun ijod etilgan aslida bir qismli bu asar oʻzida toʻrt qismli turkum xususiyatlarini mujassam etadi.

Shunga koʻra har bir qism alohida kuy mavzui, oʻlchovi va xarakterli obrazlari bilan tavsiflanadi. Jumladan, toʻrt hissali oʻlchovda bayon etilgan mayin ohangli birinchi qism (Andante) kuy-mavzui oʻziga xos qissa tarzida yangrasa, ikkinchi qism mavzui (7-raqam, Andantino) jonli oʻynoqi raqs usulida, uchinchi (12-raqam, Allegretto) shoʻx va jadal surʻatda joʻshqin raqs koʻrinishida, va, nihoyat yakuniy toʻrtinchi qism (26-raqam, Allegro) shiddatli surʻatda oʻz aksini topgan mavzu bilan nihoya topadi.

D.Zokirov bu asarda uygʻur folkloriga xos musiqiy vositalar (jumladan, sinkopali usul)dan samarali foydalangan. Shuningdek, ikkinchi qoʻshiqda uygʻur xalq musiqasi uchun xos boʻlgan pentatonikani unumli qoʻllagan. Pirovardida, turkumdagi har bir aytim kuyi oʻziga xos xususiyatlari bilan tinglovchilarda katta taasurot qoldirgan. Oʻz oʻrnida ushbu asarning mohirona ijro etilishi orkestr sozandalarining ijrochilik malakasini yanada yuksalishiga xizmat qilgan edi.

“D.Zokirov oʻz asarlarida rus va gʻarbiy Yevropa simfonik musiqasida qoʻllaniladigan uslublarni milliy anʼanalarga muvofiq holda ishlatadi”⁵³. Mavzuning polifonik rivoji, oʻlchovlarning tez-tez almashinuvi, asosiy mavzuning bir cholgʻudan ikkin-

⁵³ Вызго Т. Музыка для оркестров узбекских народных инструментов.// История узбекской сов. музыки. - Т., 1973. П,т. с.363.

chisiga o‘tishi sinkopali ostinato usuli hamda soloning bir qancha funksiyalar bilan birgalikda ijro etilishi orkestr uchun o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. D.Zokirov mashg‘ulot paytida texnik qiyinchiliklarni sozandalar bilan yengib chiqib, orkestr imkoniyatidan unumli foydalangan holda, asar uchun xarakterli bo‘lgan ohanglarni izlab topadi.

Shu tariqa orkestr jamoasi tashkil topgan kundan boshlab 1960-yillarning oxiriga qadar ko‘p ovozli musiqani ijro etish ko‘nikmalarini egalladi, haqiqiy orkestr ijrosiga xos musiqiy “til”ni o‘rgandi. Boshqacha aytganda, jamoa qayta ishlangan o‘zbek xalq kuylari bilan bir qatorda turli janrdagi kompozitorlik asarlarini ham ijro etish salohiyatiga ega bo‘ldi.

Yillar davomida orkestr tarkibi professional tarzda tarbiyalangan sozandalar hisobiga kengaydi va mustahkamlandi. Malakali sozandalarning kelib qo‘shilishi orkestr ijro mahoratining o‘shishiga yordam berdi. Ijro etiladigan asar mazmunini sirli tayoqcha orqali ifodalab beruvchi, hamda jamoani badiiy jihatdan boshqarib boruvchi dirijyor vazifasi ham aniqlandi. Orkestr ijrochisi bo‘lgan har bir sozanda muayyan bir asarni o‘zicha alohida emas, balki dirijyor yordamida va bir-birini tinglagan holda ijro etish ko‘nikmalariga ega bo‘ldi. Natijada milliy cholg‘ulardan tashkil topgan ko‘p ovozli va rang-barang tembrli orkestr vujudga keldi.

1970-1980-yillar O‘zbekistonda musiqa ijrochilik san’atining doirasi sezilarli darajada kengayganligi, ijrochilik amaliyotining faollashganligi va yangi musiqiy shakllar hisobiga keskin rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Bundan orkestr ijrochiligi ham mustasno emas. Ushbu davrda jamoa oldida turgan muhim masalalaridan biri – bu orkestr tarkibini zamon talabiga mos ravishda yangilash va kengaytirishdan iborat edi. Ayniqsa, yosh ijrochi mutaxassislarning jamoaga kelib qo‘shilishi orkestrning yangicha ijro yo‘nalishlarida irod qilishiga imkon yaratdi.

Bu davrda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri oldida turgan vazifalar – yangi va yirik shakldagi asarlarni o‘zlashtirish, kompozitorlarning zamonaviy asarlarida qo‘llanilgan mavzu va texnik uslublarni egallash hamda orkestr jamoasi ijrochilik mahoratini

o‘stirishdan iborat edi. Orkestr jamoasining maqsadi ham zamonaviy ijro uslublari va vositalaridan keng foydalangan holda aleatorika unsurlarini an’anaviy ijro bezaklari bo‘lgan nola va qochirimlar bilan badiiy uyg‘unlikda ifodalab, kompozitorning bosh g‘oyasini batafsil yoritib berishga qaratilgan edi.

Orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyor D.Zokirov jamoaga 1980-yilgacha rahnamolik qilib, o‘zbek an’anaviy talqiniga xos ijroni rivojlantirdi. Orkestr bilan olib borilgan ko‘p yillik amaliy faoliyati va xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlarini yaxshi bilganligi tufayli u orkestrning yangi ijrochilik qirralarini ochishga muvassar bo‘ldi. D.Zokirovning tinglovchilar orasida mashhur bo‘lgan to‘rt qismli “Syuita” (1974), “Bayram marshi” (1974) va qayta ishlagan “Mirzadavlat” (1979) cholg‘u asarlari ko‘povozli orkestrning rang-barang tembr va boy ijro imkoniyatlarini keng namoyon etadi.

1980-yili orkestrga rahbar etib saylangan T.Hasanov jamoa tarkibiga ayrim o‘zgartirishlar kiritib boshlaydi. Jumladan, yangi rahbar orkestr ijro uslubini filarmoniya qoshidagi orkestrga yaqinlashtirish istagida radio orkestriga dutor sekunda va g‘ijjak altlarni qo‘shadi, damli va bas guruhlarini ko‘chaytiradi. Surnay va nay pikkolo cholg‘ularini goboy, klarnet va ikkita fleyta pikkolo bilan almashtiradi. Zarbli cholg‘ular guruxiga litavra, tarelka va treugolnik (uchburchak)ni kiritadi. Torli-chertma cholg‘ularni kamaytirish evaziga esa torli-mizrobli va torli-urma cholg‘ularni ko‘paytiradi.

D.Zokirov orkestrida dutor prima va rubob prima cholg‘ularining yo‘qligi jamoada ijro etiladigan kuylarning milliy ruhini yorqin ifodalash bilan izohlangan edi. Rubob prima cholg‘usi qashqar rubobi diapazonidan bir oktava baland eshitiladigan metsso-soprano rubobi bilan almashtiriladi. Radio orkestri tarkibiga dutor altdan tashqari an’anaviy dutor va an’anaviy tanbur kiritilgan bo‘lib, ular faqatgina yakkanavoz cholg‘u sifatida ishlatishga mo‘ljallangan edi.

Radio orkestri tarkibida ijrochilik talabidan kelib chiqqan holda, o‘rta registrga ega bo‘lgan cholg‘ular juda ko‘pchilikni tashkil

etgan. Chunki bu cholgʻular ijro etiladigan asarlarning milliy xususiyatlarini ifodalashga qoʻl kelgan. “Orkestr guruhlarining bir necha variantlarini sinab koʻrib, jamoa murakkab asarlarni ijro eta oladigan, registr va texnik imkoniyatlari oʻzaro teng kela oladigan guruhlardan tashkil topgan koʻp ovoqli orkestrga kelib toʻxtadi”, - deb yozgan R.Xoʻjaev⁵⁴.

Radio orkestrining oʻziga xos xususiyati - bu doimo yakkanxonlar va yakkanavozlar bilan hamkorlikda ijod qilishi va ularning qoʻshiq va kuylarini orkestr joʻrligida magnet tasmaiga yozishlaridadir. Diqqatga sazovor joyi shundaki, xonandalar ashula va qoʻshiqlarni anʼanaviy uslubda, yaʼni, nola va qochirimlar bilan kuylaydilar, orkestr esa ularga nota orqali joʻr boʻlardi.

Orkestr yakkanavozlarida ham ijrodan tashqari oʻz jamoalari uchun koʻplab qoʻshiqlar, cholgʻu kuylari bilan birga yirik shakldagi asarlarni yaratishga intilishlar paydo boʻldi. Mana shunday ijodiy shaxslardan biri, orkestr sozandasi Q.Komilov edi (gʻijjak). U koʻp sonli qoʻshiqlar, cholgʻu kuylari va yirik shakldagi asarlar muallifidir. Yakkanavozlar – H.Joʻrayev⁵⁵ (nay) va Q.Usmonov (qashqar rubobi)lar ham shular jumlasidandir.

D.Zokirov nomidagi orkestrning ijodiy faoliyati 1986-yili yangi badiiy rahbar va bosh dirijyor M.Bafoyev kelishi bilan yangicha tus oldi. Isteʼdodli kompozitor va mohir dirijyor M.Bafoyev 15 yil davomida orkestrga munosib ravishda rahbarlik qildi. Mustafu aka ishni avvalo repertuarni saralashdan boshladi. Jamoa Oʻzbekiston kompozitorlari ijodi bilan birga mustaqil davlatlar hamdoʻstligi kompozitorlarining yirik asarlariga murojaat etadi. A.Boboyevning “Poema-rapsodiya”, U.Xojibekovning “Fantaziya” (I-II qismlar), F.Amirov va G.Nazarovalarning Fortepiano va orkestr uchun “Konsert”, S.Aleskerovning Tor va orkestr uchun “Konsert”i shular jumlasidandir.

⁵⁴ Р.Ходжаев. Становление и развитие оркестра народных инструментов узбекского радио и телевидения. // Проблемы теоретического музыкознания в Узбекистане. - Т., 1976, с 197.

⁵⁵ H.Joʻrayev ijodi haqida A.Tashmatovanning Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholgʻulari orkestri nomli Monografiyasida batafsil maʼlumot berilgan. 51-53 betlar.

M.Bafojevning aynan shu jamoa uchun yaratgan turli janr va shakllardagi maxsus asarlari orkestr ijodiy hayotiga yangi mazmun olib kirdi. Sozandalarning zamonaviy ijrochilik san'atining yangi qirralari bo'lmish talaffuz va lad tuzilishi hamda polifonik rivojlanish haqidagi tasavvurlarini oshirdi. Keng qamrovli kompozitor o'zining yaratgan yirik shakldagi rang-barang asarlari bilan jamoa repertuarini boyitdi, ijrochilar dunyoqarashini kengaytirdi, ularda yangi mazmunga ega bo'lgan zamonaviy ijro uslublarni ifoda etish ko'nikmalarini hosil qildi.

So'nggi yillarda orkestrning repertuaridan F.Alimovning "Poema"si⁵⁶, T.Qurbonovning "Poema"si va "Afg'oncha poema"si, M.Bafojevning Qashqar rubobi va orkestr uchun "Poema"si, M.Yusupovning "Konsert-rapsodiya"si, N.G'iyosovning "Konsert" kabi yirik shakldagi asarlar muhim o'rin egallay boshladi.

Shu jamoa uchun maxsus yozilgan asarlardan yana biri – Qahramon Komilovning "Bir siqim tuproq" nomli poemasidir. Vatan va tarixiy obidalar madh etilgan bu asar 1989-yili ovoz, badiiy o'qish va xalq cholg'ulari orkestri uchun yozilgan. Qo'shiqni xonanda Tursunboy Parpiyev kuylaydi (she'r muallifi Z.Obidov). Badiiy o'qish Ubay Burxon tomonidan amalga oshirilgan⁵⁷.

Ushbu davrda O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi jamoa asosiy maqsadi bo'lgan yuqori saviyadagi ijrochilik mahoratiga erishish uchun butun kuch-quvvatini sarf etadi. Orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori ayrim cholg'ular va ular guruhlarining tembr sifatlarini yaxshilash, ijro mahoratlarini takomillashtirish imkoniyatlarini astoydil qidiradi. Ayni paytda, orkestr juda yaxshi ijodiy saviyada edi. Bunga H.Jo'rayevning "Poema-rapsodiya", M.Bafojevning Qashqar rubobi va orkestr uchun "Poema" va "Konsert", F.Alimovning "Poema"si va T.Qurbonovning "Poema"si kabi turli janrdagi asarlarining muvaffaqiyatli ijro etilishi dalolatdir.

⁵⁶ Ushbu asarlar haqida batafsil ma'lumot A.Tashmatovanning Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri nomli Monografiyasida berilgan, 59-61 betlar

⁵⁷ O'sha manba. 62-66 betlar.

Katta va murakkab hayot yoʻlini bosib oʻtgan orkestr jamoasi ijodiy yetuklik darajasiga erishdi. Endilikda orkestr repertuaridan cholgʻu musiqasining kichik miniatyurasidan tortib, to yirik shakldagi kompozitorlik ijodiyotining turli shakl va janrlariga xos boʻlgan asarlari joy oldi. D.Zokirov nomidagi orkestr tanlagan yoʻl toʻgʻri va haqqoniy ekanligi uning badiiy sermahsul ijodi orqali ham oʻz aksini topgan edi. Jamoa yana bir bor oʻz faoliyatini davom ettirish huquqiga ega ekanligini isbotladi va oʻzbek musiqa madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Shuningdek, televidenie va radio orqali konsert dasturlarini namoyish etish, radio va televidenie “oltin fondi”ga asarlar yozish, Oʻzbekiston kompozitorlarining yangi asarlarini ijro etish, gastrol safarlari, abonement konsertlari, yangi konsert mavsumining ochilishi, davlat miqyosidagi katta-katta tadbir va taqdimotlarda ishtirok etishi bilan oʻzining serqirra musiqiy ijrochilik amaliyotini namoyon etdi.

Orkestr oʻzining boshlangʻich davrida qayta ishlangan oʻzbek xalq kuylari, Oʻzbekiston kompozitorlarining qoʻshiqlari va kichik shakldagi asarlarni ijro etgan boʻlsa, keyingi davr, yaʼni 1970-80-yillarda esa yirik shaklda va turli janrda yozilgan musiqiy asarlarni muvaffaqiyat bilan ijro etish saviyasiga erishdi. Shu yillar davomida jamoa sermahsul va samarali faoliyat koʻrsatdi. Jamoaning bosib oʻtgan muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yoʻlini quyidagi uch yoʻnalishga boʻlish mumkin:

1. Mukammal asarlarni radioning oltin fondiga yozish (150 daqiqa 1 yilda)

2. Ijodiy faoliyatini televidenie orqali keng tinglovchilar ommasiga namoyish etish (40 daqiqadan 15 ta koʻrsatuv 1 yilda).

3. Ijodiy uchrashuvlar, yubiley konsertlari, konkurslarda ishtirok etish, zavod, fabrika va turli tashkilot hamda oʻquv yurtlaridagi tadbirlarda qatnashish, ochiq konsertlar (7 ta - yil davomida)⁵⁸.

1989-yil orkestr tarixida unutilmas sana boʻlib qoldi. Chunki, shu yilning 16-yanvarida jamoaga ushbu orkestrning tashkil eti-

⁵⁸. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividan, 1989 yil.

lishi va rivojlanishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan san’atkor O‘zbekiston xalq artisti Doni Zokirov nomi berildi⁵⁹. Shu bilan birga jamoaning ikki sozandasi va bastakori – Halimjon Jo‘rayev va Qobul Usmonovlar ham “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoniga sazovor bo‘ldilar. Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilgan bu e‘tibor ularni yanada sermahsul ijod qilishga undadi.

Savollar:

1. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri qachon tashkil etilgan?
2. Orkestrning asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Orkestrga D.Zokirov nomi qachon berildi?
4. Orkestr tarkibi necha guruhdan iborat?
5. D.Zokirov tomonidan orkestr uchun ilk qayta ishlangan o‘zbek xalq kuyini bilasizmi?
6. D.Zokirovning orkestr uchun yaratgan birinchi asari qanday nomlanadi?
7. 1989-yilda orkestrning qaysi sozandalariga “O‘zbekistonda xizmat korsatgan artist” unvoni berilgan?
8. 1986-yildan boshlab orkestrga kim rahbarlik qilgan?
9. 2002-yildan-chi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 3 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrning ijro repertuari bilan tanishib chiqing.

Tayanch iboralar:

Yangi uslubda rivojlantirish, “Yovvoyi chorgoh”, “Uyg‘urcha fantaziya”, yangicha ijro, “Bir siqim tuproq”, unutilmas sana.

⁵⁹ Sobiq O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 21-sonli Qarori (1989).

Adabiyotlar:

1. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri. - T., 2015.
2. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. - T., 2004.
3. Vizgot., Petrosyans A. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri.- T., 1962.
4. Керимов К. Оркестр азербайджанских народных инструментов. - Баку., 1959.

26-DARS: DONI ZOKIROV NOMIDAGI DAVLAT XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING YANGI IZLANISHLAR DAVRI.

O'zbekiston kompozitorlarining 1990-yillarda yaratgan aksariyat asarlarida ma'naviy tiklanish g'oyasi ilgari surilgan edi. Shu bois ham bu asarlarda ko'proq o'tmish manbalariga, xalq qahramonlariga murojaatlar, Vatanga bo'lgan muhabbat kabi mavzularning ustivorligi kuzatiladi. Bu jarayon M.Bafojev, T.Qurbonov, F.Alimov, Q.Komilov kabi kompozitorlarning asarlarida o'z ifodasini topganligini e'tirof etish lozim. O'z navbatida, bunday urinishlar musiqa ijodiyotida yangi shakl va janrlarni yuzaga keltirdi.

Yangi shakl va janrlardagi asarlar esa, tabiiyki, ijrochilik san'ati oldiga yangi vazifa va maqsadlarni qo'yadi. Oldingi asarlarda orkestrning to'la ijrosi ko'proq qo'llanilgan bo'lsa, so'nggi paytlarda kompozitorlar orkestrdan unumli foydalanib, aniq maqsad sari turli guruhlarni qo'llaydilar. Aniqrog'i, yangi mavzu, yangi tembr va yangi ijroviy uslublarni keng joriy etmoqdalar. Xalq cholg'ulari orkestrining xor jamoasi bilan hamkorligi ham yangi tembr va yangi bo'yoqlarni kashf etilishiga sabab bo'ldi. Xorning xalq cholg'ulari orkestrida turli ko'rinishda (asosiy yoki jo'rnavoz va "fon" sifatida) ishlatilishi esa betakror, serjilo ohanglar va

tembrlarni taratadi. Kompozitorlarning zamonaviy asarlarida impressionizm an'analariga tayanish tamoyili ham yaqqol sezilib turadi. Chunki ramziy ma'no kasb etuvchi turli ladlar, rang-barang bo'yoqlar uyg'unligi orkestr ijrosida behisob zamonaviy jozibalar mujassam bo'lishiga va yangidan yangi ijrochilik imkoniyatlari kelib chiqishiga ham sabab bo'lmoqda.

Binobarin, 1990-yillarni O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotida turli san'at va janrlarning o'zaro uyg'unlashuvi ustivor bo'lgan davr sifatida e'tirof etish mumkin. Bunga M.Bafojevning "Nodira" telebaleti va "Buxoroi-Sharif" teleoperasi hamda Q.Komilovning "Ozod Vatan" oratoriyasi misol bo'la oladi. Oratoriya janriga murojaat qilish 90-yillarda tabiiy holga aylangan bo'lsa, telebalet va teleopera janrlarining yuzaga kelishi xalq cholg'ulari orkestri ijrochiligi tarixida yangilikdir. Teleopera va telebalet orqali orkestr dramatik funksiyalarni bajarishga ham jalb etildi. Shu bilan birga epik shakldagi qahramonlarni ham ta'riflab berdi.

Bunday asarlar xalq cholg'ulari orkestrida azaldan muammo bo'lib kelgan repertuar masalasini ma'lum darajada hal qilishga, qolaversa, orkestr ijroligini keng ommalashishiga ham ko'mak berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Nodira" telebaleti, "Buxoroi-Sharif" teleoperasi, "Bir siqim tuproq" poemasi va "Ozod Vatan" oratoriyalari orkestr ijrosiga xos go'zal an'analarni o'zida mujassam etgan, milliy ruh bilan yug'irilgan yoqimli tarannumga ega asarlardir.

Buning natijasida orkestr ijrosida bir qancha yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Buni ikki asosiy yo'nalishga bo'lishimiz mumkin. Birinchi yo'nalish Yevropa san'atida qaror topgan janr va shakllarning milliy mavzular bilan uyg'unlashuvida, ikkinchisi esa har xil ijro yo'lidagi badiiy jamoalarning birgalikdagi ijrosida kuzatiladi. Birinchi yo'nalishga, masalan, M.Bafojevning "Buxoroi-Sharif" teleoperasi, "Nodira" telebaleti, Q.Komilovning "Ozod Vatan" oratoriyasi kabi asarlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ikkinchi yo'nalishda, M.Bafojevning Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan "Buyuk ipak yo'li" shou

musiqali asarida simfonik orkestr bilan birga chang-qovuz, ud, qonun, nay, nog'ora, doyra kabi o'zbek xalq cholg'ularining ishlatilishini, "Buxoroi-Sharif" teleoperasida esa o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibiga fortepiano cholg'usining kiritilishini, K.Komilovning besh qismli "Ozod Vatan" oratoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri simfonik orkestrning kamonli cholg'ular guruhi va xor jamoasi bilan birgalikda ijro etishini ko'ramiz. Qolaversa, orkestr jamoalari teatrlashtirilgan ommaviy sahnalarda ham ishtirok etmoqdalar. Ana shunday asarlarni yaratayotgan va ularni keng xalq ommasiga yetkazib berishda orkestr bilan faol ish olib borayotgan ijodkorlardan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori M.Bafoyevdir.

Musiqqa ijodiyotiga xos janrlarning barchasida M.Bafoyev qalam tebratgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. U qaysi janrda ijod qilmasin, asarning katta-kichikligidan qat'iy nazar, asosiy e'tiborini uning shakliga emas, balki mazmuniga jalb etadi. Shu bois ham uning asarlarini tinglaganda, darhol milliylik ruhi sezilib turadi. M.Bafoyev o'z bastakorlik mahorati bilan yevropacha shakllarni Sharqona mazmun bilan uzviy bog'laydi, ya'ni yevropacha madaniyatni Sharq madaniyati bilan chambarchas bog'lash natijasida ajoyib asarlar yaratilishi mumkinligini o'z ijodi orqali isbotlaydi.

Vatan, tarixiy voqealar, tarixiy qahramonlar, buyuk shaxslar va tarixiy obidalarni madh etuvchi qator asarlarning yaratilishi shular jumlasidandir. Mana shunday asarlardan biri M.Bafoyevning bir pardali "Nodira" telebaletidir. Tarixiy shaxslarni madh etuvchi ushbu asar Yulduz Ismatova librettosi asosida 1992-yilda yozilgan. Asar mazmuni quyidagicha:

Umarxon saroyida shoira Uvaysiy yashaydi. U saroydagi kanizaklarga, ya'ni qizlarga she'r yozishni, o'qishni kattalar bilan muomala qilishni o'rgatadi. Ular ichida Nodira degan qiz shoh Umarxonni sevib qoladi va istirobda yashaydi. U she'rlar yozib shoh huzuriga kiradi. Shoh uni bir, ikki, uch marotaba qaytaradi. Mening she'rlarim unga yoqmas ekan, men shoira bo'la

olmayman deb kuyinadi. Ustozi Uvaysiy unga dalda beradi va o‘z maslahatlari bilan kuch bag‘ishlaydi. Nodira yana ilhomlanib she’r yozadi va nihoyat Umarxonga uning she’rlari yoqib qoladi. U Nodiraga nisbatan muloyim bo‘ladi. Xullas, ular ikkovlari til topishadi va nihoyat ularning to‘ylari bo‘ladi. To‘ydan keyin esa Nodira irodali mardonovor xarakterda bo‘ladi. Shoh esa oldingi shahdidan pasaygan, lekin Nodiraga hurmat ila muomalada bo‘ladi. Nodira birdan oldingi davrini eslaydi va asar boshida yangragan lirik mavzu bilan telebalet yakunlanadi⁶⁰.

D.Zokirov orkestri uchun maxsus yaratilgan asarlardan yana biri bu M.Bafojevning Xurshid Davron librettosi asosida ijod etgan “Buxoroi-Sharif” teleoperasidir. Buxoroning 2500 yilligiga bag‘ishlangan mazkur asar ikki doston va yigirma ikki naqshni o‘z ichiga oladi. Teleopera ilk bor 1997-yili Buxoro shahrining yubileyiga bag‘ishlangan konsertda lavhalar tarzida ijro etilgan. O‘zbekiston televideniesining “Yoshlar telekanali” fondida shu asar asosida suratga olingan ikkita videofilm mavjud. Lekin ularga faqat ayrim naqshlarga kiritilgan, xolos.

M.Bafojev xalq cholg‘ulari orkestri uchun birinchi bo‘lib teleopera va telebalet yozgan izlanuvchan ijodkordir. Uning doston janriga xos badiiy xususiyatlar bilan ishlangan “Buxoroi-Sharif” teleoperasi asosan konsertlarda va videofilmlarda namoyish etiladi. Teleoperaning bosh qahramoni baxshi bo‘lib, u asarni boshlab beradi hamda birin-ketin kelgan qismlarni bir-biri bilan o‘zaro bog‘lab boruvchi “ko‘prik” vazifasini bajaradi. Birinchi doston Buxoroning tarixi, uning tarixiy obida va yodgorliklariga bag‘ishlangan. Ikkinchisida esa Buxoroda ijod etgan tarixiy shaxslarning yorqin siymolari madh etiladi.

Teleoperada dostonchi, badiiy o‘qish ustasi, orkestr, xor, yakxaxon xonanda va sozandalar ishtirok etadilar. Partitura xalq cholg‘ulari orkestrining katta tarkibiga mo‘ljallab yozilgan. Orkestr ohanglarini yangi buyoq va o‘zgacha tembr bilan boyitish maqsadida fortepiano cholg‘usi kiritilgan. Shuningdek, u kompozitor

⁶⁰ A.Tashmatovanning Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri nomli Monografiyasida asar haqida batafsil ma’lumot berilgan. 77-84 betlar.

tasavvur etgan cholgʻularning oʻrnini ham toʻldiradi. Har bir xonanda esa maʼlum bir qahramon yoki tarixiy shaxsni madh etadi va koʻz oʻngimizda oʻsha obraz gavdalanadi. Birinchi doston – toʻq-qizta, ikkinchisi – oʻn uchta naqshdan iborat⁶¹.

Qahramon Komilovning “Ozod Vatan” oratoriyasi 1999-yili shoir Muhammad Ali soʻziga yozilgan. Besh qismdan iborat boʻlgan asar quyidagicha nomlangan: Birinchi qism “Ozod Vatan”, ikkinchi qism “Otabek”, uchinchi qism “Fitrat”, toʻrtinchi qism “Choʻlpon qoʻshigʻi” va beshinchi qism “Ozod Vatan”. Oratoriya xalq cholgʻulari orkestri, xor, yakkaxonlar, dutorchi qizlar ansambli va estrada simfonik orkestrining kamonli cholgʻular guruhi ishtirok etadi.

Birinchi qismda muallif Amir Temurning harbiy yurishlarini ifoda etishga harakat qilgan. Ikkinchi qism A.Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” romani qahramoni “Otabek” haqida boʻlib, u Kumush bibi vafotidan soʻng, rus bosqinchilariga qarshi kurashish uchun Turkistonga yoʻl oladi. Shu yerda qoʻshin toʻplab, jangga otlangani ifodalanadi. Uchinchi qism “Fitrat” deb nomlangan. Bu qismda muallif taniqli maʼrifatparvar shoir Abdurauf Fitrat hayotini ifodalashga harakat qiladi. Fitrat Toshkentda qahramonlarcha mustaqillik uchun kurashgan shaxslardan biridir. Uning niyatlari amalga oshmaganligi tufayli alamli isyonda oʻtib ketadi. Bu asarda muallif Fitratning naqadar oʻz yurtiga, oʻz Vataniga sadoqatli ekanligini, Vatan deb jon berish unga yorugʻ yoʻl ekanligini ifodalaydi. Toʻrtinchi qism – “Choʻlpon qoʻshigʻi”dir. Choʻlpon sheʼrlari mazmunidan kelib chiqqan holda Muhammad Ali ularni davom ettiradi. Shoirning oʻsha davrda qilgan orzu umidlari shu kunda amalga oshgani oʻzbek halqining baxtidir. Beshinchi qism, “Ozod Vatan” asarning yakuniy qismidir. Bu qismni Qahramon Komilov mustaqilligimizning sakkiz yilligiga bagʻishlab yozgan⁶².

⁶¹. Bu asar haqida A.Tashmatovanning “Buxoroi-Sharif” nomli oʻquv-uslubiy qollanmasida batafsil maʼlumot berilgan.

⁶² A.Tashmatovanning Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholgʻulari orkestri nomli Monografiyasida asar haqida batafsil maʼlumot berilgan. 86-94 betlar.

2000-yillarning boshida O‘zbekiston teleradiokompaniyasi Badiiy jamoalar direksiyasi qoshidagi Doni Zokirov nomli Davlat xalq cholg‘ulari orkestri yangi ijodiy dovon sari intilayotgan jamoa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda Botir Rasulov, Jo‘ra Ortiqov, Dilshod Mutalov kabi bir qator dirijyorlar orkestr faoliyatini davom ettirish uchun ko‘maklashdilar. Ular o‘z ish tajribalari, dirijyorlik texnikasi, orkestrni boshqarish malakasi va har biri o‘ziga xos ijro talqinlari bilan sozandalar ijro mahoratini oshirish hamda ularning dunyoqarashini boyitishga yordam berdilar. Ijrochilar ham o‘z navbatida musiqiy asarlar mazmunini to‘laqonli yoritishga astoydil intildilar.

2002-yil mazkur orkestr badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimiga mohir sozanda, mahoratli va malakali dirijyor Hikmat Rajabov taklif etildi. 65 kishidan iborat sozandalar jamoasi uni iliq kutib oldi. U ham sozandalar bilan do‘stona munosabatda o‘z faoliyatini boshladi. Birinchi galda orkestrning jonkuyar ijodkorlari – D.Zokirov, M.Bafojev, F.Alimov, H.Rahimov kabi kompozitorlarning partituralarini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqan bosh dirijyor o‘zidan oldingi ustozlarining ijodiy faoliyatini munosib davom ettirishga kirishadi. Xususan, jamoa bilan O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “Oltin fondi” uchun asarlar ijro etib, uni magnit tasmasiga muhrlaydi, tez-tez televidenie va radio orqali chiqishlar qilib, xalq olqishiga sazovor bo‘ladi.

Jamoadagi o‘zaro hamkorlik, ahillik va ijodiy muhitning barqarorligi bois u ham avvalgi rahbarlar, ya’ni D.Zokirov va M.Bafojevlar singari xalq cholg‘ulari orkestri hamda uning jo‘navozligida yakkaxon va yakkanavozlar uchun mavjud repertuarni ijro etibgina qolmay, balki jamoa repertuarini yangi asarlar hisobiga boyitish maqsadida yuzdan ortiq asarlar yozadi. Ularni jamoa bilan birgalikda o‘rganadi va konsert dasturlariga joriy etadi. Shu tarzda O‘zbekistonning taniqli san’at ahli bilan ijod qilish baxtiga sazovor bo‘ladi. “Bunday muhit va qadrdon jamoa bilan ishlash meni hamon yangi-yangi asarlar ustida ilhom bilan ishlashimga qo‘l-qanot bo‘lmoqda. Bu men uchun umr bo‘yi izlagan va

sogʻingan ijodiy muhit, desam mubolagʻa boʻlmaydi”⁶³, - deydi H.Rajabov.



Doni Zokirov nomidagi Davlat xalq cholgʻulari orkestri.
Dirijyor Hikmat Rajabov.

Hikmat Rajabov oʻz dirijyorlik mahoratini Doni Zokirov nomidagi Davlat xalq cholgʻulari orkestrining ijodiy faoliyati boʻyicha har yili Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining katta konsert zalida oʻtkaziladigan hisobot konsertlarida namoyon etdi. Badiiy jamoa oʻzining “Istiqlol”, “Turkiston” sanʼat saroylaridagi konsert chiqishlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy egalladi. “Navroʻz”, “Mustaqillik” va Konstitutsiya kuni bayramlari va davlat miqyosida oʻtkaziladigan turli tadbirlarda, jumladan, “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivallarida faol ishtirok etib, musiqali yozuvlar orqali qatnashib keldi.

Ijod insonni ezgulikka, goʻzallik olamiga yetaklaydi degan aqidaga amal qilgan H.Rajabov ustozlariga havas qilib, ilk bor 1985-yilda qashqar rubobi va ansambl uchun “Guli bodom” musiqasini ijod etgan edi. Bu asarga taniqli baletmeyster, Oʻzbekiston

⁶³ Muallifning H.Rajabov bilan 2013 yil 22 oktyabrda boʻlgan suhbatidan yozib olingan.

xalq artisti Qunduz Mirkarimova “Buxorochoa” raqsni sahnalash-tiradi. Uning ijrosi H.Rajabovni benihoya quvontirdi. Ushbu asarning ijobiy baholanganligidan ilhomlangan muallif shu tariqa orkestr jo‘rligida xonandalarga qo‘shiq, sozandalarga kuylar, jamoa uchun esa turli janr va shakldagi asarlarni yaratishga bel bog‘laydi.

Serqirra ijodkor H.Rajabov dirijyorlik faoliyati bilan bir qator-da o‘z malaka mahoratini oshirish borasida ham tinimsiz izlanadi. Ko‘plab adabiyotlarni mutolaa qiladi. O‘z ijodi uchun har xil yangi mavzularni kundalik turmush tarzidan, bajarayotgan uy yumushlaridan qidirib topadi. Jumladan, “Oh, oppoq kapalak” nomli asari shular jumlasidandir.

Uning yaratilish tarixini muallif quyidagicha ta’riflaydi: “Bir kuni men Buxorodagi uy hovlimda ishkomga chiqib uzum barglarini xomtok qilayotgan edim. Shu payt barglar orasidan bir oppoq kapalak tusatdan uchib ketdi. Shunda men: Oh, oppoq kapalak, deb uni ushlashga intilgan chog‘imda, birdaniga oyoqlarim ostida tayanch bo‘lib turgan narvon tushib ketdi. Men esa shu payt qo‘llarim bilan surilarni mahkam ushlaganimcha kapalakning nozik qanot qoqib yuksaklikka uchishini hayrat bilan kuzatishni davom etdim”, - deb eslaydi biz bilan bo‘lgan suhbatda H.Rajabov. Shu voqea bois yakkaxon va orkestr uchun Muhiba Sayyid Xasan qizi she’riga bastalagan “Ox, oppoq kapalak” qo‘shig‘i yuzaga keldi. Bu asarda muallif, vals janri badiiy ifoda vositalaridan unumli foydalangan holda, umri juda qisqa, ammo go‘zal tarzda o‘tadigan kapalak obrazini mohirona ifodalagan. Bunda g‘amsiz kapalakning yengil va tinimsiz qanot qoqishiga xos harakatlar nozik tovushlar (*trel, mordent* va *glissandolar*) oroqali badiiy namoyon etiladi. Ushbu asarda qo‘shiq janrining barcha xususiyatlari to‘la saqlangani holda jamoaviy ijro uchun moslashtirilganligini ko‘ramiz. Shunga ko‘ra, jami uch banddan iborat she’r quyida nota misoli keltirilgan kuy asosida ijro etilishi ko‘zda tutiladi:

Соло
ох, оп - пок бу - лут - лар - ос - мон - да тан - хо -
сен гул - зор ичин - да ер из - лао як - то

Гижжак I
pizz.

Гижжак II
pizz.

Гижжак альт

Гижжак бас

Гижжак к.бас

Соло
о - й о - й а - а - а

Гижжак I
1. tr gliss. tr tr gliss. tr

Гижжак II
tr gliss. tr gliss. tr

Г-альт
tr gliss. tr gliss. tr

Г-бас
tr gliss. tr gliss. tr

Г-к.бас

Harir qanotlaring kumush rang qabo,
Nurlarga cho'lg'angan sen go'zal ma'vo.
Qanotlaring uzra esmoqda havo,
Oh, pari kapalak, oppoq kapalak.

Oq, oppoq bulutlar osmonda tanho,
Sen gulzor ichinda yor izlab yakto.
Qanotlaring uzra esmoqda havo,
Oh, pari kapalak, oppoq kapalak.

Guldan gulga qo'nib sevgi izlaysan,
Chaman gullariga baxtlar tilaysan.
Qanotlaring uzra esmoqda havo,
Oh, pari kapalak, oppoq kapalak.

Tembrlarning go‘zal uyg‘unlashuvi va yuqori registrlarda ijro etiladigan naqshinkor bezaklar ustivorligida milliy kuychanlik xususiyatlari bilan yo‘g‘irilgan ushbu asar – H.Rajabovning eng muvaffaqiyatli asaridan biridir. Bu asar partiturasida tarkibidan o‘rin olgan zarbli cholg‘ular – tarelka, buben va doyralar an’anaviy qo‘shiq janrini yanada boyitishga xizmat qilgan. Changlar ijrosidagi nozik *glissando* va *pizzicato*lar vositasida go‘zal Sharqning betakror bahor manzaralari badiiy ifodalangan mazkur qo‘shiq O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibasi Muyassar Razzoqovning jozibali ijrosida magnit tasmasiga muhrlandi.

H.Rajabovning yakkaxon, xor va orkestr uchun “O‘zbekiston o‘zirniki” qo‘shig‘i (Farida Afruz so‘zi) – Mustaqil davlatimizni tarannum etuvchi o‘ziga xos tantanavor qasidadir. Orkestrning to‘liq ovoz bilan baland dinamik tovushlardagi *tutti* ijrosi davlatimizning to‘g‘ri yo‘ldan shahdam qadamlar bilan borayotganligini, uning kelgusi ravnaqi va gullab yashnashini badiiy obrazlarda namoyon etadi. Doyra, nog‘ora va litavralarning muntazam usullari chuqur garmonik asosni yaratish bilan birga musiqiy asar shaklining yaxlitligini ham ta‘minlashga xizmat qiladi.

1

Най

Кўшнай

Clarinet in Bb

Чанг I

Чанг II

Конун

Овоз

Ўз-бе-кис-тон но-минг-га дос-тон би-та - ман Ю-ра-гим - га мех-ринг -
 Бо-бо ме-рос туп-ро-гинг-га жон ти-ка - ман

ни гул - дай э - ка - ман зах - мат - лар - дан топ - ган шо - ним ў - зим - ни - ки Ўз - бе - кистон о - -

Naqarot:

Tutmi, jiyda meva zoti larzon-larzon,
 Har qadamda bug‘doy, paxta, sholi xirmon.
 Ona xalqim himmatingga bo‘lay, qurbon,
 Mehnat bergan shirin nonim o‘zimmiki.

Naqarot:

Bu asarda H.Rajabov madhiya va vatanparvalik ruhidagi qo‘shiq'larga xos bo‘lgan band shakliga alohida yondoshib, uni badihago‘uylik asosida rivojlantiradi, xor va orkestr dialogida esa chiroyli tembrlar hamohangligini topishga muvaffaq bo‘ladi. Umuman olganda, partiturada tembrlar masalasi go‘zal tarzda o‘z yechimini topgan. Jumladan, xor partiyasining ayni paytda nay, qo‘shnay, klarnet in “b”dan iborat yog‘och damli cholg‘ularda, keyinchalik I-va II-g‘ijjklarda ham qo‘shsadolanishi asarning monodik tabiatga ega kuychanligini yanada yorqin ifodalaydi.

“O‘zbekiston o‘zimmiki” qo‘shig‘ining yakuniy qismida yana birinchi band mavzusining qayta takrorlanishi ushbu asarga uch qismlik shakl xususiyatini bag‘ishlaydi. Shu asnod muallifning xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozilgan asarlarining janr tabiatini yangilashga qaratilgan intilishi ham namoyon bo‘ladi. Ushbu qo‘shiq tinglovchilar qalbida Ona Vatanga sadoqat va muhabbat hissini uyg‘otadi.

Shuningdek H.Rajabov yakkaxon, xor va orkestr uchun yozgan “Mustaqillik maydoni” (O.Suyundiqova she’ri, 2005) qo‘shiq-madhiyasi⁶⁴, “Havzi kavсар qoshimda” (R.Rahmon qizi she’ri, 2006), “Bahor kelib” (Z.Obidov she’ri, 2006), “Buxorom bor” (S.Vohidov she’ri, 2006), “Shonli kelajak avlod” (O‘.Mirzayor she’ri, 2007), “Toshkentim” (F.Kamolova she’ri, 2007), “Onajonim qaydasiz” (M.Sayyid Hasan qizi she’ri, 2008), “Aytolmadim” (H.Xudoyberdiyeva she’ri, 2006), “Vatanga” (N.Aminjon she’ri, 2008), “Sog‘inchlarim bor” (D.Abdurahmon qizi she’ri, 2008), “Buxoro tanavori” (H.Ahmedova she’ri, 2008), “Orzulari daryo otam” (Sh.Matyoqubova she’ri, 2008), “Topilmoq” (S.Bo‘ldiyeva she’ri 2009), “Chorlov” (S.Vohidov she’ri, 2009), “Buxoroda, Buxoroda” (N.Aminjon she’ri, 2009), “Dil” (M.Hamroyeva she’ri, 2010), “Buxoroda gul sayli” (Xalq so‘zi, 2010) hamda “Hayrat” (kamonli sozlar uchun, 2011), “Maftun sozlar” (satanbur, dutor va orkestr, 2012), “Qalb nidosi” (qo‘shnay va orkestr, 2013), “Surnay nolasi”, “Ey dil” (g‘ijjak va orkestr uchun, 2013) kabi bir qator asarlarni yaratdi.

Shu tariqa orkestr o‘z ijodiy faoliyatini 2014-yilning oktyabr oyiga qadar davom ettirdi, so‘ngra ikki professional jamoalar To‘xtasin Jalilov hamda Doni Zokirov nomidagi orkestrlar negizida xalq cholg‘ulari davlat Akademik orkestri tashkil etildi. Ushbu jamoa hozirgi kunda o‘z ijodiy faoliyatini qizg‘in tarzda olib bormoqda.

Savollar:

1. D.Zokirov orkestri uchun M.Bafoyev qanday asarlar yozgan?
2. M.Bafoyevning “Buxoroi-Sharif” teleoperasi necha doston va necha naqshdan iborat?
3. “Buxoroi-Sharif” teleoperasi qachon ilk bor ijro etilgan?
4. M.Bafoyevning “Nodira” telebaleti qachon yozilgan?
5. M.Bafoyevning “Nodira” telebaleti necha qismdan iborat?

⁶⁴ Bu sasr haqida batafsil ma’lumot A.Tashmatovanning Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri nomli Monografiyasida yoritilgan. 101-103 betlar.

6. Q.Komilov D.Zokirov orkestri uchun qanday asarlar yozgan?
7. Q.Komilovning “Ozod Vatan” oratoriyasi qachon yozilgan?
8. “Ozod Vatan” oratoriyasi necha qismdan iborat?
9. H.Rajabov D.Zokirov orkestri uchun qanday asarlar yozgan?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 3 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrning gastrol safarlari yoki ijro repertuari haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

O‘zaro uygunlashuv, ikki asosiy yo‘nalish, “Nodira” telebaleti, “Buxoroi-Sharif” teleoperasi, “Ozod Vatan” oratoriyasi, “Ox, oppoq kapalak”, “O‘zbekiston o‘zimniki”.

Adabiyotlar:

1. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi Davlat xalq cholg‘ulari orkestri. - T., 2015.
2. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. - T., 2004.
3. Rajabov H. Qalb nidosi. - T., 2014.

27-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT.

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida berilgan adabiyotlarni mutolaa qiling va quyidagi vazafalarni bajaring:

Doni Zokirov, Mustafu Bafoyev va Hikmat Rajabovning hayoti va ijodini o‘rganing.



Doni Zokirov



Mustafo Bafoev



Hikmat Rajabov

1. H.Rahimovning D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling.
2. M.Bafoevning D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling.
3. H.Rajabovning D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo'lgan topshiriqlar uchun Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestrining ijodiy faoliyatini o'rganing. Shuningdek, O'zbekiston kompozitorlarining D.Zokirov orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglang, tahlil qiling va o'rganib chiqing.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta‘riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

28-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR.

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida berilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, quyidagi vazifalarni bajaring:

Savollar:

1. Yangi izlanishlar davrida D.Zokirov orkestri uchun qanday asarlar yaratilgan?
2. M.Bafojevning “Buxoroi-Sharif” teleoperasi necha doston va necha naqshdan iborat?
3. “Buxoroi-Sharif” teleoperasi qachon ilk bor ijro etilgan?
4. M.Bafojevning “Nodira” telebaleti qachon yaratilgan?
5. M.Bafojevning “Nodira” telebaleti necha qismdan iborat?
6. Q.Komilovning “Ozod Vatan” oratoriyasi qachon yozilgan?
7. “Ozod Vatan” oratoriyasi necha qismdan iborat?
8. H.Rajabov D.Zokirov orkestri uchun qanday asarlar yaratgan?

Quyidagi asarlardan birini yozma ravishda topshiring:

1. M.Bafojevning “Buxoroi-Sharif” asarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.
2. H.Rahimovning “Qo‘shkor” asarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.
3. A.Mansurovning “Yangra doyra, jarangla” asarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.
4. H.Rajabovning “O‘zbekiston o‘zirniki” asarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.

29-DARS: 1960-1990-YILLARDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK SAN‘ATI.

1960-yillarda respublika musiqa madaniyatining yuksalishi natijasida xalq cholg‘uchilarida konsert-ijrochilik faoliyati qizg‘in avj oldi. O‘zbek xalq cholg‘ulari va bayan bo‘yicha ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish an‘anasi keng quloch yoydi va u tartibli ravishda o‘tkazila boshlandi. 70-yillarda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilikning obro‘-e‘tibori ancha yuksaldi. Jumladan, 1973-yilda yosh mahoratli g‘ijjakchi Shuhrat Yo‘ldoshev Voronejda bo‘lib o‘tgan musiqachi-ijrochilarning Butunittifoq ko‘rik-tanlovida qatnashib, g‘ijjak ohangining jimjimadorligi, rang-barang tembr bo‘yoqlari hamda cholg‘uning yangi texnik imkoniyatlarini namoyish etdi. Natijada Sh.Yo‘ldoshev ko‘rik-tanlovning birinchi mukofoti va laureatlik unvoniga sazovor bo‘ldi⁶⁵.

Shuningdek bir guruh yosh sozandalar, jumladan, doyrachilardan: T.Sayfiddinov, Dilmurod va Xolmurod Islomovlar, O.Kamolxo‘jayev, I.Ikromov, changchi F.Shukurova, g‘ijjakchi Sh.Yo‘ldoshev, afg‘on rubobchi G‘. Ergashev, rubobchi H.Lutfullayevlar hamda “Qirq qiz” Nukus dutorchi qizlar havaskorlar ansambli, “Shodiyona” Shaxrisabz xalq ansambli, Xorazm kolxozining “Qaldirg‘och” ashula va raqs ansambli, “Shodlik” vokal-xoreografik ansambli, O‘zteleradio qoshidagi dutorchi qizlar ansambli va boshqa ijodiy jamoalar yuksak mahorati va faol konsert ijrochiligi uchun O‘zbekiston yoshlar mukofoti bilan taqdirlanganlar.

1971-yildan boshlab o‘zbek xalq cholg‘ulari va bayan ijrochilarining Respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish an‘anaga aylandi. I ko‘rik-tanlov 1971-yilda Toshkent (hozirda O‘zbekiston) davlat konservatoriyasida A.Petrosyans raisligida o‘tdi. Unda 15 turdagi cholg‘ular bo‘yicha 101 sozanda ishtirok etdi. Ko‘rik-tanlov musobaqalari ikki bosqichda o‘tdi. I-bosqichda majburiy dasturni O‘zbekiston bastakorlarining, shuningdek qardosh xalqlar hamda

⁶⁵ Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995, 90-bet.

chet el bastakorlarining asarlari (jumladan yirik shakldagi bir asar) tashkil etdi. II- bosqichda musobaqa qatnashchilari har xil turdagi va murakkablikdagi to‘rt asarni ijro etishlari lozim edi. Mazkur musobaqa 20 dan ortiq yosh iste’dodlarni aniqladi⁶⁶.

Shuhrat Yo‘ldoshev, Botir Rasulov (g‘ijjak). Fazilat Shukurova, Rustam Ne‘matov (chang), Abdusalom Malikov (prima rubobi), Pinxas Bakoyev (qashqar rubobi), Xasan Komilov (g‘ijjakbas), Boqijon Rahimjonov (dutor), Bahtiyor Yo‘ldoshev (doyra) kabi sozandalar tanlov sohiblari qatoridan joy oldilar. Ko‘rikning o‘ziga xos xususiyati xalq musiqasi hamda I.Bax, L.Betxoven, F.List, F.Shopen, K.Sen-Sans, M.Glinka, P.Chaykovskiy, S.Prokofyev, A.Xachaturyan va boshqa jahon klassik kompozitorlari asarlarining mohirona ijrosida namoyon bo‘ldi.

1974-yil fevralida II Respublika ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi (hay‘at raisi A.Petrosyans). Unda respublikaning deyarli barcha viloyatlaridan kelgan 76 sozanda ishtirok etib, ulardan 20 nafari g‘olib deb topildi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, kompozitor Sobir Boboyev raislik qilgan III ko‘rik-tanlov 1980-yilda bo‘lib o‘tdi. Unda 99 ijrochi ishtirok etib, 18 nafari g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. IV respublika ko‘rik-tanlovi 1984-yil fevral oyida bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Sayfi Jalil hay‘at raisi bo‘ldi. Ilgarigi ko‘rik-tanlovlardan farkli o‘laroq ushbu ko‘rik-tanlov uch bosqichda bo‘lib o‘tdi. Uchinchi bosqichda ko‘rik-tanlov g‘oliblari “Bahor” konsert zalida T.Jalilov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida konkurs dasturini ijro etdilar. Ko‘rik-tanlovda 79 nafar ijrochilar ishtirok etishdi.

V respublika ko‘rik-tanlov 1988-yil fevral oyida bo‘lib o‘tdi. Bu gal hay‘at raisi sifatida xalq artisti, Qurmong‘ozi nomidagi qozoq xalq cholg‘ulari Davlat orkestrining bosh dirijyori va badiiy rahbari professor Shamg‘on Kajgaliyev taklif etildi. Ko‘rik-tanlovda 57 nafar yosh musiqachi ishtirok etdi. Respublika ko‘rik-tanlovlari so‘nggi yillarda ajoyib mahorat maktabiga aylanib qoldi. Tanlovlar nafaqat ijrochilik kuchlarining sinovi,

⁶⁶ Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. 119-bet.

nafaqat yosh sozanda ijrochilarning mahoratini aniqlash, balki mashaqqatli murabbiylik ishining yakuni ham bo‘ldi. Qaror topgan an’anaga muvofiq o‘zbek xalq cholg‘ulari va bayan sozanda ijrochilarining navbatdagi VI Respublika ko‘rik-tanlovi, 1992-yil mart oyida bo‘lib o‘tdi. Uchinchi bosqich g‘oliblari T.Jalilov nomidagi davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestri (F.Sodiqov rahbarligidagi) hamda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi (kompozitor M.Bafoyev rahbarligidagi) D.Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari davlat orkestrlari jo‘rligida bellashdilar⁶⁷.

Shuningdek, Toshkentda 2008-yildan e‘tiboran “Navro‘z sadolari” nomli ko‘p ovozli ansambl va orkestrlarning, 2014-yildan boshlab ikki yilda bir marotaba “Ona yurt ohanglari”, “Baykal kubogi” (Rossiya) nomli xalqaro ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi nafaqat yangi iqtidor egalarini aniqlashga, balki yosh sozandalarda o‘z kasbiga nisbatan katta qiziqish uyg‘otadi, ijodiy yetuklik sari chorlaydi. Ular o‘zlarining yuksak ijrochilik mahoratini hamda xalq cholg‘ularining takrorlanmas boy imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatlarini namoyish etadilar. O‘zbek xalq cholg‘ulari, qolaversa orkestr jamoalari ham O‘zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari hisobiga o‘z repertuarlarini boyitadilar.

Shu bilan birga ko‘rik-tanlovlar faqat yosh iste’dodlar musobaqasi bo‘lib qolmay, balki cholg‘u ijrochiligi san’atini yanada rivojlantirish, sozandalarning professional ko‘nikmalarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni yechish, musiqa cholg‘ularini modernizatsiyalashtirish hamda keng qamrovli ijrochilarni tayyorlash kabi masalalarni hal etishga ijobiy yordam beradi.

1960-1990-yillarda xalq cholg‘ulari bo‘yicha yosh iqtidor egalarini tarbiyalashga butun umrini bag‘ishlagan Mirza Toirovning nay maktabi, ayniqsa F.Vasilyev, S.Taxalov (rubob), V.Borisenko, A.Malikov (prima rubobi), G‘.Ergashev (afg‘on rubob), A.Nazarov (dutor bas), B.Rahimjonov, A.Hamidov (dutor), N.Belenkiy, O.Xolmuhamedov, M.Toshmuhamedov, A.Uma-

⁶⁷ Ko‘rik-tanlov haqidagi to‘liq ma’lumot A.Odilovning O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi o‘quv qo‘llanmasida batafsil yoritilgan. 119-126 betlar.

rov (g'ijjak), I.Shelpuk (g'ijjak bas), F.Sodiqov, F.Xarratov, R.Ne'matov (chang), T.Alimatov (tanbur, sato) kabilarning o'qituvchilik va ilmiy-ijodiy faoliyati tahsinga sazovordir. Ular ko'plab o'zbek musiqa san'atining taniqli namoyandalarini tarbiyalab yetishtirishga muvassar bo'lishgan.



Mirza Toirov

Mirza Xakimovich Toirov

1930-yilda Toshkentning "Labzak" dahasi yaqinidagi Shoir ko'chasida ishchi oilasida tavallud topgan. Otasi - Xakimjon aka o'g'li Mirzada musiqaga nisbatan katta ixlos uyg'otdi. Onasi Hadicha aya ziyolilar oilasida tarbiya topgan edi. Ota-onalar o'z farzandini asrab-avaylab, mehr-muhabbat bilan parvarish qilishdi. Kasb-hunarli, ilmu-ma'rifatli, mehnatsevar,

odamlarga g'amho'r etib tarbiyalab, kelajakda yaxshi insonlar qatorida o'ziga munosib o'rnini egallashini orzu qilgan edilar. Shu orzular ila Mirzani Toshkentning Labzak bekatida joylashgan 18-sonli o'rta maktabga o'qishga berishadi. O'qib yurgan chog'laridayoq musiqa to'garaklariga faol qatnashib, dutor, tanbur va nay sozlariga ixlos qo'yadi. Tez orada ustoz, taniqli sozanda - Vosiqjon Halilov rahbarligida nay cholg'usini chalishni o'rganishga kirishadi.

Cholg'u - nafas bilan puflab chalinadigan bo'lganligi tufayli uni o'zlashtirish oson bo'lmadi, qiyinchiliklarga bardosh berib yengdi. Ko'p vaqt o'tmasdan yengil holatda nay chalishni o'zlashtirdi. Cholg'uning ijro sirlarini, tovush chiqarish usullarini puxta egallab, qator xalq ohanglarini shirador, yoqimli darajada ijro etishga erishdi. Musiqa san'atini mo'jizakor olamligini, ohanglar esa go'zallikka chorlovchi omillar ekanligini sezgan yosh Mirzaning nay nolalarini eshitgan sari unga ixlosi tobora ortib, nay chalishni mukammal o'rganishga astoydil kirishadi. Tez orada "Jonon", "Mirzadavlat", "Dilhiroj", "Chamandagul" kuylarini zavq bilan ijro eta boshlaydi.

1945-yilda o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda Mirza aka birinchi o‘rinni qo‘lga kiritadi va nay cholg‘usiga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi. 1946-yili Mirza Toirov Hamza (hozirda Uspenskiy) nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga nay sinfi bo‘yicha o‘qishga kiradi. Nay cholg‘usida nota yozuvi bo‘yicha chalishni qunt bilan o‘rganadi va tez orada musiqiy matnlarni varoqdan ravon o‘qish malakasini ham puxta o‘zlashtiradi. Ko‘p o‘tmay – 1947-yilda Mirza A.Petrosyans rahbarligidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga naychi sifatida ishga taklif etiladi. Ilk ijodiy faoliyatini aynan shu badiiy jamoada boshlaydi. M.Toirov 1950-yilning noyabr oyida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida O‘zbekiston Respublikasi san’at ustalari bilan birga Xitoy Respublikasida bo‘lib o‘tgan konsertda qatnashadi. Bu orkestrning xorijiy mamlakatlarga uyushtirilgan birinchi gastrol safari edi.

1951-yilda Mirza Toirov konservatoriyaning birinchi kursiga qabul qilinadi. Shuningdek ustoz o‘z san’ati bilan Polsha (1968, 1986), Suriya, Livan (1971) kabi davlatlarga borib o‘zbek cholg‘u ijrochiligi san’atini dunyo tinglovchilariga yetkazishda jonbozlik ko‘rsatadi. U nafaqat chet ellarda balki, respublikamizning turli viloyatlarida ham ijrochilikning yangi-yangi qirralari bilan muhlislar orttirgan. Mirza Toirov – orkestr sozandasi, yakkanavoz ijrochi sifatida ko‘p yillik samarali ijodiy va konsert faoliyati hamda o‘qituvchilik sohasidagi mehnatlari uchun hukumatimiz tomonidan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (1969) faxriy unvoni, shuningdek professor ilmiy unvonlarini qo‘lga kiritadi.

Mirza Toirov “xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida nay va qo‘shnay sinflari bo‘yicha avval o‘qituvchi (1957), keyinchalik dotsent va 1987-yildan professor ilmiy darajasida talabalarga saboq berish bilan birgalikda ilmiy-ijodiy va musiqiy ijrochilik yo‘nalishlarida ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Uning yuzdan ortiq shogirdlari respublikamiz va uning sarhadlarida ishlab, ustozning ishini davom ettirib kelmoqdalar. Shogirdlari orasida bir necha bor Xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlarining g‘oliblari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar yetishib chiqqan. Uning muallifligidagi “Nay darsligi” (A.Petrosyans bilan

birgalikda), “Nay uchun pyesalar” (1987) kabi kitoblar nafaqat respublikamizning balki qo‘shni Respublikalarning musiqiy dargohlarida ham allaqachon ijrochilarning asosiy kitoblariga aylanib ulgurgan.

Mirza Toirov - yuksak darajali ijrochi, jahon andozasiga javob bera oladigan sozanda. Nafaqat o‘qituvchi murabbiy, balki shogirdlariga otalardek mehribon insondir. Shu bilan birga talabchan, mehnatsevar, o‘z san’atiga va ishiga fidoiy ustozdir.



Murod Toshmuhamedov

Murod Ibragimovich Toshmuhamedov (1939-yilda tug‘ilgan) mashhur g‘ijjakchilar orasida alohida ajralib turadi. U Toshkent davlat konservatoriyasini ustoz O.Holmuhamedov sinfida tugatgan. O‘zbek xalq cholg‘u ijrochilarining I Respublika ko‘rigining sohibi. 1961-yildan hozirgi kunga qadar konservatoriyada g‘ijjak va g‘ijjak alt sinflari bo‘yicha talabalarga saboq bermoqda. U torli kamonli cholg‘ular bo‘limining mudiri sifatida ham fao-

liyat olib bormoqda. M.Toshmuhamedov g‘ijjak va g‘ijjak alt sinfi rivojiga qo‘shgan xissalari, ilmiy ijodiy ishlari hamda ushbu sinflar bo‘yicha yaratgan o‘quv qo‘llanma va darsliklari tufayli 1988 yili dotsent, 2001 yili esa professor unvonlariga sazovor bo‘ldi. Uning shogirdlari orasida xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha o‘tkazilgan Uzeir Xojibekov nomidagi I Xalqaro ko‘rik-tanlov sohibi Qahramon Nazirov, Respublika ko‘rik-tanlovining sohibi Jo‘raboy Saidovlar bor. M.Toshmuhamedov “G‘ijjak taronalari”(1983) to‘plamining tuzuvchisi, “G‘ijjak darsligi” (1995), “G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish” (1999), “G‘ijjak alt darsligi” (2004) hamda g‘ijjak ijrochiligi bo‘yicha bir qator maqolalar muallifidir.

Murod aka Toshmuhamedov g‘ijjak va g‘ijjak alt sinfi bilan birgalikda 1985 yildan buyon “Sayqal” nomli torli kamonlilar oilasidan tuzilgan orkestrga ham rahbarlik qilib kelmoqdalar.

Ushbu jamoa bilan bir qator tadbirlarda, tanlov va festivallarda ishtirok etib, sermazmun konsert dasturlari bilan tinglovchilarni bahramand etib kelmoqdalar. Shu bilan birga iqtidorli kadrlarni tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatmoqdalar.



Boqijon Rahimjonov

Taniqli sozanda, serqirra ijodkor, musiqiy targ'ibotchi, cholg'ushunos **Boqijon Xoshimjonovich Rahimjonov** 1945-yili ziyolilar oilasida dunyoga keladi. Musiqaga bo'lgan ilk qiziqishni oilada boshlanadi. Boqijon aka bolaligidan amakivachchasi Xirojiddin Muhitdinov ish jarayonini

qunt bilan kuzatib, yog'ochga jon ato etib, bejirim cholg'ularni yaratayotganini kuzatib, sozgarlik san'atiga mehr qo'yadi. Shu tariqa u ushbu sohani batafsil o'rganishga kirishadi.

1963-yili B.Rahimjonov Toshkent davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasiga o'qishga kiradi. Dutor sinfi bo'yicha Feoktist Vasilyev sinfida tahsil oladi va undan ijro mahorati sirlarini o'rganadi. Shuningdek ushbu cholg'u bo'yicha dars berish sir-asrorlarini o'zida kashf etadi. Badiiy jamoalar tuzish va dirijyorlik ko'nikmalarini egallashda ustoz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Anvar Liviyevning xizmatlari cheksizdir.

B.Rahimjonov 1968-yili Toshkent (hozirda O'zbekiston) davlat konservatoriyasini tugatib, shu yildan e'tiboran dutor ixtisosligi bo'yicha dars bera boshlaydi. Shu bilan birga o'z ijro mahoratini mukammal darajaga yetkazish ustida tinimsiz mashq qiladi. Natijada o'zbek xalq cholg'ulari va bayan bo'yicha o'tkazilgan I va II Respublika sozanda ijrochilar ko'rik-tanlovining sohibiga (1971, 1974 yy.) aylanadi.

Tinib-tinchimas sozanda B.Rahimjonov ustoz san'atkor O'zbekiston xalq artisti Orif Qosimov ijrosini soatlab maroq bilan tinglardi va qiziqarli savollar bilan murojaat etardi. Davomiy suhbatlar natijasida Boqijon akada ustozining ijro etgan kuylarini

notaga tushirish g'oyasi paydo bo'ladi va u buni amalga oshiradi. Boqijon Rahimjonovning metodik qo'llanmalari ichida taniqli dutorchi Orif Qosimov repertuaridan yozib olingan to'plam alohida diqqatga sazovordir. Ushbu dutor taronalari ikkita kitob shaklida nashr ettirildi va bugungi kunga qadar talabalar tomonidan zavq bilan ijro etiladigan kuylar qatoridan joy olgan.

B.Rahimjonov ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasiga rahbarlik qilgan davrda bir qator cholg'ushunoslikka oid ilmiy maqola va uslubiy qo'llanmalar yaratishga muvassar bo'ldi. "Traditsionniy dutar i ego rekonstruksiya" nomli maqola (T.,1985), "Metodika izucheniya, sbora i sovershenstvovaniya narodnix muzikalnix instrumentov" (M.,1987), "Tablitsa A.Petrosyansa po instrumentovedeniyu v praktike muzikalnogo obucheniya" (T.,2005) o'quv uslubiy qo'llanmalar shular jumlasidandir.

Shuningdek talabalar, sozandalar, musiqiy-targ'ibotchilar va keng qamrovli o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish maqsadida Boqijon Rahimjonov tomonidan "Musiqqa haqida aforizm va hikmatli so'zlar" nomli uchta (2008, 2009, 2010) kitobcha nashr etildi. Uning shogirdlari O'zbekiston va Qozog'istonda dutor ijrochiligi san'atining rivojlanishiga o'z xissasini qo'shib kelmoqda.



Fazilat Shukurova

O'zbek xalq cholg'u ijrochiligi san'ati taraqqiyotining yorqin vakillaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent **Fazilat Shukurova**dir. U 1946-yil 13-iyul kuni Samarqand viloyatida tug'ilgan. Umumta'lim maktabida o'qib yurgan kezlarda badiiy havaskorlik to'garagida rubob chalishni o'rgana boshladi. Radio orqali cholg'u kuylardan beriladigan musiqalarni tinglashga odatlangan yosh Fazilat kunlarning birida "Tanovar" kuyini changda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fozil

Xarratov ijrosida eshitib qoladi. Shu kundan boshlab bu sehrli cholgʻu uning koʻz oldidan ketmay qoladi. Chang cholgʻusiga mehr qoʻyganini sezgan ota-onasi uni musiqa bilim yurtiga oʻqishga berishadi.

Toshkent davlat konservatoriyasida 60-yillarda tayyorlov boʻlimi ochilgan boʻlib, unga talabalarni qabul qilish uchun Samarqandga Davlat mukofoti sovrindori, xalq artisti, professor M.Ashrafiy boshchiligida bir guruh mutaxassislar tashrif buyurishadi va ular barcha viloyatlardan tanlov asosida mahoratli sozandalarni saralashadi. Oʻsha paytda Fazilat opa endigina musiqa bilim yurtining 1-kursni bitirish arafasida edi. Shunda Fazilat opaning ustози Ismoil Jobirov: - “Mening ham bir changchi qizim bor, agar yoshi toʻgʻri kelsa olinglar”, - deydi⁶⁸. Hayʼat aʼzolari 14 yoshli qizcha M.Ashrafiyning “Yoshlik qoʻshigʻi”ni zoʻr ishtiyoq bilan ijro etganini koʻrib bir ovozdan ushbu roʻyxatga kiritishadi. Shu tariqa Fazilat opa 1960-1962-yillar tayyorlov kursida, 1962-1967-yillarda esa konservatoriyada Fozil Xarratov sinfida tahsil oladilar.

1967-yil Fazilat opa konservatoriyani imtiyozli diplom bilan tugatib, Oʻzbekiston davlat filarmoniyasiga yakkanavoz changchi sifatida ishga kiradi. 1967-1971-yillar davomida juda koʻp shaharlar va chet ellarda gastrol safarlarida boʻladilar. Ularning birinchi katta gastrol safarlari 1967-yilda Belorussiyada oʻtkazilgan Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati 10 kunligi edi. Shu bilan birga Belgiya, Suriya, Hindiston, Polsha, Bolgariya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda gastrol safarlarida boʻlib, oʻzbek cholgʻu ijrochiligini aynan “chang” sozida targʻib etadilar.

Iqtidorli sozanda F.Shukurova T.Jalilov nomidagi xalq cholgʻulari orkestri joʻrligida I.Jinovichning “Beloruscha raqs”, I.Bramsning “Vengercha raqs”, S.Boboyevning “Konsertino”, U.Hojibekovning “Raqs”, A.Xachaturyaning “Vals” va “Qilichbozlar raqsi” hamda D.Zokirovning “Jazoir”, chang va orkestr uchun oʻzbek xalq kuyi “Ishonma”, hind kuylari asosida “Sho-

⁶⁸ Muallifning 2012-yil 10-oktyabrda Fazilat Shukurova bilan boʻlgan suhbatidan yozib olingan.

miri” kabi asarlarni changda yakkanavoz sifatida ijro etib radio “Oltin fondi”ga muhrlaydilar.

F.Shukurova 1972-1979-yillarda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida yakkanavoz va jo‘navoz sifatida ishlaydi. Orkestr bilan birgalikda D.Zokirov qayta ishlagan o‘zbek xalq kuylaridan “Jazoir”, “Ishonma”, hind xalq kuylaridan “Shomiri”, M.Xarratovning “Yoshlik vals”, P.Sarasatening “Lo‘lilar taronalari”, I.Jinovichning “Belaruscha raqs”i, J.Rossinining “Neopolitan tarantellasi”, S.Yudakovning “Farg‘onacha raqs”larini orkestr jo‘rligida magnit tasmalariga yozishga muvaffaq bo‘ldilar.

F.Shukurova sozandalik va pedagoglik faoliyati bilan birgalikda o‘zlarining ilmiy ijodiy va uslubiy qirralarini ham keng namoyon etdilar. Xalq cholg‘ulari orkestri uchun repertuar yaratish masalasi dolzarb muammo bo‘lib turgan bir paytda ushbu yo‘nalishga ham o‘z xissalarini qo‘shdilar. I.Jinovichning “Belaruscha raqslari”, I.Bramsning “Vengercha raqslari”, A.Xachaturyanning “Gopak” raqsi, E.Grigning “Norvegiya raqslari” va boshqa bir qator jahon durdona asarlarining xalq cholg‘ulari orkestri uchun cholg‘ulashtirib, orkestr repertuarini boyitdi. Shuningdek, “Yang-ra sozim” (1988) nomli to‘plamni hamda F.Xarratovlar sulolasiga bag‘ishlangan “Cholg‘u ijrochiligi tarixidan” (2006) nomli o‘quv qo‘llanmani yaratdilar. Ushbu qo‘llanmada yoritilgan ma’lumotlar talabalarga F.Xarratov bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi va ularning bilim manbaini oshiradi⁶⁹.

Hozirda ular yakkaxon ijrochi sifatida orttirgan ko‘p yillik tajriba, bilim va mahorat sirlarini bir qator o‘sib kelayotgan kelajak avlodga ustozlik faoliyati orqali yetkazib bermoqdalar. Shuningdek “Orkestr dirijyorligi” sinfi bo‘yicha ham samarali mehnat qilib, yosh iste’dodli mutaxassislarni tayyorlashga erishmoqdalar. Ularning shogirdlari ustozlari maktabining davomchilari sifatida respublikamizdagi madaniyat va san’at maskanlarida chang va orkestr dirijyorligi sinflari bo‘yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishmoqda.

⁶⁹ Xo‘jayev R. Ayol qalbi navolari. - T., 2005, 44-bet.

Bu kabi insonlar nafaqat O‘zbekiston davlat konservatoriya-sining balki O‘zbekiston musiqa san’atining ham faxridir. Fazilat opa Shukurovadek - o‘zbek san’atining jonkuyarlari, o‘z kasbi-ning fidoyilari, zabardast sozandalar, mohir ustozlar, serqirra ijodkorlar yanada ko‘payaversin va jonajon yurtimiz san’atining yuksalishiga o‘z hissalarini qo‘shib boraversinlar.



Anvar Lutfullayev

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasini mudiri, professor **Anvar Qudratovich Lutfullayev** 1957-yili Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keladi. Musiqaga bo‘lgan qiziqish uni M.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi internatiga yetaklab keladi. Ustozi F.Mirusmonovdan changda ijro etish sirlarini o‘rganiadi. Ushbu sohaning mohir ustasi bo‘lish niyatida A.Lutfullayev 1975-yili O‘zbekiston (Toshkent) davlat konservatoriyasiga o‘qishga kiradi va chang sinfi bo‘yicha professor Ahmad Odilovdan sa-

boq oladi.

Anvar Lutfullayev O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Sharq musiqasi” fakultetini changchi-sozanda va dirijyor sifatida 1980-yili imtiyozli diplom bilan tugatib, “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida o‘qituvchi, 1981-1984-yillar assistent-stajyor, 1986-1991-yillar katta o‘qituvchi, 1992-2002-yillar dotsent, 2009-yildan boshlab hozirgi kunga qadar professor lavozimida ishlab kelmoqda.

Anvar Qudratovich Lutfullayevning shu kungacha tarbiyalagan shogirdlari 70 dan ortiq bo‘lib, ular “Baykal kubogi” (Rossiya, 2004-2007) nomli xalqaro, Uzeir Xojibekovning 100 yilligiga bag‘ishlangan (Ozarbayjon, 1986), (Tojikiston, 2004) mintaqaviy va Respublika miqyosida o‘tkazilgan milliy hamda o‘zbek xalq cholg‘ulari yosh sozanda-ijrochilar tanlovlarining g‘olibidir, sho-

girdlaridan Komil Shermatov va G'ofir Norboyevlar "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovar bo'lganlar.

Mohir sozanda Anvar Lutfullayev konsert-ijrochilik faoliyatini yosh iqtidorli talabalarga o'z mahoratini o'rgatish bilan chambarchas bog'lagan holda olib boradi. Uning ijrosidagi ko'pgina asarlar O'zbekiston radiosi oltin fondiga yozib olingan. M.Tojiyevning – "Sakkizta sharq rapsodiyalari", T.Azimovning – "Konsertino"si, A.Mansurovning – "Konsert pyesasi", X.Rahimovning – "Tog' navolari", P.Xalikovning – "Konsert uslubidagi pyesasi", T.Tashmatov va R.Abdullayevlarning – "Chang va fortepiano" uchun konsertlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasini mudiri, professor Anvar Lutfullayev O'zbekiston televideniya va radiokanali orqali efirga uzatiladigan "Musiqqa bo'stoni", "Soz sehri", "O'zbekiston", "Milliy cholg'ular tarixi" hamda san'at va musiqa sohalariga oid bo'lgan ko'rsatuvlarda muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqda. Ushbu eshittirishlarda u musiqiy festivallar, ko'rik-tanlovlar hamda konsert dastur-



larining badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritadi. Shuningdek, o'z ijrosi bilan san'at olamiga kirib kelayotgan yosh iqtidor egalari- ga foydali maslahatlar beradi.

A.Lutfullayev talabchan ustoz va mohir sozanda bo'libgina qolmay, balki "Chang maktabi" (darslik), "Changchilar ansambli" (o'quv qo'llanma), "Chang tarannum etganda" (o'quv qo'llanma), "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi" kabi kitoblarning muallifidir.

2006-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi bilan A.Lutfullayev "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 15 yil" esdalik nishoni va 2007-yilda Xalqaro tanlov va festivallarda erishgan muvaffaqiyatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Mada-

niyat va sport ishlari vazirligi tomonidan ta' sis etilgan "Tasanno" Sertifikati bilan taqdirlangan.

Anvar Lutfullayev doimiy ravishda o'z malakasini, siyosiy, iqtisodiy, amaliy-nazariy saviyasini oshirish ustida tinimsiz sabr-toqat bilan ishlab kelmoqda. Bugungi kunda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan taniqli changchi-sozanda, tajribali muallim, o'z kasbdoshlari va talabalar orasida alohida xurmat va e'tiborga ega.

Savollar:

1. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining rivojlanishida ko'rik-tanlovlar qanday ahamiyatga ega?
2. O'zbek xalq cholg'ulari va bayan bo'yicha ilk ko'rik-tanlov qachon o'tkazildi?
3. Ushbu ko'rik-tanlovlarda I-o'rinni egallagan qaysi sozandalarni bilasiz?
4. Mirza Toirov ilk bor nechanchi yili orkestr bilan birgalikda Xitoy Respublikasiga ijodiy safarga chiqadi?
5. M.Toirov qaysi davlatlarda o'zbek cholg'u ijrochiligi san'atini dunyo tinglovchilariga yetkazishda jonbozlik ko'rsatadi?
6. Boqijon Rahimjonov o'zbek xalq cholg'ulari va bayan bo'yicha o'tkazilgan qaysi ko'rik-tanlovning laureati bo'lgan ?
7. B.Raximjonovning qanday ilmiy ishlarini bilasiz?
8. Ilk changchi ayolni bilasizmi?
9. F.Shukurovani o'z ijrosi bilan sehrlab qo'ygan changchi sozanda kim?
10. A.Lutfullayev qaysi adabiyotlarning muallifi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro'yxatidagi 1, 2 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma'lumotni konspekt qiling.
3. 1960-1990 yillarda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atiga hissa qo'shgan ustozlar hayoti va ijodini o'rganing.

Tayanch iboralar:

Korik-tanlov, “Navro‘z sadolari”, “Ona yurt ohanglari”, “Baykal kubogi”, Mirza Toirov, Murod Toshmuhamedov, Boqijon Rahimjonov, Fazilat Shukurova, Anvar Lutfullayev.

Adabiyotlar:

1. Shukurova F. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. - T., 2006.
2. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995
3. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. – М., 2002, (287-288).
4. Liviyev A. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. - T., 2005.

30-DARS: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK SAN’ATI

Mustaqillik sharofati bilan fanning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berdi, milliy an‘ana va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Insonlar yangicha tafakkurga, yangicha nigoh va yangicha fikrlash doirasiga ega bo‘ldilar. Shu jumladan milliy musiqiy san‘atimizda ham sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, “Ilhom - XX” simfonik musiqa va “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivallarining aynan O‘zbekiston zaminida o‘tkazilishi jahonshumul ahamiyatga egadir.

Qayd etish lozimki, yangi davr O‘zbekiston musiqa san‘ati ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan xalq cholg‘ulari orkestri jamoalarining ham soni, ham qadri kun sayin ortib bormoqda. Mustaqillikka qadar respublikamizda asosan ikkita yirik professional jamoa – To‘xtasin Jalilov (1938) nomidagi Davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestri va Doni Zokirov (1957) nomidagi Davlat xalq cholg‘ulari orkestri faoliyat ko‘rsatib keldi. Endilikda bunday jamoalar soni yilma-yil sezilarli darajada ko‘paymoqda. Jumladan, 1991-yili “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq chol-

gʻulari kamer orkestri, 2000-yilda “Oʻzbek raqs” qoshidagi xalq cholgʻulari orkestri, 2011-yilda “Navroʻz”, 2015-yilda esa “Istiqbol yoshlari” nomli xalq cholgʻulari kamer orkestrlari oʻz ijodiy faoliyatini boshladi. Tarkib va jamoa imkoniyatlariga muvofiq repertuarga ega bu orkestrlarda ijrochilik amaliyoti yangicha yondashuvlar asosida boyimoqda.

“Oʻzbek raqs” qoshida tashkil etilgan xalq cholgʻulari orkestri, oldingi orkestrlarning ijro anʼanalaridan farqli oʻlaroq, oʻz ijrochiligiga mos maxsus yozilgan asarlardan tashqari, yirik raqs postanovkalariga joʻrnavoqlik qilish vazifasini ham bajardi. Shuningdek, ijodiy jamoa bir qator yangi turda ijod etilgan, zamon ruhi bilan yoʻgʻirilgan va yangicha qarashlar bilan boyitilgan konsert dasturlarini tinglovchilar eʼtiboriga havola etdi.

Jumladan, yirik sahnaviy asarlarning joʻshqin va keng koʻlamli jihatlarini oʻzgacha uslubda talqin etishga muyassar boʻldi. Bunga, masalan, orkestr joʻrnavoqlikida “Oʻzbek raqs” raqqosalari ijrosidagi Alisher Navoiyning “Sabʼai Sayyor” dostoniga asoslangan “Yetti goʻzal” musiqiy kompozitsiyasi yorqin misoldir. Lekin koʻp oʻtmay bu jamoaning faoliyati tugatildi. Shunday boʻlsada, jamoa oʻzining qisqa vaqt ichidagi ijodiy faoliyatida behisob imkoniyatlarga ega oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligi sanʼatining yangi qirralarini ochishga muvaffaq boʻldi. Yirik asarlarning sahnaviy talqinidagi joʻshqinlik va keng koʻlamlilik jihatlarini oʻzgacha uslub asosida ijro etdi. Shu asnoda orkestr jamoasining yana bir ijodiy imkoniyati kashf etildi va tarix zarvaralariga muhrlandi.

Sharq va Gʻarb mamlakatlari madaniy boyliklarining qadim davrlardan boshlab oʻzaro bogʻlanishi va rivojlanishida benihoya muhim oʻrin tutgan Buyuk ipak yoʻli⁷⁰ (e.av. II asr – mil. XV asr) tarixiy anʼanalari hozirda jadal kechayotgan globallashuv jarayonlari kesimida bugun dunyo afkor ommasi tomonidan ijobiy eʼtirof etilmoqda. Shu bois, diniy eʼtiqodi va irqidan qatʼiy

⁷⁰ Qitʼalararo yuzaga kelgan bu mashhur tijorat karvon yoʻli XIX-asrning ikkinchi yarmidan eʼtiboran “Buyuk ipak yoʻli” nomi bilan yuritiladi. Qarang: Rtveladze E., Великий шелковый путь, Т., “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 1998.

nazar, turli elat va millatlarning serko‘lam ijtimoiy munosabatlari-ga oid shonli sahifalarni tarixga bitgan bu qit‘alararo tijorat karvon yo‘li va bu qadimiy yo‘nalishning markazi sifatida tan olingan ko‘p asrlik O‘zbekiston madaniyati kundan-kun jahon hamjamiyati e‘tiborini o‘ziga jalb etayotir. Xususan, 1987-yili YUNESKO xalqaro tashkiloti O‘rta Osiyo xalqlari madaniy tarixini atroflicha o‘rganish hamda Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan “Ipak yo‘li - muloqot yo‘li” maxsus dasturini qabul qilgan edi. Biroq o‘sha davrda mavjud mafkuraviy to‘siq va iqtisodiy omillar bois ushbu dastur doirasida belgilangan keng qamrovli ishlarning faqat ayrimlarigina hayotga tadbiiq etildi xolos.

Buyuk Istiqlol sharofati bilan mustaqil O‘zbekiston davlatida ulug‘ ajdodlarimiz yaratgan moddiy va nomoddiy madaniy merosni tiklash hamda xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalar o‘rnatish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Shu jumladan, jonajon Vatanimizda insoniyat tamadduni rivojida beqiyos o‘rin tutgan Buyuk ipak yo‘lining ilg‘or an‘analarini yangi davr sharoitiga muvofiq tiklash ishlariga alohida e‘tibor berilmoqda. Bunga, masalan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 1995-yili e‘lon qilingan farmoni yorqin misoldir.

Mustaqillik sharofati bilan 1991-yili O‘zbekiston san‘at arbobi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor F.Abdurahimova sa‘yi-harakatlari natijasida respublikamizda ilk bor o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri tashkil etildi. Ushbu jamoaning tahsinga sazovor tomoni shunda-ki, u bugungi Respublikamiz madaniy hayotida qadimiy an‘analarni zamon ruhi bilan uzviy bog‘lagan holda rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Orkestrning ijodiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, unda “Buyuk ipak yuli” madaniy an‘analarining yangi talqinlardagi o‘ziga xos ifodasini ko‘ramiz. Bu o‘rinda avvalambor “So‘g‘diyona” nomi diqqatni o‘ziga jalb etadi.

Tarixdan ma'lumki, eramizdan avvalgi III-I asrlarda mavjud madaniyat o'choqlaridan biri, "Buyuk ipak yo'li"ning markaziy chorrahasida joylashgan So'g'd davlati qadimgi dunyoda o'zining musiqa san'ati bilan ham mashhur bo'lgan. Bu madaniy maskanda kashf etilgan va o'sha davrlardayoq yaxshi rivojlangan musiqa cholg'ulari ipak yo'li orqali boshqa mamlakatlarda ham yoyila boshlagan edi. Ayniqsa, so'g'diylarning sevimli ud cholg'usi keng geografik miqyosda tarqalganligi aniqlangan. Masalan, mutaxassislar Xitoy pipasi hamda yapon bivasi so'g'd udining prototipi ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, Yevropa musiqachilari tomonidan ko'p asrlar davomida amaliy qo'llanib kelingan "lyutnya" cholg'usi va uning nomi ham aslida ud (al-ud)⁷¹ asosida yuzaga kelgan, XIII asrda Turkiya va Ispaniya Kordovasi orqali G'arb olamida keng yoyilgan so'g'd udi minnezinger, trubadur, truver kabi sayyoh musiqachilarning hamroh cholg'usiga aylangan edi.

Shu kabi milliy sozlar timsolida Sharq va G'arb musiqa madaniyatlarini ham o'zaro bog'lanishiga xizmat qilgan mashhur "Buyuk ipak yo'li" an'alarini zamonaviy kesimda qayta jonlantirish shiori ostida faoliyat ko'rsatayotgan "So'g'diyona" orkestrining asosiy maqsadlaridan biri - milliy musiqiy meros qatorida ko'xna cholg'ularimizni ham xalqaro miqyosda targ'ib qilishdan iboratdir. "Biz bugun Sharq va G'arbni bir-biri bilan uzviy bog'lagan "Buyuk ipak yo'li"ning katta mahsuli hisoblanmish o'zbek xalq cholg'ularining o'ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlarini dunyoga ko'rsatishni istaymiz", - deydi biz bilan bo'lgan suhbatda orkestrning badiiy rahbari va dirijyori Firuza Abdurahimova.⁷²

Darhaqiqat, "So'g'diyona" nomi ma'lum ramziy ma'noga ega davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri o'ziga xos ijrochilik san'ati bilan Sharq va G'arb musiqa madaniyatlarini o'zaro mustahkam

⁷¹ "Lyutnya" atamasi "al-ud" so'zining yevropaliklar tiliga moslashtirilishi natijasida yuzaga kelgan.

⁷² Muallifning F.Abdurahimova bilan 1993-yil 10-sentabrda bo'lgan suhbatidagi yozib olingan.

bog‘lashga muttasil intilayotgan ijodiy jamoa sifatida gavdalana-
nadi. Jumladan, ushbu jamoa o‘zining konsert chiqishlarida ma-
halliy muxlislar, tinglovchilar e’tiborini, bir tomondan, milliy
cholg‘ular vositasida taralayotgan jahon musiqasi durdonalariga,
ikkinchi tomondan esa, modernizatsiya qilinishi natijasida milliy
cholg‘ularning yanada ortib borayotgan ijro imkoniyatlariga jalb
etib kelmoqda.

Shu bilan birga, muntazam ravishda xorijiy mamalakatlarga
ijodiy safar bilan tashrif buyurayotgan mazkur orkestr, kamer
tarkibda tashkil topgan bo‘lishiga qaramay, qisqa vaqt ichida ham
monodik milliy, ham ko‘p ovozli uslubdagi asarlarni o‘ziga xos
talqin etuvchi ijrochi jamoa sifatida nafaqat respublikamizda,
balki jahon musiqa olamiga ham yaxshi tanilib ulgurdi. Binobarin,
orkestr bir konsert dasturida o‘zbek milliy kuy va qo‘shiqlari,
O‘zbekiston kompozitorlarining shu jamoa uchun maxsus asarlari
va jahon klassik musiqasi durdonalarini yakkanavoz, ansambl va
yalpi ijrochilik shakllarida tinglovchilar hukmiga havola etish
salohiyatiga ega. Qolaversa, shu kabi funksional faoliyati bilan
ham bu jamoa boshqa xalq cholg‘ulari orkestrlaridan farq qiladi.

Ushbu jamoa jadal sur‘atlar bilan faoliyat olib borib tez orada
nafaqat o‘zbek xalqi, balki jahon musiqa ahlining e’tiborini o‘ziga
qaratdi. O‘zbek xalq cholg‘ularining ovoz tarovati, tembr xususi-
yatlari va ijro imkoniyatlarini qator yillar davomida chet ellarda
targ‘ib etishda o‘z hissasini qo‘shmoqda. O‘zbek xalq cholg‘ula-
rida milliy kuy-qo‘shiqlarimiz, O‘zbekiston kompozitorlarining
maxsus asarlari bilan bir qatorda jahon klassik musiqasi, turli janr
va uslubdagi asarlarni mohirona ijro etib, musiqa chegara bil-
maydi degan iborani amalda namoyon etib kelmoqda.

“So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri jamo-
asining turli mamlakatlarga ijodiy safarlari o‘laroq xorijlik ting-
lovchilarning o‘zbek musiqa san’ati bilan yaqindan tanishuvi, ayni
paytda Yevropa mumtoz musiqasi namunalarining milliy chol-
g‘ulardagi talqinlari hamda shu asosdagi Sharq va G‘arb kompo-
zitorlari va musiqashunoslarining jonli muloqotlari, qolaversa,

ushbu orkestrning o‘zga jamoalar bilan ijodiy hamkorlik rishtalari yuzaga kelmoqda⁷³.

Mustaqillik sharofati bilan Respublikamiz madaniy hayotida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, unutilayozgan milliy qadriyatlar, ko‘p asrlik marosim va urf-odatlarining tiklanishi, qadimiy va hamisha navqiron shaharlar – Samarqandning 2750 yilligi, Buxoro, Xiva, Qarshi va Toshkent shaharlarining 2500 yilligi, Marg‘ilonning 2000 yilligi, shuningdek, Alpomish dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan yirik anjumanlarning o‘tkazilishi bu fikrga yaqqol dalildir. Ayni paytda “O‘zbekiston – Vatanim manim”, “Asrlar sadosi”, “San’atimiz ustalari”, “Yagonasan, muqaddas Vatan”, “Kamalak yulduzlari”, “Ona yurt ohanglari”, “Nihol” kabi qator ko‘rik-tanlovlarining o‘tkazilishi xalqimiz ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutayotganligi barobarida o‘z Vatanga muhabbatli, xalqiga sadoqatli barkamol avlod tarbiyasida ham ahamiyatli bo‘lmoqda.

Yosh mahoratli sozanda va xonandalarimiz jahon miqyosida o‘tkazilayotgan xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritishlari Respublikamizda san’atga nechog‘lik katta e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga o‘zbek musiqasining ko‘p asrlik badiiy an’analari hamda uning Sharq xalqlari musiqasi bilan qadimdan mushtarakligi xalqaro sahnalar uzra jahon afkor ahliga tobora keng namoyon bo‘layotganligi quvonarlidir. Bu o‘rinda 1997-yildan e’tiboran ko‘hna Samarqand shahrida har ikki yilda bir marotaba muntazam o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ahamiyati katta bo‘ldi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Sharq musiqasi – Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o‘rni benihoya

⁷³ Ushbu jamoa haqida batafsil ma’lumot A.Tashmatovanning “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri nomli monografiyasida berilgan.

buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda”⁷⁴.

Shuni ta’kidlash kerakki, jahon hamjamiyatida munosib maqomga ega bo‘layotgan Vatanimizda so‘nggi o‘n yillik davomida tahsinga sazovor yirik musiqiy asarlar ijod etildi. O‘zbek kompozitorlarining bugungi kunda jahon andozalariga mos yaratilayotgan musiqiy asarlari fikrimizning dalilidir. Jumladan, taniqli kompozitor M.Bafojevning Abror Hidoyatov nomli teatr aktyorlari hamkorligida sahnalashtirilgan “Buyuk ipak yo‘li” nomli tele-shou asarining 2001-yil iyun oyida YUNESKO tomonidan Parijdagi “Odeon” teatrida Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan anjumanda ko‘rsatilishi alohida olqishga sazovordir. Qolaversa, kino, televidenie, teatr va musiqiy jamoalarning repertuarlaridan davr talabiga hamnafas tarixiy shaxslar siymosi bilan birga zamonamiz qahramonlarini milliy ruhda ifoda etuvchi asarlar ham alohida o‘rin egallamoqda.

Bunga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, iste’dodli kompozitor M.Bafojev tomonidan o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratilgan “Nodira” telebaleti va “Buxoroi-Sharif” teleoperasi hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mahoratli kompozitor Q.Komilovning “Bir siqim tuproq” poemasi va “Ozod Vatan” oratoriyasi misol bo‘la oladi. Telebalet va teleopera janrlarining yuzaga kelishi xalq cholg‘ulari orkestri ijrochiligi tarixida yangilik bo‘lib, jamoani yangi vazifalarni bajarishga jalb etdi.

Shuningdek, M.Bafojevning “Hajnoma” oratoriyasining II va IV qismlarida simfonik orkestri tarkibida o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli va yakka holdagi milliy cholg‘ularning qo‘llanilishini kuzatish mumkin. M.Bafojevning Sohibqiron Amir Temur taval-ludining 660 yilligiga bag‘ishlangan “Buyuk ipak yo‘li” shou musiqali asarida esa simfonik orkestr bilan birga chang-qovuz,

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezident I.Karimovning “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik so‘zi //”Sharq taronalari” jurnali. - T., 1999, 3-bet.

ud, qonun, nay, nog'ora, doyra kabi o'zbek xalq cholg'ularining ishlatilishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Buning natijasida orkestr ijrosida yevropacha janr va shakllar, ya'ni M.Bafoyevning "Buxoroi-Sharif" (Xurshid Davron librettosi asosida 1997-yilda yozilgan) teleoperasi, "Nodira" (Yulduz Ismatova librettosi) telebaleti, Q.Komilovning "Ozod Vatan" (shoir Muhammad Ali so'ziga 1999-yili yozilgan) oratoriyasi kabi asarlar milliy mavzular bilan uyg'unlashdi. Aynan ushbu asarlar tarixiy shaxslar va tarixiy obidalarga bag'ishlangan bo'lib, ularning siymosi an'anaviy xonandalar va milliy cholg'ular orqali aks ettirilgan.

Shuningdek har xil ijro yo'lidagi badiiy jamoalar birgalikda ijodiy faoliyat olib bordilar. Masalan, M.Bafoyevning "Buxoroi-Sharif" teleoperasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri fortepiano cholg'usi va xor jamoasi bilan birgalikda, Q.Komilovning "Ozod Vatan" oratoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri simfonik orkestrning kamonli cholg'ular guruhi bilan birgalikda ijro etishini ko'ramiz. Qolaversa, orkestr jamoalari teatrlashtirilgan ommaviy sahnalarda ham ishtirok etmoqda.

Mustaqillik davrida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri oldida turgan vazifalardan biri yangi va yirik shakldagi asarlarni o'zlashtirish, kompozitorlarning zamonaviy asarlarida qo'llanilgan zarblar va tovush chiqarish usullarini egallash, hamda ijrochilik mahoratini o'stirishdan iborat edi. Kompozitorlar o'zlarining maxsus asarlarida an'anaviy ijro uslublari bilan keng foydalanish mezoniga ahamiyat qaratganliklari milliylik omillarining saqlanib qolishidan dalolatdir.

Orkestr oldida turgan vazifalardan yana biri esa zamonaviy ijro uslublari bo'lgan *aleotarika* unsurlari, shuningdek, *nola*, *qochirim*, *glissando* va boshqalarni o'rganib, kompozitorning badiiy g'oyasini batafsil yoritib berishdan iborat edi. Shu bilan birga orkestr yirik shakl va turli uslublarda yozilgan asarlarni muvaffaqiyat bilan yuqori saviyasida ijro etishga erishdi.

Mustaqillik yillarida orkestrning ijodiy faoliyatida yangicha munosabatlar boshlandi. U nufuzli yirik davlat tadbirlari va xalq-

aro anjumanlarda o‘z konsert dasturlari bilan ishtirok eta boshladi. Mustaqillik va Navro‘z tantalariga bag‘ishlangan bayram konsertlarida qatnashishi, yosh sozandalarning birinchi respublika ko‘rik-tanlovlari, Xalqaro milliy cholg‘ular ansambli va orkestrlari festivali (2001), Xalqaro simfonik musiqa festivali doirasidagi konsertlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Orkestr konsert dasturlarini kuzatar ekanmiz, endilikda jamoa nafaqat o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari, O‘zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlariga, balki jahon klassik asarlari durdonalariga ham tez-tez murojaat eta boshladi. Bu hol, shubhasiz, sozandalarning ijrochilik mahoratini o‘stirish bilan birga ularning ma’naviy dunyosini ham boyitishga xizmat qilmoqda,

- Mustaqillik sharofati ila boshlangan milliy uyg‘onish davri xalq cholg‘ulari orkestri ijodkorlari va ijrochilarini yangi ijodiy marralar sari ilhomlantirdi.
- O‘zbekiston kompozitorlarining ijodida ona yurtga muhabbat, ulug‘ ajdodlar jasorati, azaliy va umrboqiy qadriyatlar tarannumi ustivor mavzular qatoridan o‘rin oldi.
- Ilgari surilgan yangi g‘oya va mavzular ifodasi o‘ziga muvofiq yangi shakl va janrlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.
- Turli san’at va janrlarning o‘zaro birikuvi o‘laroq teleopera, telebalet kabi yangi sintez janrlar yuzaga keldi. Tabiiyki, ijodkorlikdagi bunday yangilanishlar orkestr ijrochiligida ham o‘z aksini topdi. Bu hol, jumladan:
 - rang-barang cholg‘u guruhlarini impressionistik ruhda talqin qilinishida;
 - turli tembr qo‘shilmalari asosida kashf etilayotgan yangi tovush-bo‘yoqlari ifodasida;
 - an’anaviy va ko‘povozli “yozma” ijrochilik uslublarning bir asar davomida o‘rinli va unumli qo‘llanishida;
 - shu asnoda xalq cholg‘ularining benihoya boy ovoz tarovati va ijrochilik imkoniyatlarining keng namoyon bo‘lishi kabilarda kuzatilmoqda.

Erishilayotgan ushbu ijodiy natijalar pirovardida zamonaviy O‘zbekiston madaniyati yangi musiqa asarlari va serjilo orkestr ijrochilik an’analari bilan boyib bormoqda.

Firuza Abdurahimova va Xalq cholg‘ulari fakulteti tashabbusi bilan 1978-yildan boshlab har yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Davlat mukofoti laureati, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri asoschisi Ashot Ivanovich Petrosyansning xotirasiga bag‘ishlangan hisobot konsertini o‘tkazish an’anaga aylangan edi. Bu anjuman avval “Telman” nomli Madaniyat va istirohat (hozirgi Bog‘i-eram) bog‘ida o‘tkazilib, unda Toshkent shahridagi barcha professional hamda o‘quv ansambl va orkestrlari qatnashgan. Konsert boshlanishidan avval kafedra dotsenti Rustam Xo‘jayev Ashot Petrosyansning hayoti va ijodi bilan tinglovchilarni tanishtirib o‘tardi.

1996-yildan boshlab ishtirokchilar safi kengayganligi tufayli ushbu sana Respublika miqyosida o‘tkazila boshlandi. Va nihoyat, 2001-yildan e’tiboran ko‘p ovoqli ansambl va orkestrlar festivaliga aylandi. 2008-yildan bu festival “Navro‘z sadolari” deb yuritila boshlandi. Ushbu tadbirning o‘tkazilishiga “Sog‘lom avlod” Xalqaro nodavlat jamg‘armasi, “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi (2008), O‘zbekistondagi Shveysariya elchixonasining Shveysariya hamkorlik byurosi (2012), Birlashgan millatlar tashkilotining Informatsion Markazi (2015) hamda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati (2017) yordam bera boshladi.

2015-yildan e’tiboran ushbu festival Xalqaro tadbirga aylandi. Festivalda matabgacha ta’lim muassasalari, bolalar musiqa va san’at maktablari, musiqa kolleji va akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlarining ijodiy jamoalari ishtirok etishdi. Shuningdek Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hamda Tojikistondan hamkasb mehmonlarimiz o‘z badiiy jamoalari bilan tashrif buyurishdi. Olti kun davomida har bir badiiy jamoa o‘z ijrochilik mahoratini namoyish etdi. Shu bilan birga milliy cholg‘ular bilan tanishtirish darslari ham o‘tkazildi. Jamoalar va ishtirokchilar soni ko‘payganligini inobatga olgan holda ularni tinglash ikkiga bo‘lindi, ya’ni 2016-yildan boshlab, juft yillarda musiqa kollejlari,

akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlari badiiy jamoalari, toq yillarda esa maktabgacha ta’lim muassasalari hamda bolalar musiqa va san’at maktablarining ansambl va orkestrlari festivalda ishtirok etishi belgilab olindi.

Yildan-yilga jamoalar va ishtirokchilar safi kengayib bormoqda. Bu yurtimizda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa joriy yilda, ya’ni 2017-yilda o‘tkazilgan festival barcha ishtirokchilar va tinglovchilar qalbida chuqur iz qoldirdi. Bu yilgi tadbirda barcha jamoalar dasturiga ikkitadan majburiy asarlar kiritilgan bo‘lib, bu hay’at a’zolariga g‘oliblarni aniqlashga imkon yaratadi. Andijon viloyati, Andijon shahar 3-bolalar musiqa va san’at maktabining Shaxnoza Mo‘minova rahbarligidagi “Navo” orkestri o‘zining ijrosi bilan barchani lol qoldirdi.

Ayniqsa ular ijrosidagi uchinchi ixtiyoriy asar yakkaxon Dilfuza Rahimovaning (xor rahbari Nigora Hamroyeva) orkestr va xor jo‘rligidagi Yu.Usmonovanning “Xech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston” qo‘shig‘ining satrlari mazmun jihatdan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov nutqi bilan hamohang tarzda katta ekranda ko‘rsatilib, ijro etilganida zaldagi barcha tinglovchilar tik turgan holda tinglashdi. Yurtboshimizning – “Mana shu erda yig‘ilgan barcha bolajonlar, men sizlarni ham-mangizni yaxshi ko‘raman, kerak bo‘lsa sizlarga jonimni ham fido qilaman”, - degan so‘zlari festival ishtirokchilari, ya’ni bolajonlarimizni yanada ruhlantirdi. Festival haqiqatdan ham musiqa bayramiga aylandi.

Bunday festivallarning o‘tkazilishi cholg‘u ijrochiligi, qolaversa ko‘p ovozli ansambl va orkestrlar ijrochilik san’atining yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Shuningdek yoshlarimizning dunyoqarashini kengaytirib, estetik didini boyitishga hamda komil insonlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bu borada “xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedراسi professor-o‘qituvchilari-ning xizmatlari va hissaları beqiyosdir.

Shu bilan birga 2014-yildan boshlab, ikki yilda bir marotaba xalq cholg‘ulari bo‘yicha “Ona yurt ohanglari” nomli Xalqaro

miqyosda o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlov ham O‘zbekistonda cholg‘u ijrochiligi san‘atining yuqori saviyada ekanligidan dalolat beradi. Tanlov ishtirokchilarining majburiy asar sifatida o‘zbek xalq kuylari va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarini turli xalqlar cholg‘ularida ijro etishi kishiga o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi hamda dunyoga keng targ‘ib etilishiga yorlam beradi. Xorijda o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlarda O‘zbekistonlik yoshlarning nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritishlari ham buning yaqqol isbotidir. Bularning barchasi xukumatimiz tomonidan musiqa san‘atiga berilayotgan e‘tiborning natijasidir.

O‘zbekiston kompozitorlarining mustaqillik yillarida yaratgan aksariyat asarlarida ma‘naviy tiklanish g‘oyasi ilgari surilgan edi. Shu bois ham bu asarlarda ko‘proq o‘tmish manbalariga, xalq qahramonlariga murojaatlar, Vatanga bo‘lgan muhabbat kabi mavzularning ustivorligi kuzatiladi. Bu jarayon M.Bafojev, T.Qurbonov, F.Alimov, Q.Komilov, A.Mansurov kabi kompozitorlarning asarlarida o‘z ifodasini topganligini e‘tirof etish lozim. O‘z navbatida, bunday urinishlar musiqa ijodiyotida yangi shakl va janrlarni yuzaga keltirdi.

Hozirgi kunda orkestrlarga bo‘lgan e‘tibor ortib borayotganligi, ularning repertuarlarida milliy ruhdagi asarlar salmog‘iga katta ahamiyat berilayotgani sir emas. Vatan, tarixiy voqealar, tarixiy qahramonlar, buyuk shaxslar va tarixiy obidalarni madh etuvchi qator asarlarning yaratilishi shular jumlasidandir. Mana shunday asarlardan biri M.Bafojevning bir pardali “Nodira” telebaletidir. Tarixiy shaxslarni madh etuvchi ushbu asar Yulduz Ismatova librettosi asosida 1992 yilda yozilgan⁷⁵.

D.Zokirov orkestri uchun maxsus yaratilgan yangi asarlar qatorida M.Bafojevning “Buxoroi-Sharif” teleoperasi⁷⁶ (Xurshid Davron librettosi) hamda Qahramon Komilovning “Ozod Vatan” oratoriyasi diqqatga sazovordir. Buxoroning 2500 yilligiga bag‘ishlangan “Buxoroi-Sharif” teleoperasi tuzilishi jihatidan ikki

⁷⁵ Asar haqida batafsil ma‘lumot A.Tashmatovanning D.Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri monografiyasida berilgan (77-84).

⁷⁶ Bu haqda qarang: A.Tashmatova “Buxoroi-Sharif” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2007.

doston va yigirma ikki naqshni o‘z ichiga qamrab olingan bo‘lib, ilk bor 1997 yilda Buxoro shahrining yubileyiga bag‘ishlangan konsertda lavhalar tarzida ijro etilgan.

Qahramon Komilovning “Ozod Vatan”⁷⁷ nomli oratoriyasida esa ulug‘ tarixiy shaxslar – Amir Temur, Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho‘lpon kabi buyuk ajdodlarimizning o‘z Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati va sadoqati o‘z ifodasini topgan. Ayni vaqtda mazkur asarlar yangi farovon hayot va kelajagi buyuk Vatanimizni betakror ohanglar vositasidagi tarannumi hamdir.

2011-yil noyabr oyida “Navro‘z” xalq cholg‘ulari kamer orkestri o‘z ijodiy faoliyatini boshladi. 2013-yil noyabr oyida orkestrning taqdimot konserti bo‘lib o‘tdi. Ushbu konsert jamoaning badiiy rahbari va dirijyori Sh.Umarov tomonidan orkestr uchun maxsus yozilgan “To‘yona” asari bilan boshlandi. Ushbu asar tadbir ishtirokchilari, yoshlar va xorijiy mehmonlarga bayramona kayfiyat bag‘ishladi. So‘ngra respublika tanlovlari sovrindorlari - M.Bozorov va N.Safarovlar qashqar rubobida T.Azimovning “Durдона” asarini ijro etib, tinglovchilarga cholg‘uning yoqimli ovoz tarovatini havola etishdi. Nayda respublika tanlovi sohibi A.Xusanov I.Baxning “Si minor syuitasi”dan “Hazil” asarini orkestr jo‘rligida ijro etib, cholg‘uning ijro imkoniyati, tembr xususiyati va o‘zining ijro mahoratini namoyish etdi. “Nihol” davlat mukofoti sovrindori A.Qo‘ldoshevaning orkestr jo‘rligida ijro etgan “Tanovar” o‘zbek xalq kuyi tinglovchilarga huzur baxsh etdi.

Respublika tanlovlari laureati Vahob Qurbonovning qonunda ijro etgan, Komiljon Shermatov tomonidan bastalangan “Sharqona navo” musiqasi tomoshabinlarni befarq qoldirmadi. Ular cholg‘uning shirali va jozibali ovoz tarovatidan bahra oldilar. Xalqaro va Respublika tanlovi sohibi Ixtiyor Abdunabiyev afg‘on rubobida Usta Muhammad Umarning “Gullar raqsi”ga “Fantaziya”si orqali cholg‘uning yoqimli va mayin ovoz tarovatini namoyish etishga muyassar bo‘ldi. Konsert dasturi orkestr va raqqosalar

⁷⁷ Ushbu asar haqida ma‘lumot A.Tashmatovanning D.Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ orkestri nomli monografiyasida berilgan. 86-94 betlar.

guruhi ijrosidagi Markaziy Osiyo xalqlari kuylari asosidagi “Popurri” asari bilan yakunlandi.



“Navro‘z” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, yakkaxon Halima Baratova

“Navro‘z” jamoasi - nay, qo‘shnay, surnay, chang, qonun, rubob-prima, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, dutor prima, dutor alt, dutor bas, g‘ijjak kabi cholg‘ulardan tarkib topgan 17 nafar iqtidorli sozandalardan iborat. Ularning har biri xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlari sovrindorlari, o‘z ijro mahoratiga ega bo‘lgan betakror musiqachilardir. Ular nafaqat cholg‘u ijrochiligi, balki orkestr ijrochiligi san‘atining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. “Jamoaning nomini “Navro‘z” deb atashdan maqsadim, hammaga chiroyli konsert dasturlari orqali yil davomida bayramona kayfiyat baxsh etish”⁷⁸, - deb javob berdi Sherzod Umarov biz bilan bo‘lgan suhbatda.

Shu bilan birga yangi ovoz sohiblari va betakror sozandalar bilan ijodiy muloqotda bo‘lib, ular hamkorligida yangidan-yangi konsert dasturlarini yaratishga intilmoqda. Jumladan: Ozarbayjon madaniyat markazida ishlaydigan soz va garmon ijrochisi Ilhom Abdullayev bilan hamkorlikda Ozarbayjon kompozitorlari asarlaridan konsert dasturini televidenie orqali yozishga muvassar

⁷⁸ Muallifning 2013-yil 5-noyabrda Sh.Umarov bilan bo‘lgan suhbatidan.

bo'ldi. Ushbu konsert dasturi Boku televideniesi orqali ham namoyish etilmoqda. O'zbekiston Uyg'ur madaniy markazining "Guldasta" ansambli bilan hamkorlikda "Uyg'ur navolari" nomli "Do'stlik" konsert dasturini o'tkazdi. Jamoaning kelgusida yurtimiz dovrig'ini milliy sozlarimizdagi ijrochilik san'ati orqali dunyoga targ'ib etishda faol jamoalardan biriga aylanishini istab qolamiz.

"Navro'z" orkestrining konsert dasturlari dunyoning barcha burchaklarida televidenie va "Internet" tarmoqlari orqali namoyish etilmoqda. Keng qamrovli mutaxassislar va musiqa ixlosmandlari jamoa haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirmoqda. Shuningdek, xorijiy jamoalar bilan hamkorlikda ijod etish hamda turli tadbirlarda ishtirok etishlari uchun takliflar bildirilmoqda.

Mana shunday jamoalarning tashkil etilishi va O'zbekiston musiqa madaniyatida o'z o'rniga ega bo'lishi respublikamizda o'zbek xalq cholg'u orkestrlari ijrochiligining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Qolaversa, ushbu konsert dasturi yoshlarni komil inson bo'lib yetishishlariga, ularni umumbashariy qadriyatlar, ulkan va boy milliy madaniy merosimizga hurmat-ehтиrom, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek yangidan-yangi jamoalarning tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Savollar:

1. Mustaqillik davrida qanday professional orkestrlar faoliyat olib borgan?
2. Mustaqillik sharofati bilan yangi turdagi qaysi jamoa o'z ish faoliyatini boshladi?
3. "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri qachon tashkil etilgan?
4. "O'zbek raqs" qoshida qanday orkestr tashkil etildi?
5. "Navro'z" xalq cholg'ulari kamer orkestri qachon tashkil etilgan?
6. "Istiqlol yoshlari" xalq cholg'ulari kamer orkestri-chi?

7. Talabalarimiz qaysi xalqaro sahnalarda yutuqlarni qo‘lga kiritishmoqla?
8. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda qanday ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda?
9. Yurtimizda o‘tkaziladigan qanday musiqa festivallarini bilasiz?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2, 3 va 4 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrlarning ijodiy faoliyatini o‘rganing.

Tayanch iboralar:

“O‘zbek raqs”, “So‘g‘diyona”, “Buyuk ipak yo‘li”, yangicha munosabatlar, “Navro‘z sadolari”, “Ona yurt ohanglari”, “Nodira” telebaleti “Buxoroi-Sharif” teleoperasi, “Ozod Vatan” oratoriyasi, “Navro‘z” orkestri.

Adabiyotlar:

1. Tashmatova A. “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. T., 2016.
2. “SO‘G‘DIYONA” ijod tilsimi. T., 2013
3. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi Davlat xalq cholg‘ulari orkestri. T., 2015.
4. Tashmatova A. Buxoroi -Sharif. - T., 2007.
5. Лутфуллаев А. История исполнительства на узбекских народных инструментах. - Т., 2010.

31-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT.

Mavzularni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida berilgan adabiyotlarni mutolaa qilib, berilgan topshiriqlarni bajaring.

O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’atining rivojlanishida ko‘rik-tanlovlarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganing.

1. Mirza Toirovning hayoti va ijodini.
2. Murod Toshmuhamedovning ijodiy faoliyatini.
3. Boqijon Rahimjonovning sozgarlik san’atini.
4. Fazilat Shukurovaning konsert-ijrochilik faoliyatini.
6. Anvar Lutfullayevning ilmiy-uslubiy ishlarini o‘rganing.

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni o‘rganib chiqing.

Mohir sozanda va ustoz-murabbiylar hamda “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasida faoliyat olib borgan mohir sozgar ustalarning hayoti va ijodini o‘rganing.

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma’lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta’riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

32-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

2-oraliq nazorat uchun yozma ishni tayyorlash va topshirish. O‘quv yili 2-semestrining 16 haftasi mobaynida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalaringizga tayanib 2-oraliq nazorat (2-ON) haftaligi talabiga ko‘ra ijodiy ish sifatida tavsiya etilgan yozma ishni belgilangan muddatda sinov komissiyasiga **taqdim etishingiz lozim.** Yozma ishning sifati

beriladigan bahoga katta ta'sir ko'rsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Ko'rsatilgan kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring va yozma ishingizga zarur tuzatishlar kiriting.

Savollar:

1. Mustaqillik davrida qanday professional orkestrlar faoliyat olib borgan?
2. Mustaqillik sharofati bilan yangi turdagi qaysi jamoa o'z ish faoliyatini boshladi?
3. "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri qachon tashkil etilgan?
4. "O'zbek raqs" qoshida qanday orkestr tashkil etildi?
5. "Navro'z" xalq cholg'ulari kamer orkestri qachon tashkil etilgan?
6. "Istiqlol yoshlari" xalq chol g'ulari kamer orkestri-chi?
7. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda qanday ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda?
8. Yurtimizda o'tkaziladigan qanday musiqa festivallarini bilasiz?

Quyidagi variantlardan birini yozma ravishda topshiring:

1. H.Rahimovning T.Jalilov nomidagi orkestr uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.
2. H.Rahimovning D.Zokirov nomidagi orkestr uchun yaratgan asarlaridan birini partitura bilan tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.
3. H.Rahimovning "So'g'diyona" orkestri uchun yaratgan asarlaridan birini partiturasini bilan tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.

33-DARS: “SO‘G‘DIYONA” DAVLAT XALQ CHOLG‘ULARI KAMER ORKESTRINING IJODIY FAOLIYATI

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach boshlangan yangi davrda fan va texnika taraqqiyoti, adabiyot va san’at ravnaqi, milliy qadriyatlar rostdan uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Shu jumladan, musiqa san’ati jabhasida yangidan- yangi ijodiy jamoalarning shakllanishiga muhim zamin hozirlandi. Ana shunday sharoitda, aniqrog‘i, 1991-yilning sentyabr oyida “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri tashkil topdi.



“Sogdiyona” xalq cholgulari kamer orkestri. Dirijyor F.Abdurahimova.

Qadimiy an’analarni qayta tiklab, ularga zamonaviy ruh bag‘ishlashga intilayotgan, musiqa orqali turli xalqlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni mustahkamlashga bel bog‘lagan ushbu jamoa qariyb 25 yillik ijodiy faoliyati davomida turli festivallar, ko‘rik-tanlovlar va anjumanlarda faol ishtirok etib, milliy musiqa san’atining yangi davrdagi rivoji hamda uni jahon uzra keng targ‘ibiga katta ulush qo‘shib kelmoqda. Bugungi kunda ko‘plab Yevropa mamlakatlari xalqlarining o‘zbek milliy cholg‘ulari, shu asosdagi orkestr ijrochiligi va umuman, musiqa madaniyatimizga nisbatan

tobora ortib borayotgan diqqat-e'tiborida "So'g'diyona" jamoasi-ning ham ozmi-ko'pmi hissasi bor, albatta.

Konsert dasturlarini tuzishda F.Abdurahimova, tinglovchilar-ning estetik talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, asosiy e'ti- borni yigirmadan ortiq turga ega milliy cholg'ular ijrosidagi kuy- larni yorqin tarannum etishga, hamda cholg'ularning ijro imkoni- yati va sozandalarning mavjud mahoratini to'liq namoyon qilishga qaratadi. Har bir dasturda, odatda, mumtoz milliy kuy va qo'shiq- lar bilan bir qatorda zamonaviy kompozitorlarning asarlari hamda jahon klassik musiqasi durdonalari alohida o'rin egallaydi. Bino- barin, o'z repertuari va ijro uslubiga ega, ayni paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda zamon bilan hamnafas odimlayotgan orkestr jamoasi haqli ravishda keng jamoatchilik va san'at ahlining xurmatiga sazovor bo'lmoqda.

"So'g'diyona" jamoasi bilan doimiy ijodiy muloqotda bo'lgan kompozitorlar – Farhod Alimov, Mustafo Bafoyev, Habibullo Rah-mov, Avaz Mansurov, Muhammadjon Otajonov, Dilorom Saydaminova, Dmitriy Yanov-Yanovskiy va Akrom Hoshimov- lar orkestrning ijrochilik imkoniyatlarini keng yoritib beruvchi maxsus asarlarni yaratdilar. Hozirgi kunda orkestr repertuaridagi 500 dan ziyod musiqiy asarlar asosini o'zbek an'anaviy musiqasi, Sharq xalqlarining kuy va qo'shiqlari, shuningdek O'zbekiston va jahon kompozitorlarining asarlari tashkil etadi.

1993-yili orkestrning Sankt-Peterburgga qilgan ijodiy safari jamoa uchun muhim sinovlardan biri bo'ldi. Jumladan, O'zbekis- ton tasviriy san'ati ustalari ko'rgazmasi doirasida orkestr uchta konsert berdi. Birinchi konsert Rossiya rassomlar uyushmasi Sankt-Peterburg bo'limidagi ko'rgazmalar zalida, ikkinchi kon- sert - Sankt-Peterburg konservatoriyasining kichik zalida, uchin- chi konsert - mahalliy o'z-o'zini himoya qilish organi Munitsipal madaniyat saroyida namoyish etildi.

Orkestr va uning jo'rnavozligida ishtirok etgan yakkaxon va yakkanavozlarning mahorati keng tinglovchilar ommasini o'ziga rom etdi. Did bilan tuzilgan dasturdan joy olgan an'anaviy musiqa hamda O'zbekiston kompozitorlari ijodidan namunalar,

shuningdek Bax, Sarasate, Falo, Gavrilin kabi ijodkor mualliflarning asarlarini jamoa katta muvaffaqiyat bilan ijro etdi.

1995-yilning noyabr oyi “So‘g‘diyona” orkestrining ijodiy faoliyatida unutilmas sanalardan biri bo‘lib qoldi. Chunki shu kuni jamoa O‘zbekiston Xalqaro madaniy-ma‘rifiy aloqalar Milliy assotsiatsiyasi zalida BMTning 50 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konsertda munosib qatnashdi. Do‘stlik uyida yig‘ilgan ijodiy uyushmalarning vakillari va jurnalistlarni “So‘g‘diyona” orkestri o‘z konsert dasturi bilan bir necha daqiqa bo‘lsada Sharq musiqa va poeziyasining qadimiy va zamonaviy dunyosidan bohabar etish baxtiga musharraf bo‘ldi.

1999-yili “So‘g‘diyona” jamoasining yangi konsert mavsumining ochilishiga tayyorlangan dasturini tinglagan Toshkentdagi Gyote instituti rahbari Elizabet Lottaro xonim o‘z dil so‘zlarini quyidagicha ifodalaydi: “Men ijrochilarning yuqori professional mahoratidan hayratdaman, “So‘g‘diyona” dasturini birinchi marta tinglashim emas, lekin bugun yangi asarlari bilan tanishdim. Bu o‘ziga xos ajoyib jamoa, ularning ijodiy diapazoni juda keng, ijrochilari esa ham yoqimtoy, ham tinglovchilar bilan osongina jonli muloqot olib borish mahoratiga ega. Men har safar orkestr konsertidan olam-olam estetik zavq olaman va rohatlanaman”⁷⁹.

F.Abdurahimova tashabbusi bilan 2001-yilning 10-15 may kunlari “Toshkent bahori - 2001” nomli I-Xalqaro milliy cholg‘ular ansambli va orkestrlarining festivali bo‘lib o‘tdi. Bu anjumaning o‘tkazilishi pirovardida “So‘g‘diyona” jamoasining xalqaro obro‘-e‘tibori yanada ortdi. Ushbu ajoyib festival Zarafshon-Nyumont qo‘shma korxonasi, “O‘zbek sanoat” Korporatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fransiya, Indoneziya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston elchixonalari, Tatariston vakolatxonasi hamda O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi yordamida o‘tkazildi.

Festival konsertlarida Maddi Oenar rahbarligidagi Baskov mamlakati musiqachilari (Fransiya), Xalqaro konkurs laureati Qozon davlat konservatoriyasi xalq cholg‘ulari orkestri (Rossiya),

⁷⁹ Elizabet Lottaro xonimning F.Abdurahimovaga yo‘llagan maktubidan. 1999 y.

“Anklung” (Indoneziya), Tattimbet nomidagi qozoq xalq cholgʻulari akademik orkestri (Qozogʻiston), Qirgʻiziston respublikasida xizmat koʻrsatgan jamoa, “Karamoldo Orozov” nomli xalq cholgʻulari akademik orkestri ishtirok etdi. Konsertlarda nafaqat mutaxassislar, balki keng tinglovchilar ommasi ham hozirgi zamon cholgʻu madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga muayassar boʻlishdi.

“Soʻgʻdiyona” jamoasining 1999-yilning 24-martida “Zarafshon” konsert zalida boʻlib oʻtgan “Vesenniy xorovod” nomli konsertini alohida taʼkidlab oʻtish joizdir. Dasturda yangragan Avaz Mansurovning “Yangra, doyra jarangla!” uvertyurasi, Ilyos Rahimovning “Sabo” hamda oʻzbek, eron va arab xalq kuylari ushbu konsertning qiziqarli va mazmunli oʻtishini taʼminladi. Ikkinchi boʻlimda esa turli mamlakat kompozitorlarining qayta ishlagan asarlari ijro etildi. I.Baxning “Hazil”, V.Montining “Chardash”, Dj.Rossinining “Tarantella” va S.Djoplinning “Regtaym” asarlari ayniqsa yoqimli va yorqin jarangladi.

Jamoa 1998, 2000, 2002-yillarda Toshkentda oʻtkazilgan xalqaro simfonik musiqa festivallari doirasida oʻtkazilgan chiqishlari orqali anjumanga tashrif buyurgan mehmonlar qalbini oʻz sanʼati va ajoyib mahorati bilan rom eta oldi. Nazira Tursunova va Nodir Ibrohimovlar ijrosida yangragan N.Norxoʻjayevning rubob prima va oʻzbek xalq cholgʻulari kamer orkestri uchun yozilgan “Navroʻz uforisi” dueti hamda M.Bafoyevning “Buxorocha konsert” asarlari tomoshabinlarda katta taasurot qoldirdi.

2002-yilning 22-martida Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi yangi binosining ochilishiga bagʻishlangan konsert dasturida “Soʻgʻdiyona” jamoasi “Oʻzbek xalq termalari” bilan ishtirok etdi. Shu yilning 21-noyabr kuni Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining katta konsert zalida “Soʻgʻdiyona” milliy cholgʻulari kamer orkestri ijodiy faoliyatining 10 yilligiga bagʻishlangan bayram tantanasi boʻlib oʻtdi. Dastur teatrlashtirilgan holda olib borildi. Konsertni boshlashdan avval har bir milliy cholgʻular haqida shoirlarimizning sheʼrlari oʻqildi, sheʼr oʻqilayotgan paytda esa aynan oʻsha cholgʻuni ifodalovchi kuylar yangradi.

“So‘g‘diyona” orkestri o‘zining ijro mahoratini 2003-yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Davr sadolari” festivalida yorqin namoyon etdi. 2006-yili “So‘g‘diyona” orkestri “Kuz navolari” nomli musiqiy festival doirasida konsert dasturi bilan qatnashdi. Jamoaning chiqishi 24-noyabrda Hamza nomidagi musiqa kolleji (hozirda-V.Uspenskiy nomidagi RIMAL) ning katta konsert zalida bo‘lib o‘tdi. Konsertda yakkanavoz sifatida turk sozandasi Xasan Niyazi Ture, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Adiba Sharipova va Alisher Navoiy nomidagi opera va balet davlat Akademik katta teatrining yetakchi xonandasi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shukur G‘ofurovlar ishtirok etdilar.

“So‘g‘diyona” nafaqat turli uslub va yo‘nalishdagi asarlarni, balki ommabop va mashhur asarlarni ham o‘zbek xalq cholg‘ularida ijro etishga qodir jamoadir. Bunga 2008-yil oktyabr va 2009-yil mart oylarida bo‘lib o‘tgan “Unutilmas ohanglar” nomli konsert-shoulari misol bo‘la oladi. Orkestr “Mahallada duv-duv gap”, “Maftuningman” (M.Leviyev, M.Burxonov, I.Akbarov musiqasi), “Yor-yor” (D.Zokirov musiqasi), “Avtomobildan saqlanib”, “Ishdagi ishq” (A.Petrov musiqasi) kinofilmlaridan musiqalarni, shuningdek, Pol Moria, Ennio Morrikone, Nino Rota, Astore Pyassollilarning ijodlaridan mashhur kuylarni ilhom bilan ijro etib, tinglovchilar qalbini rom etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yillik shonli sanasini yildan-yilga tobora ravnaq topayotgan “So‘g‘diyona” orkestri katta ijodiy yutuqlar va yangi konsert dasturlari bilan kutib oldi. Jamoa 2011-yilning 23-fevralida ana shu sanaga bag‘ishlab konservatoriyaning katta zalida “Yoshlik navolari” hamda 2011-yilning 28-noyabrda “O‘zlikka yo‘l” nomli gala konserti “Turkiston” konsert zalida ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. Ushbu ijodiy hisobot konsert dasturida nafaqat orkestr uchun yozilgan maxsus asarlar, balki yakkaxon va yakkanavoz uchun mo‘ljallangan asarlar ham joy olgan edi.

“So‘g‘diyona” orkestri o‘zining ijro mahorati va betakror jozibadorligi bilan O‘zbekiston kompozitorlari uchun o‘ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini ham o‘tab kelmoqda. Kompozitorlar

o‘zbek xalq cholg‘ularining yangi sadolanish qirralarini kashf etishlarida aynan shu jamoa tajriba-sinov “maydoni” bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, A.Mansurovning “Yangra, doyra, jarangla!”, “Moziydan sado” poema-fantaziyasi, H.Rahimovning fantaziya va “Sirli tun” asari, N.Norxo‘jayevning “Navro‘z ufo-risi”, D.Saydaminovanning “Niti snov tumannix”, “Sarob” kabi asarlari shunday izlanishlarning samarasidir.

A.Mansurovning “Yangra, doyra, jarangla!” uvertyurasi 1993-yili “So‘g‘diyona” jamoasi uchun maxsus yaratilgan. Yosh jamoa kompozitorni original tuzilishi hamda xalq cholg‘ularining yangi tembrlarini yoritish olish imkoniyatlari bilan o‘ziga jalb etdi. “Men “So‘g‘diyona” uchun uvertyura janrini tasodifan tanlaganim yo‘q. Uvertyura – bu katta sahnaviy asarlarning vizit kartasidir. Men ham o‘z uvertyuramni dunyo hamjamiyatida obru-e‘tiborga ega bo‘lgan yosh jamoaga vizit kartasi sifatida taqdim etdim. Ushbu asarda men butun orkestr jamoasidan emas, balki faqatgina ruboblar, dutorlar, doyra va zarbli cholg‘ulardan foydalandim. Bu menga torli-chertma cholg‘ular orqali milliy koloritni hamda yangi ifodaviy vositalarni namoyon etishga qo‘l keldi”⁸⁰, - deydi Avaz Mansurov.

Uvertyura rondo va variantli variatsiya elementlariga ega bo‘lgan 3 qismli shaklga ega. Asardagi asosiy ifodaviy vositalar doyra va boshqa zarbli cholg‘ular orqali amalga oshiriladi. Doyra yakkanavoz cholg‘u bo‘lib, uning ijrosida konsert alomatlarini seziladi. Rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan usullarni ijro etadi.

O‘zining ijrochilik konsepsiyasida orkestr asarni muvaffaqiyatli ijro etish uchun zamin yaratgan qadimiy usul shakllarini kuchaytirishga va ijodiy kuchini musiqani ritmik jihatdan ifodalashga qaratdi. Kompozitor partiturada kontrast usullarni, qismlarni pauza bilan ajratish, ayniqsa ruboblarda tremolo va ritm jihatdan zichlashgan faktura almashinuvini nazarda tutgan holda amalga

⁸⁰ Muallifning A.Mansurov bilan 2015-yil 20-fevralda bo‘lib o‘tgan suhbatidan yozib olingan.

oshirgan. Uvertyurada ijrochilik muammolaridan biri, partiyalar-ning sinxronligidadir:

Sozandalar asarni ijro etganda qismlar orasidagi kontrast, ayniqsa chekka qismlarida yuqoriga intilgan va o‘rta qismida pastga yo‘naltirilgan harakatlar sezilib turibdi. Asarda ham melodik ham ritmik xususiyatlar yorqin va aniq ifoda etilgan.

Avaz Mansurov reprizadan avval zarbli cholg‘ularda katta improvizatsiyani qo‘llaydi, bu aynan asarda konsert elementlari mavjudligidan dalolat beradi. Bu yerda doyrachi o‘z mahoratini namoyon etadi:

Kadensiya kirish qismi materiali asosida yozilgan bo‘lib, u asar yaxlitligidan dalolat beradi. Repriza ijrosida orkestr tovush kuchini oshiradi, bu dinamik jihatdan ko‘tarilish asar mohiyatini badiiy jihatdan to‘laqonli yoritilishiga yordam beradi

Kuchli taasurot qoldiruvchi “Ha!” so‘zi, qarsak chalinishi, ritmik ta’sirchanlik, asar ijrosiga yorqinlik, betakror milliy o‘ziga xoslik va zamonaviylik ruhini bag‘ishlaydi. Sozandalar refrenni sufiylar zikrini ifodalovchi marosim sifatida qabul qilib, o‘ta mahorat bilan ijro etishadi. Bu semantik ijrochilik yo‘nalishi, aynan

uvertyuraning milliy g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyatga ega edi. Musiqaning aylanma xususiyatini ifodalash, ijroga muayyan ramziy ma’no bag‘ishlaydi.

“Sarob” asari zamonaviy kompozitor D.Saydaminova tomonidan “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri uchun yozilgan (2005) maxsus asarlardan biridir. Ushbu asar o‘ziga xosligi bilan boshqa kompozitorlar asarlaridan tubdan farq qiladi. Izlanuvchan va davr bilan hamnafas ijodkor asarlari o‘zining yangilikka intiluvchanligi va originalligi bilan ajralib turadi. Aynan “Sarob” asari ham aynan shunday tajribalardan biridir. D.Saydaminova an’anani zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan holda, inson tasavvur eta olmaydigan hattoki xayoliga ham keltira olmaydigan tembr, ohang va ijro uslublarini izlab topishga harakat qiladi va bu uning asarlarida o‘z tasdig‘ini topdi:

* "воздух"

Най *mp*

Кūшнай

Чанг *pp* *gliss.*

2 Рубоб прима *p*

2 Кашкар рубоб *p*

2 Афгон рубоб *p*

Дутор прима *mp* *3)

Дутор альт *mp* *3) pizz.

Контрабас *p* pizz.

Piatti sospeso *p* *trem metal*

- * 1) vozdux, ya'ni nay quvuriga puflash
- * 2) rubob primada juda mayda tremolo chalish
- * 3) dutor alt va dutor primalarda mediator bilan - juda mayda tremolo chalish.

Muallif shunaqangi ijro usullarini o‘ylab topgan-ki, orkestr konsertini ko‘rmay, uni tinglagan inson xalq cholg‘ulari orkestri

ijro etganiga umuman ishonmaydi. Shuningdek, asarni yakka cholgʻu, ansambl yoki orkestr ijro etishidan qatʻiy nazar, koʻz oldingizda xayolan oʻsha manzara gavdalanadi. Aynan maʼlum bir holatni tasvirlashda, kompozitor shunga mos cholgʻuni tanlaydi va oʻz tasavvurini bayon etadi. Masalan, choʻlda esayotgan shamolni ifodalashda u nay cholgʻusidan foydalanadi. Bunda ijrochi kerakli tovushni nay quvuriga puflash orqali hosil qiladi va dinamik belgilarni mohirona qoʻllaydi.

Asar aynan choʻlda suvsizlikdan qiynalgan inson hatti-harakatini taʼriflaydi va hamma narsa uning koʻziga suv boʻlib koʻrinadi. Partiturada chanqoqlikdan, jazirama issiqdan ezilayotgan inson holati qashqar rubobi va dutorlardagi mayda tremolo, choʻlda esayotgan qattiq shamol chang va qonundagi glissando, sahroda roʻyobga chiqmaydigan orzu, yaʼni suvning oqishi esa rubob primalar va changda, keyinchalik afgʻon ruboblar, qonun, dutor prima va dutor altlarda yengil ijro etiladigan kvintollar orqali namoyon boʻladi:

The musical score is written for a 4/4 time signature. It features seven staves of instruments:

- Най (Nay):** Treble clef, starting with a rest, then playing a melodic line with dynamics *p* and *tr* (trills). It ends with a *gliss.* (glissando) marking.
- Кўшнай (Kuyshnay):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *p*.
- Чанг (Chang):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *pp* and *pizz.* (pizzicato). It includes a *p* dynamic marking and a hairpin crescendo.
- Қонун (Qonun):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *pp* and *p*.
- 2 Прима рубоб (2 Prima rubob):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *pp* and *p*.
- 2 Кашкар рубоб (2 Kashkar rubob):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *pp* and *p*.
- Дутор прима (Dutor prima):** Treble clef, playing a melodic line with dynamics *pp* and *p*.

The score includes various musical notations such as rests, slurs, and dynamic markings. A double bar line is present at the bottom left of the score.

* 2) changlar tremoloni choʻpning yogʻoch qismida ijro etadi.

Partiturada oʻzbek xalq cholgʻulari uchun noodatiy boʻlgan ohanglar va ijro usullari mavjud. Bu orkestr tembrini boyitibgina qolmay, balki asarning noyobligi va eksperimental tarzda yozilganligidan dalolat beradi. Zamonaviy tovush chiqarish usullari boʻlmish - torlar boʻyicha barmoqlarni sirgʻaltirish, asosiy xarrak orqasidan chalish, cholgʻu kosaxonasiga, yaʼni dekasiga chertish, turli-tuman glissandolar, sahrodagi tovushlarni ifodalashga yordam berdi. Kompozitor tomonidan oʻylab topilgan asar gʻoyasi sahroga tushib qolgan inson holatini ochib berdi. Natijada tashnalikdan azob chekayotgan insonga sahroda roʻyobga chiqmaydigan fantastik orzular koʻziga koʻrinaveradi va uni tark etmaydi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar zanjiri kompozitordan oʻzgacha ijro vositalari orqali noanʼanaviy ijro usullarini yaratishni talab qiladi.

Nogʻorani qoʻl barmoqlari bilan usulga boʻysinmagan holda maydalab chertib, yomgʻir yogʻayotganligini aks ettirish, dutor-primada mizrob bilan mayda tremolo chalish, doyrani oyoqlar oʻrtasida ushlab surdinali pitssikatoni hosil qilish va xalqalarini mayin shiqillatish, changda choʻpning yogʻoch qismi bilan ijro

etish hamda quloqlar yonida glissanda chalish, qonunda qarama-qarshi glissandolar va dekasiga barmoqlar bilan maydalab chertish shular jumlasidandir.

H.Rahimov o'zining "XX asr sadosi" nomli asarina "So'g'diyona" orkestri uchun maxsus yaratdi. Ushbu yumoristik xarakterga ega bo'lgan asar yozuv mashinkasi va kamer orkestri uchun yozilgan bo'lib, 2007-yilda sahna yuzini ko'rdi. Asar badiiy rahbar va bosh dirijyor Firuza Abdurahimova buyurtmasiga asosan yuzaga keldi. Asarda o'zbek xalq cholg'ulari yozuv mashinkasi bilan musobaqalashayotganday aks ettirilgan. Ushbu asar teatrlashtirilgan bo'lib, unda tomoshabinlar nafaqat musiqani tinglaydilar, balki ko'z o'ngida sodir bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lganliklari sababli, asarni o'zgacha tarzda qabul qiladilar⁸¹.

H.Rahimovning "Sirli tun" fantaziyasi aynan "So'g'diyona" jamoasi uchun yozilgan bo'lib, u o'zbek kompozitorlik ijodiyotida yangi yo'nalish hisoblanadi. Muallif ushbu asarida tunda sodir bo'ladigan xodisalarni ifodalash maqsadida zamonaviy yozuv texnikasidan unumli foydalanadi. Bu fantaziya kompozitorlik ijodiyotining yuqori cho'qqisi sifatida baholanib, xalq cholg'ularining beqiyos, kashf etilmagan ijro imkoniyatlarini ochishga qaratilgan bo'lib, unda sonor texnikasidan foydalanilganligi, yangi tembr xususiyatlarini izlab topganligidan dalolat beradi⁸².

Ijodiy izlanishlar natijasida "So'g'diyona" faoliyat doirasi kengaydi, yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va qiziqarli badiiy natijalarga erishildi. Ana shunday yangi teatrlashtirilgan ijro san'atidan biri - 2009-yil 5-oktyabrda O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida bo'lib o'tgan, M.Otajonov tomonidan F.Abdurahimova g'oyasi asosida yaratilgan "Diaglessa" nomli musiqiy kompozitsiyadir. Ushbu asar har xil san'atlarning sintezlashuvi natijasida yuzaga kelgan⁸³.

⁸¹ Asar haqida batafsil ma'lumot A.Tashmatovanning "Ijrochilik san'ati tarixi" o'quv qo'llanmasida berilgan. - T., 2017, 61-bet.

⁸² A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" o'quv qo'llanmasi., 52-bet.

⁸³ Ushbu asar tahlili A.Tashmatovanning "So'g'diyona" davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri monografiyasida batafsil berilgan. - T., 2016, 47-bet.



F.Abdurahimova 1950-yili 21-avgustda Buxoro viloyatining Karmana (hozirda-Navoiy viloyati) shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi. Uydagi muhit Firuzaga yoshligidanoq musiqaga havas uygʻotdi. Onasi Roziya opa dutorni shunaqangi zavq bilan chalar ediki, undan taralayotgan yoqimli kuylar yosh qizaloqni sehrlab qoʻyardi. 1953-yili Dilmurodovlar oilasi Samarqand shahriga koʻchib keladi. Xushmanzara tabiat hamda chiroyli va hashamatli maqbaralar yosh qizaloq qalbida ilmga va sanʼatga nisbatan qiziqish uygʻotadi.

Kunlarning birida ular madaniyat uyida uyushtirilgan konsertga tashrif buyurishadi. Konsertda yosh Firuza birinchi marta xalq cholgʻulari ansambli tarkibida prima rubobini koʻrib qoladi va uning dasturini maroq bilan tinglaydi. Bu cholgʻu oʻzining jarangdor ovozi va ixchamgina shakli bilan murgʻak qalbni oʻziga rom etadi. Shu kundan eʼtiboran Firuzada rubob primada chalishning sir-asrorlarini oʻrganish ishtiyoqi paydo boʻladi. Ijrochilikka boʻlgan qiziqish uni musiqa maktabiga yetaklab keladi. Uning birinchi oʻqituvchisi Pavel Nikolayevich Pak boʻlgan, keyinchalik esa maktabda va musiqa bilim yurtida mutaxassislik boʻyicha Pyotr Vasilyevich Andan taʼlim oladi.

Oʻrta maktabning 8-sinfida oʻqib yurgan kezlari edi. Bir kuni musiqa maktabida rubob prima cholgʻusidan saboq bergan ustoz

Pyotr Vasilyevich An Firuzaga qo'ng'iroq qilib, musiqa bilim yurtining orkestriga rubob prima cholg'usi yetishmayotganligini, agar iloji bo'lsa orkestrga qatnashib turishini taklif qiladi. Ustoziga rad javobini bera olmagan Firuza orkestrga borishga majbur bo'ladi. Birinchi kuni kelganidayoq orkestrning serjilo ohanglari uni o'ziga maftun etadi. Shu kundan boshlab, yosh qizchaning qalbida orkestr ijrochiligiga nisbatan bir uchqun paydo bo'ladi. Bu uchqun asta-sekin alangaga aylanib, uni ijrochi darajasidan taniqli dirijyor va butun boshli bir jamoa rahbarigacha yetaklaydi.

Firuza Abdurahimova o'rta maktabning 8-sinfini bitirib, 1965-yili Xoji Abdulaziz Rasulov nomli Samarqand davlat musiqa bilim yurtining o'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga rubob prima sinfi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi. Uning ilk orzusi amalga oshadi. U I-kursdan boshlab dirijyorlik sinfi bo'yicha dars o'tishlarini iltimos qilib, bilim yurti direktorining oldiga ariza bilan kiradi va uning ruxsatini olgach, Yakov Mixaylovich Bobodo'stov sinfida tahsil ola boshlaydi.

Firuza Abdurahimova 1969-yili bilim yurtini imtiyozli diplom bilan tugatib, shu yili M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga rubob prima sinfi bo'yicha Valentina Borisenko hamda dirijyorlik sinfi bo'yicha Ashot Petrosyans sinfida o'qishni davom ettiradi. Ustozlaridan dirijyorlik va ijrochilik sir-asrorlarini o'rganadi. O'z maqsadlariga erishish niyatida tinimsiz mehnat qiladi.

1974-yili konservatoriyani imtiyozli diplom bilan tugatib, ushbu dargohda o'qituvchi sifatida ishga qoldiriladi. Shu yildan boshlab unga A.Liviyev va F.Sodiqovlar bilan bir qatorda talabalar orkestri bilan ishlash topshiriladi. Dirijyorlik kasbiga qiziqishi baland bo'lganligi tufayli Firuza Ravshanovna oliy o'quv yurtida olgan bilimi bilan qoniqmay, uni yanada mustaxkamlash maqsadida 1975-1977-yillari assistentura-stajirovkada "Xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi" mutaxassisligi bo'yicha o'qishni A.Petrosyans sinfida davom ettiradi.

Shu bilan birga nazariy bilimini amaliyotda qo'llash va orkestr bilan ishlash mahoratini takomillashtirish istagida u 1976-1986

yillari Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi T.Jalilov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrida dirijyor bo‘lib ishlaydi va asosan Toshkent shahridagi umumta‘lim maktablarining o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan abonoment konsert-ma‘ruzalarda faol ishtirok etadi.

1974-2010-yillar davomida F.Abdurahimova konservatoriyaning xalq cholg‘ulari talabalar katta orkestriga rahbarlik qiladi. Hozirgi kunda esa dirijyorlik va uslubiyot fanlaridan saboq berib kelmoqda. Bu fanlar orqali talabalar dirijyorlik mutaxassisligining kelib chiqishi, turli dirijyorlarning hayoti va ijodi, ijro uslublari hamda manual texnikaning nozik sir-asrorlarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan o‘rganmoqdalar.

F.Abdurahimova va xalq cholg‘ulari kafedrasini tashabbusi bilan 1978- yildan boshlab har yili O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, Davlat mukofoti laureati, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri asoschisi A.Petrosyansning xotira kechasiga bag‘ishlangan hisobot konsertini o‘tkazish an‘anaga aylangan. 1996-yildan boshlab bu sana Respublika miqyosida o‘tkazila boshlandi. 2001-yildan e‘tiboran esa milliy cholg‘ular ansambli va orkestrlari xalqaro festivaliga aylandi. Bu festivalga Fransiya, Indoneziya, Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan hamkasb mehmonlar o‘z badiiy jamoalari bilan tashrif buyurishadi. Olti kun davomida har bir badiiy jamoa o‘z ijrochilik mahoratini namoyish etadi hamda milliy cholg‘ular bilan tanishtirish darslariga ham qatnashadi.

10 yil (1976-1986) davomida T.Jalilov nomidagi professional orkestr bilan ishlaganligi uchun F.Abdurahimovani o‘quv orkestri qoniqtirmay qoldi. Chunki har bir orkestrning o‘ziga xos muammolari va vazifalari bor. Bundan tashqari Firuza opa professional orkestrda ilhomlanib ishlardi. “Men professional orkestr bilan ishlasam dam olaman, rohatlanaman. Qalb qo‘rim bilan musiqa olamiga g‘arq bo‘laman. Bunday xususiyatlarni men o‘quv orkestrida topa olmadim va u meni qoniqtirmadi. Shuning uchun professional orkestr tuzishga ahd qildim”, - deydi F.Abdurahimova.

F.Abdurahimovaning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrochiligi rivojiga qo‘shgan munosib hissasi Davlatimiz tomonidan

munosib baholanib, 1986-yili “O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi”, 1987-yili OAK tomonidan “dotsent” ilmiy unvoni, 1997-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, 2007-yili “professor”, 2009-yili “O‘zbekiston san’at arbobi” unvonlariga sazovor bo‘ldi.

Savollar:

1. “So‘g‘diyona” orkestri qachon tashkil etilgan?
2. Ushbu jamoa kimning tashabbusi bilan o‘z ish faoliyatini boshladi?
3. Jamoa qanday orkestr turiga kiradi?
4. O‘zbekiston kompozitorlaridan kimlar orkestr bilan faol ishlaydi?
5. Kompozitor Avaz Mansurovning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yozgan qanday asarlarini bilasiz?
6. Kompozitor Habibulla Rahimov orkestr uchun qanday asarlar yaratgan?
7. Kompozitor Dilorom Saydaminovanning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yozgan qanday asarlarini bilasizmi?
8. “Diaglessa” asari qaysi kompozitor tomonidan yaratilgan?
9. Dirijyor F.Abdurahimova qachon va qayerda tavallud topgan?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 3 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrning ijro repertuari haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Ijodiy safar, unutilmas sana, “Toshkent bahori - 2001”, “Unutilmas ohanglar”, “O‘zlikka yo‘l”, “Yangra, doyra, jarangla!”, “Sarob”, “XX asr sadosi”, “Sirli tun”, “Diaglessa”, Karmana shahri.

Adabiyotlar:

1. Tashmatova A. “So‘g‘diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. T., 2016.
2. “SO‘G‘DIYONA” ijod tilsimi. T., 2013
3. Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi. T., 2017.
4. Lutfullayev A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi. T., 2006

34-DARS: “SO‘G‘DIYONA” ORKESTRINING GASTROL SAFARLARI VA TURLI JAMOALAR BILAN IJODIY HAMKORLIK RISHTALARI



“Sogdiyona” davlat xalq cholgulari kamer orkestri. Dirijyor F.Abdurahimova.

1995-yili “So‘g‘diyona” jamoasi birinchi marta xorijiy safarga chiqishga muvassar bo‘ldi. Bunga 1994-yilning 5-mayida O‘zbekiston va Olmoniya o‘rtasida madaniy hamkorlik o‘rnatish to‘g‘risida imzolangan shartnoma asos bo‘ldi. Shu munosabat bilan 1995-yilning 4-17 dekabr kunlari Leypsig shahrida olmon, o‘zbek va fransuz musiqachilarining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv olmon-fransuz ijodkor yoshlar uyushmasi tashabbusi bilan rejalashtirilgan bo‘lib, uchrashuvni tashkillashtirishni Leyp-

sigdagi Yevropa uyi o‘z zimmasiga olgan edi. Uchrashuvda Fransiyaning Lion konservatoriyasi qadimiy musiqa ansambli, Olmoniyaning “Blyazer kollegium” damli ansambli va O‘zbekistondan “So‘g‘diyona” kamer orkestri ishtirok etdi. Ikkinchi uchrashuv 1996-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida, uchinchi esa 1997-yilning iyun oyida Lion shahrida o‘tkazilishi rejalashtirildi.

Ikki xaftalik safar chog‘ida “So‘g‘diyona” jamoasi 6 ta konsert berdi. Bu gal 15 nafar sozanda ijrosida 2 ta katta konsert dasturi namoyish etildi. Shuni ta’kidlash joizki, XVII asr musiqasi milliy cholg‘ularda yangi tarovat kasb etdi. O‘zbek musiqachilari nemis kompozitori I.Baxning 2-kamer syuitasidan “Hazil” va “Menuet”-ni rang-barang tembr buyoqlari ichra kutilmagan yangi qirralarini ochgan holda ijro etdilar. Yevropa kompozitorlarining asarlarini ijro etishda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Muyassar Razzoqova va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abduhalil Abduqodirovlar ham qatnashdilar. Leypsigdagi Yevropa uyi ishlari boshqaruvchisi doktor Yoxan Xan mazkur jamoa haqida shunday fikrni bildirdi: “Orkestrning ijodiy cho‘qqilarga yuksalishida badiiy rahbar va dirijyor Firuza Abdurahimovanning xizmatlari beqiyosdir. Badiiy rahbarning o‘ta talabchanligi va intizomga qat’iy rioya qilishi jamoaning hamjihatlikda ishlashga undaydi. Jamoaning yosh musiqachilari tinglovchilarga ham madaniy, ham ma’naviy zavq baxsh etdilar”⁸⁴.

1996-yili “So‘g‘diyona” jamoasining ijodiy safarlar kundaligiga zarhal satrlar bitildi. Chunki shu yili orkestr Ispaniyada o‘tkazilgan xalqaro festivalning laureati unvoniga sazovor bo‘ldi. Orkestrning avgust oyida Logron’o shahrida o‘tkazilgan XXX – plektor musiqasi Xalqaro festivalida ishtiroki juda sermazmun bo‘ldi. Bu festival butun dunyo bo‘yicha yagona bo‘ltb, o‘ttizinchi bor o‘tkazilishi edi. Bu tadbirdan so‘ng butun dunyo musiqachilarida “So‘g‘diyona” jamoasiga nisbatan katta qiziqish uyg‘ondi.

“So‘g‘diyona” jamoasi ushbu festivalda uchta katta konsert dasturi bilan munosib ishtirok etdi. Birinchi dastur asosan o‘zbek an’anaviy musiqasi namunalaridan, ikkinchisi - O‘zbekiston kom-

⁸⁴ F.Abdurahimovanning shaxsiy arxividan (Yoxan Xan maktubi).

pozitorlari asarlari va uchinchi jahon klassik musiqa durdonalaridan iborat edi. Orkestr faqatgina Logrono shahrida emas, balki Ispaniyaning boshqa shaharlarida, katolik cherkovida, katta-kichik konsert zallarda tinglovchilar olqishiga sazovor bo'ldi.

Tinglovchilar o'zbek kompozitorlari – M.Bafojev va A. Mansurov asarlarini maroq bilan tingladilar. Ispaniyada mashhur asar – ikkita skripka uchun yozilgan “Xota Navarra”ni o'zbek sozandalari Muhiddin Otaxo'jayev va Nazira Tursunovalar ikkita rubob primada, Albenisning gitara uchun yozilgan “Asturiya” asarini esa Alisher Jamoliddinov afg'on rubobida o'ziga xos tarzda ijro etdilar. Orkestr jo'rnavoziqligida Abduhalil Abduqodirov kuylagan “Grenada” asari ham barchada katta taasurol qoldirdi.

Orkestr jamoasining Germaniya va Ispaniyaga qilgan ijodiy safarlari, mahorat va ijroviy imkoniyat bobida muhim sinov maktabini o'tadi. Jamoaning ijodiy salohiyatini yuqori baholagan mutaxassis va musiqa ixlosmandlari orkestr tanlagan yo'li to'g'ri ekanligiga ishonch bildirdilar. Ayniqsa, G'ofur Norboyevning nayda ijro etgan I.Baxning “Hazil” kuyini tinglovchilar ko'tarinki ruhda qabul qilishdi. Asarni oddiy shakldagi cholg'uda, hech qanday moslamasiz mohirona ijro etilishi barcha tomoshabinlarni, aniqrog'i, musiqa ahlini hayratda qoldirdi.

Ispan tinglovchilarida nay, surnay, qo'shnay, chang, doyra, nog'ora kabi cholg'ularning sadolari katta taasurol qoldirdi. Shu tariqa “So'g'diyona” orkestri xalqaro festivalda ishtirok etib, birinchi Sharqiy jamoa sifatida o'zini dunyoga tanitdi, o'zbek milliy cholg'ularida ijrochilik san'atini xalqaro miqyosga ko'tardi va keng omma e'tiborini xalqimizning ko'p asrlik musiqa madaniyatiga jalb etdi. Shuningdek, jamoa navbatdagi xalqaro festivalda ishtirok etish uchun taklifnomani ham qo'lga kiritdi. “So'g'diyona” jamoasi orqali o'zbek xalq cholg'ulari jahon miqyosiga ko'tarildi, ularni dunyo tan oldi.

Jamoaning ijodiy yo'nalishlaridan birini turli xalqlar musiqiy guruhlari bilan ijodiy hamkorlik qilish ishlari tashkil etadi. Olmoniya, Fransiya, Misr, Buyuk Britaniya jamoalari bilan birgalikda o'tkazilgan konsertlar yuqorida aytilgan fikrimizga dalil bo'la ola-

di. Jumladan, 1996-yilning oktyabr oyida Toshkentda uch mamlakat fuqarolari – nemis, fransuz va o‘zbek ijodkor yoshlarining II-musiqiy seminari bo‘lib o‘tdi. Yoshlarning ijodiy uchrashuvi O‘zbekistondagi Germaniya va Fransiya elchixonalarining yordami bilan uyushtirildi. Shu yili respublika o‘rta maxsus musiqa maktab-internatida Germaniyaning “Bavariya” hamda O‘zbekistonning “So‘g‘diyona” jamoalari birgalikda konsert o‘tkazdilar.

1997-yili esa Fransiyada mahalliy musiqachilar “So‘g‘diyona” orkestri bilan birga kompozitor Farhod Alimovning “Shodiyona” asarini o‘zaro hamkorlikda ijro etdilar. Bunday konsertlarni o‘tkazishdan maqsad “Buyuk ipak yo‘li” davridayoq boshlangan Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalarni tiklashdan iboratdir. Shuningdek “So‘g‘diyona” jamoasi O‘zbekistonda joylashgan turli elchixonalar, xalqaro tashkilotlar bilan faol ish olib bormoqda. Shu tariqa Ispaniyada o‘tkazilgan XXX xalqaro musiqa festivali laureati “So‘g‘diyona” kamer orkestri boshqa mamlakatlar bilan o‘zining ijodiy aloqalarini kengaytirib bormoqda.

“So‘g‘diyona” orkestrining repertuari, uni tuzish tamoyillari ham alohida e‘tiborga sazovordir. Har bir konsertning yuqori badiiy saviyada o‘tkazilishida, did bilan tanlangan dastur muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yana bir muhim holat - ijodiy safarlar davomida orkestr sozandalari bo‘lajak konsert oldidan karnay, surnay, nog‘ora va doyralarda tantanavor ruhda o‘zbek xalq kuylarini ijro etishadi. Tabiiyki, bu holat tinglovchilar diqqatini jalb etishga hamda ularda bayramona ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otishga xizmat qiladi.

1997-yili jamoa Fransiyada bo‘lib o‘tadigan ijodkor yoshlarning III-musiqiy seminarida fransiyalik tinglovchilarga katta konsert dasturini namoyish etdi. Eng avvalo “Navro‘zi Ajam”, “Sharob”, “Dilhiroj”, “Gulbahor va Tanovor”, “Yovvoyi Chorgox”, “Surnay navosi”, “Ey nozanin”, “Qo‘shchinor” kabi mumtoz musiqiy meros namunalari yangradi. Shundan so‘ng Respublika kompozitorlaridan H.Rahimovning “Duxtari kulob”, N.Norxo‘jayevning “Navro‘z uforisi”, A.Mansurovning “Yangra, doyra, jarangla!”, M.Bafoyevning “So‘g‘dcha” asarlari ijro etildi. Kon-

sertning soʻnggi boʻlimida esa X.Glyukning “Kuy”, P.Sarasate-ning “Xota navarra”, J.Bizening “Marvarid izlovchilar” operasi- dan “Smit serenadasi”, M.Teodorakisning “Farishtalar dahasi” operasi dan uvertyura, S.Djoplinning “Regtaym” kuylari yangicha boʻyoq-ohanglarda jarangladi.

1997-yili “Soʻgʻdiyona” kamer orkestri Misrda har yili oʻtkaziladigan “Arab musiqasi festivali”ga borish sharafiga muyassar boʻldi. Yettinchi bor oʻtkazilayotgan bu festivalda aslida faqatgina Arab davlatlarining ijodiy jamoalari qatnashishlari oʻziga xos anʼanaga aylangan ekan. Festivalning asosiy sharti - arab kompozitorlarining asarlarini munosib ijro etishdan iborat boʻlib, unda 24 ta arab davlatining jamoalari qatnashadi, “Soʻgʻdiyona” orkestri esa mehmon sifatida taklif etiladi.

Festival konsert dasturi “Oʻyin Bayoti”, “Choʻli Iroq”, “Soqinomai Savti Kalon”, “Norim-norim” va shu kabi asarlar bilan boyitildi. Shuningdek, Oʻzbekiston kompozitorlari – M.Bafoyevning ud va orkestr uchun “Poema”si, M.Tojiyevning chang va orkestr uchun yozgan “Sharqona raqsi”, I.Rahimovning qoʻshnay va orkestr uchun “Sabo” kuyi, F.Alimovning “Shodiyona” kabi asarlari ham alohida ahamiyat kasb etdi. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Abduhalil Abduqodirov ijrosida yangragan “Xumor oʻldim” Ozarbayjon xalq qoʻshigʻi va orkestr ijrosidagi Markaziy Osiyo xalqlari mavzularidan iborat termasi tinglovchilar olqishiga sazovor boʻldi.

Yosh maqom ijrochilarining Respublika koʻrik-tanlovi laureati Sh.Murodov ijrosidagi “Voxoron” va “Habiba” arabcha qoʻshiq-lari orkestr ijrosidagi Muhammad Al-Kasabiyning “Esdaliklarim”, Muhammad Abdul Vahobning “Aziza” va “Al-fan”, Riad Az-Sumbatining “Lunga” asarlari tinglovchilarni hayratga soldi. “Bizni ayniqsa quvontirgani – aynan shu asarni bizning jamoamiz ijrosida festival davomida “chaqiriq” kuyi sifatida har kuni televidenie orqali ijro etilgani boʻldi. Biz borgan kuni bu kuy ularning milliy ansambli ijrosida yangrayotgan edi. Bizning konsertimizdan soʻng bu kuy bizning ijromizda yangraydigan boʻldi. Bu xol albatta badiiy jamoaning ruhini yanada tetiklashtirdi va kayfiya-

tini ko‘tardi”, - deydi F.Abdurahimova. Shuningdek, Respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar – M.Bekjonova o‘zining shirali ovozi bilan, S.Isroilova esa jozibali raqsi bilan tinglovchilar olqishiga sazovor bo‘lishdi.

Jamoaning “Qohira” opera teatrining kichik zalida bo‘lib o‘tgan birinchi konsert dasturi juda rang-barang tuzilgan edi. Orkestr O‘zbekiston kompozitorlari asarlari va o‘zbek mumtoz musiqiy meros namunalari qatorida arab kompozitorlarining asarlarini ham maromiga yetkazib ijro etishga muvaffaq bo‘ldi. Ikkinchi konsert Qohira san’at Akademiyasining san’at saroyida, uchinchi konsert esa Qohira musiqiy Akademiyasi zalida bo‘lib o‘tdi.

Qohira konservatoriyasida bo‘lib o‘tgan konsert bo‘yicha bir qator mutaxassislar o‘z fikrlarini bildirishgan edi. Jumladan, Qohira musiqiy akademiyasi rektori Doktor Fauzi Shami konsertdan so‘ng shunday deydi: “O‘zbek musiqasi bilan tanishish imkoniga ega bo‘lganimizdan xursandmiz. Bizning professor-o‘qituvchilarimiz va talabalarimiz sizlarning musiqachilaringiz bilan kelgusida uzviy aloqada, hamkorlikda bo‘ladi degan umiddamiz. Ajoyib jamoa rahbari Firuza Abdurahimovaga va shunday san’at durdonasidan bahramand bo‘lishga harakat qilgan va konsertni tashkil etgan professor Marlis Yunusxonovga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz”.

Arab musiqasi kafedrasida o‘qituvchisi Doktor Naubi Gonim esa “konsert juda ajoyib o‘tganligidan, orkestr dasturi har xil millat vakillarini hisobga olgan holda tuzilganligidan va ijrochilarning yuqori saviyali professional mahoratidan qoyil qolganligidan” hayajonlanib gapirdi.

Doktor Kemal Radi (altchi) o‘z dil so‘zlarini quyidagicha ifodaladi: “Konsert juda maroqli o‘tdi, bizlarga rohat baxsh etganingiz uchun rahmat. Sizning cholg‘ularingiz arab cholg‘ulariga o‘xshaydi. Sizning kuy va ohanglaringiz ham bizlarga juda yaqin”. Shu bilan birga Iordaniya va Suriya talabalari O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ud, nay cholg‘ulari hamda kompozitorlik sinfi bo‘yicha tahsil olish niyatlari borligini bildirdilar.

“So‘g‘diyona” ijodiy jamoasining turli mamlakat musiqiy ansambllari bilan ijodiy hamkorlik faoliyati ham alohida e‘tibordir. Xususan, orkestrning nemis, fransuz va arab xalqlarning iste‘dodli yoshlari bilan bo‘lgan ijodiy muloqotdan so‘ng galdagi uchrashuv yana Germaniyada bo‘lib o‘tdi. 1998-yili jamoa Germaniyaning Frayeburg shahrida o‘tkazilgan IX - Xalqaro musiqiy festivalda ishtirok etdi. Shu yilning oktyabr oyida “So‘g‘diyona” Georg Glazl rahbarligidagi Bavariya kamer ansambli bilan Toshkent shahrida ijodiy uchrashuv uyushtirdi. Bunday muloqotlar jamoalarni ijodiy barkamollik sari yetaklaydi.

Berlindagi Gumbold universitetidagi konsert dasturi quyidagilardan iborat: “O‘yin Bayoti”, “Navro‘zi Ajam”, “Gulbahor va Tanovar”, “Garduni Dugox”, “Dilhiroj”, “Andijon raqsi” (ansambl), “Mavrigi” (ud), “Nazzora qil” (qo‘shnay), “Tong” (qashqar rubobi), “Galdir”, “Guluzorim” (Mehri Bekjonova), “O‘zbek usullari” (doyra), “Munojot II, III” (chang), “Norim-norim” (ansambl va qayroq), “Ey, sabo” (nay). Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, F.Abdurahimova repertuar tuzishda milliy musiqa cholg‘ularining boy imkoniyatlari hamda ijrochilarning yuksak mahoratini tarannum etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Freyeburgdan tashqari jamoa Avliyo Mariya ibodatxonasida, Leypsigda – mahalliy universitet qoshidagi nufuzli yoshlar klubida, Drezdenda – “Rasputin” elitar klubida ham konsertlar berdi. Shuningdek, “So‘g‘diyona” Germaniyaning mashhur madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Veymer, so‘ngra Orfurt va Shvarsenburg shaharlarida ham sahnaga chiqdi. Barcha konsertlar katta muvaffaqiyat bilan o‘tdi. Ijrochilarning har bir sahnaga chiqishlari qarsaklar bilan kutib olindi. Iqtidorli qo‘shiqchi Mehri Bekjonovanning shirali ovozi konsert ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi.

Jamoaning Mixen va Benediktboyern shaharlarida o‘tkazgan konsertlari haqida Myunxen madaniyat va maktab boshqarmasi direktori Martin Maria Kruger Firuza Abdurahimovaga yo‘llagan maktubida shunday deb yozadi: “Hurmatli Firuza Abdurahimova, Sizning “So‘g‘diyona” nomli orkestr jamoangiz bilan uchrashuv

bizga barcha o‘zbek xalq cholg‘ulari bilan tanishishga imkon yaratdi. Bundan biz juda hayratdamiz. Ayniqsa bizning yosh musiqachilarimiz birgalikdagi ijrolaridan juda mamnundirlar. Chunki ular til va madaniy chegaralarga qaramay, umumiy bo‘lgan musiqa tili orqali muloqot qilishmoqda. Avvallari bir-biri bilan umuman bog‘lik bo‘lmagan Bavariya va O‘zbekiston madaniyatida ayrim cholg‘ularning oz bo‘lsa-da o‘xshashligi va undan taralayotgan tovushlarning tanishligi bizni juda quvontirdi. Chin yurakdan boshlangan samimiy uchrashuv va hamkorligimiz yanada davom etishiga ishonch bildiramiz”.

“So‘g‘diyona” jamoasining Myunxen Musiqa va teatr institutida, Gyote instituti va Bavariya federal yerlarida katta muvaffaqiyat bilan o‘tgan konsertlarida Georg Glazl rahbarligidagi “Bavariya” kamer ansablining qatnashganligi bu konsertlarga haqiqiy do‘stlik va hamkorlik bayrami tusini berdi.

Mazkur anjuman doirasida Rixard Shtraus nomidagi Myunxen konservatoriyasida “O‘zbek milliy cholg‘ulari” mavzuida seminar bo‘lib o‘tdi. Unda milliy musiqa cholg‘ularining xilma-xilligi, shuningdek “Buyuk ipak yo‘li” an‘analarining qaytadan tiklanayotganligi haqida so‘z bordi. Aytib o‘tish kerakki, seminar qatnashchilari o‘zbek musiqasida qadimiy cholg‘u hisoblangan - udning tutgan o‘rni, uning arab, xitoy, yapon cholg‘ulari uchun namuna bo‘lganligi va Yevropa musiqasiga ham ta’sir o‘tkazganligi haqidagi ma’lumotlardan boxabar bo‘ldilar. Shu asnoda “O‘zbek – Bavariya muloqoti” nomi bilan 2000-yil aprelida chiqarilgan orkestrning ikkinchi kompakt-diski o‘zbek va nemis musiqachilarining ko‘p qirrali ijodiy hamkorligining mahsuli bo‘ldi. Shundan “So‘g‘diyona” jamoasi o‘ziga taqdim etilgan 400ta CD disklari bilan o‘z yurtiga qaytdi. Tirajning qolgan 1600 nusxasi esa butun dunyo bo‘ylab tarqatildi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari sehriga mahliyo bo‘lgan nemis kompozitori Peter Kizevetter “So‘g‘diyona” jamoasi uchun “Dovon” nomli pyesasini, nemis va o‘zbek musiqachilarining birgalikdagi ijrosi uchun “Olisdan” nomli dasturli asarlarini ijod etdi. Unga javoban F.Alimov “Bavariya” ansambli uchun “Qizlar raqsi” asa-

rini, birgalikdagi ijro uchun esa uch qismli “Syuita”sini yaratdi. Hamkorlikda qilingan mehnatlar natijasida “Bavariya” ansambli va “So‘g‘diyona” milliy cholg‘u orkestining birlashgan jamoasi F.Alimovning “Shodiyona” uvertyurasini, S.Boboyevning “Kon-sertino”sini, M.Bafojevning “Buxorocha konserti”ni, H.Rahimovning “Erta tong”, A.Ismoilovning “Tong”, shuningdek F.Alimov qayta ishlagan “Andijoncha” va “Qo‘shchinor” nomli o‘zbek xalq kuy va ashulalarini ta’sirli darajada ijro etdi. Abduhomid Toshpo‘latov ijrosidagi qadimiy qo‘shnayning sirli ohanglari, Sulton Qosimovning dutorda chalgan “Tanovar” kuyi, Farhod To‘raxonovning o‘zbek xalq usullarini uchta doyrada zavqu-shavq bilan tarannum etishi tinglovchilarga quvonch bag‘ishladi.

Musiqiy guruhlar bilan ijodiy uchrashuvlar o‘tkazish hamda hamkorlikda konsert dasturlarini tayyorlash borasida orkestr rahbari F.Abdurahimova tinim bilmaydi. Sa’y-harakatlar esa o‘zining ijobiy mahsulini bermoqda. 2002-yilning 7-8 mart kunlari Samarqand va Toshkent shaharlarida uyushtirilgan “So‘g‘diyona” kamer orkestri va Shotlandiyaning “Iron horse” nomli folk-rok guruhlarining hamkorlikdagi chiqishlari shular jumlasidandir.

Mana shunday konsertlarni o‘tkazish g‘oyasi aslida 1998-yilda paydo bo‘lgan edi. F.Abdurahimova buyuk Britaniya madaniyat markaziga borib “So‘g‘diyona” orkestriga o‘xshash musiqa jamoasini topishga yordam berish xususida iltimos bilan murojaat etadi. Markaz ingliz musiqa guruhlarini ijrosidagi bir necha kompakt-diskni eshitib ko‘rishni tavsiya qiladi. “Bizning jamoamizni zavqli shotland musiqasi, xalq cholg‘ularida ijro etilgan rok uslubidagi kuylar qiziqtirib qoldi. Uzoq vaqt mobaynida biz ijro etadigan asarlarimizning partituralarini ularga, ular esa bizga jo‘natib turishdi. Bir-birlarimizning dasturlarimizni o‘rganishga harakat qildik. Shuning natijasida hamkorlikdagi konsert yuzaga keldi”⁸⁵, - deydi Firuza Abdurahimova.

“So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri bilan Shotlandiyaning folk-rok guruhining hamkorlikda tayyorlagan konsert dasturida kutilmagan yangi ohang va temblarning guvohi bo‘ldik.

⁸⁵ Muallifning F.Abdurahimova bilan 2002-yil 10-martda bo‘lgan suhbatidan.

Tinglovchilarda ayniqsa “Sharq ohanglari” katta taasurol qoldirdi. O‘zbek xalq cholg‘ulari hamda skripka va elektron gitarada ijro etilgan improvizatsiyalar kishini hayratga soldi. G‘arb cholg‘ularida Sharq musiqasining nozik ijro etilishini tinglab qalbing faxrga to‘ladi.

Ushbu dasturda quyidagi asarlar ijro etildi:

1. “Andijoncha” - “So‘g‘diyona” ijrosida.
2. “Vodka” – “Iron horse” ijrosida.
3. “Yangra, doyra, jarangla!” - birgalikda.
4. D.Sordon “Robbie Murdah” birgalikda.
5. “Navro‘z taronasi” gitarada.
6. “Hush - hush” Greys ijrosida (qo‘shiq).
7. “Balkan reol” - “Iron horse” ijrosida.
8. “Sharq mashqlari”- ud, qonun, doyra, skripka, gitara ijrosida.
9. “Majnuntol”- G‘.Norboyev ijrosida.
10. “Nothern cross rising” birgalikda.
11. “Song” – E.Greys, G‘.Norboyev ijrosida.
12. “Jlargo” - birgalikda.
13. “Hay yor-yor” - R.Nomozov ijrosida orkestr jo‘rligida.
14. “Biyo-biyo” - R.Nomozov ijrosida orkestr jo‘rligida.
15. “Ulug‘imsan, Vatanim” - S.Nazarxon ijrosida orkestr jo‘rligida.
16. “Popurri”- birgalikda.

“Ana shunday ijodiy uchrashuvlar katta ahamiyat kasb etadi, - deydi biz bilan suhbatda Firuza Abduraximova. Bunday deyishimga asos qilib quyidagilarni aytishim mumkin:

- professional musiqachilar doirasida birinchi marotaba uch mamlakat ijodiy yoshlarining uchrashuvi o‘tkazildi;

- birinchi marotaba Yevropada milliy cholg‘ularning 20 turi, hamda o‘zbek musiqasining turli uslub va shakllari namoyish etildi;

- birinchi marotaba turli mamlakat sozandalarining ya’ni, o‘zbek, nemis va fransuz musiqachilarining birgalikda ishtirok etgan “Do‘stlik” konserti bo‘lib o‘tdi;

- shuningdek, birinchi marotaba master-klasslar o‘tkazildi, o‘zbek cholg‘ushunosligi tarixi bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qildi hamda ijodiy jamoalarning tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

- Leypsig shahrida “Yokulatoris” damli cholg‘ular ansambli-ning rahbari Sebastyan Pank yordamida orkestr ijrosidagi ayrim asarlar SD kompakt diskiga yozildi va sotuvga chiqarildi”⁸⁶.

Uch mamlakat yoshlarining ko‘tarinki ruhda o‘tgan ijodiy uchrashuvdan mamnun bo‘lgan doktor Yoxan-Xan shunday deydi: “Toshkent, Lion va Leypsig yosh musiqachilarining ijodiy hamkorligi va fikr almashuvi katta qiziqish bilan o‘tdi. Ular bir-biri bilan o‘zaro muloqotda bo‘libgina qolmay, balki O‘zbekiston, Germaniya va Fransiya musiqa madaniyati bilan ham yaqindan tanishishdi. Musiqiy seminarning maqsadi amalga oshganligidan quvonchimiz cheksiz va kelgusida Toshkent va Lionda o‘tkaziladigan rejaga muvofiq uchrashuvlarni sabrsizlik bilan kutamiz”⁸⁷.

“So‘g‘diyona” jamoasining dunyoga mashhur bo‘lishida xalqaro aloqalar bilan birga, turli yo‘nalishdagi yakkanavoz va ansambllar bilan ijodiy hamkorliklarning o‘rni beqiyosdir. Orkestrning 2002-yili Buyuk Britaniyada “Iron Horse” rok-gruppasi, 2002-yili Toshkentda xonanda Saodat Turkeyoz, Old Grey Goose jamoasi, Deli Universiteti o‘qituvchilari bilan, 2003-yil Toshkentda Tokio Universiteti ansambli, Adam Klippl (AQSH) rahbarligidagi amerika djaz-gruppasi, Toshkentda 2004-yili yapon musiqachilari Yonaxa Toru va Tikaxasi Tikudolar hamkorligidagi chiqishlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa “So‘g‘diyona” jamoasining 2010-yilning dekabr oyida “Bavariya haftaligi O‘zbekistonda” doirasida Arne Yansen (Germaniya) Triosi bilan bo‘lgan ijodiy uchrashuvi juda qiziqarli bo‘ldi. Haftalikdan keyin Arne Yansen trio va “So‘g‘diyona” jamoasi birgalikda Toshkent va Samarqandda konsertlar berishdi. O‘zbek va nemis musiqachilari tinglovchilar qalbini yorqin jo‘shqinlik, maftunkor ohanglar va ajoyib tembrlar bilan rom etdi.

⁸⁶ Muallifning F.Abdurahimova bilan 1996-yil 25-sentabrda bo‘lgan suhbatidan yozib olingan.

⁸⁷ F.Abdurahimovaning shaxsiy arxividan olingan (doktor Yoxan-Xanning T.Yunusmetovga yo‘llagan maktubidan).

Ularning birgalikdagi ijrosida Enmark Solihovning “Qiz bola”, Sharif Ramazonovning “Namanganning olmasi”, Ilyos Akbarovning “Qilpillama, jonginam qilpillama”, “Qaydasan” qo‘shig‘i mavzuiga parafraz, Valeriy Saparovning o‘zbek xalq mavzulariga “Fantaziya”sini Arne Yansen Marshini va Erika Shefer ijro etishdi. “So‘g‘diyona” va Arne Yansen triosining ijodiy xamkorligi jamoaning ijrochilik san‘atida yangi yo‘nalish, ya’ni o‘zbek milliy musiqasiga yevropa jaz musiqasining sintezi asos soldi. Tabiiy badihago‘ylikka ega bo‘lgan o‘zbek musiqasining jaz uslubi bilan uyg‘unlashuvi juda qiziqarli va samarali badiiy natija berdi.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida o‘rnatilgan diplomatik aloqalarning 20 yilligiga bag‘ishlab 2012-yil 18-mayda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining organ zalida o‘tkazilgan “O‘zbekiston va Yaponiya: madaniy aloqalar” nomli Xalqaro konferensiya doirasida bo‘lib o‘tgan “So‘g‘diyona” jamoasining konserti muhim ahamiyat kasb etdi.

H.Rahimov qayta ishlagan va Oleg Siloamskiy cholg‘ulashtirgan yapon musiqasi Firuza Abdurahimova rahbarligi ostida orkestr ijrosida yangradi. Konsert dasturi yapon kompozitori Matsibuchining Oleg Siloamskiy qayta ishlagan “Bahor oqshomi” asari bilan ochildi. Sozandalar ushbu asarning mohiyatini chuqur his qilib, yapon musiqasiga xos bo‘lgan nafis tabiat manzarasini ifoda etishdi. Konferensiya ishtirokchilari Oleg Siloamskiy cholg‘ulashtirgan Katsutosi Nagasava Balladasini iliq kutib olishdi. Ushbu liriko-dramatik harakterdagi asar o‘zbek xalq cholg‘ulari tembrida ko‘tarinki ruhda yangradi.

2012-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Koreya va O‘zbek an’anaviy musiqasi” xalqaro konferensiyasi doirasida “Arirang” o‘zbek-koreys do‘stlik va hamjihatlik musiq festivalida “So‘g‘diyona” jamoasi tomonidan katta konsert dasturi namoyish etildi. Ushbu konferensiyada haqiqatdan ham o‘zbek va koreys musiqachilarining ijodiy do‘stligi ramzi bo‘ldi. Chunki dasturda nafaqat o‘zbek, balki taniqli koreys sozandalari ham ishtirok etishdi. Ushbu konferensiya “So‘g‘diyona” jamoasi va Uzoq

Sharq musiqachilari o'rtasidagi ijodiy aloqani chuqurlashtirdi va doirasini kengaytirdi.

“So'g'diyona” G'arb mamlakatlari musiqachilari bilan ham ijodiy aloqalar o'rnatdi. Jumladan, taniqli fransuz dirijyori Fab'en Teerikson bilan F.Abdurahimovanning qiziqarli va sermahsul ijodiy loyihalaridan biri, bu “So'g'diyona” orkestrining fransuz dirijyori Fab'en Teerikson boshqaruvi ostida 2015-yil 3-oktyabrda O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida bo'lib o'tgan konserti edi. Konsert dasturini taniqli fransuz dirijyori va kompozitor, aranjirovkachi Radio Frans filarmoniyasining orkestri, Tuluza milliy kamer orkestri, Lion va boshqa milliy orkestrlarning rahbari Fab'en Teeriksonning o'zi tavsiya etdi. U turli mamlakatlardagi xalq cholg'u orkestrlari faoliyatlarini katta qiziqish bilan o'rganayotgan noyob musiqachidir. U Vengriya, Polsha, Rumiya, Rossiya, Ozorbayjon, Qozog'iston, Xitoy, Afrika xalq cholg'u orkestrlari bilan ishlagan.

Konsertda Moris Ravelning “Moya matushka-gusinya” nomli fortepiano uchun yozilgan 5 ta bolalar pyesasi juda qiziqarli namoyon bo'ldi. Pyesaning nafis kuychan usuli, uning ajoyib go'zalligi, tovushlar uyg'unligining yorqinligi, sharq va g'arb kuylarini o'zida qamrab olgan. O'zbek xalq cholg'ulari ijrosida pyesaga yangi hayot baxsh etildi. Shuningdek, Jan Filipp Ramo, Jyul Massne, Kamil Sen-sans, Jorj Bize asarlari ham orkestr ijrosida yorqin va ajoyib tarzda yangradi. O'zbek kompozitorlarining asarlari ham Fab'en Teerikson tayoqchasi ostida o'zgacha yangradi. Ular to'laqonli, kuychan va improvizatsiya usulida o'zbekcha ohangda ifodalandi.

M.Bafojevning “Doni Zokirov asarlari bo'yicha sayohat” nomli asari yorqin va to'laqonli ijro etildi. Kompozitor va dirijyor, XX asr o'zbek milliy musiqiy meros bilimdonining mashhur kuylari asosida yaratilgan asar ham D.Zokirovning ham M.Bafojev ijodining yangi qirralarini ochib berdi. Qizig'i shundaki, fransuz dirijyori Fab'en Teerikson o'zbek xalq cholg'u orkestri ijrochiligi madaniyatini yoritib bera oldi, uning go'zalligi, betakrorligi va o'ziga xosligini namoyon etdi.

Savollar:

1. “So‘g‘diyona” orkestrining ilk xorijiy safari qachon boshlandi?
2. “So‘g‘diyona” orkestri nechanchi yili Ispaniyada o‘tkazilgan xalqaro festivalning laureati unvoniga sazovor bo‘ldi?
3. “So‘g‘diyona” jamoasi ushbu festivalga nechta konsert dasturi bilan ishtirok etdi?
4. 1996-yilning oktyabr oyida Toshkentda qaysi mamlakatlar ijodkor yoshlarining II-musiqiy seminari bo‘lib o‘tdi?
5. Ijodkor yoshlarning III-musiqiy seminari qachon va qayerda bo‘lib o‘tdi?
6. “So‘g‘diyona” orkestri nechanchi yil “Arab musiqasi festivali”ga borish sharafiga muyassar bo‘ldi?
7. 1998-yili “So‘g‘diyona” jamoasi Germaniyaning Frayeburg shahrida o‘tkazilgan nechanchi Xalqaro musiqiy festivalda ishtirok etdi?
8. “Bavariya haftaligi O‘zbekistonda” qachon o‘tkazildi?
9. Fransuz dirijyori Fab‘en Teerikson “So‘g‘diyona” orkestri bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasida qachon konsert berdi?

Topshiriqlar:

1. Berilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.
2. Adabiyotlar ro‘yxatidagi 1, 2 va 3 kitoblardan mavzuga tegishli ma’lumotni konspekt qiling.
3. Orkestrning gastrol safarlarini o‘rganib chiqing.

Tayanch iboralar:

Birinchi uchrashuv, XXX-plektor musiqasi, II-musiqiy seminar, III – musiqiy seminar, “Arab musiqasi festivali”, IX-xalq musiqasi festivali, “Iron horse”, “Bavariya haftaligi”, “Bahor oqshomi”.

Adabiyotlar:

1. Tashmatova A. “So‘g‘diyona” davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. - T., 2016.
2. “SO‘GDIYONA” ijod tilsimi. - T., 2013.
3. Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi. - T., 2017.
4. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. – М., 2002, (262-281).

35-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT.

Mavzuni yanada mustahkam o‘zlashtirish uchun yuqorida berilgan adabiyotlarni mutolaa qiling va quyidagi vazifalarni bajaring:

1. “So‘g‘diyona” orkestri qachon tashkil etilgan?
2. Jamoa qanday orkestr turiga kiradi?
3. O‘zbekiston kompozitorlaridan kimlar orkestr bilan faol ishladi va ishlamoqda?
4. Kompozitor Avaz Mansurovning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yaratgan qanday asarlarini bilasiz?
5. Kompozitor Habibulla Rahimov “So‘g‘diyona” orkestri uchun qanday asarlar yaratgan?
6. Kompozitor Dilorom Saydaminovanning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yaratgan qanday asarlarini bilasizmi?
7. “Diaglessa” asari “So‘g‘diyona” orkestri uchun qaysi kompozitor tomonidan yaratilgan?
8. F.Abdurahimova qachon va qayerda tug‘ilgan?

Keyingi darsda bajarishingiz lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun berilgan vazifalarni o‘rganib chiqing.

“So‘g‘diyona” orkestrining xorijiy safari hamda O‘zbekiston kompozitorlari H.Rahimov, A.Mansurov va D.Saydaminovalarning “So‘g‘diyona” orkestri uchun yaratgan asarlarini partitura bilan tinglab, tahlil qiling va o‘rganing.



“Diaglessa” asari ijodkorlari

Aziz talabalar, qo‘lingizdagi darslikka ilova qilingan kompakt-diskdan ushbu mavzuga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarni saralang, xorijiy va o‘zbek tillarida berilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlaridan kerakli sahifalarni, glossariydan tegishli maqola-ta‘riflarni izlang, audio-video yozuvlarni tinglab tomosha qiling!

36-DARS: O‘TILGAN MAVZULAR MODULI BO‘YICHA SEMINAR

Yakuniy nazorat uchun yozma ishni tayyorlash va topshirish. O‘quv yili 2-semestrining 18 haftasi mobaynida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalaringizga tayanib yakuniy nazorat (yakuniy) haftaligi talabiga ko‘ra ijodiy ish sifatida tavsiya etilgan yozma ishni belgilangan muddatda sinov komissiyasiga **taqdim etishingiz lozim.** Yozma ishning sifati beriladigan

bahoga katta ta'sir ko'rsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Ko'rsatilgan kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring va yozma ishingizga zarur tuzatishlar kiring.

Savollar:

1. "So'g'diyona" orkestrining ilk xorijiy safari qachon boshlandi?
2. "So'g'diyona" orkestri nechanchi yili Ispaniyada o'tkazilgan xalqaro festivalning laureati unvoniga sazovor bo'ldi?
3. "So'g'diyona" jamoasi ushbu festivalga nechta konsert dasturi bilan ishtirok etdi?
4. 1996-yilning oktyabr oyida Toshkentda qaysi mamlakatlar ijodkor yoshlarining II-musiqiy seminari bo'lib o'tdi?
5. Ijodkor yoshlarning III-musiqiy seminari qachon va qayerda bo'lib o'tdi?
6. "So'g'diyona" orkestri nechanchi yil "Arab musiqasi festivali"-ga borish sharafiga muyassar bo'ldi?
7. 1998-yili "So'g'diyona" jamoasi Germaniyaning Frayeburg shahrida o'tkazilgan nechanchi Xalqaro musiqiy festivalda ishtirok etdi?
8. "Bavariya haftaligi O'zbekistonda" qachon o'tkazildi?
9. Fransuz dirijyori Fab'en Teerikson "So'g'diyona" orkestri bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasida qachon konsert berdi?

Quyidagi variantlardan birini yozma ravishda topshiring:

1. H.Rahimovning "So'g'diyona" orkestri uchun yozgan asarlaridan birini partiturasini bilan tinglab, tahlil qiling.
2. A.Mansurovning "So'g'diyona" orkestri uchun yozgan asarlaridan birini partiturasini bilan tinglab, tahlil qiling.
3. D.Saydaminovning "So'g'diyona" orkestri uchun yozgan asarlaridan birini partiturasini bilan tinglab, tahlil qiling.

**“IJROCHILIK SAN’ATI TARIXI” fani bo‘yicha
TEST SAVOLLARI.**

1. Eng avval qaysi cholg‘ular paydo bo‘lgan?

- a) Damli cholg‘ular.
- b) Zarbli cholg‘ular.
- c) Shovqinli cholg‘ular.
- d) Torli cholg‘ular.

2. Turkiston xalq konservatoriyasi nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1910 yil
- b) 1938 yil
- c) 1906 yil
- d) 1918 yil

3. Toshkent davlat konservatoriyasi nechanchi yil tashkil etilgan ?

- a) 1922 yil
- b) 1936 yil
- c) 1930 yil
- d) 1924 yil

4. Qaysi cholg‘u Membranofon guruhiga kiradi?

- a) rubob
- b) qonun
- c) nog‘ora
- d) zang

5. Doni Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari davlat orkestri nechanchi yili tashkil etilgan?

- a) 1915 yil
- b) 1936 yil
- c) 1945 yil
- d) 1957 yil

6. Tanbur notatsiyasi kim tomonidan yaratilgan?

- a) K.Xorazmiy
- b) T.Jalilov
- c) D.Zokirov
- d) Yu.Rajabiy

7. Oʻrta Osiyo xalq cholgʻulari kolleksiyasi birinchi marta kim tomonidan yigʻilgan?

- a) A.Petrosyans
- b) B.Gienko
- c) A.Eyxgorn
- d) V.Uspenskiy

8. Oʻzbek xalq cholgʻularini modernizatsiyalashtirish ishida kim rahbarlik qilgan?

- a) S.Didenko
- b) N.Ryuxin
- c) I.Akbarov
- d) A.Petrosyans

9. Qaysi cholgʻu aerofon guruhiga kiradi?

- a) Chang
- b) Nay
- c) Doyra
- d) Gʻijjak

10. Toʻxtasin Jalilov nomidagi oʻzbek xalq cholgʻulari davlat akademik orkestri nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1916 yil
- b) 1934 yil
- c) 1938 yil
- d) 1948 yil

11. Turkiston xalq konservatoriyasining boʻlimi Buxoroda nechanchi yil tashkil etilgan ?

- a) 1920 yil
- b) 1886 yil
- c) 1910 yil
- d) 1924 yil

12. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholgʻulari orkestri-ning oxirgi badiiy rahbari kim boʻlgan?

- a) D. Abdurahmonova
- b) F.Abdurahimova
- c) X.Rajabov
- d) B.Rasulov

13. Eyxgorn o‘z kolleksiyasini nechanchi yili Moskva shahriga ko‘rgazmaga yuborgan?

- a) 1860 yil
- b) 1896 yil
- c) 1912 yil
- d) 1872 yil

14. V.V.Andreyev tomonidan rus xalq cholg‘ulari orkestri nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1866 yil
- b) 1870 yil
- c) 1888 yil
- d) 1896 yil

15. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi o‘quv qo‘llanmasining muallifi kim?

- a) A.Odilov
- b) M.Otaxo‘jayev
- c) A.Dadamuxamedov
- d) Sh.Ziyayev

16. Qaysi cholg‘u xordofon guruhiga taalluqli?

- a) litavra
- b) afg‘on rubobi
- c) doyra
- d) qo‘shnay

17. Qaysi cholg‘u gemiidifon guruhiga kiradi?

- a) qo‘shnay
- b) rubob
- c) nay
- d) chang

18. O‘rta Osiyo xalqlari musiqa cholg‘ulari kolleksiyasi 1872 yili Moskva shahrida o‘tkazilgan ko‘rgazmaga kim tomonidan yuborilgan ?

- a) A.Liviyev
- b) F.Sodiqov
- c) A.Eyxgorn
- d) F.Abdurahimova

19. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qachondan beri faoliyat ko‘rsatmoqda?

- a) 1986 yil
- b) 1998 yil
- c) 2000 yil
- d) 2002 yil

20. Doni Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri-ning birinchi dirijyori kim?

- a) S.Aliev
- b) S.Karimov
- c) G‘.Toshmatov
- d) D.Zokirov

21. Armanistonda Buni orkestri nechanchi yili o‘z faoliyatini boshladi?

- a) 1875 yil
- b) 1896 yil
- c) 1925 yil
- d) 1910 yil

22. T.Jalilov nomidagi orkestrning birinchi rahbari va dirijyori kim?

- a) S.Aliyev
- b) A.Petrosyans
- c) B.Rasulov
- d) F.Sodiqov

23. Qaysi cholg‘u ideofon guruhiga kiradi?

- a) Safoil
- b) Doyra
- c) G‘ijjak
- d) Nay

24. T.Jalilov nomidagi xalq cholg‘ulari davlat akademik orkestrining oxirgi badiiy rahbari va bosh dirijyori kim bo‘lgan?

- a) F.Sodiqov
- b) X.Rajabov
- c) D.Mutalov

- d) Q.Komilov
- 25. “So‘g‘diyona” nomidagi davlat xalq cholg‘u kamer orkestri nechanchi yil tashkil etilgan?**
- a) 1959 yil
 - b) 1985 yil
 - c) 1991 yil
 - d) 1998 yil
- 26. Turkiston xalq konservatoriyasining Samarqand shahridagi bo‘limi nechanchi yil tashkil etilgan ?**
- a) 1886 yil.
 - b) 1910 yil.
 - c) 1924 yil.
 - d) 1920 yil.
- 27. “So‘g‘diyona” orkestrining badiiy rahbari kim?**
- a) D.Abdurahmonova.
 - b) F.Abdurahimova
 - c) M.Akmaljonova.
 - d) D.Mutalov
- 28. N.Mironov T.Jalilov tashkil etgan orkestrdan necha kishini ajratib olib ularga nota orqali chalishni o‘rgatadi?**
- a) 12 kishi
 - b) 18 kishi
 - c) 21 kishi
 - d) 24 kishi
- 29. Qaysi cholg‘u zarblilar oilasiga kiradi?**
- a) doyra
 - b) dutor
 - c) qonun
 - d) g‘ijjak
- 30. Torli – chertma cholg‘u, bu -**
- a) rubob
 - b) dutor
 - c) nay
 - d) doyra

31. Torli-mizrobli cholgʻuni toping?

- a) afgʻon rubobi
- b) qoʻshnay
- c) gʻijjak
- d) nay

32. Oʻzbek xalq cholgʻulari kim tomonidan takomillash-tirilgan?

- a) S.Aliyev
- b) F.Sodiqov
- c) A.Petrosyans
- d) A.Liviyev

33. Qozogʻistonda xalq cholgʻulari orkestri nechanchi yili tashkil etilgan ?

- a) 1886 yil.
- b) 1910 yil.
- c) 1918 yil.
- d) 1934 yil.

34. N.Mironov nechanchi yili T.Jalilov tuzgan orkestrdan 24 kishini ajratib olib ularga nota orqali chalishni oʻrgatadi?

- a) 1875 yili
- b) 1898 yili
- c) 1921 yili
- d) 1937 yili

35. Oʻzbek xalq cholgʻulari kafedrasiga kim rahbarlik qilgan?

- a) I.Akbarov
- b) S.Didenko
- c) A.Petrosyans
- d) Kevxoyans

36. Oʻzbek xalq cholgʻulari fakulteti nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1894 yil
- b) 1949 yil
- c) 1996 yil
- d) 1936 yil

37. Toshkent radioeshittirish qo‘mitasi huzuridagi 12 kishilik xalq cholg‘ulari ansambli nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1916 yil
- b) 1924 yil
- c) 1927 yil
- d) 1956 yil

38. D.Zokirov orkestrining tashkil topishiga qaysi jamoa asos solgan?

- a) radio qoshidagi 12 kishilik ansambl
- b) 98 kishilik orkestr
- c) 24 kishilik orkestr
- d) maqom ansambli

39. Qaysi cholg‘u membranofon guruhiga kiradi?

- a) safoil
- b) doyra
- c) g‘ijjak
- d) nay

40. “So‘g‘diyona” davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri monografiyasining muallifi kim?

- a) A.Tashmatova
- b) R.Nigmatov
- c) A.Lutfullayev
- d) F.Shukurova

41. A.Petrosyans bilan birga yana qaysi usta cholg‘ularni takomillashtirish ishida faol ishtirok etgan?

- a) I.Akbarov
- b) S.Didenko
- c) B.Otayev
- d) B.Abduraxmonov

42. O‘zbekiston radiosi qoshidagi maqom ansambli nechanchi yil tashkil etilgan?

- a) 1927 yil
- b) 1957 yil
- c) 1959 yil
- d) 1970 yil

- 43. Qaysi cholgʻu damli guruxga kiradi?**
a) rubob
b) chang
c) dutor
d) nay
- 44. Qaysi cholgʻu kamonlilar guruhiga mansub?**
a) gʻijjak
b) dutor
c) doyra
d) chang
- 45. Chang qaysi cholgʻular guruhiga kiradi?**
a) damli
b) torli-urma
c) torli-kamonli
d) zarbli
- 46. Zarblilar oilasiga qaysi cholgʻu kiradi?**
a) doyra
b) dutor
c) qonun
d) gʻijjak
- 47. Torli-chertma cholgʻuni aniqlang?**
a) rubob
b) dutor
c) nay
d) doyra
- 48. Afgʻon rubobi qaysi cholgʻular guruhiga kiradi?**
a) zarbli
b) damli
c) mizrobli
d) kamonli
- 49. Cholgʻularni modernizatsiyalashtirishda nechta masalaga asosiy urgʻu berilgan?**
a) 5 ta
b) 3 ta
c) 8 ta

d) 2 ta

50. Katta dutor, katta tanbur va katta g'ijjaklarni qaysi usta yasagan?

- a) Sh.Shoumarov
- b) U.Zufarov
- c) X.Muxitdinov
- d) A.Abdug'ofurov

51. Qozog'istonda 1934 yili qanday orkestr tashkil etilgan?

- a) rus xalq cholg'ulari
- b) xalq cholg'ulari
- c) damli cholg'ular
- d) simfonik orkestr

52. G'ijjak alt cholg'usi qaysi oilaga kiradi?

- a) damlilar
- b) torli-urma
- c) torli-chertma
- d) torli-kamonlilar

53. Nay cholg'usi qaysi guruhga kiradi?

- a) torli-mizrobli
- b) damli
- c) zarbli
- d) torli-chertma

54. Rubob prima cholg'usi qaysi guruhga kiradi?

- a) zarbli
- b) damli
- c) torli-mizrobli
- d) torli-chertma

55. Dutor bas qaysi oilaga mansub cholg'u?

- a) torli-kamonli
- b) torli-mizrobli
- c) torli-urma
- d) torli-chertma

56. Cholg'ular nima sababdan modernizatsiyalashtirilgan?

- a) ko'p ovozli orkestr tuzish uchun
- b) milliy ansambl tuzish uchun

- c) yakka ijro uchun
- d) milliy asarlarni ijro etish uchun

57. O‘zbekistonda nota orqali ijro etadigan ko‘p ovoqli orkestr tuzilishiga kim asos solgan?

- a) N.N.Mironov
- b) T.Jaliliov
- c) Yu.Rajabiy
- d) D.Zokirov

58. T.Jalilov rahbarlik qilgan 98 kishilik unison orkestr (ansambl) nechanchi yili tashkil topgan?

- a) 1918 yil
- b) 1925 yil
- c) 1936 yil
- d) 1945 yil

59. T.Jalilov rahbarlik qilgan orkestr birinchi marta Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan dekadada nechanchi yil ishtirok etgan

- a) 1930 yil
- b) 1937 yil
- c) 1938 yil
- d) 1950 yil

60. Filarmoniya qoshidagi orkestr O‘zbekiston madaniyati va san’ati kunlari dekadasida Moskva shahrida ikkinchi marta nechanchi yil ishtirok etgan?

- a) 1945 yil
- b) 1948 yil
- c) 1957 yil
- d) 1965 yil

61. Xalq cholg‘ulari kafedrasi nechanchi yil tashkil topgan?

- a) 1936 yil
- b) 1941 yil
- c) 1948 yil
- d) 1951 yil

62. Xalq cholg‘ulari bo‘yicha birinchi konkurs nechanchi yil o‘tkazilgan?

- a) 1965 yil

- b) 1971 yil
 - c) 1973 yil
 - d) 1976 yil
- 63. 1952-yili xalq cholgʻulari fakultetini bitirgan birinchi qashqar rubobchi:**
- a) M.Mirzayev
 - b) F.Vasilyev
 - c) X.Nabiyev
 - d) S.Taxalov
- 64. 1952-yili xalq cholgʻulari kafedrasini bitirgan birinchi rubob primachi:**
- a) M.Mirzayev
 - b) V.Borisenko
 - c) X.Nabiyev
 - d) S.Taxalov
- 65. 1952-yili xalq cholgʻulari kafedrasini bitirgan birinchi changchi:**
- a) A.Odilov
 - b) A.Lutfullayev
 - c) B.Abduraxmonov
 - d) F.Shukurova
- 66. V.V.Andreyev qaysi rus xalq cholgʻularidan orkestr tuzgan?**
- a) domra, balalayka
 - b) bayan-akkordion
 - c) fleyta
 - d) litavra
- 67. Quyidagilardan kim xalq cholgʻulari orkestri dirijyori?**
- a) B.Abdurahmonov
 - b) D.Zokirov
 - c) A.Umarov
 - d) A.Odilov
- 68. Mashhur doyrachilardan kimlarni bilasiz?**
- a) usta Usmon Zufarov
 - b) usta Olim Komilov

- c) F.Xarratov
 - d) Sh.Shoumarov
- 69. Qaysi musiqa cholg‘usi ustasini bilasiz?**
- a) A.Lutfullayev
 - b) M.Toirov
 - c) X.Muxitdinov
 - d) M.Toshmuxamedov
- 70. Naychi ustozlardan kimni bilasiz?**
- a) F.Vasilyev
 - b) A.Dadamuxamedov
 - c) M.Toirov
 - d) M.Mirzayev
- 71. Afg‘on rubobchilardan qaysi ustozni taniysiz?**
- a) A.Odilov
 - b) A.Umarov
 - c) M.Toirov
 - d) G‘.Ergashev
- 72. Birinchi changchi ayol kim?**
- a) D.Abrorova
 - b) F.Shukurova
 - c) F.Abdurahimova
 - d) R.Xodjayeva
- 73. Birinchi ayol dirijyor kim?**
- a) M.Akmaljonova
 - b) D.Abrorova
 - c) X.Xolmatova
 - d) D.Abdurahmonova
- 74. Afg‘on rubobi darsligining muallifi kim?**
- a) R.Xodjayev
 - b) G‘.Ergashev
 - c) A.Umarov
 - d) M.Toshmuxamedov
- 75. Rubob-prima darsligining muallifi kim?**
- a) R.Nigmatov
 - b) G‘.Ergashev

- c) A.Umarov
- d) A.Dadamuhamedov

76. Doyra darsligining muallifi kim?

- a) I.Ikromov
- b) X.Xudaynazarov
- c) A.Umarov
- d) Q.Nazirov

77. Cholg‘ushunoslik kitobining muallifi kim?

- a) I.Akbarov
- b) A.Petrosyans
- c) B.Gienko
- d) F.Sodiqov

78. Xalq cholg‘ulari kafedrasining mudiri kim? (hozirgi kunda)

- a) M.Toshmuhamedov
- b) B.Mirpayozov
- c) A.Lutfullayev
- d) F.Sodiqov

79. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri monografiyasining muallifi kim?

- a) A.Tashmatova
- b) F.Shukurova
- c) F.Abdurahimova
- d) F.Sodiqov

80. “O‘zbekiston dirijyorlari” nomli kitob muallifi kim?

- a) A.Lutfullyaev
- b) F.Shukurova
- c) G.Kuznetsova
- d) K.Azimov

81. Quyidagilardan qaysi biri zarb (shtrix) ga kiradi?

- a) stakkato
- b) jumla
- c) ohang
- d) diez

82. Bir-biriga ulab ijro etiladigan notalarga qo'yiladigan belgi?

- a) tremolo
- b) legato
- c) pitsikato
- d) bemol

83. Alteratsiya belgisiga nima kiradi?

- a) stakkato
- b) do
- c) jumla
- d) bemol

84. Qaysi cholg'u dutorga turdosh hisoblanadi?

- a) chang
- b) nay
- c) qomuz
- d) sibizg'i

85. Applikatura nima?

- a) musiqiy cholg'u
- b) sur'at
- c) barmoqlarning dastada to'g'ri joylashishi va almashish tartibi
- d) alteratsiya belgilari

86. Dinamikaga nima kiradi?

- a) cholg'u
- b) ff
- c) sur'at
- d) zarb

87. Sur'at asarning nimasini bildiradi?

- a) dinamikasini
- b) zarblarini
- c) tezligini
- d) xarakterini

88. Doyraga turdosh cholg'u?

- a) nay
- b) daf

- c) kemancha
- d) yochin

89. G'ijakka turdosh cholg'u?

- a) nay
- b) daf
- c) kemancha
- d) yochin

90. Changga turdosh cholg'u?

- a) nay
- b) yochin
- c) kemancha
- d) daf

91. Surnayga turdosh cholg'u?

- a) nay
- b) daf
- c) kemancha
- d) zurna

92. Nayga turdosh cholg'u?

- a) di
- b) daf
- c) kemancha
- d) rebab

93. Nog'oraga turdosh cholg'u?

- a) nay
- b) tabla
- c) kemancha
- d) zurna

94. Dutorga turdosh cholg'u?

- a) balalayka
- b) domra
- c) simbal
- d) litavra

95. Rubob primaga turdosh cholg'u?

- a) balalayka prima
- b) domra prima

- c) simbal
- d) litavra

96. Afg'on rubobiga turdosh cholg'u?

- a) tutek
- b) daf
- c) kemancha
- d) kashmir rubobi

97. Qonun cholg'usiga turdosh cholg'u?

- a) koto
- b) balalayka
- c) domra
- d) duduk

98. Qobuz cholg'usiga turdosh cholg'u?

- a) sibizg'i
- b) qiyoq
- c) qomuz
- d) duduk

99. Ud cholg'usiga turdosh cholg'u?

- a) yochin
- b) morinxur
- c) pipa
- d) bandjo

100. rubob primaga turdosh cholg'u?

- a) xur
- b) biva
- c) gong
- d) bandjo

Foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1997.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида. - Тошкент, Ўзбекистон” 1994.
3. Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т., “Ma’naviyat”, 2008;
4. Абдурахимова Ф. Маданиятларнинг жонли мулоқоти // Teatr, 2004, №4.
5. Abdurahimova Ф. Orkestr sinfi. Toshkent, “G‘.G‘ulom” nashriyoti, 2012.
6. Abdurahimova Ф. Orkestr sinfi. Toshkent, “Musiqqa” nashriyoti, 2015.
7. Азимов К. Ўзбекистон дирижёрлари. Тошкент, “MAGIKA” MCHJ, 2001.
8. Акмалжонова М. Дутор оркестри. “F.Фулом” нашриёти, Тошкент, 2004.
9. Алимов Ф. Ўзбек халқ чолғу оркестри. Тошкент, “Муסיқа”, 2004.
10. Аҳмедов. М. Дони Зокиров. Тошкент, Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1995.
11. Вызго Т, Абдурахимова Ф. Оркестр народных инструментов в Средней Азии и Казахстане на современном этапе: проблемы и перспективы // Роль оркестров народных инструментов в межэтнической общении. Москва, 1999.
12. Габитова А. История в контексте современной музыки на примере “Мозийдан садо” А.Мансурова // Ўзбекистон санъати: анализ ва ижодий изланишлар. Ташкент, 2007.
13. Гафурбеков Т, Абдурахимова Ф. Восток – Запад. Музыкальный диалог // Общественное мнение. Права человека. Ташкент, 2000, №4.
14. Жабборов А. Ўзбекистон бастакорлари ва муסיқашунослари. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2004.

15. Имханицкий М. История исполнительства на русских народных инструментах. М., 2002.
16. Liviyeв A. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. Toshkent, “ARNAPRINT” MCHJ, 2005.
17. Ливиев А. Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан (устная и письменная традиции). Ташкент, ООО «Ofset Print», 2010.
18. Лутфуллаев А. Ижрочилик санъати тарихи. Т., 2006.
19. Лутфуллаев А. Исполнительское искусство на узбекских народных инструментах в годы независимости // Процессы реформирования системы музыкального образования. Ташкент, 2009.
20. Лутфуллаев А. История исполнительства на узбекских народных инструментах. Ташкент, 2010.
21. Lutfullayev A. Xalq cholg‘ularida ijrochilik: tarix va zamonaviylik. Monografiya. «Musiq», 2017.
22. Мамаджанова Э. Творчество композиторов Узбекистана для Государственного камерного оркестра народных инструментов «Согдиана» // Вопросы музыкального исполнительства. Выпуск VI, Ташкент, 2009.
23. Матёкубов О, Болтаев Р, Аминов Х. “Хоразм танбур чизиғи” “Musiq” nashriyoti. Т., 2010.
24. Международный форум–фестиваль Великий шёлковый путь: вчера, сегодня, завтра. Ташкент, 2006.
25. Одилов А. Ўзбек халқ чолғулариди ижрочилик тарихи. Т., 1995.
26. Собирова С, Абдурахимова Ф. Ашот Петросянц. Ургенч, 1994.
27. SO‘G‘DIYONA: Ijod tilsimi. Toshkent, NISHON-NOSHIR, 2013.
28. Salixov B., Matyoqubov B. “O‘zbekistonda damli va zarbli cholg‘ular ijrochiligi tarixi”. Т., “Musiq”, 2007.
29. Tashmatova A. Musiqiy cholg‘ular muzeyi Katalogi. Т., 2006.
30. Tashmatova A. Buxoroi-Sharif (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Т., 2007.

31. Ташматова А. Новые тенденции в музыке для оркестров узбекских народных инструментов // Музыкальный и духовный мир современной молодёжи. Ежегодник. Т., 2008.
32. Ташматова А. Об идентичности узбекских и японских музыкальных инструментов // Узбекистан и Япония: диалог культур. Ташкент, 2013.
33. Ташматова А. О музыкальной композиции «Диалесса» М.Атаджанова // Сборник материалов Республиканской конференции на тему «Развитие музыкального искусства в условиях независимости». Ташкент, 2011.
34. Ташматова А. Оркестр керакми? Албатта! // Мулоқот. Тошкент, 2000, №6.
35. Ташматова А. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных (реконструированных) инструментах в Узбекистане. Автореферат канд. дисс. Ташкент, 1998.
36. Ташматова А. Сўғдиёна оркестри // Гулистон. 1998, № 1.
37. Ташматова А. “So‘g‘diyona” o‘zbek davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri // San‘at, 2001, № 4.
38. Ташматова А. Ташкент в сочинениях для оркестра народных инструментов // Художественный творческий процесс в XX-XXI веках. Т., 2010.
39. Ташматова А. Устоз с дирижерской палочкой // Правда Востока, 1998, 12 октября.
40. Tashmatova A. “Navro‘z” xalq cholg‘ulari kamer orkestri taqdimoti // San‘at № 1, 2014.
41. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri. Т., 2015.
42. Tashmatova A. “So‘g‘diyona” davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. Т., 2016.
43. Tashmatova A. Ijrochilik san‘ati tarixi. (O‘quv qo‘llanma) Т., 2017.
44. Toshmatov E. Dirijorlik. Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Т., 2008.
45. Умаров Ш. Дирижёрлик. Тошкент, “Муסיқа”, 2011.

46. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.
47. Hamidov H. “Markaziy Osiyo xalqlarining ilk o‘rta asrlar san’ati tarixidan”. T., “Yozuvchi”, 1995.
48. “Sharq taronalari”, Maqolalar to‘plami, Toshkent., 2007.
49. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. T., 2007.
50. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. T., “Fan”, 2007.
51. Xodjaev R. Ayol qalbi navolari. T., 2005

**6-semestrda ozlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun
berilgan test savollarining**

JAVOBLARI

№ Javob	№ Javob	№ Javob	№ Javob
1. c	26. d	51. b	76. a
2. d	27. b	52. d	77. b
3. b	28. d	53. b	78. c
4. c	29. a	54. c	79. a
5. d	30. b	55. d	80. d
6. a	31. a	56. a	81. a
7. c	32. c	57. a	82. b
8. d	33. d	58. c	83. d
9. b	34. d	59. b	84. c
10. c	35. c	60. c	85. c
11. a	36. b	61. c	86. b
12. c	37. c	62. b	87. c
13. d	38. a	63. b	88. b
14. c	39. b	64. b	89. c
15. a	40. a	65. a	90. b
16. b	41. b	66. a	91. d
17. a	42. c	67. b	92. a
18. c	43. d	68. b	93. b
19. d	44. a	69. c	94. b
20. d	45. b	70. c	95. b
21. c	46. a	71. d	96. d
22. b	47. b	72. b	97. a
23. a	48. c	73. d	98. b
24. c	49. a	74. b	99. c
25. c	50. b	75. d	100. d

GLOSSARIY

Aerofonlar (yun. aer – havo, phone - tovush) – havo to‘lqini tebranishi natijasida tovush hosil bo‘ladigan cholg‘ularning turi.

Akkord (ital. accord, frans. Accord. lot. Accord - birdamlik) - uch va undan ortiq tovushlarning bir vaqtda yangrashi.

Bastakor (fors-tojik. Basta-bog‘lov, kor-ish)-kuy bastalovchi.

Balet (fr. ballet, lot. ballo – raqsga tushaman, o‘ynayman) – sintetik san‘at turlaridan, sahnada ko‘rsatiladigan badiiy asar, musiqa va xoreografiya obrazlari bilan birga ifoda etiladi.

Gemiidifon – tilchali musiqa cholg‘ulari.

Diapazon (yun. diapason - hamma torlardan o‘tib) - ovozda, cholg‘uda, musiqa asarida tovush ko‘lami chegaralari (eng pastki va eng yuqori tovushlar oralig‘i).

Dinamika (yun. Dinamis-kuch) - tovushlarning kuchli-kuchsiz ijrosi. Italyan atamalari bilan belgilanadi: piano (p) - sekin, kuchsiz, forte (f) - qattiq, kuchli, kreshendo (<) - asta-sekin kuchaytirib, diminuendo (>) - asta-sekin pasaytirib.

Dirijyor (frans. Diriger - yolga solish, boshqarish) - orkestr, xor, ansambl va boshqalarga musiqachi-rahbar. Musiqa asarlarini ijro etishda, asosan, maxsus qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib boshqaradi. Dirijyorlik ishoralari (misolda ikki, uch, to‘rt, olti hissali va xakozo):

Janr (frans. genre, lot. genus - tur, xil, urug‘) - musiqiy asarlar turlarini ifodalovchi ko‘p ma‘noli tushuncha. Masalan: musiqali drama, opera, balet, simfoniya, fantaziya, raqs va boshqalar.

Idiofonlar (yun. Idios - o‘ziga xos, phone - tovush) – jismi sadolanuvchi musiqa cholg‘ulari.

Improvizatsiya, badiha (lot. Improvises - to‘satdan, kutilmagan, tasodifiy) - ijro etish paytining o‘zida musiqa to‘qish. Musiqa ijrochiligi va musiqa bastalashning eng qadimgi turi bo‘lib, nota yaralishidan oldin, og‘zaki ijodkorlikda, hozirgi zamon jaz san‘atida muhim o‘ringa ega.

Kadenziya (ital. *cadenza*, lot. *cado* - tushmoq, tugallanmoq) vokal yoki cholgʻu asarida virtuoqlik, yuqori mahorat bilan yakka tarzda ijro etilgan parcha.

Koda (ital. *coda*, lot. *cauda* - dum) - musiqa asarining tonaligi va mazmun-gʻoyasini tasdiqlovchi qoʻshimcha xotima qismi.

Kompozitor (lot. *Compositor* - tuzuvchi, ijod etuvchi) musiqiy asar muallifi, yaratuvchi ijodkor.

Konsert (lot. *Concerto* - musobaqalashaman) - 1. Oldindan eʼlon qilingan dastur asosida musiqa asarlarining omma uchun ijro etilishi. 2. Musiqiy janr, asar.

Membranofonlar – ovoz tarovati teridan hosil boʻladigan musiqa cholgʻulari.

Menzura (lot. *Mensura* - oʻlchov) – musiqa cholgʻularida ovoz yuksakligining olchovi: torning uzuznligini belgilovchi ulchov birligi, yani asosiy xarrakdan shayton xarrakgacha boʻlgan masofa.

Modernizatsiyalashtirish – milliy musiqiy cholgʻularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish.

Monodiya (yun. *Monos* - bir, *ode* - qoʻshiq) - bir ovozlik zaminida boʻlgan musiqa sanʼati.

Opera (ital. *opera* – ijod, asar) – musiqali dramatic asar. Operada nutqning maʼlum bir qismi yoki deyarli hammasi kuylanadi. Unda musiqa sanʼatining bir necha turi boʻlishi mumkin. Boshlanishidagi *uvertyura* (muqaddima)si, pardalar oraligʻida chalinadigan *antratlardan* tashqari, ariya, arioz, duet, terzet, kvartet, xor, rechitativlarni oʻz ichiga oladi.

Partitura (ital. *partitura* - ajratish, taqsimlash) - koʻpovozli musiqa asarining (orkestr, xor, ansambl uchun) nota yozuvi.

Pentatonika (yun. *pente* - besh, *tonus* - ton) - oktava oraligʻida uchta butun ton va bitta yarim tonlardan iborat boʻlgan besh pogʻonali tovushlar tizimi.

Poema (yun. *poiema* – ijod qilaman) – 1. Uncha katta boʻlmagan lirik yoki hikoyaviy lirik xarakterdagi cholgʻu musiqa asari, pyesa. 2. Bir qismli, orkestr yoki orkestr joʻrligida yakkanavoz yoki yakkaxon uchun yaratilgan yirik musiqa asari.

Tembr (frans. timbre) - tovush sifati, tusi, bo'yog'i. Tovush, ovoz tembrlar farqi - ular bilan birga sodir bo'ladigan oberton (qo'shimcha tovushlar) miqdori, sifati va tovush hosil bo'ladigan joyi (formantalari)ga bog'liq bo'ladi.-q. Obertonlar.

Temp, sur'at (ital. tempo, lot. tempus -vaqt) - musiqiy asar ijrosining tezlik darajasi. Nota yozuvida 17 - a. dan boshlab italyanacha atamalar qabul qilingan. Asosiy sur'atlar, tezlanish tartibida: grave, largo, adajio, lento (sekin sur'atlar); andante, moderato (o'rtacha sur'atlar); animato, allegro, vivo, presto (tez sur'atlar). Sur'atni aniq o'lchash uchun metronom uskunasi ishlatiladi.

Transpozitsiya (lot. transposition - joyini o'zgartirmoq) - tovushlarni (musiqa asarini) boshqa balandlikka (tonallikka) ko'chirish.

Uvertyura (fr. ouverture – boshlash, muqaddima) – 1. Opera, balet, oratoriya, drama, kinofilm va boshqalarning boshlanishi oldidan ijro etiluvchi cholg'u asari bo'lib, orkestr uchun yoziladi. 2. Sonata shaklida orkestr uchun yozilgan musiqa asari. Sahna asarlari uchun yozilgan bolib, u ko'proq shu asarning qisqacha mazmunini yoritib beradi. Undagi musiqa mavzulari ko'proq shu yozilgan asardan olinadi.

Unison (ital. unison, lot. unus - bir, sonus - tovush) umumiy bir ovozlik. Musiqada barcha ijrochilar tomonidan bir xil kuyning baravar yangrashi. Oktavali unison ham mavjud - har xil oktavalarda bir xil nota matnining baravar yangrashi, ijro etilishi.

Folklor (ingl. Folk - xalq, lore - bilim, donolik) xalq ijodiyotini ifodalovchi atama.

Xordofon (yun. choree – tor, pfone - tovush) – sado beruvchi tor. Torli cholg'ular.

Xromatik tovushqator – faqat yarim tonlardan tuzilgan tovushqator.

MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
1 - dars: Qadimgi davr musiqa madaniyati cholg'ulari.....	8
2 - dars: Ilk o'rta asrlardan to XIX asr o'rtalariga qadar musiqa amaliyotida qo'llangan cholgular tasnifi.....	21
3 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	34
4 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	36
5 - dars: Sharq olimlarining risolalarida musiqani jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.....	37
6 - dars: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida cholg'u musiqasining tutgan o'rni.....	50
7 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	63
8 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	64
9 - dars: XX asrning 20-30-yillarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik.....	65
10 - dars: O'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirishning g'oyaviy asoslari.....	78
11 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	92
12 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	93
13 - dars: Petrosyans rahbarligida xalq cholg'ularini tizimli ravishda modernizatsiyalashtirish.....	94
14 - dars: O'zbek xalq cholg'ularida professional ta'limning yuzaga kelishi.....	109
15 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	123
16 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	124
17 - dars: Xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining ikki asosiy yo'nalishda rivojlanishi.....	126
18 - dars: O'zbekistonda xalq cholg'ulari orkestri – ijrochilikning yangi shakli.....	140
19 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	150
20 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	151
21 - dars: T.Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri faoliyati.....	152

22 - dars: T.Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg'ulari orkestrining gastrol safarlari.....	170
23 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	185
24 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	185
25 - dars: Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestrining shakllanish shart-sharoitlari.....	186
26 - dars: Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestrining yangi izlanishlar davri.....	199
27 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	211
28 - dars: O'tilgan mavzular moduli bo'yicha seminar.....	213
29 - dars: 1960-1990-yillarda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati.....	214
30 - dars: Mustaqillik yillarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati.....	227
31 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	242
32 - dars: O'tilgan mavzu moduli bo'yicha seminar.....	243
33 - dars: "So'g'diyona" davlat xalq cholg'ulari kamer orkestrining ijodiy faoliyati.....	244
34 - dars: "So'g'diyona" orkestrining gastrol safarlari va turli jamoalar bilan ijodiy hamkorlik rishtalari.....	259
35 -dars: O'tilgan mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	274
36 - dars: O'tilgan mavzular bo'yicha seminar.....	275
Test savollari.....	277
Foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar.....	293
6-semestrda ozlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan test savollarining JAVOBLARI	297
Glossariy	298

TASHMATOVA AZATGUL RAXIMOVNA

IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI

*Musiqa oliy ta'lim muassasalari uchun
darslik*

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent, 2017

Muharrir *A.Xudayberdiyev*
Musahhah *N.Ismoilova*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12-noyabr.

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 1.

Bosishga ruxsat etildi 11.12.2017. Bichimi 60 x 84 1/8.
Times New Roman garniturasida. Shartli b.t. 19,0 b.t. Adadi 350 nusxa.

«Complex Print» MChJda chop etildi. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 24.
tel. 244-40-89, e-mail: complex.print@mail.ru
Лицензия № 10-3606 от 10.02.2016 г.